

AVLIYAKULOV N.H., AXMETJANOV M.M., TOJIYEV M., MUSAYEVA .N.N.



T A ` L I M T E X N O L O G I Y A L A R I

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY VA O`RTA MAXSUS, KASB-HUNAR
TA`LIMINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Avliyakov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N.

TA`LIM TEXNOLOGIYALARI

5111000 – Kasb ta`limi (5321600 – Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari)
bakalavriat ta`lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2019 yil 9
fevraldagi 133 – sonli buyrug`ining 4-ilovasiga muvofiq darslik sifatida nashr etishga
ruhsat berilgan.

Toshkent - 2018

UO`K: 371.3 (075)

КБК 74.00я73

Ta`lim texnologiyalari. Avliyakov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. - 341 bet. ISBN: 978-9943-11-404-3

Taqrizchilar:

Q. T. Olimov – BuxMTIning o'quv ishlari bo'yicha prorektori, p.f.d., prof.

B.R. Adizov – Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Annotatsiya

Ushbu darslikda mualliflar ta'lim texnologiyalari kursining asosiy tushunchalari, uning qonuniyatlari va ta'lim jarayoni, o'qituvchi va talaba shaxsi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari, ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari, tashkiliy shakllari, o'qitish vositalari va ularning qo'llanishi, talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasiga tavsif berganlar.

Darslik oliy o'quv yurti talabalari va professor - o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Annotatsiya

В данном учебнике авторы охарактеризовали основные понятия технологии обучения, её основные закономерности и процесс обучения, технологии оптимизации деятельности учителя и личности студента, принципы выбора содержания обучения, организационные формы обучения, средства обучения и их применение, использование инновационных технологий в организации обучения, технологию использования средств обучения.

Учебник предназначен для студентов и профессоров – преподавателей высших учебных заведений.

Annotation

In this manual the author depicts the vocational pedagogical basic concepts, their regulations and educational process, the technologies of harmonizing the teacher and student identity activities; the principles of selecting the educational content, the usage of the innovative technologies in establishing vocational education; the procedure of the converting of knowledge into practice and skills; the usage of technologies of educational aids during the learning process, development of common work situations, acquiring vocational skills, and gaining practices; to create the new pedagogical technologies to train the teachers.

The textbook is intended for professors and teachers of the higher educational institution.

© Avliyakov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N., 2018

© «Fan va texnologiya», 2018

KIRISH

XXI asr boshlanishida insoniyat misli ko‘rilmagan ilmiy - texnikaviy mo‘jizalar guvohi bo‘lmoqda. Mo‘jizalar darajasida sodir bo‘ladigan ilmiy - texnikaviy yutuqlar uchun shubxasiz, o‘tmishdagi fan, texnika va texnologiyaning natijalari zamin yaratdi.

XX asrda, ayniqsa, ikkinchi yarmida fan taraqqiyotining sur‘ati, o‘zining eng yuqori cho‘qisiga ko‘tarildi. Bu asrda insoniyatning to‘plagan ilmiy ma‘lumotlari, butun tarixi davomida to‘plagan bilimlar hajmining yetmish besh foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Davrning olamshumul yutug‘i kosmos va yadro energiyasining o‘zlashtirilishidir.

Respublikamiz Prezidenti Sh Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan **innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz**. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.¹

Fan, texnika va texnologiyaning ushbu samarali taraqqiyoti keng ilmiy qamrovli ishlab chiqarish jarayonlarining vujudga kelishi va uzluksiz rivojlanishi, chiqariladigan mahsulotlar sifatini tubdan yaxshilanishi va hajmini oshishiga olib keldi. Tabiiyki ishlab chiqarish usullarining o‘zgarishi, ta‘lim sohasidagi tegishli o‘zgarishlarni taqozo etadi. Natijada, jamiyatning rivojiga mos ta‘lim tizimi shakllanadi.

XXI asrda ommaviy ishlab chiqarishning vujudga kelishi, ko‘plab darsliklarni chop etishga ehtiyoj tug‘dirdi va shuning asosida oliy, o‘rta maxsus va umumiy o‘rta ta‘lim tizimlarining shakllanishiga imkoniyat yaratdi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yaratilgan zamonaviy elektron hisoblash mashinalari va telekommunikatsion tizimlar samarali o‘rgatuvchi texnik vositalar vazifasini bajaruvchi bu vositalar bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylandi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

Shu bilan bir qatorda, ilmiy-texnik taraqqiyotining hozirgi bosqichi, o'ziga xos, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimining tashkil etishiga olib keldi.

Shunday qilib, zamonaviy jamiyat va oliy ta'lim tizimining kengayishi natijasida ta'lim ommaviyligining o'sishi bilan tavsiflanadi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilmiy-texnik axborotlarning jadal o'sishiga va yangilanishiga olib keldi. Ayni paytda, dunyoda har yili yuz minglab kitoblar, jurnallar chop etiladi, yuz minglab dissertatsiyalar himoya qilinadi. Internet global tarmog'idagi axborotlar oqimini amalda o'lchab bo'lmaydi. Ommaviy kasbiy ta'limning bunday sharoitda, zamonaviy talablarga mos mutaxassislarni tayyorlash murakablashishini tassavur qilish qiyn emas.

“Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo'ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz” – deb, ta'kidlagan edi Respublikamizning Prezidenti Sh Mirziyoyev.²

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi davrida paydo bo'lgan «Ta'lim texnologiyalari» o'quv fani mazkur muammoni yechishga yordam beradi. Talabalarga pedagogik texnologiyalar va kasb mahoratini shakllantirish, uni amalda qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishini nazarda tutadi. Pedagogik texnologiyalarni loyihalash, malakasini hosil qilish, bo'lajak kasbegalarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asoslari to'g'risidagi mavjud bilimlar tizimi bilan qurollantirish, o'qitishning hamkorlik modeli, inter faol metodlari va turli darajali o'qitish texnologiyalari bo'yicha malakalarni hosil qilish uning asosiy vazifalaridandir.

² Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2017, - 416 b.

I - MODUL. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING NAZARIY - METODOLOGIK ASOSLARI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: ta`lim texnologiyalari fanining tarkibiy tuzilishi, asosiy tarmoqlari, fanlar tizimidagi o`rni va boshqa fanlar bilan bog`liqligiga oid nazariy bilim berish, fanga oid dastlabki ko`nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O`QUV MAQSADLARI:

- **ta`limiy maqsad:** talabalarga ta`lim texnologiyalari fani va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o`zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o`ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

1.1 Pedagogik texnologiyaning shakllanish sharoitlari



O`quv maqsadi

**Pedagogik texnologiyaning shakllanish sharoitlari
haqida nazariy bilimlar berish**

*Kishida bo`lmasa agar ist`edod,
Ming hiyla qil ta`lim kor qilmas aslo.
Gumon qilma, buzoq xudo bo`lmaydi
Butparast oltin-la bersa ham oro.*

Muniddin Juvayniy

1. Pedagogik texnologiyaning mustaqil fan sifatda shakllanishi.

Pedagogik texnologiya atamasi va bu sohadagi ilk ishlanmalar AQSHda XX asrning

50-yillarida paydo bo'ldi. 15-20 yildan so'ng pedagogik texnologiya barcha rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasini qamrab oldi. So'nggi yillarda pedagogik texnologiyadan foydalanish doirasi uzluksiz kengayib bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning ilk paydo bo'lish davri ilmiy-texnik taraqqiyotning (ITT) jadallashuvi bilan belgilanadi. Mazkur davrdagi fanning natijalari kashfiyotlar oqimlari bo'lib, ular asosida texnika va texnologiyalarning yangi avlodlari yaratildi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar o'zining o'ta murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajrala boshladi. Ishlab chiqarish usuli va shart-sharoiti uzluksiz jadal sur'atda o'zgarib ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yildi.

Ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvi va ta'lim tizimiga qo'yadigan talablari quyidagicha:

Birinchiidan - fanning o'sib borayotgan o'rni bilan, XX asrning ikkinchi yarmida, fanning taraqqiyoti eng yuqori darajada ko'tarildi.

Har 10-15 yilda fan faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ikki marotaba oshib bordi. Shuning uchun, fanning taraqqiyot qonuni eksponenta qonuniga bo'ysunadi deb faraz qilinadi. Hozirgi zamonda fan taraqqiyotining yuqori sur'atlari, aqliy mehnatni avtomatlashtirish orqali saqlab turilmoqda.

Fan taraqqiyoti, bu oliy ma'lumotli mutaxassislarning faoliyati doirasiga kiradi. Shuning uchun, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlovchi tizim - zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o'quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Ikkinchiidan - zamonaviy fanlarning ko'chkisimon rivoji ikki, uch fan tuzilmasi va undan ortiq ma'lum fanlar tutashuvlarida yangi biofizika, biokimyoy, informatika, fizik - kimyoviy mexanika va ko'pgina boshqa fanlarning rivojlanishi orqali fan "daraxti" paydo bo'ladi.

Ma'lum fanlar tutashuvlarida paydo bo'lgan yangi fan - yangi ilmiy yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o'z ichiga oladi. Bu ilmiy masalalar yechimi oliy ta'lim muassasasining iqtidorli va yuqori malakali bitiruvchilarning zimmasiga kirib, ular tomonidan yechilishi lozim.

Shuning uchun, kadrlar tayyorlovchi tizimida talabalarning mukammal va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini o'stirish, shuningdek mustaqil malakalar rivojlantirilishi lozim.

Uchinchidan - fanining ko'chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o'suvchi ilmiy-texnikaviy axborotni o'z vaqtida o'zlashtirish uchun uning uzatish va qayta ishlash tezligini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Bu ishning zamirida kompyuter texnikasi yotadi. Ushbu zamonaviy axborot tizimlaridan samarali foydalanish, asosan individual tarzda ishlash orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy o'qitish tizimining asosiy o'zagi – o'qitishni individuallashtirish deb hisoblash mumkin. Shuning uchun, o'qitishni individuallashtirish, mustaqil ta'lim, masofaviy o'qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

To'rtinchidan - muhandislik yechimlar turining keskin ko'payishi ilmiy-texnik taraqqiyotning xususiyati hisoblanadi.

Materiallar, texnologik jarayonlar, mashinalar konstruksiyalarining zudlik bilan almashinuvi sodir bo'ladi. Boshqaruv tizimining avtomatlashuv darajasi oshadi va ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishda qo'llash muddatlari qisqaradi. Masalan, telefon aloqasi kashfiyoti bilan undan foydalanish orasidagi masofa 56 yil bo'lsa, radioga - 35, televizorga-14, atom energiyasiga-6, tranzistorga esa, 5 yil bo'ldi. Hozirgi paytda bu muddat, odatda 1 yilga ham yetmaydi.

Shunday qilib, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlovchi tizim, ularda ishlab-chiqarish, texnika, texnologiyaning uzluksiz o'zgarib turuvchi sharoitiga zudlik bilan moslashuvchanlikni shakllantirishga yo'naltirilish zarur. Ular bilimlar

harakatlanuvchanligi, tanqidiy fikrlash, ijod va kasbiy faoliyatida epchillik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Beshinchidan - ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni oliy muassasada tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, o'qitishda inson organizmi, uning ongi va butun imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur bo'ladi.

Ya'ni, ko'rsatmali o'qitish metodlardan foydalanishni jadallashtirish lozimdir. Bu esa, o'qitish jarayonida axborotlar uzatishda, o'quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o'qitishni kompyuterlash, o'quv televideniya bilan foydalanish va h.k.ni anglatadi.

Oltinchidan - har bir inson tabiatan faqat o'ziga xos o'qish va o'rganishdagi zehni, qobiliyatiga ega bo'ladi.

Demak, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi talabaning individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo'lishi kerak.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumdorligi, ular puxtaligining ko'p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablar qo'yimoqda.

Ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida oldingi davrda ishlab chiqariladigan mahsulot yuqori sifati va puxtaligi bilan ajralib turmas edi. Shuning uchun, mahsulotlar uchun kafolatli ta'mir muddatlari o'rnatilgan bo'lib, kafolatli ta'mir esa, ishlab chiqarish korxonalarida hisobidan bajarilar edi. Mazkur sharoitlarda an'anaviy o'qitish tizimi, ishlab chiqarish talabiga javob berar edi. Ishlab chiqarish sharoitining o'zgarishi bilan an'anaviy o'qitish asosida tayyorlangan mutaxassislar malakasi qo'yiladigan talablarga javob bera olmay qo'ydi.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;

B) o'qitishni individuallashtirish;

g) uzluksiz bilim olish qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni, ijod bilan ishlashni, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga moslashuvchanlikni shakllantirish.

O'qitishning ommaviyligi o'sib kelayotgan ko'pchilik kadrlarni tayyorlash, sifat darajasini ishlab chiqariladigan mahsulot sifatining o'sish sur'atidan, ya'ni ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvidan ancha orqada qola boshladi.

Bu holat, bir tomondan pedagogik texnologiyaning sodir bo'lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi. Shu sababli, ilmiy texnik taraqqiyot tezlashuviga ikki, uch va undan ortiq fanlar tutashuvida paydo bo'ladigan yangi fanlarning ta'sirini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Pedagogik texnologiya ham ikkita fan – «pedagogika» va «texnologiya»lar tutashuvlarida paydo bo'lgan yangi fanlardan biridir. Pedagogik texnologiya ilmiy texnika taraqqiyoti jadallashuvi talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari tegishli davr talablari asosida ham paydo bo'ldi.

«Pedagogika» bu o'tmish va tajribali avloddan hayot uchun zaruriy bo'lgan ijtimoiy tajribalarni yosh avlodga berish va uning yosh avlod tomonidan faol o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadigan fandır.

Jamiyat taraqqiyoti, har qaysi yangi avlod o'zining o'tmish avlodidan qolgan merosni egallab, uni boyitib, keyingi avlodga qoldirish orqali ta'minlanadi. «Pedagogika» atamasi qadimgi Yunoniston (Gresiya)da paydo bo'ldi, uning negizini «pedagog» so'zi tashkil etadi. Qadimgi Yunonistonda o'quvchini ta'lim muassasasiga

kuzatib boruvchi, unga xizmat qiluvchi qulni pedagog (Yunoncha «pays» - bola, «agogoeyn» - yetaklovchi) deb ataganlar. Ya'ni pedagog so'zi «bola yetaklovchi» ma'nosini anglatadi.

Ta'lim muassasasida mashg'ulotlarni o'qituvchilar – «didiska»lar o'tar edi («didasko» - men o'qitaman, keyinroq «didaktika» - o'qitish nazariyasi paydo bo'ldi). Mazkur fanning bu sohasi falsafa fani negizida amalga oshirilar edi.

XVIII asrning boshlarida ingliz faylasufi va tabiatshunos olimi Frensis Bekon (1561-1626 yy.) tomonidan pedagogika falsafadan chiqarib olingan edi. U 1623 yili «Afzalliklar va fanlarning ko'payishi haqida» nomli chop etilgan asarida, pedagogikani bilimning alohida sohasi sifatida «O'qishga qo'llanma» haqidagi fan deb atadi. Ushbu asrda pedagogikaning mustaqil fan sifatidagi maqomi, mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670 yy.) asarlari va obro'yi tufayli mustahkamlandi. U o'zining mashhur «Buyuk didaktika» asarida, o'quv ishining nazariyasi va uni tashkil etishining asosiy masalalarini ishlab chiqdi.

Pedagogikaning predmeti - bu o'rganish, ta'lim, tarbiya sharoitida inson shaxsining rivojlanish va shakllanishiga yo'naltirilgan jarayoni deb hisoblanadi.

Shunday qilib, pedagogika, inson shaxsining rivoji va shakllanish mohiyatini o'rganish haqidagi fan sifatda namoyon bo'ladi. Shu asosda o'qitish va tarbiya nazariyasi va uslubiyoti maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida belgilanadi. Pedagogika fan sifatida, ommaviy o'qitishni tashkil etishni talab etadigan, kengaytirilgan ishlab chiqarish yo'lga qo'yilayotgan davrda paydo bo'ldi.

«Texnologiya» esa, materiallar, yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır.


«Texnologiya» atamasi ham qadimgi Yunonistonda paydo bo'ldi va u, ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish – dan iborat. Ushbu davrda, bu hunarmandning maxsulotni tayyorlash san'atiga, ustoz rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatar edi.

Hunar o'rganish individual tarzda amalga oshirilar edi. Ko'pgina hollarda, kasb-hunar sir-sanoatlari, faqat avloddan avlodga, oilaviy qarindosh urug'larga o'rgatilar edi. Avloddagi uzilishlar, ma'lum bir kasb sir-sanoatlarini yo'qolishiga olib kelgan

hollar ham mavjud. Misol tariqasida, qadim Sharqdagi masjid - madrasalarning tashqi va ichki devorlari, gumbazlaridagi naqshlar tabiiy bo'yoqlarining tayyorlanish sirlari yo'qolib ketganini keltirish mumkin. Bu bo'yoqlar hanuzgacha odamlarni o'zining tabiiyligi, chiroyi, ranglarining jilosi, betakrorligi, o'zidan nur sochib turishi, uzoqqa chidamliligi bilan maftun etib kelmoqda.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishining paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi sabab bo'ldi.

Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarish faqat texnologik jarayon asosida aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar yordamida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi.



1.1-rasm. Pedagogika fanining shakllanish va rivojlanish bosqichlarining blok-sxemasi.

«Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvining beqiyos va yuqori talablariga javob beradigan pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi ham shu qonuniyatga bo'ysunadi.

Jamiyat va ta'limning rivoji – bu ikkisi chambarchas bog'liq, yagona tizim bo'lib, uni «jamiyat-ta'lim» tizimi sifatida tasvirlash mumkin. Bu tizim ishlab chiqarish usuli, o'qitish vositalari va o'qitish tizimi omillari bilan belgilanadi

XX asrning ikkinchi yarmida «Pedagogik texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishi va uning asosiy rivojlanish bosqichlari, o'qitish tizimining rivojlanish ob'ektivligi yaqqol aks ettirilgan. Zamonaviy rivojlanish, fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, o'qituvchilik faoliyati ham, boshqa ishlab chiqarish faoliyatlaridek, faoliyat turi ekanligi bilan bog'liqdir. Pedagogik texnologiya atamasi, hali yakdillik bilan izohlanmagan, shuning uchun uning turlicha ta'riflari mavjud, lekin atamaning yakdillik bilan izohlanmaganini inobatga olib, unga nufuzli YuNESKO tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

***Pedagogik texnologiya** - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishni, texnika va inson resurslarini va ularni o'zaro ta'siri aloqasini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli yondoshuvidir.*

Pedagogik texnologiyaning – tizimlilik va samaradorlik kabi zaruriy omillarini alohida ta'kidlash mumkin. Bunga pedagogik texnologiyaning zaruriy tashkil etuvchi omili deb yana qayta takrorlanishni qo'shish lozim bo'ladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, pedagogik texnologiya faniga qo'ydagicha ta'rif berish mumkin.

***Pedagogik texnologiya** – ommaviy ta'lim sharoitida maqsadga yo'naltirilgan, boshqariladigan, rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish mumkin bo'lgan, qayta takrorlaydigan samarali o'quv jarayonini yaratish va qo'llash to'g'risidagi fan.*

***Pedagogik texnologiya** rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishni kafolatlaydigan va takrorlaydigan o'quv jarayonini tadqiq etadi.*

Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimini rivojlantirish markazi xulosasiga asosan, pedagogik texnologiya ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan oʻzaro bogʻliq ravishda shakllanib, rivojlanish natijasida turlicha koʻrinishlarda namoyon boʻladi:

Nazariy fan sifatida pedagogik texnologiya oʻz maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslariga ega. Oʻquv fan koʻrinishida - pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy xodisa, nazariy fan, oʻquv - tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyat va uning uslublari, aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot soxasi sifatida, turli taʼlim muassasalarida belgilangan oʻquv dasturi asosida oʻrgatishdan iborat. XX asrning ikkinchi yarmida, ilmiy texnik taraqqiyotning talablari asosida paydo boʻlgan pedagogik texnologiya, uning jadallashuvi uchun xizmat qilmoqda.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy taʼlim sharoitida taʼlim jarayonining zaruriy samaradorligini taʼminlash va talabalar tomonidan oʻqishning koʻzlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy taʼlim sharoitida «oddiy» pedagoglarga oʻqitishning yetarli samarasiga erishishni taʼminlovchi, oʻquv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya, taʼlim tizimidagi mustaqil fan sifatida oʻquv jarayonining barcha elementlarini – oʻquv grafisini va oʻquv rejasini tuzish, oʻqitish va uning natijalarini baholashni - oʻz ichiga oladi.

Oliy taʼlim muassasasining oʻquv jarayoni, oʻquv materialini toʻla oʻzlashtirish tamoyillariga tayanishi lozim. Yaʼni fanning, oʻquv dasturiga muvofiq, oʻquv materialini barcha talabalar tomonidan oʻzlashtirilishi shartdir.

Oʻquv materialining toʻla oʻzlashtirilish tamoyili - har qaysi mavzu boʻyicha talaba tomonidan bilim olish faoliyatining oʻrnatilgan darajasiga erishishni anglatadi.

Ko'p sonli xorijiy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, «talabalarning o'quv materialni to'la o'zlashtirishi» tushunchasi, guruhdagi har bir talaba tomonidan o'quv materialining kamida 80% ga o'zlashtirishini anglatadi. To'la ishonch bilan, isbotsiz aytish mumkinki, bunga faqat o'ta mahoratli professor - o'qituvchilar tarkibi erishishi mumkin. Oddiy professor-o'qituvchi tarkibida, o'quv materialining bu darajadagi o'zlashtirilishiga, faqat iqtidorli talabalargina erishishi mumkin.

Birinchi yo'l – bu o'zlashtirish mezonini yetarli darajasining ko'rsatgichini qo'llash. Hozirgi paytda o'quv materialini, o'quv fanini 55% ga o'zlashtirgan talaba ijobiy baholanadi. Tabiiyki, bu yo'lni istiqbolli deb bo'lmaydi.

Ommaviy ta'lim sharoitida talabalarning to'la o'zlashtirishiga qanday qilib erishish mumkin? Bunda uchta yo'lni ko'rsatish mumkin:

Ikkinchi yo'l – professor-o'qituvchilar tarkibini faqatgina oliy darajali, ajoyib professor va dotsentlardan tuzish. Ularning har biri o'ziga xos o'qitish usullari va yo'llari tufayli, tayyorgarlik darajasi butunlay har xil bo'lgan talabalarning to'la o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Haqiqatda, bir guruhda kirish sinovlari fanlari bo'yicha o'zlashtirish darajasi 30% dan 90% gacha va undan ortiq bo'lgan talabalar o'qishi mumkin. Bu yo'l haqiqatdan uzoq va ideallashtirilgan yo'ldir. Barcha talabalar iqtidorli bo'lmaganidek, o'n minglab professor-o'qituvchilar tarkibi ham xuddi shunday, iqtidorli, oliy darajali bo'la olmaydi.

Uchinchi yo'l – o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'lib, ular o'qish va o'rgatishning asosiy elementlarini o'rnatib, o'zida, oliy darajadagi pedagog olimlarning o'qitishdagi uslub va yo'llarini mujassamlashtiradi.

Ishlab chiqarishda, malakasi uncha yuqori bo'lmagan "oddiy" mutaxassis tayyor texnologiya bo'yicha oliy sifatli mahsulot ishlab chiqarganidek, "oddiy" o'qituvchi pedagogik texnologiyani qo'llab ajoyib natijalarga erishadi.

Pedagogik texnologiya, o'quv materialining to'la o'zlashtirish kafolatini beradi, ya'ni har bir talaba o'quv fani dasturini kamida 80% ni o'zlashtiradi.

2. Pedagogik texnologiyaning mohiyati. Pedagogika o'quv jarayonida yuqori natijaga erishish yo'llarini doimo izlab kelgan va o'z vosita, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelgan. Ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul, yoki usullar majmuasini topish ilinjida bo'ldi. Buning natijasida turli metodikalar yaratildi. Pedagogik tajriba toraishi bilan yangi va samaraliroq metodlar yaratilmoqda. Ammo, yangi uslubiyotlarni yaratish borasidagi amaliy ishlar natijasi, o'sib borayotgan talablarga hamma vaqt ham javob bermaydi. O'qitishdagi doimiylik, rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati kabi muammolar o'z yechimini ko'tardi.

O'quv maqsadlarning noaniq qo'yilishi, shu bilan bog'liq o'qitishdan kutilgan natijalarga erishishning noaniqligi, an'anaviy o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida, oliy ta'lim muassasasi, o'qitishdan kutiladigan natija yo'qligidek, ortiqcha daxmazaga yo'l qo'ya olmaydi. O'qitish natijasi aniq va maqsadga erishiladigan bo'lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislarga ehtiyoj ham noaniq bo'ladi va ular talab qilib olinmaydi. An'anaviy o'quv jarayoniga tayangan oliy ta'lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo'lmaydi. Shuning uchun, o'quv jarayonini takomillashtirish, talabalar qiziqishini oshirish, o'qitish natijalarini kafolatlanishning eng samarali yo'llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. O'qitish sifatini oshirish, ob'ektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, alohida o'qitish uslublaridan pedagogik texnologiyaga o'tish muammosining dolzarbligi ortib

bormoqda. O'quv jarayonini birinchi marta ushbu tarzda talqin etilishi Ya.A.Komenskiyning pedagogikasida uchraydi.

Ya. A. Komenskiy asarlarida, inson tabiati qonuniyatiga uyg'unlashgan o'qitish tartibini izlash urinishlari mavjud. O'qitish texnologiyasining asosiy elementlari - darslik tamoyili, guruh bilan ishlash tamoyili, o'qitishning predmetligi, o'quv materialini bayon etishning umumtartibi – aynan Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan edi, bu esa, uning pedagogik tizimining sanoatlashgan jamiyatdagi ommaviy, so'ngra umumiy ta'lim ehtiyoji uchun uzoq yillar xizmat qilishini ta'minlaydi. U o'qitishning yagona takomillashgan usulini ko'z oldiga keltirib, uni soat mexanizmining aniq va ravon ishi bilan taqqoslagan edi. Ya.A. Komenskiy bu haqda - «O'qitish san'ati - vaqt, fanlar va usullarning mohirona taqsimotidan boshqa hech narsani talab etmaydi. Agar, biz bu taqsimotni aniq o'rnatib olsak, ta'lim muassasasi yoshlarini o'qitish, ularning soni qanchaligidan qat'iy nazar, bosmaxona asboblari bilan minglab qog'ozlarni nafis harflar bilan bezata olamiz. Yoki, Arximed mashinasini o'rnatib, uylar, minoralar, yoki xilma-xil og'irliklarni ko'chiramiz. Bu esa, minglab kemada okeanni kesib o'tib, Yangi Olamga (Amerikaga) jo'nab ketishdan ham osonroq bo'ladi. Hamma narsa soatdek bir me'yorda yengillik bilan, shunday zavq va shavq harakat qilganidek, oldinga yuradiki, shunday zavq va shavq bilan unga o'xshash avtomatni ham kuzatish mumkin va nihoyat, faqat bunday qulay asbobda erishilishi mumkin bo'lgan ishonch bilan unga qaraymiz. Shunday qilib, Olloh taolo haqi, soatga to'la o'xshagan shunday ta'lim muassasasi tuzilmasini ishlab chiqishga urinib ko'ramiz».

O'quv maqsadlarining turli-tumanligi, ta'lim mazmuni elementlarining xilma-xilligi (o'quv material turlari), talabalarning individual xususiyatlari oliy darajadagi yagona o'qitish usuliga erishishga to'sqinlik qiladi.

O'qitish amaliyotida, o'qitishning turli tuman yo'llari, usullari va shakllari keng qo'llaniladi. Ammo, o'qitishda yagona samarali (integral) yondashuvni izlash jadallik

bilan hamon davom ettirilmoqda. O'qitishni, o'ziga xos ishlab chiqarish, texnologik jarayonga aylantirilishi mumkin bo'lgan didaktik yondashuvlar, didaktik vositalarni izlash davom etmoqda. XX asrning 50-yillarida o'quv jarayoniga mashinalarni kirib kelishi va keng qo'lamda joriy etilishi bilan, pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichi boshlandi. Bu paytda sanoat ishlab chiqarishida yangi ilmiy yo'nalish – tizim - texnika paydo bo'ldi va u «odam-mashina» majmualarini yaratish masalalarini yechib berdi. Ushbu ilmiy yo'nalishda «odam-mashina» tizimida odamning rolini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ushbu muammo yechimining quydagi uch bosqichini ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich - «mashina hamma narsaga qodir» tamoyilini qo'llab, mashinani odamga bog'liqsiz loyihalash.

Ikkinchi bosqich - vazifalarni odam va mashina orasida taqsimlash tamoyili asosida, odam bilan mashinaning o'zaro ta'sir jarayonlarini o'z ichiga oluvchi mashinalarni loyihalash.

Uchinchi bosqich - odamni texnik qurilmalar tizimining tarkibi sifatida qarashdan voz kechishi bilan belgilanadi, loyihalash asosiga odam faoliyati tamoyili qo'yiladi, ya'ni odam faoliyati tizimi loyihalana boshlanadi.

Faoliyat tizimi o'zining funksional birliklaridan iborat mazkur bosqich, sanoatlashgan jamiyat o'rniga kelayotgan, informatsion deb ataluvchi yangi jamiyatning rivojlanayotgan elementlariga yo'naltirilgan. Tizim-texnika majmuasi taraqqiyotining uch bosqichiga mos, ta'lim tizimida o'qituvchining uch turli maqomi, pedagogik faoliyatning uch turini alohida qayd etish mumkin.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi shu bilan tavsiflanadiki, o'qituvchi o'z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko'nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo'ladi (qadimgi davrdagi hunarmandga o'xshash).

Uning «asboblari» - yo'llari, usullari individual bo'lib, pedagogik iste'dodining mevasidir. Qo'llanmalar, ko'rgazmali va texnik vositalar esa, unga meros qolgan, yoki o'zi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi shu bilan tavsiflanadiki, unda o'qitish tajribasi umumlashtiriladi, tizimlashtiriladi va ilmiy fan ko'rishini oladi.

Bunda, kitob chop etishning paydo bo'lishi, pedagogik mehnatning bo'linishi va ixtisoslashuvi sabab bo'ldi. Bu yerda pedagogik jarayon, oqilona tashkil etilgan, o'qitish ma'lum qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu sharoitlar bilimni ob'ektivlashtirish imkonini beradi. O'qituvchi sanoatlashgan (industrial) jamiyatning ishlab chiqarish xodimiga o'xshab, sanoatlashgan (industrial) turdagi xodimga aylanadi.

Pedagogik faoliyatning uchinchi turi shu bilan tavsiflanadiki, u pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi, o'qituvchining holatini, zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi holati bilan taqqoslash mumkin.

O'qitish texnologiyasi kasbiy yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odatda, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari hisoblanadi.

«Pedagogik texnologiya» atamasi, ishlab chiqarish - texnologik sohasidan olingan, o'ziga xos ma'lum qoida va tamoyillarga ega bo'lgan, «texnologiya» tayanch iborasini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish sohasida, mahsulotni tayyorlash uchun, ishlab chiqarishni tayyorlash talab etiladi, u turli xildagi ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik, texnologik, tashkiliy-rejaviy tadbirlarni qamrab oladi.

Oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoni ham shunga o'xshash tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash bosqichlari va ishlab chiqarishni tayyorlash bosqichlari juda o'xshashdir.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning birinchi bosqichida ilmiy-tadqiqotlar natijasi bo'yicha konstruktorlik tayyorgarligi amalga oshiriladi, ta'limda esa, davlat ta'lim standartlari (ta'lim sohasi «konstruksiyasi»ni aniqlovchi) tayyorlanadi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasi; ta'lim muassasalarii bitiruvchilariga qo'yilgan malakaviy talablar, o'quv yuklamasining hajmi; ta'lim muassasalarii faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo'l-yo'riqlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ilmiy tadqiqot ishlari va davlat ta'lim standartlari loyihalarini ishlab chiqish, oliy va o'rta maxsus ta'limini rivojlantirish Markazi hamda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalarii tomonidan bajariladi.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning ikkinchi bosqichida konstruktorlik tayyorgarlik ishlari bajarilgandan so'ng ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarligi amalga oshiriladi, uning o'zagini – detallarini tayyorlash, mashina uzellari va agregatlarini yig'ish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqishni tashkil etadi. Texnologik jarayonlar – texnologik xaritalar va ularning to'plamlari ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Texnologik jarayonning texnologik xarita ko'rinishida aks ettirilishi, yuqori malakaga ega bo'lmagan ishchiga, yuqori sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyatini yaratadi, chunki texnologik xaritada mahsulot tayyorlashning barcha bosqichlari – materiallar, tayyorlash, jihozlar, texnologik operatsiyalar mazmuni va ketma-ketligi, ishlov berish sharoitlari, asboblari, vaqt me'yorlari, sifat nazorati vositalari keltiriladi. Ishlab chiqarish - texnologik jarayon, - eng kam va modiy ham insoniy resurslar xarajatlari ishlab chiqarishning eng yuqori mehnat unumdorligi va rentabelligi bilan zaruriy sifatdagi mahsulot olinishiga imkoniyat yaratadi.

Texnologik jarayonni ishlab chiqmasdan, zamonaviy samarali ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin emas. Ishlab chiqarish sohasiga o'xshab, ta'lim sohasida davlat ta'lim standartlari yaratilgandan so'ng (ta'lim «konstruksiya»si barpo etilishi) – texnologik tayyorgarlik amalga oshiriladi (namunaviy o'quv rejalar, fanlarning namunaviy o'quv dasturlarini darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, laboratoriya

jihozlari, o'qitishning texnik vositalarini loyihalash, tayyorlash va sotib olish, o'quv ishlarini hisoblash uchun vaqt me'yorlarini o'rnatish va h.k.), u ta'lim jarayonini tartibga soladi, ta'lim muassasasini va kadrlar tayyorlash sifatini baholaydi.

Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalar, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o'quv jarayonini ro'yobga chiqaruvchi ob'ektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro'yobga chiqarilsa, pedagogik jarayonda ham shunga o'xshash holat sodir bo'ladi. Yuqori malakali pedagog o'zining pedagogik qobiliyati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O'qitish jarayonining mavjud ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish va qo'llash, o'qitishda zaruriy natijaga erishish, ma'lum darajada, hattoki pedagog va talabanning qobiliyatiga bog'liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va ob'ektlashgan bo'lsa, uni ro'yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, ommaviy ta'limning butun amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o'qitishni joriy etish amaliyoti, odamni bevosita ishtirok etmasligida ham, o'qitishning usullari va uslublari tizimini amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayoni ma'lum mahsulot uchun ishlanganidek, xuddi shunday pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o'qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o'z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o'qitish sharoitida, talabalarni to'la o'zlashtirishini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir.

Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayondek, rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

3. Pedagogik texnologiya tamoyillari va tarkibi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillarida pedagogik va texnologik fanlarning yutuqlari qamrab olingan. «Pedagogik texnologiya» fani ko‘rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ilmiylik tamoyili.

Bu tamoyil har qanday o‘quv predmeti, o‘quv material fanning zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo, o‘quv dasturlar va qo‘llanmalarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili o‘quv fanlarining ishchi o‘quv rejalari va o‘quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg‘ulot o‘tkazishni talab etadi.

Oliy ta‘lim muassasasida, ilmiylik birinchi navbatda ob‘ektiv olam qonuniyatlarini ochish bilan uzviy bog‘liq va fanlararo bog‘lanishlar va fanlarning o‘zaro ta‘sirining shakllanishini talab etadi.

2. Loyihalash tamoyili.

Bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalash tamoyili o‘quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarni – o‘quv jarayoni jadvali; ishchi o‘quv reja; fanning ishchi o‘quv dasturi; fanning, bo‘limlarning tayanch iboralarining o‘quv maqsadlari toifalari; o‘qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash tizimini – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o‘quv jarayoni amalga oshiriladi.

3. Tizimlilik tamoyili. Pedagogik texnologiya, o‘quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, o‘quv jarayonining barcha elementlari, ularning o‘zaro

bogʻliqlik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda oʻquv jarayonining barcha elementlar tuzilmasining tashkil etilishi va faoliyati – talabalarni oʻqitishga ragʻbatlantiradi.


Bu oʻrinda, oʻquv jarayoni va oʻqitish jarayoni tushunchalarini aniq taʼriflash zarurligini qayd etmoq joizdir. Agar, bu tushunchalarni ishlab chiqarish sohasi bilan solishtiradigan boʻlsak, ular ishlab chiqarish jarayoni va texnologik jarayon tushunchalari bilan mos keladi. (1.2-rasm). Ishlab chiqarish jarayoni ikki qismdan – ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik jarayonlaridan iborat.

Ishlab chiqarishni tayyorlash – bu ishlab chiqarish jarayonining bir qismi boʻlib, bunda ilmiy tadqiqot jihatdan asoslanish masalalari yechiladi, mahsulotlarni tayyorlashning konstruktorlik va texnologik hujjatlari tayyorlanadi, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar bajariladi.

Ishlab chiqarishning texnologik jarayonida mahsulotni tayyorlash boʻyicha texnologik operatsiyalar bajariladi.

Ishlab-chiqarish jarayoniga oʻxshab, oʻquv jarayonini ham ikki qismga (oʻquv jarayonini tayyorlash va oʻqitish jarayoni) ajratish mumkin.

Oʻquv jarayonini tayyorlash qismida – oʻquv jarayoni jadvali va ishchi oʻquv rejasi ishlab chiqiladi, mashgʻulotlar jadvali tuziladi, fanning ishchi oʻquv dasturi, oʻquv uslubiy materiallar va boshqalar ishlab chiqiladi. Oʻqitish jarayoni qismida – bilimlar, koʻnikmalar, malakalar oʻzlashtirilishi va ular sifatini baholash amalga oshiriladi.



1.2-rasm. O‘quv va ishlab chiqarish jarayonlarini aynan o‘xshashligi.

4. Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili.

O‘quv jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun belgilangan maqsad, aniq va o‘lchaniladigan bo‘lishi shart. *Bixeviorizm* g‘oyalariga tayangan, pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Psixologiyada bu yo‘nalishning xususiyati – organizmni qo‘zg‘atishga bevosita bog‘liqligini shakl shubhasiz tan olish va uni bu qo‘zg‘alishga undashdan iboratdir.


Bixeviorizm, o‘qitish jarayonida organizmda kechadigan jarayonlarni o‘rganmaydi, u faqat tashqaridan kuzatiladigan jarayonlarni (ya’ni, pirovard natijani) tahlil qiladi, qo‘zg‘atish (rag‘batlash) va yechimlar orasidagi bog‘lanishni o‘rganish bilan cheklanadi. Bixeviorizm psixologiya sohasini kengaytiradi va unga tashqi ta’sirlarni kiritadi. Bixeviorizm oqimining vakillari: J.Uotson, E.Torndayk, S.Pressi, B.Skinnerlar fikricha, xulqni o‘rganuvchi emperik va matematik usullarni yaratishda, oldingi konsepsiyalarda, faqat ichki aloqa, yoki jarayon sifatida qaralgan, harakat toifalarini ishlab chiqishda katta hissa qo‘shdilar.

Pedagogik texnologiyaning maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili – tirik organizm tanasining tuzilishiga o‘xshaydi. Umuman, o‘quv jarayoni uchun, bu tamoyil ahamiyatini baholash haddan tashqari qiyindir. Buning uchun o‘qitishning eng ko‘p tarqalgan ta’rifini keltirish yetarlidir:

O‘qitish - bu o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabatning maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni bo‘lib, uning davomida inson ma’lumotga ega bo‘ladi.

Ushbu ifodadan, o‘qitish sifati, maqsadlarni shakllantirish sifatiga bog‘liq ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Davlat ta’lim standartidan foydalangan holda, o‘quv fanini o‘rganish uchun ajratilgan umumiy o‘quv soatlari, o‘quv mashg‘ulotlar turi – ma’ruza, amaliy (seminar), laboratoriya va mustaqil ishlarga bo‘linadi. So‘ngra, o‘quv maqsadlari quyidagicha shakllantiriladi: (1.3-rasm.).



1.3-rasm. O'quv maqsadlarining shakllanish piramidasi.

5. Faoliyat yondashuvi tamoyili.

Ilmiy texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, keng ilmiy qamrovli talab mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi. Bunda nafaqat fan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi, balki ishlab chiqarish fanining jadal rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Bu sharoitlarda, faoliyat yondashuviga tayangan o'quv jarayonining samaradorligi oshadi. O'quv reja, fanlar dasturi, mashg'ulotlar turi bo'yicha o'quv soatlari, mutaxassis faoliyatining batafsil tahlili asosida o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir - hozirgi paytda «yuz bor eshitishdan ko'ra, bir bor ko'rish afzaldir», degan tamoyilga tayanish kamlik qiladi. «Hozirgi zamon sharoitida, o'quv jarayoni «yuz bor ko'rmoqdan ko'ra, bir bor bajarish afzal», degan tamoyilga asoslanib tashkil etilishi kerak. Kasb – hunar ta'limi uchun, bu tamoyil o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Mutaxassis faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va malakalari shakllantiriladi. Hozirgi sharoitda, “Pedagogika” fanida mavjud «nazariya va amaliyotning bog'liqlik tamoyili» sifat jihatdan yangi ma'noga «faoliyat yondashuvi tamoyili» ko'rinishida aks ettiriladi. Ushbu tamoyil, nafaqat nazariya va amaliyot bog'liqligini, balki ularning o'zaro ta'sir

kuchi asosida rivojlanishi, o'quv jarayonida mutaxassis ishlab chiqarish faoliyati hozirgi va kelgusi talablariga tayanishini, hisobga oladi.

«Faoliyat» tushunchasining mohiyati o'z ichiga maqsad, vosita va jarayonni qamrab oladi.

Mutaxassis faoliyatining tahlilida, ushbu tashkiliy qismlar va ularning o'zaro ta'siri inobatga olinishi kerak. Bu o'quv jarayonini samarali tashkil etishga imkoniyat beradi. «Faoliyat» tushunchasining mazmuni nuqtai nazaridan, o'quv jarayoni maqsadlari, vositalari, natijasi va jarayonning o'zi bilan tavsiflanadi. O'quv jarayoni, bo'lajak mutaxassisning faoliyati sifatida tasvirlanadi.

Umuman olganda, o'quv jarayoni, mutaxassis faoliyatining ko'zgudagi aks tasviridek bo'lishi lozim. Ularning muvofiqlik darajasi, mutaxassis tayyorlashning sifatini belgilaydi.

6. Boshqariluvchanlik tamoyili.

Pedagogik texnologiya o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o'quv jarayoni boshqarilishi taqdiridagina erishish mumkin. Boshqariluvchanlik tamoyilining ahamiyati shu bilan belgilanadi.

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Mazkur tamoyil o'qitishning joriy natijalarini ko'p bosqichli diagnostik (tashxisiy) tekshiruvlar o'tkazishni ko'zda tutadi. Butun o'qitish davrida o'qitish jarayonini boshqarish didaktik testlardan foydalanib natijasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida didaktik testlardan foydalanish, teskari aloqani ta'minlaydi. Teskari aloqa natijalarining tahlili, ko'zlangan natijaga erishish uchun vositalar va uslublarni o'zgartirish orqali o'qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Boshqarilish tamoyili, o'qitish jarayonini va shu bilan birga uning natijalariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

O'qitish jarayonini sifatli boshqarish - rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolatidir.

7. Qayta takrorlanish tamoyili.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, kerakli miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan yaratilgan texnik hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, qancha mahsulot ishlab chiqarish kerak bo'lsa, shuncha texnologik jarayonning qayta takrorlanishini anglatadi. Yaratilgan texnologik hujjatlar mavjudligi tufayli, texnologik jarayonni ko'p marotaba qayta takrorlash mumkin. Ishlab chiqarish-texnikaviy sohadagi ushbu yondashuv, har bir sohada «Texnologiya» fanlarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Aynan, shu ilmiy fan materiallarni olish, ishlov berish, qayta ishlash usullarini yaratish va takomillashtirish bilan shug'ullanadi. Ishlab chiqarishda, texnologik jarayonni amalga oshirish uchun texnologik xaritalar tayyorlanadi. O'quv jarayonini tashkil etishda, qayta takrorlanish tamoyili ham shunga o'xshash ahamiyatga egadir. Qayta takrorlanish tamoyili, muayan fan bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik - texnologik xaritani, turli guruhlarda turdosh ta'lim muassasalarida boshqa sub'ektlar ishtiroqida ko'p marotaba (takroriy) qo'llash imkoniyatini anglatadi.

Ko'rinib turganidek, buning uchun, ishlab chiqilgan o'quv hujjatlari, ishlab chiqarish-texnikaviy sohaning texnologik hujjatlari bilan mos kelishi va bir xil talablarga javob berishi lozim.

Ushbu maqsadlarda, ya'ni pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanishini ta'minlash uchun pedagogik-texnologik xaritalar tuziladi. Bu o'quv hujjatlar o'quv fanining har bir mavzusi (moduli) bo'yicha ishlab chiqiladi.

Qayta takrorlanish tamoyili - pedagogik-texnologik xaritalar asosida, o'qitish jarayonini ko'p marotaba takrorlanish imkoniyatini anglatadi.

Shunday qilib, takrorlanish tamoyili, pedagogik texnologiyaning mohiyatini – o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga erishish, kafolati bilan uni turli guruhlarda ko‘pchilik o‘qituvchilar tomonidan bir necha marotaba qo‘llash imkoniyatini belgilaydi.


8. Samaradorlik tamoyili.

Ushbu tamoyil, pedagogik texnologiya, o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyati yaratishini ko‘rsatadi. O‘quv jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: - ilmiylik, loyihalash, tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, qayta takrorlanuvchanlikni amalga oshirish orqali erishiladi.

4. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi. Pedagogik texnologiya, o‘z tamoyillariga, binoan, pedagogik qobiliyatga va yetarli o‘qituvchilik ish tajribasiga ega bo‘lgan yetuk pedagoglar tomonidan loyihalanadi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari, qayta takrorlanadigan o‘rgatuvchi sikl sifatida ro‘yobga chiqariladigan o‘quv jarayonini yaratishga imkon beradi.

Pedagogik texnologiya quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- ◆ o‘ta aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish. Ularni o‘lchash va baholash mezonlarini o‘rnatish;
- ◆ o‘quv maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan, o‘quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;
- ◆ butun o‘quv jarayonini, o‘qitish natijalarining kafolatli erishishiga qaratish.



1.4-rasm. «Pedagogik texnologiya»ning blok-sxemasi.

Qayta takrorlanadigan o'qitish shakli sifatida, qo'llaniladigan pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibi (tuzilmasi) 1.4-rasmda keltirilgan.

Pedagogik texnologiyani yaratish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish uchun, amerikalik olim B.Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'lchov mezonlarini o'rnatish va ularni baholash ishlab chiqilgan diagnostik testlar yordamida bajariladi.

Bunda, har bir o'quv materialining yetarli o'zlashtirilish darajasini belgilash muhim ahamiyatga ega. Butun o'quv jarayoni, unga qaratilgan taqdiridagina, o'quv maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonini o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirish, o'quv rejasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Birinchi navbatda o'quv rejadagi har bir o'quv fanining, mutaxassis tayyorlashdagi o'rni va ahamiyatini aniq o'rnatish zarur. Bu esa, Davlat ta'lim standartlari va mutaxassis faoliyatining chuqur tahlili asosida bajariladi. O'quv fanining mutaxassis tayyorlashdagi roli, mashg'ulot turlari: ma'ruza, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar orasidagi munosabatlarga bog'liq.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga ajratilgan o'quv soatlari ma'ruza soatlardan ko'p bo'lishi kerak. Chunki, ularning o'zdashtirilishi olingan bilimlarni qo'llash, tahlil etish, sintez, baholash darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni, mutaxassis faoliyati zarur bo'lgan malakalarga ega bo'lishi lozim. Boshqa turdagi o'quv fanlari uchun mashg'ulot turlari ajratilgan soatlar bo'yicha taqsimoti rejalashtiriladi va ma'lum darajada ta'lim yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda Oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga, auditoriya soatlari va mustaqil ish uchun ajratilgan soatlarning nisbatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim bosqichi oshishi bilan mustaqil ishlash malakalari va zaruriyati oshib boradi. Zero, ta'lim bosqichi oshishi bilan, malakalarni shakllantirish mutaxassis kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish talablari oshib boradi. O'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga ta'sir etuvchi, keyingi omil o'quv jadvalini maqbullashtirish hisoblanadi. O'qitish jarayonining samaradorligi nuqtai nazaridan, bir haftaga ajratilgan auditoriya mashg'ulot

soatlarining eng kam miqdori to'rt soatni tashkil etishi kerak. Haftalik auditoriya soatlari bundan kam bo'lgan fanlar uchun o'quv jarayonini blokli tashkil etish tavsiya etiladi. Chunki, darslarning oraliq vaqti 3-7 kundan ortiq bo'lsa o'quv materialni o'zlashtirish uzviyligi yetarli bo'lmaydi, eslash darajasi keskin kamayadi. Shuning uchun haftada eng kamida ikki marta dars o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch iboralar:

Pedagogik texnologiya, «jamiyat-ta'lim» tizimi, o'quv materialni to'la o'zlashtirish, ilmiylik tamoyili, loyihalanish tamoyili, tizimlilik tamoyili, maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili, faoliyat yondashuvi tamoyili, Boshqaruvchanlik tamoyili, qayta takrorlanish tamoyili, samaradorlik tamoyili, pedagogik texnologiyaning blok-sxemasi, pedagogik-texnologik xarita, maqbullashtirilgan o'quv jarayon.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiya fanining paydo bo'lish davrini izohlab bering.
2. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadali rivojlanish davrida o'qitish tizimiga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
3. «Jamiyat-ta'lim» tizimining rivojlanish bosqichlarini izohlab bering.
4. «Pedagogik texnologiya»ning ta'rifini tushuntirib bering.
5. «Pedagogik texnologiya» o'quv fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
6. O'quv materialni to'la o'zlashtirish tamoyilini tushuntirib bering.
7. Pedagogik texnologiyaning tamoyillarini aytib bering.
8. «Pedagogik texnologiya»ning blok-sxemasini tushuntirib bering.

Testlar

1. "Pedagogik texnologiya" tushinchasi bo'yicha YUNESKOning ta'rifi:

A) Pedagogik texnologiya –amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan malum pedagogik tizimining loyhasi o'quv tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar va majmualar yig'indisidir

B) Pedagogik texnologiya o'quv tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar va majmualar yig'indisidir

C) Pedagogik texnologiya oldindan belgilangan loyhalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini izchil amalga oshirishdir, o'quv tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar va majmualar yig'indisidir

D) Pedagogik texnologiya – ta'lim shakillarini qulaylashtirish maqsadida texnik vositalar, inson faoliyati hamda ularni o'zaro inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini belgilash, yaratish va qo'llashining tizimli metodi.

2. “Ta’lim texnologiyasi” atamasi qachon vujudga kelgan?

- A) 1950-yilda
- B) 1969-yilda
- C) 1960-yilda
- D) 1955-yilda

3. “Ta’limni buyuk maqsadi bilan berish emas balki xatti-harakatlarga o’rgatishdir” iborasi kimga tegishli?

- A) G.Spenser
- B) E.Torndayk
- C) J.Uogson
- D) B.Blum

4. “Tehnologiya ” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog’liq holda fanga nechanchi yili kirib keldi?

- A) 1772
- B) 1872
- C) 1930
- D) 1950

5. “Tehnologiya ” so’zining lug’aviy ma’nosi?

- A) “Texic”-texnika, “logis”-ta’limot
- B) “Ishlab chiqarish usuli”
- C) “Tehne”-“mahorat”, “logis”-ta’limot

D) “Buyumni tayyorlash jarayoni”

6. An’anaviy maktab ta’limida eng ko’p qo’llaniladigan metod?

A) Tushuntirish, namoyish

B) Aqliy hujum

C) Baxs-munozara

D) Klaster

7. An’anaviy ta’lim pedagogik munosabatning qanday turiga asoslanadi?

A) Demokratik

B) Liberal

C) Avtoritar

D) Insonparvar

8. An’anaviy ta’lim o’quvchi uchun qanday o’rin ajratilgan?

A) Tinglovchi

B) Mustaqil bajaruvchi

C) Ob’ekt

D) Sub’ekt

9. An’anaviy ta’limda o’quvchining bosh vazifasi nimalardan iborat?

A) Axborotni qabul qilish va shu axborotni qayta ishlamagan holda javob berish.

B) O’quv topshiriqlarni va muammoli hal etishda ishtirok etish o’z bilmini boyitish kerakli bahoni kutish.

C) O’z bilimini mustahkamlash maqsadida sidqidildan mehnat qilish o’z e’tidorini namoyon etish

D) O’zini va boshqalarni hurmat qilish, hamkorlikda ishlash, kitobxonlik bilan shug’ullanish

10. An’anaviy ta’limda darsning maqsadi nimalardan iborat?

A) Bilimlarni o’zlashtirish, shaxsning qiziqishi va motivini rivojlantirish

B) Ko’nikma va malaka hosil qilish

C) Shaxsning qiziqishi va motivini rivojlantirish, ko’nikma va malaka hosil qilish

D) Bilimlarni o’zlashtirish, ko’nikma va malaka hosil qilish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru


www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.Iip.Net.

1.2 Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish.



*Yoshlikda zahmat chekib,
ilm o'rgansang,
kasb – hunar egalasang,
qariganda rohat topasan.*

Koshifiy

1. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish. O'quv maqsadiga erishilganligini tekshirish uchun ishonchli usul bo'lgandagina, pedagogda uni baholash imkoniyati bo'ladi. Aynan, aniq qo'yilgan maqsadga erishilganligini baholashda ishonchli usul mavjudligi bilan, pedagogik texnologiya an'anaviy pedagogikadan ajralib turadi. O'quv fanlarining an'anaviy o'quv dasturlarida maqsadlar odatda «tushunmoq», «o'zlashtirmoq» kabi fe'llarni qo'llab, umumiy ifodalanadi. Aniq qo'yilmagan maqsadlarga erishilganligini baholash imkoniyati bo'lmaydi.

M.V.Klarin bo'yicha pedagoglar maqsadlarni odatda qo'yidagicha qo'yadilar:

-O'quv maqsadini o'rganiladigan mazmun orqali aniqlash;

O'quv maqsadini biron bir usulda qo'yish;

O'quv maqsadini bu usulda qo'yish bilimning fan mazmuniga yo'naltirilganligidan darak beradi. Masalan: beshinchi mavzu mazmunini o'rganing! O'quv maqsadi bunday qo'yilganda, maqsadga erishganligini tekshirish imkoniyati bo'lmaydi!

O'quv maqsadini pedagog faoliyati orqali aniqlash;

O'quv maqsadi bu usulda qo'yilganida, pedagog diqqat markaziga o'z faoliyatini qo'yadi. Masalan: talabalarni yengil sanoat mashinalarida pnevmatik tormozlarning ishlash tartibi bilan tanishtirish. Maqsadni ifodalashidan ko'rinib turibdiki, bu maqsad haqiqiy o'qitish natijasi bilan bog'liq emas. O'quv maqsadi bunday qo'yilganida, maqsadga erishganligini baholash umuman hisobga olinmagan.

O'quv maqsadlarini talabaning ichki rivojlanishi orqali aniqlash (aqliy, hissiy, shaxsiy...);

Ushbu usulda bir necha fanlar (masalan: umumta'lim fanlari), yoki alohida fan bo'yicha umumlashgan ta'lim maqsadlari aniqlanadi. Masalan: korxonaning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Bu usul bir mavzu, yoki mavzuning tayanch tushunchalari doirasiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

O'quv maqsadini talabalar faoliyati asosida belgilash.

Bu usulda alohida bir mashg'ulot bo'yicha aniq maqsad qo'yib bo'lmaydi, demak o'qitish natijalarini baholash imkoniyati ham bo'lmaydi.

O'quv maqsadini bunday qo'yganda, darsni rejalashtirish aniqligi nazarda tutiladi. Ammo, bunda ham eng muhim narsa, kutadigan natija hisobga olinmaydi. Masalan: dars maqsadi – korxonada balans foydasini aniqlash bo'yicha masalalarni yechish. Bu holatda qo'yilgan maqsadga erishishni yo'l – yo'riqnomasi nazarda tutilmagan.

Pedagogik texnologiya negizida aniq qo'yilgan maqsadlarga ketma-ket yo'naltirish, yaxlit o'quv jarayonini qamrab olgan tezkor aloqa va talaba xatti-harakati orqali o'qitish nazarda tutiladi.

Talabalar xatti-harakati orqali o'qitish – pedagogik texnologiyalar moxiyatining negizidir.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarni qo'yish usuli, o'quv maqsadlarining talaba xatti-harakatlari bilan ifodalangan o'quv natijalari orqali shakllantirishdan iboratdir.

Bunda pedagog, yoki boshqa ekspert talaba xatti-harakatini aniq ko'rish, yoki o'lchashi mumkin. Talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalanib, rejalashtirilgan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishni qayta takrorlanish imkoniyatini yaratish uchun, o'quv maqsadlari shunday aniq qo'yilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin bo'lsin.

Ba'zan ularni identifikasion o'quv maqsadlari deb ham ataydilar. Maqsadni to'la identifikatsiya qilish g'oyasi asosida, talabalar faoliyatini an'anaviy umumiy qilib emas, balki aniq kuzatiladigan, o'lchamli qilib ifodalash nazarda tutiladi.

O'quv maqsadi tushunarli, aniq, identifikatsiyaga moyil bo'lishi kerak.

Identifikatsiyalangan o'quv maqsadini ifodalashda ishlatiladigan fe'llar, o'rgatilgan talaba xatti-harakatini aks ettirishi kerak: - belgilamoq, guruhlar, tuzmoq, ajratmoq, hisoblamoq, isbotlamoq, soddalashtirmoq, qismlarga ajratmoq, taqqoslamoq, tizimga solmoq va boshqalar.

Bunda o'quv maqsadlarini to'la tashxislash o'qitishda esa, qayta takrorlanish imkoniyati paydo bo'ladi. Qayta takrorlanish - bu pedagogik texnologiyaning asosiy majburiy talablaridan biridir.

Maqsadni identifikatsiyalash g'oyasi o'quv faoliyatini aniq, kuzatiladigan o'lchanadigan xatti-harakatlar orqali izohlashni talab qiladi. Bunday texnologiya va bunday yondashish Amerikada eng rivojlangan psixologiyaning yo'nalishi – bixeviorizm (Behavior - xulq) ta'sirida rivojlandi. Psixologiyaning bu yo'nalishi psixikani (ruhiyatni) faqat uning tashqi ko'rinishlari (harakat va nutq), ya'ni

kuzatiladigan xatti-harakatlari asosida o'rganadi. Aniq maqsadlarni shakllantirish uchun har bir bilim sohasi (tabiiy fanlar, matematika va boshqalar) bo'yicha alohida fe'llar ro'yxatini tuzish lozim.

Maqsadlarni aniqlashtirishda, ularni ifodalashda xatti-harakatni va uning natijasini belgilaydigan fe'llarni qo'llash lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, identifikasion maqsad, rejalashtirilgan natijani mutlaqo, to'liq tavsifini bermaydi, ammo mazkur vositalar yordamida erishilishi mumkin bo'lgan yuqori natijani belgilaydi. O'qitish natijalarini qanday qilib xatti-harakatlar tiliga aylantirish mumkin?

Bunga quyidagicha erishiladi:

- ◆ O'quv fani bo'yicha toifalarga va ketma-ket darajalarga bo'lingan o'quv maqsadlari tizimini yaratish. O'quv maqsadlarining bunday tizimlari pedagogik taksonomiya nomini olgan (yunoncha taxis – tartib bilan joylashtirmoq, nomos - qonun).
- ◆ Pedagog noaniq, umumiy ta'riflarni almashtirishi uchun, o'quv maqsadlarini izohlashning aniq ravshan tilini yaratishi.

Bugungi kunda eng rivojlangan taksonomiyalardan biri amerikalik olim B.Blumning taksonomiyasi hisoblanadi. B.Blumning taksonomiyasi o'quv maqsadlarining aniqlashtiribgina qo'ymay, balki ularni tartibga ham soladi. O'quv maqsadlarini aniq toifalash pedagogga o'z xatti-harakatlarini bosh maqsadga yo'naltirishga va o'quv materialini aniq tushuntirishga imkon yaratadi. B.Blum bo'yicha o'quv maqsadlarining asosiy toifalariga: bilish, tushunish, qo'llash, analiz (tahlil), sintez va baholash kiradi (1.1-jadval).

1.1-jadval

B.Blum bo'yicha o'quv maqsadlarining taksonomiyasi

<i>N^o</i>	<i>O'quv maqsadlarining asosiy toifalari</i>	<i>Umumlashtirilgan o'quv maqsadlar turi namunalari-talaba</i>
I	<i>Bilish</i>	Ishlatiladigan terminlarni biladi,

	<p>Bu toifa o'rganilgan materialni muayan omildan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.</p>	<p>muayan omilni biladi, uslublar va jarayonlarni biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi</p>
II	<p>Tushunish</p> <p>Uning ko'rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o'tkazilishi (ifodaga), materialni interpretatsiyasi (tushuntirish, qisqa bayoni), yoki hodisa va voqealarning kelajakdagi oqibatlarini (natijalarini) bashorat qilish.</p>	<p>Og'zaki materialni interpretatsiya qiladi, sxema, grafik diagrammalarni interpretatsiya qiladi, og'zaki materialni matematik ifodaga o'tkazadi, mavjud materialga asoslanib kelajagini taxminan bashorat qiladi.</p>
III	<p>Qo'llash.</p> <p>Bu toifa o'rganilgan materialni muayan sharoitlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarni qo'llash kiradi.</p>	<p>Tushunchalar va tamoyillardan yangi vaziyatda foydalanadi. Qonun va nazariyalarni muayan amaliy vaziyatda ishlatadi, usullar va jarayonlarni to'g'ri qo'llashni namoyish etadi</p>
IV	<p>Tahlil</p> <p>Bu toifa o'rganilgan material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini anglatadi. Bunga butun qismlarni hisoblash, ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash yaxshilik tomonlarini anglash kiradi.</p>	<p>Yashirin tahminlarni belgilaydi. Mantiqiy xatolar va kamchiliklarni ko'radi, dalil va natija o'rtasida farqni aniqlaydi, olingan natijalar ahamiyatini baholaydi.</p>
V	<p>Sintez.</p> <p>Bu toifa elementlardan, bo'laklardan yangilikka ega bo'lgan yaxlitlikni yaratish ko'nikmasini anglatadi. Bunday yangi mahsulot: ma'ruza, ish rejasi, umumlashtirilgan majmua</p>	<p>Hajmi katta bo'lmagan ijodiy ishlar yozadi. Tajriba rejasini tuzishni taklif etadi. U, yoki bu muammoni yechish rejasini tuzish uchun turli sohalardagi bilimlarni qo'llaydi.</p>

	bo'lishi mumkin. Tegishli o'quv natijalari sxema va tizimlarni tuzishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatni taqozo etadi.	
VI	<p style="text-align: center;"><i>Baholash.</i></p> <p>Ushbu toifa u, yoki bu o'rganilgan materialni muayan maqsad uchun baholash malakasini anglatadi. Baholash aniq mezonlarga tayanishi lozim.</p>	Yozma matn shaklida tuzilgan materialning mantiqiyiligini baholaydi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, u, yoki bu faoliyat natijasining muhimligini baholaydi

Pedagogik texnologiyada B.Blumning taksonomiyasi o'quv maqsadlari toifalariga mos fe'llar yordamida qo'llaniladi (1.2-jadval).

1.2-jadval

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalariga mos keluvchi fe'llar namunalari

№	O'quv maqsadlari	Fe'llar	
1.	Bilish	Qaytarib aytish Qayd qilish Xabar berish Nomlamoq, atamoq Yozmoq	Ifodalash Farqlash Tanib olish Aytib berish Takrorlash
2.	Tushunish	Dalillar keltirmoq Almashtirmoq Aniqlamoq, belgilamoq Tushuntirmoq	O'tkazish, aylantirish O'zgartirib berish Surat bilan ko'rsatish Izoh berish, ochib tashlash.
3.	Qo'llash	Tatbiq etish Hisoblab chiqarish Namoyish etish Foydalanish, o'rganish.	Aniqlash Bajarish Hisoblash Amalga oshirish, yechish

4.	Analiz	Keltirib chiqarish Ajrati ko'rsatish Tabaqalashtirish Tasniflash	Oldindan aytish Qismlarga ajratish Taqsimlash Taklif etish
5.	Sintez	Kashf etish Umumiyashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	Tizimga solish, qo'shish Ulamog Tuzish Loyihalash
6.	Baholash	Tashxislash Isbotlash Asoslash O'lchash Ma'qullash	Baholash, tekshirish Nazorat qilish, Taqqoslash, solishtirish, Qiyoslash

Ushbu pedagogik taksonomiya ishlab chiqilgan davrdan hozirgi kungacha fan, texnika, texnologiya sohasida ulkan inqilobiy taraqqiyotlar amalga oshirildi. Ilmiy ma'lumotlar hajmini va murakkabligini jadal o'sib turishini inobatga olib o'quv maqsadlari taksonomiyasiga "tasavvur qilish", o'zlashtirish pog'anasini kiritish to'g'ridir. Hozirgi kunda ilmiy–texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarini saqlash oliy ta'lim tizimi bituruvchilarining eng yuksak vazifasidir. Ushbu talabga javob beradigan mutaxassislarni muntazam ravishda tayyorlab borish uchun butun dunyoda ta'lim soxasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Birinchi novbatda oliy ta'lim ikki bosqichli bo'lmoqda: bakalavriat va magistratura. Bolonya deklaratsiyasiga binoan 29 Yevropa davlatlari 2010 yilda YeSTS kredit texnologiyasiga asoslangan ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tdilar.

Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi bo'lmish magistraturada o'quv jarayoni o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turishi muqarrar. Ushbu xususiyatlar zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablari asosida vujudga kelmoqda. Bugungi iqtisodiyotning poydevori bo'lib ilmiy-texnika taraqqiyoti hisoblanadi. Uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga korxonalar, firmalar, kompaniyalar, barcha muassasalar orasida

mavjud bo'lgan raqobat asos bo'lib kelmoqda. Raqobat esa, muntazam ravishda ilmiy-texnikaviy muammolarni tug'diradi.

Magistrning vazifasi ushbu muammolarni aniqlash va yechimini ishlab chiqishdan iboratdir. Bunday ko'nikmalarni magistraturada o'qish davrida egallash lozim. Shuning uchun ham magistraturada darslarni keys-stadi shaklida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadi darslarida muammoni talabani o'zi aniqlaydi, shakllantiradi va yechimini asoslab, tavsiyalar ishlab chiqadi.

Keys-stadi darslarida taqdim etadigan holatlarga, voqealarga talaba o'z munosabatini shakllantiradi. Demak, bu yerda o'quv maqsadining yangi pog'onasi munosabat vujudga kelmoqda. Ko'rinib turibdiki yuqorida bayon etilganlar asosida 8 - pog'onali o'qitish maqsadlar taksonomiyasi vujudga kelmoqda: tasavvur etish, bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, baholash, munosabat.

2. O'quv jarayonini tayyorlash. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish o'qitish samaradorligini ta'minlovchi eng asosiy manba hisoblanadi. Birinchi novbatda, bu ma'ruzalar va amaliy laboratoriya, seminar mashg'ulotlar orasidagi nisbatni aniqlashga tegishlidir. O'quv fanining mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rniga bog'liq, uni Davlat ta'lim standartlari asosida belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning nisbati turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: 100%-0; 70%-30%; 50-50%; 30%-70%. Oliy ta'lim muassasasida biror bir fandan amaliy mashg'ulotlarning bo'lmasligi juda kam uchraydigan holdir. Nisbatning 30%-70%, ya'ni amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzalardan ancha ko'p bo'lishi ayrim ixtisoslik fanlargagina qo'l keladi. Chunki, odatda, ixtisoslik fanlar amaliyotda qo'llay olish darajasida o'zlashtirilishi lozim. 70%-30% nisbat, odatda ijtimoiy-iqtisodiy fanlar (texnik oliy o'quv yurtlarida), 50-50% umumkasbiy fanlar uchun qo'llaniladi. Matematik va tabiiy fanlar uchun ushbu nisbat ta'lim yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

O'quv jarayonini tashkil etishda auditoriya va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar nisbatining ahamiyati ham juda muhimdir.

Bu nisbat 67%-33%; 60%-40%; oliy ta`lim muassasasining I va II kurslarida qo`llaniladi, chunki talabalar hali samarali mustaqil ishlash malakalariga ega emaslar, III va IV kurslarda 50%-50%; 40%-60% nisbatlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir, chunki endi talabalar zaruriy mustaqil ishlash malakalariga ega bo`lib kurs ishlari, loyihalari, laboratoriya va amaliy mashg`ulotlarni, bitiruv malakaviy ishni bajarishlari kerak. O`quv jarayonini kredit tizimida tashkil etishda, auditoriya va mustaqil ishlash soatlarining nisbati odatda 33%-67%ni tashkil etadi.

Auditoriya soatlari tizimida ma`ruzalar va amaliy (laboratoriya, seminar) mashg`ulotlarning samarali nisbatini, auditoriya va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar nisbatini to`g`ri belgilash o`quv jarayonini tashkil etishning asosi bo`lib xizmat qiladi.

O`qitishdagi barcha yondashuvlarni guruhlab, ularni quyidagi ko`rinishlarga ajratish mumkin: tushuntirish-ko`rgazmali, ijodiy izlanish va texnologik.

O`qitishning tushuntirish-ko`rgazmali yondashuvi – bunda o`quvchilar mashg`ulot davomida o`quv va uslubiy adabiyotlardagi illyustrativ vositalar orqali «tayyor» holda bilim oladilar. Bu yondashuv an`anaviydir.

Ushbu yondashuv o`qituvchining o`quv axborotini yetkazishi va talaba xotirasiga to`plash va mustahkamlashdan iborat. Bunda «bilim» tushunchasi xotirada saqlanayotgan ma`lumot ma`nosini anglatadi. Uning (bilimning) mavjudligi nazorat va imtihonlar orqali tekshiriladi. Bu bosqichda, ya`ni uni qayta takrorlash bosqichida, bilim uzoq vaqt saqlanmaydi. O`qitishning tushuntirish-ko`rgazmali usulida o`qituvchining talabaga o`quv axborotini yetkazishida, odatda, talabaning faolligi va o`quv ma`lumotni qabul qilishga tayyorligi hisobga olinmaydi. O`qitishning tushuntirish-ko`rgazmali usuli bir necha asrlar davomida doimo takomillashib, ta`lim

tizimiga katta xizmat qildi. Ammo, u hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyotning oshib borayotgan talablariga javob bera olmay qo‘ydi.

O‘qitishning ijodiy (izlanish, tadqiqot) yondashuvi – bu pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammolar, masalalarni yechishning yo‘llarini faol izlashni tashkil etish usulidir.

Fikrlash jarayoni produktiv (mahsulli) xarakterga ega bo‘ladi. Pedagog bosqichma-bosqich, doimiy ravishda talabani izlanish jarayoniga yo‘naltiradi va nazorat qiladi. Bunda vazifalar va muammolar tahlilidan, qisqa og‘zaki, yoki yozma tushuntirishdan so‘ng, ta‘lim oluvchilar mustaqil ravishda adabiyotlar va manbalarni o‘rganadilar, kuzatishlar va boshqa izlanishlar olib boradilar. O‘quv ishi usullari bevosita ilmiy tadqiqot usullarigacha rivojlanib, mustaqil tadqiqot va tashabbusga qiziqish paydo bo‘ladi. Talabalar mustaqil ravishda yangi tajribalarga ega bo‘ladi, yangi faoliyat turlarini o‘rganadi. O‘qitishning izlanish modellarining ta‘lim mazmuni bilan o‘zaro ta‘siri, shaxsning tadqiqotchilik holati uning faol, ijodiy faoliyati yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, ommaviy ta‘lim sharoitida o‘qitishning zaruriy sifatini ta‘minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarini tizimli amalga oshirish rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishni ta‘minlaydi, shu jumladan muammoli o‘qitish tamoyilining ishlatilishi unga tadqiqot tusini beradi, ya‘ni o‘qitishda ijodiy izlanish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni jadallashgan ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob berishi bilan tavsiflanadi.


3. O‘quv maqsadlariga erishish monitoringini loyihalashtirish.

Pedagogik texnologiyada o‘quv maqsadi shakllantirilgandan so‘ng, ular nazorat topshiriqlariga ko‘chiriladi. O‘quv maqsadi mashg‘ulotlar o‘tkazish va ma’ruza matnlari tayyorlashda chambarchas bog‘lanadi.

Rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun o‘quv jarayonini tezkor baholash kerak, u esa teskari aloqa vazifasini bajaradi. Quyilgan natijalarga erishilmasa, tezkor baholash o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritilishi lozimligini ko‘rsatadi. O‘quv materialini o‘zlashtirilishining tezkor baholanishi tashxis testlar asosida amalga oshiriladi. Aniq o‘quv maqsadlar ifodalari, ularning toifalari testlarni tuzish uchun asos bo‘ladi. O‘qitish jarayonida ishlatiladigan testlar tashxislash xususiyatiga ega, chunki bu testlar natijasiga ko‘ra keyingi o‘qitish jarayoni rejalashtiriladi.

O‘qitish jarayonida testlarni muntazam ishlatish pedagogik texnologiyalarning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. O‘qitish jarayonida o‘quv materiallarni o‘zlashtirishni baholashda ishlatiladigan testlar, tashxis testlar deb ataladi.

Tashxis testlarni ishlab chiqish tartibi 1.5-rasmda ko‘rsatilgan.



1.5-rasm. Tashxis testlarni ishlab chiqish tartibi.

Tashxis testlar tuzish texnologiyasi
(«Tikuv, trikotaj va zardo'zlik buyumlarini ushlab chiqarish jihozlari» fani misolida)

<i>No</i>	<i>Tayanch tushuncha</i>	<i>O'quv maqsadi toifasi</i>	<i>O'quv maqsadi</i>	<i>Test vazifalari</i>
1	<i>Tikuv mashinalari turlari</i>	<i>Bilish</i>	<i>Zamonaviy tikuv mashinalari haqida to'liq ma'lumot beriladi</i>	<i>Tikuv mashinalari vazifasini ko'rsatish.</i>
2	<i>Asosiy mexanizm</i>	<i>Tushunish</i>	<i>«Mexanizmlar» iborasining mohiyatini tushuntirish</i>	<i>«Mexanizmlar» iborasi ta'rifini tanlab olish.</i>
3	<i>Mexanizm va uzellar turlari</i>	<i>Qo'llash</i>	<i>Belgilangan yo'nalish bo'yicha zamonaviy tikuv mashinalari sonini hisoblash</i>	<i>Moki bahyaqator hosil qilish hajmini aniqlash.</i>
4	<i>Moki bahyaqator hosil qilish unumdorligining tavsifiy jadvali</i>	<i>Tahlil</i>	<i>Tikuv mashinalari unumdorligini tavsifiy jadvali tahlilini bajarish</i>	<i>Tikuv mashinasi unumdorligining berilgan tavsifiy grafigiga ko'ra texnik ishlatilish omillar ta'sirini ajratib ko'rsatish.</i>
5	<i>Tikish mashinasida tikib o'tilgan yo'ldan foydalanish koeffisienti</i>	<i>Sintez</i>	<i>Tikish mashinalari tikish hajmiga ko'ra eng maqbul yo'nalishlar tuzish.</i>	<i>Tikish hajmiga ko'ra moki bahyaqator grafigini tuzish.</i>
6	<i>Tikuv korxonalarini texnik tayyorlik koeffisienti</i>	<i>Baholash</i>	<i>Tikuv korxonalarini tayyorligini belgilaydigan omillarni baholash.</i>	<i>Tikuv korxonalarini tayyorligini belgilaydigan omillarni taqqoslash.</i>

Har bir tayanch ibora bo'yicha o'rnatilgan o'quv maqsadlari toifalariga ko'ra talabalarning joriy o'zlashtirilishini baholash uchun diagnostik testlar ishlab chiqiladi (1.3-jadval). Mazkur o'quv maqsadining toifasiga mos fe'llarni ishlatish test tuzishning muhim sharti hisoblanadi.

Har bir tayanch tushuncha bo'yicha alohida joriy baholash testlari ishlab chiqiladi. Joriy baholash testlari sonini aniqlashda ularni o'tkazilish vaqtini hisobga olish maqsadga muvofiqdir, odatda u 10 daqiqaga teng bo'ladi, bu esa, taxminan 10 ta test topshirig'idir.

Talabalar o'zlashtirishining oraliq baholash testlari odatda bir bo'lim, yoki asosiy darslikning bir bobning o'quv materialini miqyosida o'tkaziladi.

Joriy baholash testlari har bir tayanch ibora bo'yicha alohida ishlab chiqilsa, oraliq baholash testlarida bu tayanch tushunchalarning bo'limi, yoki bob miqyosida o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi.

Oraliq baholash testlarini o'tkazish uchun - 30 daqiqa vaqt yetarli bo'ladi. Bu taxminan 20-30 topshiriqni tashkil etadi.

Yakuniy baholash testlarida tayanch tushunchalarning butun fan miqyosida o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi. Yakuniy baholash testlari odatda bir juft dars vaqtida o'tkaziladi – 80 daqiqa (tanaffussiz). Bunda topshiriqlar soni 40-60 tani tashkil etadi.

O'quv materialini o'zlashtirish darajasini hisoblash maqsadida kodli belgilar kiritish mumkin.

α_1 – axborotni eslash va qayta takrorlashga mo'ljallangan topshiriqlar;

α_2 – reproduktiv darajadagi topshiriqlar;

α_3 – produktiv darajadagi topshiriqlar.

B.Blum pedagogik taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalari va test topshiriqlarning murakkabligini 1.4-jadvalidagidek bog'lash mumkin.

1.4-jadval

O'quv maqsadlari toifasi	O'zlashtirish darajasi
Bilish	α_1
Tushunish	α_1
Qo'llash	α_2
Tahlil	α_3
Sintez	α_3
Baholash	α_3

Testlar tuzishda qo'llaniladigan fe'llar tegishli o'quv maqsadi bilan bir toifada bo'lishi kerak

Test topshiriqlari orqali o'quv materialini turli o'zlashtirish darajasini tekshirish mumkin.

- Bu belgiga ko'ra to'rtta o'zlashtirish darajasi farqlanadi.
- ◆ axborotni tanish, eslash, qayta takrorlash. Bu – bilish, tushunish o'quv maqsadi toifalariga mos keladi;
 - ◆ reproduktiv fikrlash. Bu qo'llash o'quv maqsadi toifasiga mos keladi.
 - ◆ produktiv fikrlash. Bu – tahlil, sintez, o'quv maqsadi toifalariga mos keladi.
 - ◆ izlanish - ijodiy fikrlash. Bu ko'proq baholash o'quv maqsadi toifasiga mos keladi.

O'quv materialining o'zlashtirish ma'lumotini eslash, qayta takrorlash darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari xotira faoliyati bilan bog'liq bilimlarni tekshirishda ishlatiladi. Bu topshiriqlar talabdan formula, ta'rif, qoida va boshqani to'rtta berilgan variantlardan farqlash, tanib olish, yoki eslashni talab qiladi. Bu eng sodda, past darajadagi o'zlashtirishni tekshiruvchi bo'lsada, o'quv jarayoni shu darajaga asoslanadi.

Reproduktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari talabdan oldin o'rganilgan namuna asosida mustaqil faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. Bu holda oldin o'zlashtirilgan formula, qonun, qoidani qo'llab, oldingilarga o'xshash berilgan masalani yechishdan iborat. Bunday testlarni yechishda, odatda, hisob-kitob talab qilinadi.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari talabdan o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil sinovdan o'tkazib, boshqa turdagi masalalarni ham yechishni talab qiladi. Bu faoliyat talabaning o'zi masalani yechish algoritmini tuzishi bilan xarakterlanadi. Odatda, bu ma'lum qoida va formulalar majmuasini nostandart masalalarni yechishda qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish topshiriqlari eng katta diagnostik va didaktik ahamiyatga ega. Ularni bajarish mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Bu testlar o'z mohiyatiga ko'ra ko'nikmalarni baholaydi.

Bunday testlar o'quv fanining o'zlashtirilishini yakuniy baholash bosqichida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirishda test topshiriqlari murakkab hisob-kitoblardan iborat bo'lishi shart emas.

Topshiriqlarning bosh xususiyatlari mantiqiy asoslangan xulosalar zanjirini yasashdan iboratdir.

Izlanish ijodiy darajadagi testlar talabdan nostandart yondashuv, tasavvur, ijod, fantaziya, intuitsiyani talab etadi. Bu eng murakkab oliy darajadagi testlar bo'lib, fan olimpiadalarida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyalarda testlar ishlab chiqish jarayonidagi o'lchov asboblari rolini bajaradi. Ishlab chiqishda texnologik jarayon natijasida ishlab chiqilgan mahsulot o'lchov asboblari orqali nazorat qilinganidek, o'qitish jarayonida testlar rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Test topshiriqlarini eng ko'p ishlatiladigan turli shakllarda: yopiq, ochiq, muvofiqligini o'rnatish, ketma-ketlikni tartibga solish kabi tarzda tuzish mumkin.

Yopiq test topshiriqlari shart va javoblardan iborat. Bunday testlarni yopiq deb atalishining sababi shundaki, sinaluvchi unga berilgan javoblardan to'g'risini tanlaydi, lekin fikrini, o'z javobini berish imkoniyatiga ega emas.

Berilgan to'rtta javobdan bittasi to'g'ri bo'lishi tavsiya etiladi. Bunday vaziyatda to'g'ri javobni tasodifan topish imkoniyati juda past. Test shunday tuzilishi kerakki, unga javob berilganda sinaluvchi o'z bilimlarini ishlatib, barcha javoblarni tahlil qilishi kerak.

Javoblar mazmunan bir-biriga juda yaqin bo'lishi, to'g'ri javobni tanlashda «yuzaki», tavakalchilikka yo'l qo'ymaslik lozim.

Namuna:

Pedagogik taksonomiya qanday imkoniyat yaratadi?

- A. O'quv maqsadlarni toifalash
- B. Mavzuning tayanch iboralarini belgilash.
- C. O'quv maqsadini shakllantirish
- D. O'quv maqsadiga erishish kafolati

Javob: A.

Yopiq test topshiriqlar shaklida tuzilgan testlar kompyuterli o'qitish texnologiyalarida ham samarali foydalanish mumkin.

Ochiq test topshiriqlari sinaluvchiga o'z javobini berish imkoniyatini beradi.

Testlar kalit so'zi (so'zlar) qoldirilgan gap shaklida tuziladi.

1. Namuna.

Pedagogik taksonomiya ... imkoniyat beradi

Javob: o'quv maqsadlarni toifalashga

2. Namuna

Ochiq testlar deb _____ qoldirilgan, javob variantlari berilmagan topshiriqlarga aytiladi.

Javob: kalit so'zi

Ochiq test topshiriqlarni o'qitishning dasturlash texnologiyalarida keng qo'llash mumkin.

Muvofiqligini o'rnatish test topshiriqlari. Bunda bir majmua elementlarining ikkinchi majmua elementlariga mosligi o'rnatiladi.

Namuna

Pedagogik texnologiyaning afzalligi:

- A. O'qitishning rejalashtirilgan natijalariga kafolatli erishish;
- B. O'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- C. O'quv jarayonini ifodalash;
- D. O'qitish natijalarini baholash;

Javob: A.

Ketma-ketlikni tartibga solish test topshiriqlari. Bunda xatti-harakatlar, hisob-kitoblarni talab qilingan ketma-ketlikda bajarilishi tekshiriladi.

Javob indekslar ketma-ketlik shaklida beriladi.

Namuna:

B.Blum pedagogik texnologiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalarining to'g'ri ketma-ketligini ko'rsating:

- A. tahlil
- B. tushunish
- C. qo'llash
- D. bilish

Javob: D, B, C, A.

Pedagogik texnologiyada test o'tkazish birinchi novbatda tashxislash vazifasini bajaradi. Tashxislash, har bir ta'lim oluvchining rivojlanish sura'tlarni oldindan aniqlash va bashorat qilishga yo'naltirilgan. Teskari aloqa axborotiga ega bo'lish, tashxislash va bashorat qilishlarning sintez jarayoni bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'quv maqsadlariga erishish monitoringi demakdir.

Monitoring atamasi inglizchadan olingan bo'lib «uzluksiz kuzatish» deganidir.

O'qitishni ko'zlangan o'quv maqsadlariga erishishda pedagogik texnologiyaning quyidagi qoidalari xizmat qiladi:

Ekvivalent amaliyot qoidasi: bu o'qitish shart-sharoiti va o'qitish jarayonida talabalardan kutilayotgan xarakterlar test va imtihon davrida kutilgan xarakterlar bilan mos kelishini anglatadi. O'qitishdagi faoliyat yondashuvi bu qoidani amaliyotda ro'yobga chiqishiga olib kelishiga xizmat qiladi.

O'xshash amaliyot qoidasi: bunda talabalarda kutilayotganga o'xshash, ammo undan farqlovchi harakatlar mashqini bajarish imkoniyati bo'ladi.

O'qitish «natijalarini bilish» qoidasi: bu qoidaga ko'ra talabaga har bir haraktining, natijasini zudlik bilan bildirish ko'zda tutiladi. Bu teskari aloqa ta'minlaganida, o'qitish natijalarini joriy baholashga xosdir.


Pedagog tomonidan ijobiy qo'llash qoidasi: bu talabalarni pedagog tomonidan chiroyli so'zlar bilan ilhomlantirish, ichki harakatga undashdir. talaba shaxsini yuksaklarga ko'tarishi va belgilangan o'qitish natijalariga erishishga qiziqtirishi zarur. Masalan: juda yaxshi, aniqroq ifoda qilishga harakat qiling, ajoyib, yana ishlab ko'rish kerak.

O'quv jarayoni monitoringi o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan qoidalar o'qitish jarayoni samaradorligini oshishiga, o'quv maqsadlariga erishishga olib keladi.

4. Qayta takrorlanadigan o'qitish sikli tarkibi va tuzilmasi

Texnologik jarayon ishlab chiqarilgan texnologik hujjatlar asosida amalga oshiriladi, bu hujjatlarning asosiy tarkibiy qismi esa, texnologik xaritalar hisoblanadi. Texnologik hujjatlar, qayta takrorlanadigan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga imkoniyat beradi. Ya'ni, maxsulotni kerakli miqdorgacha chiqarish uchun ishlab-chiqarish jarayon takrorlanadi.



1.6-rasm. Pedagogik texnologiyada qayta takrorlanadigan o'qitish siklining tuzilmasi.

Qayta takrorlanadigan o‘qitish sikli quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi (1.6-rasm):

1. O‘quv fanining umumiy maqsadini o‘rnatish. O‘quv rejadagi har bir fan mutaxassisning shakllanishi uchun ma’lum bir maqsadga ega. Bu maqsad aniq ifodalanishi va fanni o‘rganishdan oldin har bir talabaga yetkazishi lozim.

2. Har bir mavzuni o‘zlashtirish, uning o‘rganishdagi o‘quv maqsadini to‘g‘ri qo‘yilishiga bog‘liq. O‘quv fanini to‘la o‘rganish uchun mavzuning ahamiyati, o‘quv maqsadining toifasini belgilaydi.

Darsning tashkiliy qismida talabalarga o‘quv maqsadi, uning boshqa mavzular bilan bog‘liqligi, mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyati haqida kerakli ma’lumotlar yetkazilishi lozim.

3. Har bir mavzu (bo‘lim va modul) bo‘yicha tayanch iboralarni aniqlash 1.5. jadvalda keltirilgan. Pedagogik texnologiyada o‘qitishning modulli tizimini qo‘llash samaralidir, u fanning bir, yoki bir necha fundamental tayanch iboralarini qamrab olgan axborotning tugallangan bloklariga tayanadi.

1.5. jadval

B.Blum taksonomiyasi asosida «Tikuv, trikotaj va zardo‘zlik buyumlarini ushlab chiqarish jihozlari» fani bo‘yicha o‘quv maqsadlarining toifasini belgilash.

<i>No</i>	<i>Mavzular nomi (bo‘lim va modullar)</i>	<i>Tayanch iboralar</i>	<i>O‘quv maqsadning toifalari</i>					
			<i>Bilish</i>	<i>Tushunish</i>	<i>Qo‘llash</i>	<i>Analiz</i>	<i>Sintez</i>	<i>Baholash</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>		
1.	«Tikuvchilik ishlab chiqarish korxonasi jihozlari»	1.1 Tayorlov bo‘limi jihozlari						
		1.2 Bichish bo‘limi jihozlari						
		1.3 Tikish bo‘limi jihozlari						
		1.4 Tayor maxsulotlarga issiqlik va nam bilan ishlov berish						

	<i>kursining predmeti va vazifalari</i>	<i>bo'limi jihozlari</i>						
2.	<i>Tayorlov bo'limi jihozlari</i>	<i>2.1 Buyurtma asosida matolar hajmini aniqlash.</i>						
		<i>2.2 Maxsus mashinalarda matolarni to'qimachilik korxonalaridan tashib kelish.</i>						
		<i>2.3 RS-2 mashinasida matolar uzunlihi va enini o'lchash.</i>						
		<i>2.4 IL mashinasi yordamida andozalar yuzasini o'lchash.</i>						
		<i>2.5 PNK mashinasida matolardan to'shamalar hosil qilish</i>						
		<i>2.6 MR-3 va MNT-2 to'shash mashinalari</i>						
3.		<i>3.1 To'shamalarni bichishga tayolash</i>						
		<i>3.2 Bichish mashinalari turlari</i>						
		<i>3.3 Qo'zg'aluvchan bichish mashinalari</i>						
		<i>3.4 Qo'zg'almas bichish mashinalari</i>						
4.	<i>Tikish bo'limi jihozlari</i>	<i>4.1. Tikuv bo'limi jihozlari turlari</i>						
		<i>4.2 Ikki ipli moki baxya qatorli tikuv mashinalari</i>						
		<i>4.3 Bir ipli zanjirsimon tikuv</i>						

		<i>mashinalari</i>						
		<i>4.4 Yo'rmab tikish mashinalari</i>						
5.	<i>Tayor maxsulotlarga issiqlik va nam bilan ishlov berish bo'limi jihozlari</i>	<i>5.1 Bug' manekenlar</i>						
		<i>5.2 Sa'noat dazmollar</i>						
		<i>5.3 CS-311 presslari</i>						

4. Har bir tayanch iboraning o'quv maqsadini B.Blum pedagogik taksonomiyasi (1.5-jadval) asosida belgilash. Bu bosqich, pedagogik texnologiyada qayta takrorlanadigan o'qitish sikli uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Fanning u, yoki, bu tushunchasini o'rganish darajasi, u fanni ta'limning mazkur yo'nalishi uchun ahamiyati orqali aniqlanadi. Ta'lim yo'nalishiga ko'ra, bir tushunchaning o'zi turli o'quv toifalariga kirishi mumkin. Ta'limning bir yo'nalishi uchun bu masalan – bilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish uchun qo'llash bo'lishi mumkin va h.k.

Shuning uchun matematik va umumtabiiy, umumkasbiy blokka kiruvchi fanlarning tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifasi, mutaxassis chiqaruvchi kafedralar bilan kelishilgan holda o'rnatilishi zarur.

Barcha tayanch iboralar o'quv maqsadlarining yig'indisi, shu fanning o'quv maqsadlari katalogini tashkil etadi.

5. Har qaysi tayanch ibora, modullar uchun diagnostik testlar ishlab chiqish. Bu testlar talabalarning bilim olishini tashxislash maqsadida, joriy nazorat uchun ishlatiladi. Bilimlarning o'zlashtirilish darajasiga ko'ra, har bir tayanch ibora uchun testlar tuziladi.

Tayanch iboralarning o'quv maqsadlarini, B.Blum pedagogik taksonomiyasi bo'yicha belgilash («Tikuv, trikotaj va zardo'zlik buyumlarini ushlab chiqarish jihozlari» fani misolida)

<i>t/s p</i>	<i>Tayanch iboralar</i>	<i>O'quv maqsadlari toifasi</i>	<i>O'quv maqsadlari</i>
1.	<i>Tikuv choklar turlari</i>	<i>Tushunish</i>	<i>«Tikuv choklaru» iborasi mohiyatini tushuntirish</i>
2.	<i>Tikish jarayoni</i>	<i>Tushunish</i>	<i>«Tikish jarayoni» iborasi mazmunini tushuntirish</i>
3.	<i>Tikuvchilik ishlab chiqarish korxonasi</i>	<i>Tushunish</i>	<i>Tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalari turlari va vazifalarini tushuntirish</i>
4.	<i>Tikish mashinalari</i>	<i>Bilish</i>	<i>Tikish mashinalari vazifalarini ko'rsatish.</i>
5.	<i>Tikish mashinalarini sozlash bo'yicha buyurtmalar</i>	<i>Qo'llash</i>	<i>Tikish mashinalarini sozlash uchun talabnomalarni tuzish ko'nikmalarini namoyish etish.</i>
6.	<i>Tikish vaqtini bir mahsulot uchun topish</i>	<i>Qo'llash</i>	<i>Bir mahsulot uchun tikish vaqtini hisoblash.</i>
7.	<i>Kiyim mahsulot aylanmasi</i>	<i>Qo'llash</i>	<i>Kiyim tayyor bo'lish texnologik jarayon aylanmasini hisoblash</i>
8.	<i>Harakatlanuvchi tarkibning unumdorligi</i>	<i>Tahlil</i>	<i>Har bir texnik foydalanish ko'rsatkichini harakatlanuvchi tarkib unumdorligiga ta'sirini ko'rsatish.</i>
9.	<i>Kiyim tikish tarkibning vaqtdan foydalanish koeffisienti</i>	<i>Sintez</i>	<i>Kiyim tikish ketma-ketligining tikuv mashinalarida vaqtm birligini tuzish</i>
10.	<i>Kiyim detallarini bir-biriga ulashda ishlatiladigan tikuv mashinalari</i>	<i>Baholash</i>	<i>Tikish sifatiga qarab tikuv mashinalari darajasini baholash</i>
11.	<i>Tikuv mashinalarining texnik tayyorgarlik koeffisienti</i>	<i>Baholash</i>	<i>Tikuv mashinalarining texnik tayyorgarlik koeffisienti darajasini belgilovchi omillarni baholash</i>
12.	<i>Tikuv mashinalari asosiy mexanizmlarining foydalanish koeffisienti</i>	<i>Baholash</i>	<i>Tikuv mashinasi asosiy mexanizmlaru qobiliyatidan foydalanish koeffisientiga ta'sir etuvchi omillarni baholash</i>

O'quv materialini to'la o'zlashtirmagan talabalar, o'qituvchi rahbarligida shu materialni o'rganishni davom ettiradilar. Ular bilan qo'shimcha (tuzatish) o'quv ishlari tashkil etiladi. Testlar natijalari asosida, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Kamchiliklarni tuzatish uchun o'quv materialini o'zlashtirmagan talabalarning guruhi bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Materialni takroriy bayon qilishda boshqa yangi usullardan foydalanish lozim: birinchi marta ishlatilmagan ko'rgazma qurollar va o'qitishning texnik vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish zarur. Shu yo'llar bilan o'quv materialining to'la o'zlashtirilishiga erishish lozim, chunki har qaysi talaba oliy ta'lim muassasiga kirishda davlat ta'limi markazning test sinovlaridan muvofaqiyatli o'tadi.

Bilimlarni to'la o'zlashtirilishini ta'minlashda o'qitish sur'atlari alohida masala bo'lib turadi. O'quv materialini o'zlashtirish darajasi o'qitish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Iqtidorli talabalar uchun (ular taxminan 5 % ni tashkil etadi) o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» talabalar uchun ulardan ko'ra ko'proq vaqt, «bo'sh» talabalar uchun eng ko'p vaqt zarur bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalariga o'tish dolzarbligi shu bilan asoslanadi. Bunda har bir talaba o'quv materialini davlat ta'lim standartlari talablari darajasida, o'zining shaxsiy qobiliyatlari darajasida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtidorli talabalarda chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni egallashga imkoniyat paydo bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Aniq o'quv maqsadi, identifikasion o'quv maqsadi, bixeviorizm, o'quv maqsadlarning toifasi, pedagogik taksonomiya, o'quv maqsadlar daraxti, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning soatlar nisbati, auditoriya va mustaqil ish soatlarning nisbati, o'qitishning tushuntirish – qo'rgazmali yondashuvi, o'qitishning ijodiy izlanish yondoshuvi, tashxisli testlar, o'qitish jarayonidagi tuzatishlar, o'quv materialni o'zlashtirish darajasi, diagnostik testlar shakli, ekvivalent amaliyot qoidasi, o'qitish amaliyot qoidasi, o'qitish "natijalarini bilish" qoidasi, ijobiy qo'llash qoidasi, texnologik-pedagogik xarita, o'qitishning qayta takrorlanadigan sikli.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Aniq o‘quv maqsadi tushunchasini izohlab bering.
2. O‘quv maqsadlarni shakllantirish usullarini tushuntirib bering.
3. “Bixeviorizm” yo‘nalishini izohlab bering.
4. B.Blum pedagogik taksonomiyasini tahlil qilib bering.
5. O‘quv rejada fan bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlarning nisbati nimaga bog‘liq bo‘ladi?
6. O‘qitishning yondoshuvlarini izohlab bering.
7. Tashxis testlarni ishlatishdan maqsadini tushuntirib bering.
8. Talabalar bilimni baxolashda joriy, oraliq va yakuniy bosqichlarda ko‘lanadigan tashxis testlarning farqli xususiyatlarni aytib bering.
9. Tashxis testlarning murakkabligi va soni nimalarga bog‘liqligini tushuntirib bering.
10. O‘quv materialni o‘zlashtirish darajasi tushunchasini izohlab bering.
11. Tashxis testlarning shakllarini namoyon eting.
12. O‘qitishning qayta takrorlanadigan sikli tushunchasini tushuntirib bering.

Testlar

1. ”Taksomoniya” qanday ma’noga ega?

- A) Reklama qilish
- B) Loyhalashtirish
- C) Tartib bilan joylashtirish
- D) Ketma-ketlikka amal qilish

2. Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g‘oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so‘zlar vositasida bayon qilish imkonini beradigan metodning nomi?

- A) Klasterlarni ajratish
- B) Kubik

C) Bumerang

D) Sinkneyn

3. B. Blum taksonomiyasi . . . lardan iborat?

A) Sintez, baholash, tushunish, tahlil qilish

B) Qoidalarni qo'llash, takrorlash, qo'llash, tahlil

C) umumlashtirish, bilish, sintez, baholash

D) bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash

4. Bilish faoliyati nazariyasiga ulkan hissa qo'shgan va bilishning tajriba, kuzatuv va eksperiment metodiga asos slogan sharq mutafakkiri kim?

A) Alisher Navoiy

B) Al Kindiy

C) Al Xorazmiy

D) Abu Rayhon Beruniy

5. Bilish faoliyatining asosiy tiplari berilgan qatorni ko'rsating?

A) reproduktiv, produktiv

B) aqliy, jismoniy, intellektual

C) diqqat, xotira, iroda

D) persiptiv, reproduktiv, produktiv

6. Idrok qilingan didaktik qonuniyatlarning metodologik inikosi deb nimaga aytiladi?

A) didaktik tamoyillar

B) didaktik qonuniyatlar

C) didaktik formalizm

D) didaktik vositalar

7. Innovatsion ta'limda o'quvchi uchun qanday o'rin ajratiladi?

A) tinglovchi

B) mustaqil bajaruvchi

C) ob'yekt

D) sub'yekt

8. Innovatsiya jarayoni ketma-ketligining bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) xususiy yangilik, mahalliy yangilik, g'oyalarni yaratish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

B) shartli yangilik, yangilikni yoyish, ixtiro qilish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi

C) qoliplashtirish, takomillashtirish, takrorlash, amalgam oshirish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

D) yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

9. Interfaol metodi "Labirint" qanday maqsadlarda qo'llaniladi?

A) o'quvchilar faolligini oshirish, jadallashtirish maqsadida

B) ijodiy, mustaqil fikrlashni o'rgatish maqsadida

C) shaxsiy va kasbiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida

D) nostandart vaziyatlarda yo'l topish, ijodiy tadqiqotchilik maqsadida

10. Ishontirish tarkibiga . . . lar kiradi?

A) xotira, sh'eriyat, hayol, hislar

B) sport bilan shug'ullanish, qat'iylik, talabchanlik

C) bilim, his-tuyg'u, xulq-atvor

D) bilim, ko'nikma, malaka

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.

3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.iip.Net.

II – MODUL. ZAMONAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari, muammoli o‘qitish, Keys – stadi metodining rivojlanish turlari, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalari, hamda ishbilarmonlik o‘yinlar texnologiyasi ko‘nikmalarini shakllantirish.


MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:

-ta’limiy maqsad: talabalarga shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari, muammoli o‘qitish, Keys – stadi metodining rivojlanish turlari, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalari, shuning bilan bir qatorda ishbilarmonlik o‘yinlar texnologiyasi oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- tarbiyaviy maqsad: talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- rivojlantiruvchi maqsad: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

2.1. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari, muammoli o‘qitish.



*Kishida bo‘lmasa agar ist’edod,
Ming hiyla qil ta’lim kor qilmas aslo.
Gumon qilma, buzoq xudo bo‘lmaydi*

1 Avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari

O'quv maqsadlariga erishish, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan o'qitish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, talabaning o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Hanuzgacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanib, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

– yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar sinf (guruh)ni tashkil etadi:

– sinf (guruh, oqim) yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'ullanadi;

– mashg'ulotlarning asosiy birligi dars bo'lib, u bitta o'quv fanining bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi;

– o'quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo'llaniladi.

An'anaviy o'qitish asosini, Ya.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan, pedagogika tamoyillari tashkil etadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- *ilmiylik;*
- *tabiatga monandlik (o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);*
- *uzviylik va tizimlilik;*
- *o'zlashtiruvchanlik (ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga);*
- *mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)*
- *onglilik va faollik;*
- *nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;*
- *yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.*

An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa, faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining

tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an’anaviy o‘qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo, Ya.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktik tamoyillarga asoslangan o‘qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi.


An’anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega: majburlash pedagogikasi, o‘qitishning tushuntiruv-ko‘rgazmali usuli, ommaviy o‘qitish. An’anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi: o‘quvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - sardor, hakam, yagona tashabbuskor shaxs (1.7.-rasm).

Mumtoz an’anaviy «sinf-dars» tizimi - bayon etishning ma’ruzaviy usuli va kitob bilan mustaqil ishlashni o‘z ichiga oladi (didaxografiya).

Zamonaviy an’anaviy o‘qitish esa, o‘qitishning texnik vositalarini qo‘llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda, o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimining milliy modeliga alohida e’tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta’lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o‘rinda turadi. Boshqacha qilib aytganda, butun ta’lim tizimi, shu jumladan, o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.



1.7.-rasm. O'qitish texnologiyalarining blok-sxemasi.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko'ra rivojlanganroq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrigacha (XX asrning birinchi yarmigacha), fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyutsion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

Shuning uchun ketma-ket keluvchi avlodlarning rivojlanish darajasi deyarli farq qilmas edi. Bunday sharoitlarda Ya.A.Komenskiyning o'qitishning avtoritar texnologiyasi, an'anaviy «sinf-dars» tizimi dunyoga keldi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida (XX asrning ikkinchi yarmi), fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrining oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratdi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

- *insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'ravonlikdan to'la voz kechish;*

- *hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;*

- *erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng, yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.*

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- *pedagogik jarayonda shaxs ob'ekt emas, sub'ekt hisoblanadi;*
- *har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;*
- *yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.*

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *o'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,*
- *o'quvchining erkin tanlab olish huquqi;*
- *xatoga yo'l qo'yish huquqi;*
- *o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi*
- *pedagog va talaba munosabatining asosi: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.*

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu yondashuvni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so'zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- *ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;*
- *o'quv materialiga qiziqish uyg'otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag'batlantirish;*
- *o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;*
- *jamo'a orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta'minlash.*

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan o'quvchiga emas, o'quvchidan o'quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- *o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirishdan voz kechish;*
- *shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;*
- *shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.*

Shaxsiy yondashishda birinchi novbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:

- *har bir o‘quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o‘quvchilar iste‘dodli degan ishonch bo‘lishi kerak.*
- *shaxsga, yutuqni ma‘qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya‘ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.*
- *bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.*
- *pedagogik jarayonda, o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.*

Oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tizimi uchun, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *ishbilarmonlik o‘yinlari;*
- *muammoli o‘qitish;*
- *tabaqalashtirilgan o‘qitish;*
- *dasturlashtirilgan o‘qitish;*
- *kompyuterlashtirilgan o‘qitish;*
- *modulli o‘qitish;*
- *keys – stadi.*

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrda rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta‘kidlash to‘g‘ri bo‘lar edi.

Qadimiy faylasuf Suqrot o‘z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi.

Qadimiy Rim pedagogi M.F. Kvantilian har bir shogirdga e‘tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.

O‘rta asr Sharqining buyuk olim-mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgin. Asrlar, ming yillar davomida shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida sivilizatsiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko'rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqimiz bolalarga «siz» deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo'lib «salom» berur.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g'oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoq haqida» bobida yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning o'zagi shaxslar o'rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi. Bu qadriyatlar Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Shirin so'z odam haqida», «So'kmoq va la'natlamoq ta'qiqlanganligi haqida» boblarida namoyon etilgan. Unda shaxsni so'kish va la'natmoq uni o'ldirish bilan tenglashtirilgan.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlarga asoslangan ta'limimiz, jahon fanining shakllanishiga va rivojiga o'zining munosib xissa qo'shigani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Baxovuddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Zuxriddin Bobir kabi buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon sivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.

Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog-olimlari hissa qo'shgan, jumladan: italiyalik Vittarino de Feltre, fransuz - Fransua Rable, ingliz - Tomas Mor, nemis - Adolf Disterveg, rus - Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Bular gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashning rivojlanishini, ijodni, faollikni, ko'rgazma materiallardan keng foydalanishni, nazariy ta'limni mehnat bilan bog'lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o'quvchilarni sub'ekt deb hisoblar edilar.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini ochishga xizmat qiladi.

3. Muammoli o‘qitish texnologiyasi

Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy yondoshish. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san‘at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taaluqli, chunki bu yerda shaxs sub’ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.


Muammoli o‘qitish o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi (1.8-rasm), o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o‘qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o‘quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa, faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv mashg'ulotlarining turi bo'lib, unda pedagog tomonidan muammoli vaziyatlar yaratiladi va uni yechish uchun talabalarning faol mustaqil faoliyati tashkil etiladi.

Ta'rifi



Muammolik darajasi bo'yicha «MV»

Usullardan qat'iy nazar yuzaga keladigan
Pedagog tomonidan yuzaga keltiriladigan va yechiladigan
Pedagog tomonidan yuzaga keltiriladigan va talabalar tomonidan yechiladigan
Muammolar va yechimlar mustaqil ravishda shakllanadi


Metodik xususiyatlari bo'yicha «MV»

Muammoli bayon etish
Evristik suhbatlar va o'yinli «MV»
Tadqiqiy va tajriba ishlarida
Muammoli topshiriqlar va masalalar yechish

«MV» yaratishning uslubiy yo'llari

Qarama-qarshiliklarga olib kelinadi va talabalarning o'zlariga yechim yo'llarini izlash taklif etiladi
Amaliy faoliyat bilan qarama-qarshiliklar yuzaga keladi
Aynan bir masala bo'yicha, turli xil qarashlar bayon etiladi
Ishtirokchilarga, hodisaga turli xil holatlardan baho berish taklif etiladi
Muammoli nazariy va amaliy topshiriqlar aniqlanadi.
Taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga undaydi.
Aniq savollar qo'yiladi (umumlashtirish, aniqlashtirish uchun)
Ilk ma'lumotlari kam, ortiq yoki, xato bo'lgan muammoli masalalar qo'yiladi.

1.8-rasm. «Muammoli o'qitishning» blok-sxemasi.



1.9-rasm. Muammoli o‘qitishning texnologik sxemasi.

BKM–bilim, ko‘nikma, malaka AFU – aqliy faoliyat usullari

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, talabalar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Shuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo, yoki muammolarning yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – talabalar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi. Chunki, ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarni takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar, inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy, yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi.

Talaba noma'lum yechimni topish uchun mustaqil, yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt - ob'ekt -sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o'qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o'quv, yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo'ladigan zaruriy ob'ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa, barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli muammoli o'qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir. Muammoli o'qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida

joriy etiladi, u nostandart masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan fikrlashni shakllantiradi.

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- *muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;*
- *muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);*
- *muammo yechimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;*
- *pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur.*

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- *talabaning fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;*
- *muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;*
- *nostandart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;*
- *kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega.*

Har qanday o'quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. O'quvchilarga fan tarixini o'rgatishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, yechimlar fandagi yangi ma'lumotlar takroriy bosqichidagi an'anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. Kashfiyotlar tarixi orqali izlanish mantiqini egallash – muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo'llardan biridir. O'qitishning an'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvofaqiyati, quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan «muammolik darajasi»ga bog'liq bo'ladi:

- muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida talaba uchun ma'lum va noma'lumlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi;
- muammo yechimida talaba ijodiy ishtirokining ham jamoaviy, ham shaxsiy hissalari hisobga olinadi.

Muammoli o'qitishning uchta asosiy shakli mavjud:

O'quv materialini muammoli bayon etish – ma'ruzaviy mashg'ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi yechadi, o'quvchilar esa yechimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar. Masalan, «O'simliklar hayoti haqida» mavzusidagi ma'ruzaning boshida «Nega ildiz va tana qarama-qarshi tomonlarga o'sadi?» degan muammo qo'yiladi, ammo ma'ruzachi tayyor javobni bermaydi, u fanning bu haqiqatga qanday yetib kelgani, bu hodisa sabablari haqidagi farazlarni tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida hikoya qiladi;

Qisman izlanish faoliyati tajribalar laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar talabalarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u talabalar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli, 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya (qayta shakllanish)ni ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

Mustaqil tadqiqot faoliyatida talabalar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar (kurs, yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa, 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim - qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Tayanch iboralar:

Avtoritar o'qitish texnologiyasi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi, insonparvarlik, hamkorlik, erkin tarbiyalash, muammoli o'qitish texnologiyasi, muammoli vaziyat,



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari va topshiriqlar:

1. An'anaviy o'qitish jarayonida talabanning o'rnini izohlab bering.
2. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida talabanning o'rnini izohlab bering.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining milliy modelida «shaxs»ning o'rnini to'g'risida aytib bering.
4. Hamkorlik tamoyilini tushuntirib bering.
5. Erkin tarbiyalash tamoyilini tushuntirib bering.
6. An'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarida o'qitish natijalarni izohlab bering.
7. Muammoli o'qitish texnologiyasining ta'rifi va mohiyatini tushuntirib bering.
8. Muammoli o'qitishning maqsadli yo'nalishlariga izoh bering.
9. Muammoli o'qitishning konseptual qoidalariga izoh bering.
10. Muammoli vaziyatlarni yaratishning uslubiy yo'llarini tahlil eting.
11. Muammoli o'qitishda pedagog faoliyatini izohlab bering.
12. Muammoli o'qitishda talaba faoliyatini izohlab bering.
13. Muammoli o'qitishning asosiy shakllarini tushuntirib bering.

Testlar

1. Qadimdan beri ta'limda . . . usuli keng qo'llanib kelinmoqda.

- A) mushohada
- B) savol-javob
- C) fikr bildirish
- D) baholash

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?

A) 1999-yil 16-sentabr

B) 1992-yil 8-dekabr

C) 1997-yil 29-avgust

D) 1996-yil 18-noyabr

3. Qanday tasnifga ko'ra pedagogik texnologiyalar: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal turlarga bo'linadi?

A) qo'llanish darajasiga ko'ra

B) falsafiy asosga ko'ra

C) yetakchi omillarga ko'ra

D) ilmiy konsepsiyasiga ko'ra

4. Qanday o'qitish texnologiyasi turida pedagog faqat birgina o'quvchi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi yoki bir o'quvchi faqat o'qitish vositalari bilan o'zaro aloqada bo'ladi?

A) o'qitishni tabaqalashtirilgan texnologiyasida

B) o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi

C) didaktik o'yinli texnologiyasi

D) an'anaviy o'qitish texnologiyasi

5. Ma'lum bir maxsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi yoki jarayonning bosqichma-bosqich izchillik bilan qo'llanilgan vositalarini ko'rsatib bergan holda tasvirlovchi hujjat?

A) reja-konspekt

B) texnologik xarita

C) dars ishlanmasi

D) dars bayoni

6. Ma'ruza nima?

A) seminar asosi, bilim olish usuli

B) katta hajmdagi o'quv materialini nisbatan uzoq vaqt mobaynida monologik bayon etish

C) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash asosi

D) nazariy bilimlar majmui

7. Metodika bilan pedagogik texnologiya tushunchalarining izohi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) metodika va pedagogik texnologiya o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi

B) metodika - pedagogik muvofaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihalash tashkiliy rejalar majmuasi; pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha rejalar majmuasi

C) metodika va pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha rejalar majmuasi

D) metodika - o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi; pedagogik muvofaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihalash tashkiliy majmuasi

8. Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi – pedagogik texnologiyalarga kiruvchi qatorni toping?

A) muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari

B) hamkorlik pedagogikasi, erkin tarbiya, insonparvar shaxsiy texnologiya

C) ijodiy va informatsion texnologiyalar

D) guruhli va individual texnologiyalar

9. Pedagogik innovatsiya nima?

A) yangi taktika

B) guruhli ta'lim

C) yangilik kiritish

D) sifatga erishish

10. Pedagogik qobiliyat qachon boshlanadi?

A) mehnat faoliyatida

B) o'quv faoliyatida

C) pedagogik faoliyatda

D) ijod qilish jarayonida

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru


www.School. edu. uz

www.Ppsy. ru

www.Bank/referat. ru

www.ise.iip. Net.

2.2. Keys – stadi metodining rivojlanish turlari.



Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi.

Tarbiya esa amaliy ish, tarjiba bilan bo'ladi.

Abu Nasr Farobiy.

1.Keys haqida umumiy tushuncha. Keys-stadi inglizcha case – aniq vaziyat, study – ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. **Keys-stadi** - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va Boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, tahminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan **farqli** ravishda **real** vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar, u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

“Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShdagi Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo'llanila boshlangan.

Keyslarning ilk to'plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko'payib bormoqda. XX asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ommalashdi. Yevropaning yetakchi biznes maktablari keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar.

Keys turlari

Bosma holatdagi keys (uni yanada ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illyustratsiyalarni ham o'z ichiga oladi).

Keys - stadi metodi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- keys topshirig'ini yozma ko'rinishda tayyorlashni;
- o'quvchilarning keys topshirig'ini mustaqil o'rganishlari va muhokama etishni;
- Professor-o'qituvchi rahbarligida auditoriyada hamkorlikda keys-topshirig'ini muhokama etishni;
- «muhokama yechimdan ham muhim» tamoyiliga rioya etishni.

Keys-stadining o'ziga xosliklari

1. Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.
2. Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.
3. Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
4. Xar-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish.
5. Muvofaqiyatga erishish uchun o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish

Keys-metodini amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining bosqichlari

- 1) tayyorgarlik bosqichi;
- 2) asosiy bosqich: keys-stadi metodini amalga oshirish;
- 3) tahliliy, baholovchi bosqich.

Keys bilan ishlash jarayonida professor-o'qituvchining harakat strategiyasi mavjud:

1. O'qituvchi muammoning yechimini topishga yordam beruvchi kalit vazifasini bajaruvchi qo'shimcha savollarni, yoki ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.
2. Ayrim vaziyatda o'qituvchining o'zi javobni aniqlashtirishi mumkin.
3. Muammo ustida o'quvchilar ishlayotgan vaqtida o'qituvchi hech qanday yordam bermasligi mumkin.

Multimedia-keys (so'nggi vaqtlarda keng qo'llashni talab etayotgan Video keys (film, audio va video materiallar)dan iborat bo'lishi mumkin.

2. Talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar talabalarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish olib boorish.

O'quvchi mustaqil ravishda:

- 1) keys materiallari bilan tanishadi;
- 2) taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- 3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- 4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- 5) taklif etiladigan harorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bo‘yicha jamoa bo‘lib ishlash.

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

1) guruh a‘zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

2) yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo‘yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

3) muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo‘lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmivlashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o‘tkazish:

1) real vaziyat yechimiga doir o‘z variantlarini taqdim etadilar;

2) tanlangan harakatlar yo‘lini izohlaydilar va yechimning to‘g‘riligini asoslaydilar;

3) boshqa guruh a‘zolarining savollariga javob beradilar va o‘z takliflarini asoslaydilar.

Jamoa bo‘lib keys ustidan ishlash:

■ guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarining muhokamasi;

■ taklif etgan yechimlarning o‘zaro baholanishi;

taklif etilgan yechimlarning xayotiyligi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (talabalar va o‘qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Texnologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

2. Nazariya va amaliyot birligini ta‘minlash.

3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish etish.

4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.

5. Noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va talaba (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

Texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

“Keys-stadi” yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalarga ega bo'ladi:

1. Tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, fikrini bildirish va o'zini boshqara olishi lozim).

2. Amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

3. Ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

4. Muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

5. Ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o'zini boshqara olishi lozim).

6. O'z-o'zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim)

Har o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga

ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) tushunilmasligi);
- savol yoki topshiriqlar ma'lum darajada murakkab bo'lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish olishi;
- tezda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon etish olishi;
- ta'limning barcha yo'nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;
- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta'minlay olishi

O'quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e'tiboriga adabiyotlar ro'yxatining taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning yechimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan muammoga bevosita taalluqli bo'lishi zarur.

Keyslarni yechishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. *Keys (muammo) bilan tanishish.*
2. *Muammoning dolzarbligini baholang.*
3. *Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.*
4. *Keys (muammo)ni samarali yechish yo'llarini aniqlang.*
5. *Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.*
6. *Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring*

Xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (Yevropa), katta (AQSH) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto

o'quv yili davomida yechiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiqir. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lmagan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

Aytib o'tilganidek, xorijiy mamlakatlar katta hajmli, murakkab ilmiy-tadqiqot xarakteriga ega keyslar ko'p qo'llaniladi va ularni hal etish butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida amalga oshiriladi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu keyslaran samarali foyalanish mumkin. Shu bilan birga o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida kichik hajmli, sodda – mini keyslardan ham foydalanish foydadan holi emas. Murakkab va oddiy mini keyslar o'rtasidagi eng muhim farqlar – ularning hajmi, murakkablik darajasi va tarkibiy tuzilmasida aks etadi.

Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

- 1. Pedagogik annotatsiya.*
- 2. Kirish.*
- 3. Keys (muammo)ning bayoni.*
- 4. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.*
- 5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.*
- 6. Metodik ko'rsatmalar.*
- 7. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).*
- 8. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.*
- 9. Keys yechimini tahlil qilish.*
- 10. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi*

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

- 1. Keys (muammo)ning bayoni.*
- 2. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.*
- 3. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.*
- 4. Metodik ko'rsatmalar.*
- 5. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).*
- 6. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.*
- 7. Keys yechimini tahlil qilish.*
- 8. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi*

Anglanganidek, ta'lim jarayonida o'quv keyslarini qo'llashda jarayon (mashg'ulot) yakunida albatta o'qituvchi (keyolog)ning yechimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu yechim asosida talabalarning o'z o'quv-bilish harakatlarining qanchalik to'g'ri, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

Agar, keys **savolli-keys** bo'lsa, u holda muammo, yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechishga oid **bir necha savollar** keltiriladi. Misol:

1. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishining asosiy omillari nimalardan iborat?

2. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishlarida OAVning o'rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

Agar, keys **topshiriqli-keys** bo'lsa, u holda keysni yechish jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan **topshiriqlar** beriladi. Misol:

1. Yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni samarali shakllantirish yo'llarini belgilang.

Odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalardan, balki ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mumkin.

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko'ra B.Blum taksonomiyasi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo'llash tizimi)ga muvofiq bir necha guruhga ajratish mumkin

Asosiy guruhlar

1. Pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.

2. Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keyslar

3. Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat va hodisaning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo'naltirilgan keyslar

4. Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat va hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keyslar

5. Pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keyslar

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o'rinli foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi. Quyidagi misollar ushbu fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi.

1. Pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.

Keys bayoni. Sobir o'rta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida "uch" baholar ko'p bo'lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar ta'lim muassasasiga qabul qilinmadi. Har bir ta'lim muassasasining rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar ta'lim muassasasiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o'g'illarini o'zlari yashaydigan tumandagi kasb-hunar ta'lim muassasasida ta'lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Keys savollari:

1. Ayting-chi, kasb-hunar ta'lim muassasalarining rahbarlari Sobirni o'qishga qabul qilmaslikka haqlimlar?

2. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

O'qituvchining yechimi. Kasb-hunar ta'lim muassasasi rahbarlari ijtimoiy xavf bo'lmagan holda "uch" bahoga o'qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko'zga tashlanishi uchungina Sobirni o'qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqini poymol yetishgan. Qolaversa, kasb-hunar

ta`lim muassasalariida ta`lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar ta`lim muassasasini o`zlari tanlay oladi.

Bordi-yu, ta`lim muassasasiga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o`zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o`ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar ta`lim muassasasiga qabul qilinmaydi.

Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O`zbekiston Respublikasi "Ta`lim to`g`risida"gi Qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar ta`lim muassasalariining rahbarlari ma`muriy javobgarlikka tortiladi.

2. Pedagogik faoliyat, hodisa, yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

Keys bayoni. Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o`rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o`qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o`zining karikatura janrida ishlangan rasmini ko`radi. Karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh o`qituvchining karikaturagaya, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutuyapti. Biroq, o`qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: "Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto o`chirgim kelmayapti. Rasm ijodkori – yosh rassom uni qog`ozga ko`chirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!".

Keys savollari: 1. O`qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan Siz qanday baholaysiz?

2. Bu vaziyatda o`qituvchi qanday tarbiya metodini qo`lladi?

O`qituvchining yechimi. Bu vaziyatda o`qituvchi o`zining tarjribali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani o`zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san`at asari sifatida qabul qildi. Natijada o`qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning o`rniga o`zining san`atga bo`lgan muhabbatini ko`rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o`qituvchining irodali, o`ziga hurmat bilan munosabatda bo`lishi, hissiyotlarini jilovlay olish, o`z-o`zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko`rsatdi. Oqibatda

talabalar o'qituvchining ruhan barqaror ekanliklarini angladi. Shu sababli keyingi safar ular o'qituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istashmaydi.

Bayon etilgan vaziyatda o'qituvchi: 1) **izohlash** (o'zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganlikni ifodalovchi hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlaridan biri bo'lgan – **qo'llab-quvvatlash metodidan** foydalandi.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo'naltirilgan keys.

Keys bayoni. Tarix fani o'qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi:

- 1) ma'lumotlarni izchil bayon qildi;
- 2) zarur o'rinlarda tayanch tushunchalarga alohida urg'u berdi;
- 3) xaritadan tarixiy voqealar sodir bo'lgan joylarni ko'rsatdi;
- 4) vaqti-vaqti bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi;
- 5) o'quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

Keys topshirig'i. O'qituvchining xatti-harakatlari qanday metodlar yordamida amalga oshirilganligini aniqlang.

O'qituvchining yechimi. Tarix fani o'qituvchisi qo'llagan metodlar: 1) hikoya; 2) tushuntirish; 3) tasvirlash; 4) suhbat; 5) namoyish.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keys.

Keys bayoni. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining;
- 2) zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi;
- 3) dastlabki bajarilishi o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi.

Ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto'g'ri ko'rsatilgan.

Keys topshirig'i. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifodalang.

O'qituvchining yechimi. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
- 3) o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- 4) zarur ko'nikma va malakalar shakllanishiga o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

5. Pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keys.

Keys bayoni. Og'zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys topshirig'i. Og'zaki bayon qilish metodi turlarini "Baliq skeleti" grafik organayzerida ifodalang.

O'qituvchining tayyorlanishi

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda **keys stadi** metodidan foydalanish, talabalarni fikrlashga, muammolarni hal etish ko'nikmalarini xosil qilishga, kashfiyotlarga intilish, hamkorlik va sheriklik sifatlarini shakllantirishga, o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni hal etish rejasini tuzishga va eng asosiysi talabalar oldiga qo'yilayotgan muammoni hal qilishga, uni mustaqil muxokama qilishga qodir qilib ta'lim va tarbiya berish imkoniyatini yaratadi.

Keys-stadi amaliyotini o'tkazuvchi o'qituvchi mashg'ulotga oddiy tayyorlanishdan tashqari quyidagilarni ham bajaradi:

- vaziyatni puxta tahlil qiladi, muammoli vaziyatni tahlil etish va uni hal qilish uchun talabalarga taklif qilinishi mumkin bo'lgan bir necha modellarni tayyorlaydi;
- vaziyat yechimi bo'yicha talabalar taklif etadigan variantlarni baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqadi.
- muammoni yechish bo'yicha o'zining variantini tayyorlaydi.

**KEYS METODI ASOSIDA DARS O‘TISHNING FARQLOVCHI
XUSUSIYATLARI**

Farqlovchi ko‘rsatkichlar	O‘qitish metodlari	
	An’anaviy metodlar asosida o‘qilgan ma’ruza	Keys metodi asosida o‘tilgan dars
Maqsad	Bilim berish	- fikrlash; - muammoni xal etish ko‘nikmalarini xosil qilish; - kashfiyotlarga intilish, hamkorlikka tayyor bo‘lish sifatlarini rag‘batlantirish;
O‘qituvchining vazifasi	O‘z fanining mazmunini bilish	-O‘z fani mazmunini bilish; -Muxokama jarayonini boshqara bilish;
O‘qituvchi - talaba munosabailari	O‘qituvchining o‘quvchi – talaba ustidan hukmronligi. Ierarxiya huquqlarining teng emasligi	Sheriklik va hamkorlik
Talabalarning o‘z – o‘zini va bir – birini o‘qitish jarayonida ishtiroki	Sust	Faol talabalar o‘qituvchining vazifasi hisoblanuvchi muxokama rejasini tuzish, asosiy maqsadni aniqlash, mustaqil muxokama qilishga qodir bo‘ladilar
Mas’uliyat	Mas’uliyat to‘la ma’ruzachining zimmasida	Mas’uliyat ko‘proq tinglovchi, talaba, o‘quvchi zimmasida
Tadqiqot ko‘lami	Fan doirasida	Fan doirasini har bir talabaning intellekti, intilishi bilan bog‘liq holda keng qamrab olish imkoniyati mavjud

Shu maqsadda, keys – stadi texnologiyasining vazifa - topshirig‘i sifatida aniq maxsulot turini ishlab chiqarishda maxalliy xom ashyolardan foydalanish muammolari, ishlab chiqarishda noan’anaviy xom ashyolarni qo‘llash imkoniyatlari, ishlab chiqarilayotgan maxsulotning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish muammolari, ishlab chiqarish chiqitlarini yuzaga kelish sabablari va ularni kamaytirish muammolari, energiyani va resurslarni tejaydigan yuqori samarador texnologiyani yaratish muammolari mavzu tarzida berilsa, uni bajarish jarayonida talabanning tegishli fan bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlari yanada kengayadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda unda egallagan bilimlarini nostandart vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.

Tayanch iboralar: *keys-stadi maktablari, keys turlari, bosma holatdagi keys, multimedia-keys, video keys, real vaziyat, tahliliy ko‘nikmalar, amaliy ko‘nikmalar, ijodiy ko‘nikmalar, muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy ko‘nikmalar, O‘z-o‘zini tahlil qilish, keysning dasturiy kartasi murakkab keys, mini keyslar, savolli-keys, topshiriqli-keys.*



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1.Keys-stadi maktablari haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Keys turlariga izoh bering.
- 3.Keys-metodini amalga oshiruvchi o‘qituvchi faoliyatining bosqichlari nimadan iborat?
- 4.Talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlariga izoh bering.
- 5.“Keys-stadi” yordamida talabalar ko‘nikma, malakalarini qanday oshirish mumkin?
- 7.Keys metodi asosida dars o‘tishning farqlovchi xususiyatlari nimadan iborat?

Testlar:

1. Keys-stadi soʻzining togʻri maʼnosini aniqlang.

A). Keys-stadi fransuzcha kase – aniq vaziyat, study – taʼlim soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan taʼlim metodidir.

B) Keys-stadi nemischa kase – aniq vaziyat, study – taʼlim soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan taʼlim metodidir.

C) Keys-stadi lotincha kase – aniq vaziyat, study – taʼlim soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan taʼlim metodidir.

D) Keys-stadi inglizcha kase – aniq vaziyat, study – taʼlim soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan taʼlim metodidir.

2. Pedagogik qobiliyat tarkibini nimalar tashkil etadi?

A) bilish, qiziqish, bilimlar, pedagogik texnologiyadan foydalanish

B) koʻnikma, malaka, qiziqish, bilim, pedagogik texnologiyadan foydalanish

C) qoʻllash, baholash, analiz, sintez, pedagogik texnologiyadan foydalanish

D) shaxsga taʼsir etish, bilimlar, tahlil qilish, pedagogik texnologiyadan foydalanish

3. Taʼlim iborasiga qaysi variantda toʻgʻri taʼrif berilgan?

A) nazariy va amaliy mashgʻulotlar;

B) bilim berish, malaka va koʻnikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi;

C) olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlar majmui;

D) insonlarning oʻrganish qobiliyati;

4. Oʻqitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, pedagogikaning qaysi qismida oʻrganiladi?

- A) Metodika;
- B) Kasbiy pedagogika;
- C) Didaktika;
- D) Pedagogika;

5. Ta`limiy kenglik bu - ?

- A) ta`lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya`ni atrof muhit bilan o`zaro harakat anglatadigan kenglik :
- B) bilim berish, malaka va ko`nikma hosil qilish;
- C) nazariy dars va amaliy mashg`ulotlar paytida qo`llaniladigan usullar majmui ;
- D) voqeilikni bilish, o`zlashtirish, o`zgartirish usullar majmui;

6. Faoliyatlarning zaruriy tashqiliy komponenti bo`lib nima hisoblanadi?

- A) Didaktika;
- B) Metodika;
- C) Metodologiya;
- D) Kasbiy ta`lim texnologiyasi;

7. Kasbiy ta`lim texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

- A) o`qitish va o`qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli;
- B) olamning zaruriy xususiyatlari haqidagi axborotlar majmui;
- C) bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish;
- D) biror ob`ektning amaliy o`zgartirish;

8. Qaysi tamoyil talabalarga o`rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan amalda sinab ko`rilgan ma`lumotlar berilishini talab etadi?

- A) faollik tamoyili;
- B) didaktik reduksiya tamoyili;
- C) ilmiylik tamoyili;
- D) o`qitishning tarbiyalovchi tamoyili;

9. Modul iborasiga qaysi variantda to`g`ri ta`rif keltirilgan?

- A) dasturlashtirilgan o`quv materialining o`qituvchi yordamida

boshqaradigan o`zlashtirish;

B) o`quv materialining mantiqan tugallangan birligi:

C) talabalar o`z-o`zini nazorat qilishlari bajariladigan jarayon;

D) o`quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon;

10. Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo`lini aniqlang?

A) talabalar darslik bilan mustaqil ishlashi;

B) o`quv va mehnat faoliyatidagi mustaqillikni rivojlantirish;

C) talaba o`zining individual xususiyatlariga tayanish;

D) qarama-qarshiliklarga olib kelinadi va talabalar o`zlariga yechim yo`llarini izlash taklif etiladi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru


www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.Iip.Net.

2.3. Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o'qitish texnologiyalari.



Har bir kishi kasb – korni mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq – odob, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak.

Abu Nasr Farobiy.

1 Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasining mohiyati

Tabaqalashtirilgan o'qitish o'quv jarayonini tashkil etishda umumiy didaktika tamoyillariga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini ixtisoslashtirishni ta'minlaydi (1.10-rasm, 1.11-rasm).

O'qitishni tabaqalashtirish (bu tushuncha o'qitish jarayonining o'zi bilan bog'liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.


Umumta'lim ta'lim muassasalariida, akademik litseylarda va kasb-hunar ta'lim muassasalariida talabalarning aqliy rivojlanish darajasi bo'yicha tabaqalashning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham mavjud bo'ladi. Oliy ta'lim

muassasasi uchun esa, bu o‘qitish tizimiga hech qanday shak-shubha yo‘q. Hozirgi paytda oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 100 % dan 30 % gacha tashkil etadi. Bunday sharoitda davlat ta’lim standartlari talabiga mos oliy malakali kadrlar tayyorlash maqsadida o‘qitishni tabaqalashtirish davr taqozosidir. O‘qitishning eng yuqori oliy pog‘onasi individual o‘qitish hisoblanadi (1.10-rasm).

O‘qitishni tabaqalashtirish		
A. Boshlang‘ich pog‘ona	B. O‘rta pog‘ona	C. Oliy pog‘ona
Oqimlarda va akademik guruhlarda o‘qitish	Gomogen guruhlarda o‘qitish (GGO‘)	Individual o‘qitish (IO‘)
O	O‘	IO‘
M	Q	IO‘
M	I	IO‘
A	T	IO‘
V	I	IO‘
I	SH	IO‘
Y		IO‘
		IO‘
		IO‘
		IO‘

1.10-rasm. O‘qitishning tabaqalashtirish pog‘onalari.

2. Tabaqalashtirilgan o'qitishning blok sxemasi



1.11-rasm. «Tabaqalashtirilgan o'qitish»ning blok-sxemasi.

3. Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasining mohiyati

Talabaning mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishini ta‘minlash, zamonaviy o‘quv jarayoniga qo‘yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o‘qitish orqali erishish mumkin.

Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog talabalar bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, talaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta‘lim oladi.


Individual o‘qitishning afzalliklari: pedagogik jarayonning talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi

Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.


Individuallashtirilgan o‘qitish bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari, sur‘ati tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta‘minlanadi (1.12-rasm).

Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi (1.13-rasm) – bunda o‘quv jarayonini pedagogik texnologiya tamoyilari asosida tashqil etadi va unda individual yondashish va o‘qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi. O‘qitishning barcha shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarida u, yoki bu darajada individual yondashish qo‘llaniladi, ammo individuallashtirilgan o‘qitishda, individuallashtirish, o‘quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individuallashtirilgan o‘qitishning asosi, talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o‘rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida, o‘qitish usuli tanlanadi. Qabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va tamoyillarga ko‘ra o‘qitish jarayoni amalga oshiriladi.

4. Individuallashtirilgan o'qitishning blok sxemasi



1.12-rasm. «Individuallashtirilgan o'qitish»ning blok-sxemasi.



1.13-rasm. Individuallashtirilgan o'qitishning texnologik sxemasi.

Tayanch iboralar

Tabaqalashtirilgan o'qitish, gomogen guruh, individual o'qitish, individual yondashish, individuallashtirilgan o'qitish, individual o'qitish texnologiyasi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasining ta'rifini va mohiyatini aytib bering.
2. Tabaqalashtirilgan o'qitishning maqsadli yo'nalishlarini tushuntirib bering.
3. Tabaqalashtirilgan o'qitishni konseptual qoidalarini aytib bering.
4. Gomogen guruhlarini tashkil etish usullarini namoyon eting.
5. Tabaqalashtirilgan o'qitishning texnologik sxemasini izohlab bering.
6. Individual o'qitish, individual yondashish, individuallashtirilgan o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi iboralarining ta'rifini aytib bering va mazmunini tushuntirib bering.
7. Individuallashtirilgan o'qitishning maqsadli yo'nalishlariga izoh bering.
8. Talabalarning individual-psixologik xususiyatlarga tavsif bering.
9. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasining o'qitish tamoyillarini tushuntirib bering.
10. Individuallashtirilgan o'qitishning texnologik sxemasini izohlab bering.

Testlar

1. Dasturlashtirilgan o'qitish nechanchi asrlarda paydo bo'ldi?

- A) XX asr oxirlarida
- B) XX asrning 50-yillarida
- C) XIX asrning oxirida
- D) XIX asrning 50-yillarida

2. Dasturlashtirilgan o'qitishning nechta asosiy tamoyili farqlanadi?

- A) 4 ta
- B) 2 ta

C) 3 ta

D) 5 ta

3. Dasturlashtirilgan ta'lim metodi nima?

A) o'quv dasturlarini tuzish

B) o'quv dasturlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tavsiyali ishlab chiqish

C) maxsus tuzilgan ta'lim dasturlari bo'yicha EXM vositasida o'qitish, o'rgatish

D) an'anaviy ta'lim jarayonini o'quv dasturlari asosida tashkil qilish

4. Didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda qanday talablarga amal qilinadi?

A) didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi

B) muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi

C) mazkur darslarda didaktik prinsplarga amal qilinishi va ulkan samaraga erishish

D) barchasi to'g'ri

5. Ilk bor pedagogik psixologiyada mantiqiy hukm turlarining shakllanishi (muammoli, oldindan ko'ra bilish) va xulosa chiqarish planida ta'lim oluvchining fikrlashini qaysi psixolog tahlil qilib bergan?

A) P. Blonskiy

B) K. Ushinskiy

C) A. S. Makarenko

D) B. Blum

6. Ilmiy adabiyotlardan, pedagogik texnologiyaning uch aspekti to'g'risida fikr yuritiladi. Bular qaysilar.

A) ilmiy, tavsifiy, tarbiyaviy

B) ilmiy, pedagogik, tarbiyaviy

C) ilmiy, tavsifiy, amaliy

D) pedagogik, tarbiyaviy, amaliy

7. Innovatsion ta'limda o'quvchi uchun qanday o'rin ajratiladi?

A) tinglovchi

B) mustaqil bajaruvchi

C) ob'yekt

D) sub'yekt

8. Innovatsiya jarayoni ketma-ketligining bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) xususiy yangilik, mahalliy yangilik, g'oyalarni yaratish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

B) shartli yangilik, yangilikni yoyish, ixtiro qilish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi

C) qoliplashtirish, takomillashtirish, takrorlash, amalgam oshirish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

D) yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

9. Interfaol metodi "Labirint" qanday maqsadlarda qo'llaniladi?

A) o'quvchilar faolligini oshirish, jadallashtirish maqsadida

B) ijodiy, mustaqil fikrlashni o'rgatish maqsadida

C) shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish maqsadida

D) nostandart vaziyatlarda yo'l topish, ijodiy tadqiqotchilik maqsadida

10. Ishontirish tarkibiga . . . lar kiradi?

A) xotira, sh'eriyat, hayol, hislar

B) sport bilan shug'ullanish, qat'iylik, talabchanlik

C) bilim, his-tuyg'u, xulq-atvor

D) bilim, ko'nikma, malaka

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru


www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.Iip.Net

2.4. Kompyuterli o‘qitish va ishbilarmonlik o‘yinlar texnologiyalari.



*Bilim bilan saodat yo‘li
ochiladi, shunga ko‘ra,
Ilmi bo‘l, yo‘lini izla.*

Ahmad Yugnakiy

1 Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining mohiyati

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televidenie, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi, hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikasion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ilmiy-texnik axborotning ko‘chkisimon o‘sishi bilan belgilanadi. Talabalarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha eng ko‘p xajmida axborotni o‘zlashtirish, faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya’ni o‘qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin.


Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida quyidagilar zarur hisoblanadi: individual o‘qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida tashxis testlar o‘tkazish; o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasida, o'qitish siklining qayta takrorlanishi uchun eng maqbul sharoit yaratiladi.


O'qitishning kompyuter texnologiyasi, kompyuterning inson individual qobiliyatlariga mosligiga tayanadi. O'qitish jarayonini maqbul darajada tezkor boshqarish imkoniyati mavjudligi, bu o'qitish turining universal muloqoti ko'rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, axborot xajmida o'zlashtirilishi cheklanmaganligi bilan ajralib turadi.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi mazmun jihatdan kompyuter xotirasiga kiritilgan pedagogik dasturiy vositalar bilan farqlanadi. Dasturiy vositalar mavzu, bo'lim, yoki butun o'quv fani bo'yicha tuzilishi mumkin va u o'quv materialini o'zlashtirilishini baholashni va monitoringini ham o'z ichiga oladi. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining samaradorligi dasturiy vositalarning ishlab chiqilish darajasi bilan bir qatorda o'quv jarayonini va ishchi o'rinlarini (1.14, 1.15-rasmlar) to'g'ri tashkil etilganiga bog'liq bo'ladi.

Bu o'qitish texnologiyasida pedagogning funksiyasi quyidagilardan iborat bo'ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o'quv jarayonining (o'quv jarayoni grafigi, tashxislash, nazorat) guruh, o'quv fan miqyosida tashkil etish; ishchi o'rinlarini tashkil etish, yo'l-yo'riqlar berish, tarmoqni boshqarish; talabalar bilan muloqotda bo'lish, individual o'qitishni ta'minlash.



1.14-rasm. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining blok-sxemasi.



1.15-rasm. Kompyuterli o`qitishning texnologik sxemasi.

3. Ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasining mohiyati

Ta’lim jarayonidagi o‘quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib koladi. O‘quvchining faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan Boshqaruvchi pedagogik ta’sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi, o‘qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlar o‘yini hisoblanadi. O‘yin faoliyatiga qiziqish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etish, ro‘yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqala elementlari orqali ta’minlanadi.

O‘yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o‘zida ham rivojlanish, ham o‘rganish hisoblanadi.


Pedagogik o‘yin, o‘qitishning aniq qo‘yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o‘quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo‘ladilar. Pedagogik o‘yinlarning blok-sxemasi 1.16-rasmda keltirilgan.

Pedagogik o‘yinlar o‘yin uslubiga ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo‘yicha, syujetli, ishbilarmonlik, imitasion, drammalashtirilgan o‘yinlar. Oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimida foydalanadigan barcha pedagogik o‘yinlar o‘z mazmuniga ko‘ra ishbilarmonlar o‘yini hisoblanadi. Chunki, ular odatda ma’lum o‘quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo‘ladi, turli vaziyatlar immitatsiya qilinadi. Ya’ni, oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimida qo‘llaniladigan ishbilarmonlar o‘yini pedagogik o‘yinlarning barcha tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi.

Oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimidagi pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirishga va mustahkamlashga, o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, umumilmiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmualarini yechishga qaratiladi, o‘quvchilarga turli holatlardan o‘quv materialini tushunib yetish va o‘rganish imkonini beradi. O‘quv jarayonida ishbilarmonlar

o'yinlarining turli xil shakllari ishlatiladi: immitasion, operasion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psixo va sotsiodrammalar.

Bu faoliyat jamoatchilik tajribasini qayta tiklash va o'zlashtirishga qaratilgan, o'qitishni aniq maqsad qilib qo'ygan vaziyatlar sharoitida pedagogik natijalarni yaqqol ko'rinishda namoyon etadi, bunda holatni o'z-o'zini boshqarilishi takomillashtiriladi.



1.16-rasm. Pedagogik o'yinlar blok-sxemasi.

Ishbilarmonlar o‘yini (IO‘) o‘zida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini modellashtiradi.

Belgili vositalar (til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar) yordamida, ishbilarmonlar o‘yinida asosiy muhim belgilariga ko‘ra haqiqiy vaziyatga o‘xshash kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shu bilan birga ishbilarmonlar o‘yinida, qisqa vaqt ichida faqat turdosh umumiy vaziyatlar qayta tiklanadi.

Ishbilarmonlar o‘yini kelajakdagi kasbiy faoliyatning predmetli jihatini (shartli amaliyot) talabalarning boshqa rolli holatdagi vakillar bilan o‘zaro muloqotda bo‘luvchi ijtimoiy jihatini vujudga keltiradi. Shunday qilib, ishbilarmonlar o‘yinida jamoaviy o‘quv faoliyatning yaxlit shakli – ishlab chiqarish, kasbiy faoliyat sharoiti modelida yaxlit ob’ektda amalga oshiriladi.

Ishbilarmonlar o‘yinida talaba o‘zida o‘quv va kasbiy elementlarni uyg‘unlashtirgan, o‘xshash kasbiy faoliyatni bajaradi. Bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirilishi abstrakt darajada emas, balki kasbiy mehnat kontekstida (ma’nosida) amalga oshadi. Kontekstli o‘qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o‘quvchining real o‘yin jarayonidagi harakatini ta’minlaydi. Bir vaqtning o‘zida, o‘quvchi kasbiy bilimlar bilan bir qatorda maxsus xislatga ega odamlar bilan muloqotda bo‘lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo‘ysinish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ya’ni, ishbilarmonlik o‘yini shaxsiy sifatlarini tarbiyalaydi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi. Ammo, bu «jiddiy» kasbiy faoliyat o‘yin shaklida ro‘yobga chiqarilganligi sababli, o‘quvchi aqliy va hissiy jihatdan erkinlashadi, ijodiy tashabbusini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish dinamikasi, mutaxassislarning harakatlari va munosabatlarini modellashtirib, o‘xshatib, ishbilarmonlik o‘yini, bilimlarni dolzarblashtirish, qo‘llash va mustahkamlash vositasi va amaliy fikrlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu holat, o‘yinning ma’lum berilgan aniq vaziyatida, yoki ishlab chiqarish vaziyatida ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Ishbilarmonlar o‘yini o‘xshatma modelda o‘yinli o‘quv masalalarini qo‘yish va yechish bo‘yicha qo‘shma faoliyat kabi ro‘yobga chiqariladi. Qo‘shma faoliyat qoidalari va me’yorlari, o‘xshatish tili va aloqalar oldindan qabul qilinadi, yoki o‘yin jarayonida ishlab

chiqiladi. Ishbilarmonlar o'yini munozarali muloqot maromida o'tkaziladi, u qo'shrejali faoliyat hisoblanadi, chunki unda ikkita maqsadga erishiladi: o'yinli va pedagogik. Pedagogik faoliyat ustuvor bo'lsa ham, o'yinni poymol etmasligi kerak.

O'yin jarayonida quyidagilar o'zlashtiriladi: kasbiy harakatlar me'yorlari; ijtimoiy harakatlar me'yorlari - ishlab chiqarish jamoasidagi munosabatlar.

Bunda o'yinning har bir ishtirokchi faol holatda bo'ladi, sheriklari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, o'z qarashlarini sheriklari bilan taqqoslaydi va shuning natijasida jamoa bilan munosabati orqali o'zini o'zi o'rganadi:

Taqlid o'yinlar - bo'lim, sex, korxonalar tashkilotning faoliyatiga taqlid qilinadi. Imitasion o'yinlar ssenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, taqlid qilinadigan jarayon va ob'ektlar tarkibi hamda ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o'z ichiga oladi.

Amali o'yinlar - tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoiti modellashtiriladi. Ular ma'lum bir o'ziga xos ammalarni: - masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradilar.

Rolli o'yinlar - ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Ishbilarmonlar teatri - qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xatti-harakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlarini, maqsadlari ko'rsatilgan ssenariy tuziladi. Bu yerda, ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri xatti-harakatni tanlash, muhim hisoblanadi.

Psixodrama va sotsiodrama - bu rolli o'yin, ishbilarmonlik teatriga o'xshagan bo'lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishining ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Ishbilarmonlar o'yini texnologiyalari uch bosqichdan iborat (1.17-rasm).

O'yinni tayyorlash bosqichi. Bu bosqich o'z navbatida ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish - o'yin ssenariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

<i>I. TAYYORLASH BOSQICHI</i>	
<i>1.1. O'yinni ishlab chiqish</i>	<i>Ssenariyni ishlab chiqish</i>
	<i>Yo'riqnomamazmunini ishlab chiqish</i>
	<i>Moddiy ta'minotni tayyorlash</i>
	<i>Guruhni shakllantirish</i>
<i>1.2. O'yinga kirishish</i>	<i>Rollar taqismoti</i>
	<i>Muammo va maqsadlarni vujudga keltirish</i>
	<i>Shartlar, qoidalar, reglament o'rnatish</i>
	<i>Maslahatlar berish</i>

<i>II. O'TKAZISH BOSQICHI</i>	
<i>2.1. Topshiriq ustida guruh bilan ishlash</i>	<i>Manbalar bilan ishlash</i>
	<i>Trening</i>
	<i>Aqliy hujum</i>
	<i>O'yin texnikasi bilan ishlash</i>
<i>2.2. Guruhlararo munozara</i>	<i>Guruhlarning chiqishi</i>
	<i>Natijalarni himoya qilish</i>
	<i>Munozara qoidasi</i>
	<i>Taqrizchilar (ekspert) ishi</i>

<i>III. TAHLIL BOSQICHI</i>	
<i>3.1.</i>	<i>O'yindan chiqarish</i>
<i>3.2.</i>	<i>Tahlil</i>
<i>3.3.</i>	<i>Ishni baholash va o'ziga baho berish</i>
<i>3.4.</i>	<i>Xulosa va umumlashtirish</i>
<i>3.5.</i>	<i>Tavsiyalar</i>

1.17-rasm. Ishbilarmonlar o'yinning texnologik sxemasi.

Ishbilarmonlar o‘yini, ssenariyasi quyidagilardan iborat: o‘quv maqsadi; o‘yin vazifasi, o‘rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tavsifi.

O‘yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

- *guruhni shakllantirish;*
- *mashg‘ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;*
- *muammo va vaziyatni vujudga keltirish;*
- *rollarni taqsimlash,*
- *o‘yin reglamentini o‘rnatish;*
- *materiallar, yo‘riqnomalar, qoidalar va ko‘rsatmalar to‘plamini tarqatish;*
- *maslahatlar berish.*

Rollar qur’a tashlash yo‘li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o‘yinni oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e‘tibor qaratiladi.

O‘yinni o‘tkazish bosqichi. Bu bosqich - guruh bilan vaziyatni barpo etish ishlari va guruhlararo munozaradan iborat. Ishtirokchilarning rollari, holati, ishbilarmonlar o‘yining shakliga bog‘liq va quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1) Guruhdagi ish mazmuniga ko‘ra – g‘oyalarni yaratuvchi va uzatuvchi, ishlab chiquvchi, taqlidchi, tashxischi, zukko, xulosa qiluvchi.

2) Ishtirokchilarning tashkiliy vaziyatlariga ko‘ra – tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi, yig‘uvchi, nazoratchi, murabbiy, Boshqaruvchi.

3) Yangilikka nisbatan munosabatiga ko‘ra – tashabbuskor, ehtiyotkor tanqidchi, yangilikka qarshilik ko‘rsatuvchi (konservator).

4) Uslubshunoslik holatiga ko‘ra – uslubshunos tanqidchi, uslubchi, muammochi, dasturchi.

5) Ijtimoiy-psixologik holatiga ko‘ra – yetakchi, hurmat qilinuvchi, qabul qilinuvchi, mustaqil, qabul qilinadigan, rad etiluvchi.

O‘yin jarayonida hech kim o‘yinga ta’sir qilish huquqiga ega bo‘lmaydi. Faqat boshlovchigina, zaruriyat tug‘ilganida, o‘yin ishtirokchilari harakatlariga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'yin natijalarini tahlil etish bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: taqrizchilarning chiqishlari, fikrlar almashinuvi, ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishi, yakun yasash.

Tayanch iboralar:

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi, axborot banki, ishbilarmonlik o'yinlari, taqlid o'yinlar. Amaliy o'yinlar, rolli o'yinlar, psixodrama va sotsiodrama.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasining ta'rifini va mohiyatini aytib bering.
2. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining maqsadli yo'nalishlarini aytib bering.
3. Kompyuterli o'qitish texnologiyasini qo'llash sohalari aytib bering.
4. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining konseptual qoidalarni tushuntirib bering.
5. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining xususiyatlarini aytib bering.
6. Kompyuterli o'qitishning texnologik sxemasini tushuntirib bering.
7. Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi ta'rifini va mohiyatini tushuntirib bering.
8. Ishbilarmonlik o'yinlari shakllarini aytib bering va mazmunini tushuntirib bering.
9. Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasini yaratishning bosqichlarini aytib bering.
10. Ishbilarmon o'yinlarining konseptual asosi va qo'llanish sohasini namoyon eting.

Testlar

1. Dasturlashtirilgan o'qitish nechanchi asrlarda paydo bo'ldi?

- A) XX asr oxirlarida
- B) XX asrning 50-yillarida

- C) XIX asrning oxirida
- D) XIX asrning 50-yillarida

2. Dasturlashtirilgan o'qitishning nechta asosiy tamoyili farqlanadi?

- A) 4 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 5 ta

3. Dasturlashtirilgan ta'lim metodi nima?

- A) o'quv dasturlarini tuzish
- B) o'quv dasturlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tavsiyali ishlab chiqish
- C) maxsus tuzilgan ta'lim dasturlari bo'yicha EXM vositasida o'qitish, o'rgatish
- D) an'anaviy ta'lim jarayonini o'quv dasturlari asosida tashkil qilish

4. Didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda qanday talablarga amal qilinadi?

- A) didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi
- B) muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi
- C) mazkur darslarda didaktik prinsplarga amal qilinishi va ulkan samaraga erishish
- D) barchasi to'g'ri

5. Ilk bor pedagogik psixologiyada mantiqiy hukm turlarining shakllanishi (muammoli, oldindan ko'ra bilish) va xulosa chiqarish planida ta'lim oluvchining fikrlashini qaysi psixolog tahlil qilib bergan?

- A) P. Blonskiy
- B) K. Ushinskiy
- C) A. S. Makarenko
- D) B. Blum

6. Ilmiy adabiyotlardan, pedagogik texnologiyaning uch aspekti to'g'risida fikr yuritiladi. Bular qaysilar.

- A) ilmiy, tavsifiy, tarbiyaviy
- B) ilmiy, pedagogik, tarbiyaviy

- C) ilmiy, tavsifiy, amaliy
- D) pedagogik, tarbiyaviy, amaliy

7. Innovatsion ta'limda o'quvchi uchun qanday o'rin ajratiladi?

- A) tinglovchi
- B) mustaqil bajaruvchi
- C) ob'yekt
- D) sub'yekt

8. Innovatsiya jarayoni ketma-ketligining bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) xususiy yangilik, mahalliy yangilik, g'oyalarni yaratish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi
- B) shartli yangilik, yangilikni yoyish, ixtiro qilish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi
- C) qoliplashtirish, takomillashtirish, takrorlash, amalgam oshirish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi
- D) yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish, yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, uni keng tadbiq etish, yangilikning hukmronlik qilishi, yangilikning qo'llaning doirasini qishartirish bosqichi

9. Interfaol metodi "Labirint" qanday maqsadlarda qo'llaniladi?

- A) o'quvchilar faolligini oshirish, jadallashtirish maqsadida
- B) ijodiy, mustaqil fikrlashni o'rgatish maqsadida
- C) shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish maqsadida
- D) nostandart vaziyatlarda yo'l topish, ijodiy tadqiqotchilik maqsadida

10. Ishontirish tarkibiga . . . lar kiradi?

- A) xotira, sh'eriyat, hayol, hislar
- B) sport bilan shug'ullanish, qat'iylik, talabchanlik
- C) bilim, his-tuyg'u, xulq-atvor

D) bilim, ko'nikma, malaka

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

III MODUL. MASOFAVIY VA KREDIT O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: masofaviy va kredit o‘qitish texnologiyalarining afzalliklari, tarkibiy tuzilishi, o‘rniga oid nazariy bilim berish, dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish.


MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:

- **ta’limiy maqsad:** talabalarga modulli o‘qitishning mohiyati, tamoyillari, yondashuv turlari, masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi va tamoyillari, o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

3.1. Modulli o‘qitish texnologiyasi.



*Kishikim ilm ila bo‘lsa tavongar,
Ne g‘am gar yo‘qtur ango zaru guhar.*

Oraziy

1. **Modulli o‘qitishning moxiyati.** «Modulli o‘qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma‘nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma‘noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

***Modul** – bu fanning muayyan jarayoni, yoki qonuni, bo‘limi, muayyan katta mavzusini, o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini taqdim etadi.*

***Modul** – bu fanning bir, yoki bir necha tushunchalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o‘quv materialidir.*

1982 y. YuNESKOning anjumanida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishib, ketma-ket o‘rganish orqali individual, yoki guruh mashg‘ulotlarida bir, yoki bir necha malakaga ega bo‘lish uchun mo‘ljallangan alohida o‘rgatuvchi paket (to‘plam)” deb ta’rif berilgan edi.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o‘qitish, asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

Inson bosh miyasi to‘qimasi, qariyb 15 mlrd. neyronlardan (nerv hujayralari), yoki shartli modullardan iborat. To‘qima hujayralari bir-biri bilan ko‘p sonli to‘qnashuvlarda bo‘lishadi. Bir hujayra va uning o‘simtasini boshqa hujayra va uning o‘simtasi bilan to‘qnashuvlari soni 6 mingtagacha yetib boradi. Demak, bosh miya to‘qimasidagi to‘qnashuvlar (kontaktlar) soni astronomik sonni (15000000000x6000) tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, modul o‘quv jarayonining bir hujayrasi sifatida harakatlanadi. Bu hujayra bir vaqtning o‘zida axborotli umumiylikka, o‘ziga xos yaxlitlik va tizimlilikka ega bo‘lgan elementlardan tashkil topgan bo‘ladi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YuNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli

o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Bu sohalaridagi izlanishlarga ko'ra, to'qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborotni kvant ko'rinishda (boshqacha aytganda, ma'lum hissalar ko'rinishida) eng yaxshi jihatdan qabul qiladi.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- *modul - faoliyatlik yondashuvi asosida o'qitish mazmunini maqbulash va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;*
- *o'qitishni individuallashtirish;*
- *amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;*
- *kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.*

Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi o'qitish texnologiyalaridir.

Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha konsepsiyalar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtai nazardan, o'qitish jarayoni to'laligicha, yoki muayyan fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini o'quvchi tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Turli konsepsiyalar doirasida, modulli ta'lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o'z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko'rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki; o'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar.

2. **Modulli o'qitishning blok-sxemasi** O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq (1.18-rasm) ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlik yondoshuvi tamoyili. Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi.

Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi, yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida shakllantiriladi.

2. Tenglik, teng huquqlik tamoyili. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati sub'ekt - sub'ekt xarakterligini belgilaydi.

Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasini, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko'rsatadi. Ya'ni modulli o'qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.


3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni lo'nda qilib berish yondoshuvi, muhandislik bilimlar konsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

O'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Tizimli kvantlash tamoyili, moduldagi o'quv axborotining tegishli tuzilmasini yaratish bilan amalga oshiriladi.

Shular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- *katta hajmdagi o'quv material, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;*
- *ma'lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o'quv material, osonroq o'zlashtiriladi;*
- *o'quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko'rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*



1.18.-rasm. Modulli o`qitishning blok - cxemasi.

Modul umumiy ko‘rinishda quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- *tarixiy - muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga tegishli qisqacha ma’lumot berish;*
- *muammoli - muammoni shakllantirish;*
- *tizimli - modul tarkibining tizimli namoyon etish;*
- *faollashtirish - yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko‘rsatish;*
- *nazariy - asosiy o‘quv materiali bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni yechish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;*
- *tajribaviy - tajribaviy materialni (o‘quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;*
- *umumlashtirish - muammo yechimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;*
- *qo‘llanish - harakatlarning yangi usullarini va o‘rganilgan materialni amaliyotda ko‘llash bo‘yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;*
- *xatoliklar - o‘quvchining modul mazmunini o‘rganishdagi o‘zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo‘llarini ko‘rsatish.*
- *tutashish - o‘tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan turdosh o‘quv fanlar bilan bog‘liqligini namoyon etish;*
- *chuqurlashtirish - iqtidorli o‘quvchilar uchun yuqori murakkabli o‘quv materialini taqdim etish;*
- *test-sinovlash - modul mazmunini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baholash.*

O‘quv materialining o‘zlashtirilishiga mashg‘ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko‘rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog‘liqligi, shu modulni o‘rganishdagi o‘quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

4. Motivatsiya (qiziqishni uyg‘otish) tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati, talabaning o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Bu asosiy qoidadir.

Modulning o‘quv materialiga qiziqishni uyg‘otish, bilim olishga rag‘batlantirish, mashg‘ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da‘vat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

Aslida motivatsiyani shakllanishiga juda ko'p omillar ta'sir etadi, chunki eng avvalo o'rganish shaxsga bog'liq jarayondir. U shaxsiy motivatsiya va shaxsiy manfaat orqali amalga oshadi. Motivatsiyani – harakat qilishga undagan sabablar, qiziqtirishni uyg'otishi deb tushuniladi. Ushbu sabablarni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

A. Ta'limga ehtiyojini shakllantiruvchi jamiyatdagi muhit.

Zamonaviy jamiyat – bu bilimga asoslangan fuqarolik jamiyatidir. Ya'ni informatsiya, bilim, ularni doimiy yangilash, buni amalga oshirish uchun kerakli ko'nikmalar, jamiyatni rivojlanishning asosiy omili bo'lib qolmoqda.

B. Dastlabki ehtiyojlarga bog'liq bo'lgan sabablar.

Xorijiy psixologlarning fikrlari bo'yicha ehtiyojlar ierarxiyasi quyidagicha:

- mavjudlik, ya'ni shaxs avvalo ochlik, chanqoqlik ehtiyojlarini qondirishi lozimligi.

- bexatarlik – xotirjamlik, ya'ni uy qurish, oila qurish kabi ehtiyojlarni qondirishiga harakat qilishi.

- ijtimoiy ehtiyojlari, ya'ni muayyan seksiyaga, klubga, jamoat tashkilotiga tegishli bo'lish ehtiyojlaridir.

C. O'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sabablar.

O'qitish jarayonida motivatsiyaga qo'yidagi omillarni hisobga olish orqali erishiladi:

* Kasbiy ta'limda motivatsiyani asosi deb *faoliyatlik yondoshuvini* qabul qilsak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu yondoshuv o'quv materialini bo'lajak mutaxassisni ishlab – chiqarish faoliyati bilan bog'lashni taqozo etadi. Bunda talabanning qiziqishi uyg'onadi, mashg'ulotlarda o'quv materialini o'zlashtirishga intilish va diqqat e'tibor kuchayadi. natijada o'quv maqsadiga erishiladi.

* Hozirgi kunda, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot rivojlangan davrida ta'lim olishning samaradorligi inson qobiliyatidan foydalanish darajasidan bog'liq bo'lib qolmoqda. Qobiliyatni ro'yobga chiqarish insonning sezgi organlari qay darajada ma'lumotni qabul qilishga ishtirok etishlaridan bevosita bog'liq bo'ladi. Inson

atrofdagi olamni o'zining beshta sezgi a'zolari: ko'z, quloqlar, hid va tam bilish, paypaslash, ushlab ko'rish orqali idrok etadi. Ta'lim olishda qancha ko'p sezgi organlari qatnashsa shuncha ko'p samaraga erishiladi. Motivatsiyani mashg'ulotlar davomida saqlanishiga va o'zlashtirishning sifatini yuksak darajaga yetkazishiga *vizuallashtirish*, ya'ni ko'rgazmali axborotlardan, namunalardan foydalanishi katta yordam beradi.

* O'qitish samaradorligi motivatsiyani hosil bo'lishicha, uni saqlanishiga talabaning o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga ham bog'liq bo'ladi. Yani *pedagog – talaba* munosabati motivatsiyani shakllanishiga muhim ahamiyatiga ega. Ushbu munosabatlar shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining tamoyillariga mos kelishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, maqtov usulining qo'llanilishi talabaga optimizm kabi xislatlarni shakllanishiga olib keladi.

Optimizm esa, ishonch va irodani mustahkamlanishiga olib keladi. Motivatsiya kuchayadi va rejalashtirilgan o'quv natijalariga erishiladi. Tanbeh usuli esa, (ogohlantirish, tanbeh, salbiy natijalar to'g'risida ogohlantirish, jazo) pessimizm kabi holatni shakllantirishiga olib keladi. Natijada ishonch va iroda keskin pasayadi, motivatsiya yo'qoladi, rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishilmaydi. Ma'lum darajada talaba shaxs sifatida ma'naviy inqirozga uchraydi.

* Motivatsiyaning shakllanishi albatta talabani *shaxsiy holatiga* bog'liqdir. Bunga, eng avvalo, talabaning "diqqat", "charchoq" kabi xislatlari inobatga olinadi. Xorijiy olimlarning olingan natijalari bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarida diqqat bilan o'rganish vaqti eng ko'pi bilan 20 daqiqani tashkil etadi. Nazariy darslarda yetarli diqqat e'tiborlik 45 daqiqa saqlanadi. Taxminan 60 daqiqadan so'ng diqqat, e'tiborlik eng past darajasiga tushadi (3-4 marta kamayadi). Hozirgi kunda buni e'tiborga olish alohida e'tiborga sazovor. Yangi pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'qitish jarayonini jadallashtirishga olib kelmoqda. Ya'ni, bir vaqtning o'zida bir necha marta ko'p yangi o'quv materiallarini taqdim etishiga imkoniyat yaratilmoqda.

* Motivatsiyaning yuksak darajada shakllanishiga *muammoli o'qitish* texnologiyasining qo'llanishi samarali xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda talaba muammoning shakllanishini va uni yechimini izlab topish usullarini o'rganadi.

* Yangi o'quv materiallarni bayon etish jarayonida tarixiy vaziyatlardan, qiziqarli voqealardan, ibratli iboralardan, maqolalardan va shu kabi *qiziqarli axborotlarni* qo'llash motivatsiyaga samarali ta'sir etishi muharrar.

* O'qitish jarayonida *pedagogning xulqi-ibrati*, auditoriyani boshqarish mahorati, nutq madaniyati, yangi o'quv materialiga munosabati, izlanuvchanligi va qiziquvchanligi, xislatlarning namoyon etilishi, ta'sirchan hatti-harakatlari albatta talabalarni befarq qoldirmaydi, ularning faolligini, motivatsiyani oshiradi.

5. Modullik tamoyili. Bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi, modulning dinamik strukturasi fan mazmunini qo'yidagicha uch xil ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi:

- to'la
- qisqartirilgan
- chuqurlashtirilgan.

O'qitishning, u yoki bu turini tanlash o'quvchiga havola qilinadi.

Ikkinchi, modul mazmunini o'zlashtirishda, usul va shakllarning turlichaligida ham modullik namoyon bo'ladi. Bu esa, o'qitishning faollashtirilgan shakl va usullari (dialog, mustaqil o'qish, o'quv va imitasion o'yinlar va hokazo), hamda muammoli ma'ruzalar, seminarlar, maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchi, modullik, yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishni ta'minlaydi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchi, modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli, o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati ko'zda tutiladi.

6. Muammolik tamoyili. Bu tamoyil muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarning amaliy yo'naltirilganligi tufayli, o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini

oshishiga imkon beradi. Mashg'ulotlar paytida gepoteza (faraz) ilgari suriladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va bu muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular hatto yangi bo'lsa ham), ammo misol uchun AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoni yechish yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni, u tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi novbatda, ayniqsa, ana shu narsa o'quvchini qiziqtirib qo'yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

7. Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyil. Bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko'ra o'qitishdagi ko'rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi.

Aynan, shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib, murakkab ob'ektlar kompyuter suratchalari ko'rinishida tasvir etiladi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib, rangli bajarilgan, kognitiv-grafik o'quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar, modulning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa:

Birinchidan, o'quvchining ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni o'rganish jarayoniga miyaning tasviriy o'ng yarim shari boy imkoniyatlari qo'shiladi.

Ikkinchidan, o'quv materiali mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi surat (rasm), o'quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar, o'quv informasion materialni qabul qilish va eslash samarasini oshiradi, hamda o'quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek bo'ladi: ularning biri simvulli (shartli belgili) bo'lsa, ikkinchisi geometrik (algebralik) bo'ladi.

Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvulli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni o'z ichiga olgan, bilim berishni uyg'unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir.

Grafik (ko'zga ko'rinuvchi) axborot miyaning o'ng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma'lumotli mutaxassis uchun zarur bo'lgan, tasviriy fikrlash qobiliyatini, intuitsiyasini (ichki tuyg'u) rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek, «...intuitsiya xaqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz, asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi». Haqiqatda ilm-fanning shakllanishi va rivojlanishi gepotezasiz (farazsiz), farazni vujudga kelishini esa, intutisiyasiz tasavvur etish qiyin.

Shu bilan birga, ko'rgazmali axborot og'zaki axborotdan ko'ra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishdan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa, o'z navbatida, ko'rish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning hariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali axborot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga og'zaki axborotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi. Insonning ko'rgazmali axborotdan ta'sirlanishi, og'zaki axborotdan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Ko'pchilik hollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Ko'rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi, og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun «yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagandir.

Shu bilan birga, ko'rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi, og'zaki axborotning o'zlashtirilishi esa bunga bog'liq bo'ladi. O'zni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvulli-ko'rgazmali axborotni qabul etish, o'qitish samarasini oshiradi. Shuning uchun o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko'paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

8. Xatoliklarga tayanish tamoyili. Bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga, o'quvchilarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi, o'quvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

9. O'quv vaqtini tejash tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zahirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

10. Texnologik tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalarga erishish kafolatini ta'minlovchi, o'qitish va bilimni o'zlashtirish jarayonini, tizimli modulli yondashuv asosida ro'yobga chiqarishni anglatadi.

Mazkur tamoyil quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- maksimal aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish, ularni o'lchash va baholash mezonlarini tanlash;*
- qo'yilgan o'quv maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;*
- o'quv maqsadlarini, butun o'quv jarayonini o'qitish natijalariga kafolatli erishishga yo'naltirish;*
- o'qitish natijalarini tezkor baholash va o'qitishga tuzatishlar kiritish;*
- o'qitish natijalarini yakuniy baholash.*

Modulli o'qitish tizimida o'rgatuvchi sikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

O'quv maqsadlariga erishish uchun o'quv me'yoriy hujjatlarning uzviyligini ta'minlash, tayanch sharoitlarini yaratish zarur. Ushbu maqsadlarda uzviylik tamoyilini qo'llash tavsiya etiladi.

11. Uzviylik tamoyili. Bu tamoyil o'quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlash uchun o'quv rejasi va dasturlarni ishlab chiqishda tizimli yondashishni

anglatadi. Bunda fanlarning maqsadlariga ko'ra, o'quv rejadagi soatlar mosligi ta'minlanadi.

Modulli o'qitish tamoyillari – modulli o'qitish texnologiyalarning nazariy asoslaridir.

4. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi. Bunday modulli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida akademik litseylarda va kasb-hunar ta'lim muassasalarida, pedagog va muhandis-pedagoglar malakasini oshirish tizimlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:


- *o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi*
- *o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.*

Modul - mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, ba'zi hollarda, alohida o'quvchilarga fanni to'laligicha emas, balki faqatgina bir qator modullarni tinglash imkoniyatini beradi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qishartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- *o'qitishning (o'quv fanlar orasida va o'quv fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;*
- *o'qitishni individuallashtirish;*
- *o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;*
- *o'qitishni jadallashtirish;*
- *fanni samarali o'zlashtirishga erishish.*



1.19.-rasm. Fan bo`yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o`qitish taxnologiyasining sxemasi.

Shunday qilib, modulli o‘qitishda o‘quvchilarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi uchun to‘la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi

O‘qitishning modul tizimiga o‘tish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- *o‘quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;*
- *professor-o‘qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;*
- *o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi;*
- *ko‘zlangan natijalarni baholash;*
- *didaktik materiallarni ishlab chiqish;*
- *natijalarning tahlili va modullarni maqbullashtirish.*

Modulli o‘qitishga o‘tishda quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

– ishchi o‘quv rejani chuqur tahlili asosida, o‘zaro chambarchas bog‘liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya’ni butun o‘quv rejasi alohida makromodullar to‘plami sifatida haraladi (1.19-rasm).

Ko‘pchilik hollarda quyidagi uch turdagi makromodullar tuzilishi mumkin:

- a) gumanitar fanlarni o‘z ichiga oladigan;*
- b) iqtisodiy fanlarni o‘z ichiga oladigan;*
- c) umumta’lim, umumtexnik (umumkasbiy) va ixtisoslik fanlarni fanlarni o‘z ichiga oladigan.*

Har qaysi mutaxassisning makromodulni shakllantirishda, o‘z maqsad va vazifasi bo‘ladi. Ma’lum makromodulni o‘rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o‘rganish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Har qaysi makromodulning o‘rganilish maqsadlari to‘plami, Davlat ta’lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi. Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bo‘lib, birinchi o‘quv fanini o‘rganila boshlaganida, o‘quvchilarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi o‘quv fani o‘rganila boshlanganida, u fanning o‘rganish maqsadlari talabalar e’tiboriga yetkaziladi:

– har qaysi makromodul ichida, o‘rganiladigan fanlarning maqbul ketma-ketligi va ularni o‘rganish muddatlari o‘rnatiladi. Ya’ni o‘qitishning uzluksizligini ta’minlab, fanlarning o‘rganilish muddatlarini va shu orqali makromodulni o‘rganilish muddatlarini qishartirishga erishish zarur. O‘quv soatlari hajmi katta bo‘lmagan (haftada 1-2, ayrim hollarda 3 soatli auditoriya mashg‘ulotlari) fanlar, blok fanlar ro‘yxatiga kiritilishi, maqsadga muvofiq bo‘ladi va ular o‘quv semestrining birinchi, yoki ikkinchi yarmida o‘tilishi mumkin.

Makromodullar vertikal yaqin o‘zaro bog‘liqliklarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularni o‘rganilish muddatlarini o‘rnatishda makromodullar orasidagi gorizontal bog‘lanishlar hisobga olinishi lozim.

O‘quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlarning, o‘quv dasturlarini o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanadi.

Fanning ishchi o‘quv dasturi, alohida mavzularini modulda guruhlanishi hisobidan qaytadan ko‘rib chiqiladi. Har qaysi modul uchun nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan maqsadlar tuzilishi zarur.

Modul o‘z ichiga 2-3 ma’ruza va shu ma’ruzalar bilan bog‘liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin.

Har qaysi modul bo‘yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- *o‘quvchilar bilimni nazorat qilish uchun testlar;*
- *individual ishlar uchun topshiriqlar;*
- *mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;*
- *o‘quv-uslubiy tarqatma materiallar;*
- *o‘quv-ilmiy adabiyotlar ro‘yxati;*
- *ishchi o‘quv dasturi.*

Har bir modul test-sinovlari bilan tugallanishi lozim: joriy modul uchun bu o‘tilgan materialni nazorati bo‘lsa, keyingi modul uchun esa bu kirish (boshlang‘ich) nazorati bo‘ladi. Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to‘plami tuziladi va ular o‘quvchiga mashg‘ulotdan oldin beriladi. Modul, tavsiya qilinadigan ko‘rgazma materiallar va adabiyotlar to‘plami bilan ta’minlanadi, har bir materiallarni o‘zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o‘tadi. Iqtidorli

o'quvchilar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin. Pedagogning vazifasi axborotchi-nazoratchidan boshlab, maslahatchi-muvofiqlashtiruvchigacha o'zgarishi mumkin. Oxirgisi, ya'ni pedagogning maslahatchi-muvofiqlashtiruvchi vazifasi, o'qitish o'rgatuvchi modullar asosida amalga oshirilganida namoyon bo'ladi.

O'rgatuvchi modul - o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, o'quvchining o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

O'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, u ko'p vaqt sarfini va juda ko'p sonli uslubiy tajribalarni umumlashtirishni talab etadi. Ammo, ularni amaliyotda qo'llash, o'qitishni juda yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modulning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Ma'ruzalar matnini tayyorlashda, tarkiblash va tizimlash usullarini qo'llab, materiallar blok-sxemasi, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda materialning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- *modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;*
- *o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;*
- *asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;*
- *o'quv materialining (modulning) butun hajmi, o'quvchining ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.*

Modul, tizimida o'quv materialining mazmunini tarkiblashda, eng avvalo, axborotni «siqish» (lo'nda qilish) vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay tarzda taqdim etilishiga harakat qilish lozim.

O'quv axboroti bir vaqtning o'zida to'rt xil - rasmi, sonli, simvulli va og'zaki ko'rinishda uzatilganida eng mustahkam o'zlashtirishga erishiladi.

Modulli o'qitish texnologiyasini yaratishda bunga rioya qilish muxim ahamiyatiga ega. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvulli alomatlarini (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, rasmlar bloki, blok-sxemalar va boshqa ko'rgazmali materiallar talabalar uchun tarqatma material vazifasini o'tashi mumkin. Shu bilan birga har bir fan, jumladan, modul bo'yicha atamalarning izohli lug'ati tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulli o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'qitishning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: aqliy hujum, muammoli munozara, evristik (savol-javobli) suhbat, o'quv ishbilarmonlik o'yinlari va hokazo.

Shunday qilib, modulli o'qitishga o'tish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

I bosqich: O'quv rejadagi fanlarni makromodullarga ajratish.

II bosqich: O'qitish davri siqilganida, fanlarni o'rganishning eng maqbul ketma-ketligini o'rnatish.

III bosqich: Makromodul fanlari o'quv dasturlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

IV bosqich: Fanlarning modullarini shakllantirish.

V bosqich: Modulning o'quv-ko'rgazmali materialini ishlab chiqish

VI bosqich: Modulli o'qitish tamoyillari asosida o'qitish texnologiyasini loyihalash.

VII bosqich: Bir vaqtning o'zida o'rganiladigan fanlarning maqbul sonini e'tiborga olib, mashg'ulotlar jadvalini tuzish.

O'quv jarayonining tashkil etilishini, modulli o'qitish tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin.

O'qitishning modulli tizimining xususiyatlaridan biri o'quv jarayonini jadallashtirish hisoblanadi, ushbuni ikki yo'l bilan amalga oshirish mumkin:

– o'qitish jarayonida modulli o'qitish tamoyillari asosida o'quv axborotini «siqish»;

– o'qitish davrini kamaytirish tufayli o'quv grafigini va uning asosida mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirish.

O'quv jarayonini samarali tashkil etish shakli bu mashg'ulotlarni haftalik modulli rejalashtirish va talabalar bilimini reyting baholash hisoblanadi. Ya'ni, bitta modul (2-3 ma'ruza va ularga tegishli amaliy va laboratoriya ishlari) bir haftaga rejalashtirilishi va u talabalar bilimining testlar, yoki boshqa nazorat turi yordamida baholanishi bilan tugallanishi zarur.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:ing

• *fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligininig ta'minlanishi;*

• *har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;*

• *fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;*

• *talabalar bilimini muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;*

• *talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);*

axborotni «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzavy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni - maqbullashtirish.

Buning natijasida, talaba yetarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, malakaga ham ega bo'ladi.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi har qaysi modul uchun ishlab chiqilgan pedagogik-texnologik xaritalar orqali ro'yobga chiqariladi (1.7-jadval).

A. Fanni o'qitishda pedagogik-texnologik xaritasining shakli

Fanning umumiy maqsadi	Mavzu (modul)						Tayanch tushuncha			O'qitish jarayoni		Test topshiriqlari	O'zlashtirish darajasi (%)
	№	Nom i	O'quv ilmiy adabiyotlar nomi	Ajratilgan soat		O'quv maqsadi	Nomi	O'quv maqsadi		Texnologiyasi (o'qitish usullari)	Didaktik vositalar		
				Ma'ruza	Amaliyot (lab)			Mazmuni	Toifasi (B.Blum bo'yicha)				
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.

B. Pedagogik-texnologik xarita berilgan shakli (1.7. jadval) asosida quyidagi tartibda tayyorlangan:

1. Fanning umumiy maqsadi. «Tikuv, trikotaj va zardo'zlik buyumlarini ushlab chiqarish jihozlari» fanini o'zlashtirishdan maqsad: - tikuv mashinalarini samarali ishlatish masalalarini yechishni o'rganish.

2. Mavzuning №. Mavzu № 1.

3. Mavzunining nomi: Tikuv bo'limi jihozlari.

4. O'quv-ilmiy adabiyotlar:

4.1. Olimov Q.T. «Yengil sanoat mashina va apparatlari» ikkinchi to'ldirilgan nashri, Abdulla Qodiriy nashriyoti. Toshkent –2003.-286 b.

4.2. Q.T.Olimov, R.M.Rustamov, L.P.Uzoqova. «Tikuv mashinalari». Uzinkomtsentr. Toshkent-2002.

5. Ma'ruzaga ajratilgan soat: 2 soat

6. Amaliyot mashg'ulotlarga ajratilgan soat: 2 soat

7. Mavzuning o'quv maqsadi: Тикув бўлими жиҳозлари яъни тикув машиналари турлари уларни ишлаш принциплари ўрганиш.

8. Mavzu bo'yicha tayanch iboralarining nomi:

8.1. Tikuvchilik mahsuloti

8.2. Tikish jarayoni

8.3. Tikuv mashinalari tasnifi

8.4. Tikuv mashinalari turlari

8.5. Keyim aylanmasi

8.6. Keyim oqimi

8.7. Mexanizm turlari

8.8. Keyim detallari

8.9. Chok turlari

9. Tayanch iboralarining o'quv maqsadi:

9.1. Tikuvchilik mahsuloti iborani izohlab berish

9.2. Tikish jarayoni elementlarini tushuntirib berish

9.3. Tikish mashinalari tasnifini izohlab berish

- 9.4. Tikuv mashinalari turlarini aniqlab berish
- 9.5. Keyimni tikish ishini hisoblab berish
- 9.6. Keyim oqimi iborasini tushuntirib berish
- 9.7. Mexanizm turlarini tuzib berish
- 9.8. Keyim detallari tushuntirib berish
- 9.9. Chok turlari tushuntirib berish.

10. Tayanch iboralar bo'yicha o'quv maqsadlarning toifasi:

- 10.1. Tushunish
- 10.2. Tushunish
- 10.3. Tushunish
- 10.4. Qo'llash
- 10.5. Qo'llash
- 10.6. Tushunish
- 10.7. Sintez
- 10.8. Tushunish
- 10.9. Tushunish

11. O'qitish texnologiyasi: Modulli

12. Didaktik vositalar:

Tikuv mashinasi kinematik sxemasi

Chok turlari haqidagi jadvallar

Tikuv mashinasi tasnifi jadvali

13. Test topshiriqlari:

13.1- VARIANT

1. 97-sinf tikuv mashinasi materiallarni surish mexanizmi.
2. 1022-sinf tikuv mashinasining texnik ko'rsatkichlari.
3. Siniq baxyaqator hosil bo'lish jarayoni.
4. Chalishtirgich mexanizmlarining sinflanishi.
5. 51-sinf tikuv mashinasi gazlamalarni surish mexanizmining kinematik

sxemasi

13.2- VARIANT

1. 51-sinf tikuv mashinasi pichoq mexanizmini kinematik sxemasini tushuntiring.

2. Ip tortgich mexanizmining kinematik sxemasi.

3. 1022 tikuv mashinasidagi moki mexanizmi va uning sozlanishi.

4.97-sinf tikuv mashinasining 1022 tikuv mashinasidan farqi va uning loyihasiga kiritilgan uzgartirishlar.

51-sinf tikuv mashinasi igna mexanizmining sozlanishi va kinematik sxemasi

13.3 –VARIANT

1. Tikuvchilik mahsulotlariga issiqlik va namlik bilan ishlov beruvchi jihozlar.

2. CS-311 press haqida ma'lumot.

3. Yo'rmab tikish mashinasi haqida ma'lumot.

4. Uch ipli zanjirsimon yo'rmash hosil bo'lish jarayoni.

5.97 sinf tikuv mashinasida baxyaqator yirikligini o'zgartirish va puxtalash usuli.

13.4 – VARIANT

1.97 sinf tikuv mashinasining nina va ip tortgich mexanizmlarining kinematik tahlili.

2.1022 sinf tikuv mashinasida ikki ipli moki baxyaqator hosil bo'lish jarayoni.

3.26 sinf tikuv mashinasi haqida ma'lumot.

4.27 sinf yarim avtomatik mashinasi haqida ma'lumot.

5.51-sinf tikuv mashinasi pichoq mexanizmining kinematik sxemasi

13.5 – VARIANT

1.Tikuvchilik mahsulotlariga issiqlik va namlik bilan ishlov beruvchi jihozlar.

2.Dazmollash presslariga qo'yilgan asosiy talablar.

3.Ip tortgich mexanizmining sinflanishi.

4.1022 sinf tikuv mashinasining 97 sinf tikuv mashinasidan farqi.

5.27 sinf tikuv mashinasining moki mexanizmi.

13.6 – VARIANT

1.51 sinf tikuv mashinasi haqida ma'lumot bering.

2. Ip tortgich mexanizmining sinflanishi.

3. 1022 sinf tikuv mashinasidagi moki mexanizmi va uning sozlanishi.

4. 97-sinf tikuv mashinasining 1022 tikuv mashinasidan farqi va uning loyihasiga kiritilgan o'zgartirishlar.

5. 51 sinf tikuv mashinasining chalishtirgich mexanizmi haqida ma'lumot bering va uning kinematik sxemasini tushuntiring.

13.7 – VARIANT

1. Dazmollash presslariga qo'yilgan asosiy talablar.

2. Yarim avtomatik tikuv mashinalari haqida ma'lumot.

3. Ip tortgich mexanizmining sinflanishi.

4. Siniq baxayaqator hosil bo'lish jarayoni.

5. 2222 sinf tikuv mashinasi haqida ma'lumot bering.

13.8 – VARIANT

1. Tikuvchilik mahsulotlariga issiqlik va namlik bilan ishlov beruvchi jihozlar.

2. CS-311 press haqida ma'lumot.

3. Yo'rmab tikish mashinalari haqida ma'lumot.

4. Uch ipli zanjirsimon yo'rmash hosil bo'lish jarayoni.

5. 2222 sinf tikuv mashinasi haqida ma'lumot bering.

13.9 – VARIANT

1. 97-sinf tikuv mashinasining materiallarni surish mexanizmi.

2. 1022-sinf tikuv mashinasining texnik ko'rsatkichlari.

3. Siniq baxyaqator hosil bo'lish jarayoni.

4. Chalishtirgich mexanizmlarining sinflanishi.

5. Ikki ipli moki baxyaqator hosil bo'lish jarayoni.

13.10 – VARIANT

1. Yarim avtomatik mashinalari qaysi mexanizmlardan tashkil topgan?

2. 1022 sinf tikuv mashinasining chalishtirgich mexanizmining kinematik sxemasini chizib ko'rsating.

3. 26 sinf tikuv mashinasining ishlash printsipini tushuntiring.

4. 1022-M mashinasida ip taqish va uning tarangligini sozlash.

Shunday qilib modulni o‘qitishdan foydalanib, yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash, quyidagilar asosida ta’minlanadi:

- o‘qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o‘qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko‘p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o‘zlashtiriladi;
- o‘qitishni individuallashtirish (o‘quvchi o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi).

Mutaxassisning faoliyatini inobatga olgan holda muayyan o‘quv fani bo‘yicha tuzilgan modullarni ketma-ket o‘zlashtirishni ta’minlash fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasining mohiyatini tashkil etadi. Ushbu o‘quv jarayonini maqbullashtirish o‘qitishni moslashtirish va individuallashtirishga imkon beradi.

4. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasi

Tizimli faoliyat yondashuvi mutaxassisning faoliyatini o‘rganishi, ushbu faoliyatini amalga oshirish uchun o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv fanlarni ro‘yxatini, o‘quv materiallarni mazmunini aniqlanishi, modullarni tuzilishi va o‘quv jarayonini tashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi, eng avvalo, kasb-hunar ta’limida qo‘llaniladi. Buning yorqin misoli bo‘lib, YuNESKOning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan «Mehnat ko‘nikmalari modullari (MKM) konsepsiyasi» hisoblanadi.

Konsepsiya o‘quv fanlariga bo‘linmasdan, yaxlit o‘qitishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Konsepsiyaning afzalliklari modullar texnologiyalarini loyihalash jarayonining aniq tarkiblashtirish va modulli variantdagi o‘quv-dasturiy hujjatlar shaklini to‘la shakllanganligi hisoblanadi.

***MKM** - o‘qitishning modulli dasturi, mutaxassis faoliyatining tahlili, uning mazmuni va tarkibini o‘rganish asosida tuziladi va modulli bloklar hamda o‘rgatuvchi modular yig‘indisidan iborat bo‘ladi.*

Mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati, qator ishlab chiqarish topshiriqlar bajarilishini o'z ichiga oladi (1.20-rasm). Ular o'z navbatida belgilangan ketma-ketlikda bajariladigan ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish topshirig'i tarkibiga kiruvchi amallarni bajarish uchun, mutaxassis ma'lum darajadagi nazariy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishi kerak. Bunga ishlab chiqilgan o'rgatuvchi modullarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi orqali erishiladi. MKM dasturlar kasb-hunar ta'limi tizimining muayyan ixtisosligi bo'yicha ishlab chiqiladi. Modulli o'qitishning mazkur konsepsiyasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida, ixtisoslikka o'rgatish uchun juda ham mos keladi. Bu esa, eng avvalo, «Kasbiy ta'lim» olayotgan talabalarga tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Yuqorida ifoda etilganlarni hisobga olib, tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:


- *o'qitish mazmuni, mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida, shakllantiriladi;*

- *modulli dastur tarkibi mutaxassis faoliyati tarkibiga mos shakllantiriladi. O'qitish dasturi alohida elementlardan, modullardan, o'rgatuvchi modullardan, modulli bloklardan iborat bo'ladi. Modulli o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, mutaxassis harakatining «boshlanishi va oxiri» aniq ko'rsatilgan tugallangan ish bo'lagidir.*


- *har qaysi modulni o'rganish «O'rgatuvchi modul» deb ataluvchi maxsus ishlangan uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Unda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun zaruriy axborotlar, nazorat testlari keltiriladi.*

- *zaruriyat tug'ilganida, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. Ular ta'lim buyurtmasi talablari va boshlang'ich tayyorgarlik darajasi asosida tayyorlanadi.*

- *o'rgatuvchi modul o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkoniyat beradi, Pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va bilvosita muloqoti va munosibatlari asosida kechadi.*



1.20.-rasm. Modulli dasturlar tuzilmasi (MKM-o`rnatish).



1.21.-rasm. Tizimli faoliyat yondashuvi asosida modulli o'qitish texnologiyasi. (MKM-

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o‘qitish - loyihalash va ro‘yobga chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi (1.21-rasm). Loyihalash jarayoni to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi.

Birinchi bosqich: kasbiy faoliyat mazmuni va tarkibiy tahlili.

Mazkur tahlil ishning tafsiloti, modulli bloklar ro‘yxati va tafsilotini tuzish maqsadida o‘tkaziladi.

Ishning tafsiloti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *kasbning va kasbiy sohaning nomlanishi;*
- *ish sohasi (faoliyatning aniqlangan turi);*
- *mazkur ixtisoslik bo‘yicha mutaxassisni vazifalari tafsiloti;*
- *mutaxassis ma‘suliyati va uning bevosita rahbari;*
- *ish sharoiti (o‘rni);*

ixtisoslikni egallash uchun nomzodga qo‘yiladigan talablar

Modulli bloklar ro‘yxati va tafsiloti mazkur ixtisoslik doirasida bajariladigan ishlab chiqarish topshiriqlar majmuasi asosida tuziladi. Ishlatiladigan «modulli blok» atamasi, uning mantiqan tugallangan qismini o‘zida mujassamlashgan ishlab chiqarish topshirig‘ining mazmunini ifodalaydi.

Tahlil natijalari bo‘lib, mutaxassisning ish o‘rnidagi vazifasi, bu vazifalarni bajarishdagi tashkiliy tuzilmalar, mazkur ixtisoslikni egallashni istaganlarga qo‘yiladigan talablar, hamda mazkur ixtisoslik doirasida mutaxassis tomonidan bajariladigan barcha ishlab chiqarish topshiriqlari ro‘yxati hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich: Modulli bloklarning mazmuni va tarkibining tahlili.

Mazkur tahlilning maqsadi, modulli blok doirasidagi muayyan ishlab chiqarish topshirig‘ini bajarish uchun zarur bo‘lgan amallar (qadamlar) ketma-ketligini aniqlash hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyati tahlilini bajarish uchun birinchi navbatda kasbiy soha va shu bilan bir qatorda tizimli tahlil bo‘yicha yuqori malakali mutaxassis talab etiladi. Oliy o‘quv yurtida yoki kasb-hunar ta‘lim muassasasida bunday ishni faqat bu sohada malakaga ega bo‘lgan pedagoglar bajarishi mumkin. Demak, ixtisoslik fanlari o‘qituvchilari chuqur bilimlar bilan bir qatorda o‘rgatiladigan ixtisoslik bo‘yicha malakaga ham ega bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqarish faoliyati, modulli bloklar, qadamlarning tahlili, tegishli ishni bajarish uchun mutaxassis ega bo'lishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar ro'yxatini aniqlash imkoniyatini beradi. Loyihalashning bu bosqichi natijalari «Modulli blok tahlili jadvali» ko'rinishida tizimlanadi. Uchinchi bosqich: har qaysi qadam bo'yicha malakalar tahlili va zaruriy o'rgatuvchi modullarni aniqlash.

Har qaysi qadamni bajarish uchun zarur bo'lgan malakalar tahlili, bu malakalarni shakllantirish uchun talab qilinadigan o'rgatuvchi modullarni tuzish maqsadida bajariladi. MKM da o'rgatuvchi modul – bu uslubiy qo'llanma, maxsus risola ko'rinishida bo'lib, quyidagi tuzilmaga ega bo'ladi:

- Muvofiqlashtiruvchi blok – o'quv maqsadlari zaruriy jihozlar va materiallar, qo'llanmalar va zarur bo'lgan boshqa yordamchi vositalar ko'rsatiladi.

- Axborot-yo'riqlar bloki - muayyan ishlab chiqarish amali (ishning qadami)ni o'rganish uchun zarur bo'lgan nazariy qoidalar, amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. U matn va ko'rgazmali materiallardan iborat bo'ladi. Matnlar lo'nda ifodalanishi, tushunarli tuzilishi va o'qilganda faqat bitta ma'no bildirishi lozim. Matn qator boshidan varaqning chap qismida abzas qoldirib, ma'lum interval (masofa) bilan yoziladi. Varaqning o'ng qismida ko'rgazmali material joylashtiriladi. Axborot-yo'riqlar blokini tuzishda, tushunarlilik, ko'rgazmalilik va ilmiylik tamoyillariga rioya etish lozim. Bu blok ham malakalarni amaliyotda mashq qilish topshiriqlarini o'z ichiga oladi.

• Nazorat bloki – o'rgatuvchi modulning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi va nazorat topshiriqlari, savollar, testlarni o'z ichiga oladi. Ular nazorat blokida ko'rsatilgan, o'quv maqsadlariga muvofiq tuziladi.

O'zlashtirilgan bilimlar va malakalarni baholash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- agar, o'rgatuvchi modul davlat ta'lim standarti va o'quv rejalar asosida tuzilgan bo'lsa va kasb-hunar ta'lim muassasasida o'rta maxsus kasbiy ma'lumotli

mutaxassis tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish natijalarini baholash mazkur o'quv yurtida o'rnatilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi;

- agar, ishchi ixtisosligi bo'yicha tayyorlansa, baholash «Ha-yo'q» tamoyili asosida amalga oshiriladi. Ya'ni o'rganuvchi malakaga ega bo'lishi mumkin yoki yo'q.

Malakalar tahlili natijalari bo'yicha «Modulli blok - o'rgatuvchi modul» ma'lumot jadvali tuziladi (1.8-jadval). Jadvalda malakalar va ularni egallash uchun zaruriy o'rgatuvchi modullar guruhlanadi. Bunday jadvallar har bir modulli blok uchun tuziladi.

O'rgatuvchi modullar oltita asosiy toifaga guruhlanadi:

01 - U mumiyl texnika xavfsizligi.

02 - Kasbiyl faoliylat turlari.

03 - Nazariya

04 - Grafik axborot (sxemalar)

05 - Texnik axborot: materiallar (ma'ruzalar matni), usullar

06 - Texnik axborot: asboblal (jihozlar), mashinalar.

To'rtinchi bosqich: MKM - o'qitish dasturlarini tuzish.

Modulli - o'qitish dasturlari jadval ko'rinishida tuziladi. Ularni tuzish uchun asos bo'lib, «Modulli blok – o'rgatuvchi modul» ma'lumot jadvali xizmat qiladi. Ushbu dastur mazkur ixtisoslik doirasida bajariladigan barcha modulli bloklarni va ularga tegishli o'rgatuvchi modullarni o'z ichiga oladi. Ushbu modulli o'qitish dasturining afzalliklari - o'zgaruvchanlik va moslanuvchanlik bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga egadir.

Ba'zi vaziyatlarda dastur faqat bitta modulli blokdan tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish dasturi kasbiyl faoliylatning turli sohalariga tegishli modulli bloklardan iborat bo'lishi mumkin, bu esa, xizmat ko'rsatish sohasi uncha katta bo'lmagan korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Modulli blok – oʻrgatuvchi modul (namuna)

	Ma'lumot jadvali MB-O'M	1	I					II			III				IV	
Kasbiy soha: To'qimachilik ishlab chiqarish Ish sohasi: O'rash mashinalari Modul blokning nomlanishi: O'rash mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyoni tayyorlash Rahami: MB:1 Jadval 4.6. Bet 1	2	Korxonada mehnatni muhofaza qilish umumiy	Mehnatni muhofaza qilish tashkiliy va huquqiy	Mehnat va ishlab chiqarish gigienasi	O'rash sexida yongg'n xavfsizligi	Atrof muxitni muxofaza qilish	To'qimachilik sanoatida o'rash haqida umumiy	O'rovchining ish vazifasi	Bobina ipni o'rash uchun xom -ashyo	Bobina ishlab chiqarishda kerakli xomashyo rahamlarini belgilanishi	Kalava ipini o'rash jarayoniga ko'yiladigan	O'rash bobina ishlab chiqarish ishlatiladigan xomashyoning xossalari aniqlanishi	O'rash bobina ishlab chiqarish da ishlaydigan xomashyoning xususiyatlarni aniklanishi	Kalava ipning tarangligini va pishitishni	O'rash jarayonida sifat va nazorat me'yoriy ko'rsatkichlarini aniklanishi	O'rash jarayoniga tegishli chizmalarni o'qish
Belgilar: 1-asosiy toifa 2-o'quv elementi							O	O								
Ish qadamlari																
1. To'qimachilik sanoatida o'rashning o'rni va ahamiyati, uning haqida umumiy tushunchalar, o'rovchining ish vazifasi o'rganiladi																

2. Kalava ipini o‘rash uchun xom ashyo qabul qilish, kalava ipini o‘rash haqidagi umumiy tushuncha, kalava ipini o‘rash jarayoniga qo‘yiladigan talablar o‘rganiladi.									O		O				
3. O‘rash bobina ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo xossalari va xususiyati, uning sifatini aniqlash o‘rganiladi											O		O		
4. Kalava ipning asosiy xossalari - chiziqli zichligi, tarangligi, uzayishi, pishiqligi, pishitishi o‘rganiladi.											O				
5. Kalava ipning notekisligi va chidamligini tekshirish usullari, bobinani ishlab chiqarishda kerakli xom ashyo rahamini aniqlash va belgilash tartibi o‘rganiladi.									O						
6. O‘rash jarayonida chizmalarni o‘qish, sifat va nazorat me‘yoriy ko‘rsatkichlari o‘rganiladi															O
7. Texnik xavfsizligi va mehnat muxofazasi, yongin xavfsizligi qoidalari o‘rganiladi.															

Modulli o'qitish dasturi (namuna)

O'M – tanlash jadvali		1	I							II								
Kasbiy soha: To'qimachilik ishlab chiqarish Ish sohasi: O'rash mashinalari Jadval 4.7. Bet 1	2	Korxonada mehnatni muhofaza qilish umumiy qoidalai	Mehnatni muxofaza qilish tashkiliy va huquqiy negizlari	Mehnat va ishlab chiqarish gigenasi	O'rash sexida texnik xavfsizlik asoslari	O'rash sexida yong'in xavfsizligi	Atrof muhitni muhofaza qilish	Ish kiyimi va undan foydalanish	To'qimachilik sanoatida o'rash haqida umumiy tushuncha	O'rovchining ish vazifasi	Bobina ipni o'rash uchun xomashyo tayyorlash	Bobina ishlab chiqarishda kerakli xom ashyo rahamlarini belgilanishi	Navbatni qabul qilish va topshirish qoidallari	O'rash jarayonida uskunalarini ishlatilishi	O'rash mashinada bobinani ishlab chiqarishda nuqsonlarini aniqlanishi	Marshrut usulida ishlanishi va ip sifatini aniqlashning ko'rish usuli	Ip sifatini belgilovchi mashina qismlarini tekshirilishi	Kalava ipning bog'lash turlari
		Modul bloklari																
1. O'rash mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyoni tayyorlash			Δ	Δ	Δ	Δ	Δ	Δ	Δ	Δ	Δ	Δ		▽				
2. O'rash mahsulotlarini va o'rash jixozlarini tayyorlash														Δ		▽		▽
3. O'rash jihozlarini naycha bilan ta'minlash va ipni uskunadan o'tkazish			Δ	Δ	Δ	Δ	Δ				▽				Δ	Δ	Δ	

4. O‘rash jarayonining boshlanishi. Tugun bog‘lash.		Δ	Δ	Δ	Δ	Δ						▽	▽					Δ
5. Tayyor mahsulot xosil bo‘lishi.		Δ	Δ	Δ	Δ	Δ	Δ											
Loyixa / O‘quvchi / Familiyasi Ta’lim ta’lim muassasasi	3	Kalava ipning o‘rash	Nazorat oraligini va ip	Kalava ipning	Tayyor mahsulotni	Kalava ipini o‘rash	O‘rash bobina ishlab	O‘rash bobina ishlab	Kalava ipning	O‘rash jarayonida sifat	Ipning fizik-mexanik xususiyatlarini	Ipning namligini va tezligini nazorat qilishi	O‘rash mashinasining	O‘rash jarayoniga tegishli chizmalarni	M-150-2 o‘rash mashinalarning umumiy	AMK-150 va Autosuk o‘rash jarayonining	texnik tavsifnomasi	Ish qurollarini tuzilishi va ishlatilishi
Shartli belgilar 1-asosiy toifa 2-o‘rgatuvchi modul	4	II				III						IV	VI					

Shunday qilib, modulli o‘qitish dasturlarni muayyan vaziyat uchun ma’lum ish o‘rini uchun zarur bo‘lgan modulli blok va o‘rgatuvchi modullardan tuzish mumkin. Ushbu dasturni bu afzalligi o‘rgatuvchi modullar pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Modulli o‘qitish dasturlari yangi modulli bloklar va o‘rgatuvchi modullar bilan to‘ldirilishi mumkin, bu esa yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Mazkur dastur, o‘zgaruvchan (harakatchan) o‘quv dasturiy hujjat bo‘lib, texnologiyalar, jihozlar, asboblarni va materiallarni takomillashgani bilan uni yangilashga imkoniyat mavjud bo‘ladi.

Modulli o‘qitish dasturini amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

• *O‘qitish individual modulli dastur, mustaqil, qadamba-qadam o‘zlashtirish shaklida amalga oshirilganda. Bunda har bir talaba o‘rgatuvchi modul bilan ta‘minlanadi, nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo‘lish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.*

Bilimlar va malakalar shakllanishini qadamba-qadam nazorat qilish. O‘rgatuvchi modullar har bir egallangan malaka uchun alohida tuziladi va shuning uchun bilim va malakalarni shakllanganligi har bir malaka bo‘yicha uzluksiz nazorat asosida amalga oshiriladi, bunda nazorat topshiriqlari, savollar va testlardan foydalaniladi.

O‘rgatuvchi modullar asosida o‘qitishda, pedagogning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: muvofiqlashtiruvchi, maslahatchi, nazoratchi.

Modulli o‘qitish dasturlari, o‘quvchining individual ehtiyojlariga osonlik bilan moslashadi va erkin vaqt omiliga ega bo‘ladi, chunki bu yerda individuallashtirilgan o‘qitish jarayoni ustunlik qiladi. Modulli o‘qitish dasturini o‘zlashtirish uchun zaruriy vaqt talabaning tabiiy qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasi o‘quv materialini individual va mustaqil o‘zlashtirishga to‘la imkoniyat yaratilishi tufayli ixtisoslikka samarali o‘rgatishni ta‘minlaydi.

Tayanch iboralar:

Modul, faoliyatlik tamoyili, tenglik va teng huquqlik tamoyili, tizimli kvantlash tamoyili, muammolik tamoyili, kognitiv vizuallik tamoyili, xatoliklarga tayanish tamoyili, motivatsiya tamoyili, modullik tamoyili, o'quv vaqtini tejash tamoyili, texnologik tamoyil, uzviylik tamoyili, fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi, tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi, modulli blok, modulli dastur tuzilmasi, muvofiqlashtiruvchi blok, axborot-yo'riqlar bloki, nazorat bloki, modulli o'qitish dasturi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Modulga ta'rif bering.
2. Modulli o'qitishning konseptual asoslarini aytib bering.
3. Modulli o'qitishning mohiyatini tushuntirib bering.
4. Modulli o'qitishning maqsadli yo'nalishlarini izohlab bering.
5. Modulli o'qitishning tamoyilari maqsadi va mazmunini izohlab bering.
6. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining ta'rifini va mohiyatini izohlab bering.
7. Modulli o'qitish maqsadlarini izohlab bering.
8. Fan bo'yicha yondashuv asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining sxemasini tushuntirib bering.
9. Modulli o'qitishning afzaliklarini izohlab bering.
10. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini izohlab bering.
11. Modulli dasturlar tuzilmasini tushuntirib bering.
12. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi sxemasini tushuntirib bering.
13. Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish bosqichlarini tushuntirib bering.

14. Modulli blokning shakllanish tartibi va mazmunini tushuntirib bering.
15. O'rgatuvchi modulning tuzilmasiga izoh bering.
16. Modulli o'qitish dasturini tushuntirib bering.

Testlar

1. Modul nima?

- A) Tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha
- B) Miqdorlar to'plamini tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha.
- C) Hamma javob to'g'ri
- D) Eng kichik tarkibiy bo'lakni ifodalovchi tushuncha

2. Modulli o'qitish tamoyillari qaysi javobda aniq ko'rsatilgan?

- A) Tizimli kvantlash, motivatsiya, modullilik, muammolik, kognitiv vizuallik, xatoliklarga tayanish, o'quv vaqtini tejash
- B) Individuallashtirish, motivatsiya, amaliyot bilan bog'liqligi, muammolik, vaqtni tejash
- C) Nazariya bilan amaliyot birligi, modullik, ilmiylik, kognitiv vizuallik, xatoliklarga tayanish
- D) Dasturlashtirish, tizimli kvantlash, ko'rsatmalilik, o'quv vaqtini tejash, muammolik, modullilik

3. Didaktik vazifa va qoidaga ko'ra darslar qanday tiplarga bo'linadi?

- A) Aralash tipdagi va yangi bilim berish darsi
- B) Bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash darsi
- C) Aralash, yangi bilim berish, laboratoriya darsi, bilim, ko'nikma, malakalarni umumlashtirish, mustahkamlash, nazorat va yozma mashqlar darslari
- D) Laboratoriya va bilimni tekshirish darsi

4. Psixomotor sohalarga oid taqsonomiyalar muallifi kimlar.

- A) Simison(1966), Deyv(1969), Beldvin(1971), Bruper(1973).
- B) B.Blum(1956), Gilford (1967), Mak Gyur (1969), Groiland (1970).
- C) B.Blum (1956), Sakomoto (1960), Gal'neri(1970), B.A.Petrovskiy (1975).

D) B.Okon(1975), Ganye (1967), M.Obara(1970), Ch.S.Nosal (1966).

5. Refleksiya nima.

A) Grekcha – o`rganib qolish, ruhiy holat.

B) lotincha – ortga qaytish, subyektning o`z psixik tuyg`u va holatlarini bilish jarayoni.

C) Psixik tuyg`u va holatlarni bilish jarayoni.

D) Grekcha- ortga qaytish subyektining shaxsiy hislatlari, his qilish tuyg`usi va bilish jarayoni.

6. S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o`zlashtirish necha

bosqichda kechadi.

A) .To`rtta

B) .Ikkita

C).Uchta

D) .Beshta.

7. Tabaqalashgan o`qitishning qanday shakli mavjud.

A. Individual va guruhli.

B .Ichki va tashqi.

A .Ijodiy va intellektual.

D .Selektiv va eklektiv.

8. Tadbirkorlik o`yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida nechta tayyorgarlik

bosqichiga ega.

A) . O`n bitta

B). O`n ikkita

C) . O`n uchta

D) . O`n to`rtta.

9.Tadbirkorlik o`yinini tayyorlashning sotsial –psixologik muammolariga nimalar kiradi.

A) Ishtirokchilarni tanlash,rollarni taqsimlash, o`yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash,ijtimoiy –psixologiya bo`yicha bilimlarni egallash

B) Nazariy bilimlarini amalda qo`llay olish, shaxsiy tayyorgarlik.

C) O`yinni olib boruvchi o`qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarni o`z hatti-harakatlarini tashkil etishva boshqarishga o`tishini ta`minlashi, nazariy bilimlarini amalda qo`llay olish, shaxsiy tayyorgarlik.

D) Ishtirokchilarni tanlash, rollarni taqsimlash, o`yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash, ijtimoiy –psixologiya bo`yicha bilimlarni egallash, nazariy bilimlarini amalda qo`llay olish, shaxsiy tayyorgarlik.

10. Tadbirkorlik o`yinlarini qanday turdagi modifikatsiyalari mavjud.

A) Jismoniy, intellektual, mehnat, sotsial.

B) Musiqiy, jismoniy, kompyuter, texnik, ko`cha.

C) O`yin metodikasi, fan sohasi, o`yin muhiti, pedagogik jarayon xarakteri.

D) Imitatsion, rolli, operatsion, tadbirkorlik, psixodrama va sotsiodrama.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.

2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modul'noy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.

3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.

4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.

5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.

6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T., Moliya, 2003.

7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.

8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.

9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida

o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru


www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

[www.ise.Iip](http://www.ise.Iip.Net). Net.

3.2. Masofaviy o`qitishning didaktik tizimi va tamoyillari



*Ilm o`qub qilmagan amal maqbul,
Dona sohib ko`tarmadi mahsul.*

Navoiy

1. Masofaviy o`qitishning dolzarbligi. Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishlash ko`nikma va malakalarini shakllantirish va uzluksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta`lim xizmatlarini ko`rsatish istiqbolli, zamonaviy o`quv tizimlari uchun quyiladigan talablardan biridir. YuNESKO «Ta`limni axborotlash instituti» mutaxassislarining fikricha, ta`lim jarayonini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda,

masofaviy o‘qitish va mustaqil o‘qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta’minotini yaratishdir.

Masofaviy o‘qitish – bu masofadan turib o‘qitish, o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi, yoki ko‘p qismi telekommunikasion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

Masofaviy o‘qitish, ayniqsa:

- *o‘qitishning an‘anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o‘qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;*
- *turg‘un sharoitda o‘qish imkoniyatlariga ega bo‘lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart- sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;*
- *o‘qituvchilar va boshqa soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishi uchun.*

Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari har bir shaxsning o‘zi istagan ta’lim olish huquqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o‘qitish aynan shunday o‘qitish shakli bo‘la oladi.

AQSHda 1 mln.ga yaqin odam masofaviy o‘qitish tizimida o‘qimokda. Bu tizimda televidenie imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Ispaniyaning Milliy universiteti masofaviy o‘qitish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu yerda sirtqi oliy ta’lim olish hamda uqituvchilarning malakasini oshirish mumkin.

Fransiyadagi masofaviy o‘qitish Milliy Markazi 120 davlatdagi 35 000 iste’molchini qamrab olgan.

Germaniyada ochiq universitet ochilgan bo‘lib, bu yerda sirtidan ta’lim olish hamda malaka oshirish mumkin.

Masofaviy o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha barcha topshiriqlar masofadan turib bajariladi, imtihonlar esa, oliy o‘quv yurtida topshiriladi.

Masofaviy o'qitish Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Koreya, Finlyandiya, Avstraliya va Rossiyada rivojlanmoqda.

Masofaviy o'qitish fakat milliy ta'lim tizimlardagina rivojlanib qolmay, balki, alohida tijorat kompaniyalarida ham rivojlanmoqda, masalan IBM, General Motors, Ford va boshqalar.

Masofaviy o'qitish – ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrining mahsulidir va ayni vaqtda uning rivojlanish katalizatori hamdir.

2. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'qitish maqsadi davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirilib, bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu ierarxik tizim bo'lib: o'qitish maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi.

Masofaviy o'qitishda barcha mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash imkoniyati yo'q. O'qitishning bunday turida o'qitilishi taqiqlangan yo'nalishlar ro'yxati qonun dalolatnomalari bilan tasdiqlanib, bu yo'nalishlarda ushbu tizimni qo'llash taqiqlanadi.

Masofaviy o'qitish tizimida ta'lim oluvchilarning nomlanishi hali aniqlanmagan. Ba'zan ularni tinglovchilar deb ataydilar. Masofaviy o'qitish tizimi ta'lim oluvchilarning yetarli tayyorgarligini va ish o'rinlarining texnik ta'minotini talab etadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish samaradorligi, asosan o'qituvchilarga bog'liq bo'ladi. Ammo, masofaviy o'qitishning didaktik tizimi xususiyatlari o'qituvchilar bajaradigan faoliyatlarini turli tuman vazifalarni, serqirraligini va bajaradigan rollarining xilma-xilligini talab etadi. Aynan shuning uchun chet davlatlarda o'qituvchilar tavsiflanishi kengaytirilgan:

- o'qituvchi – o'quv – uslubiy qo'llanmalarining ishlab chiquvchisi;

- o‘qitish uslublari bo‘yicha maslahatchi (fasiliteyter);
- o‘quv kurslarining interfaol uslublari bo‘yicha mutaxassis (tyuter);
- o‘qish natijalarini nazorat qilish bo‘yicha mutaxassis (invigilator);

O‘qitish metodlari (usullari). «Methodas» so‘zini yunon tilidan tarjima qilsak, uning ma’nosi – o‘zini tutish, yo‘l, ma’nosini anglatadi. O‘qitish metodlari deganda o‘qitish maqsadiga erishish uchun, ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Masofaviy o‘qitish tizimida, xuddi an’anaviy o‘qitish tizimidagidek, o‘qitishning besh metodi qo‘llaniladi: axborot – reseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

O‘qitish vositalari. O‘qitish mazmuni va o‘qitish vositalari bir-biri bilan bog‘liq. Har bir o‘qitish vositasi o‘z didaktik imkoniyatlariga ega. O‘qituvchi bu didaktik imkoniyatlarni bilishi va ulardan kerakli didaktik maqsadlarga erishish uchun kerakli o‘qitish vositalari majmuasini (keys) shakllantirishi kerak. O‘qitish vositalari quyidagilardan iborat: kitoblar (qog‘oz va elektron shaklda); tizimdagi o‘quv materiallar; kompyuter o‘quv tizimlari oddiy va multimedia variantda; audio o‘quv axborotlari; video o‘quv axborotlari; masofaviy laboratoriya, amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; masofaviy bilim bazalari; geoaxborot va baholaydigan o‘qitish tizimlari asosida didaktik materiallar. O‘qitish vositalari - o‘qitishning texnik vositalari: magnitofon, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor, kodoskop, videoproektor, kompyuterlar orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy o‘quv material bazasi. Barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimining me’yoriy faoliyat ko‘rsatishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy maqomi, o‘quv ta’lim muassasasining o‘quv material bazasi bilan chambarchas bog‘lik. An’anaviy o‘quv ta’lim muassasasining o‘quv material bazasi o‘quv jarayoni uchun kerak bo‘lgan barcha moddiy va texnik vositalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bular: o‘quv va yordamchi binolar, laboratoriya anjomlari, asbob uskunalari, o‘qitishning texnik vositalari, darsliklar, o‘quv-uslubiy materiallar.

Identifikasion-nazorat tizimi. Masofaviy o‘qitish tizimida nazorat qilishning xususiyati, o‘qitish tizimida o‘quvchi shaxsini aniqlash – identifikatsiya qilish va falsifakatsiya (boshqa shaxs o‘rnida faoliyat ko‘rsatish) uchun imkoniyat bermaslikdir. Shuning uchun bu tizimda bilim sifatini ko‘p mezonli va ob‘ektiv nazorat shakllarini videokonferensiyalar kabi turlarini o‘tkazish ahamiyati ortadi.

O‘qitish shakllari. Bu o‘qitishning tashkiliy shaklini tanlashdir. O‘qitish shakllarining quyidagilari rivojlangan: ma’ruzalar, seminarlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, kurs ishlari, sinovlar, imtihonlar, maslahatlar, mustaqil ish.

Masofaviy o‘qitishda o‘quv jarayoni ketma-ket keladigan muloqotda bo‘lish va muloqotda bo‘lmagan davrlardan iborat.

O‘qitish shakllarining barcha turlari o‘quv jarayoni davrida o‘z xususiyatiga ko‘ra qo‘llaniladi.

Moliyaviy-iqtisodiy tizim. Bu masofaviy o‘qitish tizimida eng ahamiyatli omillardan biri bo‘lib, bozor iqtisodi sharoitida u faqat o‘z-o‘zini moddiy ta’minlab qolmay, balki, o‘quv tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘qitish tizimi iqtisodiyoti bilan tanish bo‘lishi kerak.

Chet el tajribalari bu masofaviy o‘qitish tizimining samaradorligini ko‘rsatdi, ammo har bir muayan holatni iqtisodiy va pedagogik nuqtai nazardan baholash lozim.

Me‘yoriy-huquqiy tizim. O‘qitish tizimining rivojlanish asosi sifatida bu sohadagi qonunchilikning rivojlanishi va mukammalligi xizmat qiladi.

O‘quv qonunchiligining predmeti – pedagogik munosabatlardir, qolganlari esa, ya’ni, boshqaruv, mulkiy, moliyaviy va hokazolar ishlab chiqarish xarakteriga ega.

O‘qitish ta’lim muassasasining faoliyati «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun», Nizom, Davlat ta’lim standartlari, namunaviy o‘quv dasturlari, rejalar, yo‘riqnomalar, buyruqlar, kollegiya va ilmiy kengash qarorlariga asoslanadi.

Marketing tizimi. Bozor iqtisodi sharoitida tizim samaradorligini ta’minlash uchun, har bir ta’lim muassasasi, shu jumladan o‘quv ta’lim muassasasi ham

marketing xizmatini tashkil qilishi kerak. Har bir ta`lim muassasasi, shu jumladan o`quv ta`lim muassasasining marketing xizmatini tashkil qilish bozor iqtisodi sharoitida samarali faoliyat qilish uchun kerak.

Masofaviy o`qitish tizimida marketing an`anaviy vazifalarni bajaradi, ya`ni, ishlab chiqarishni boshqarish va mahsulotni sotish, talablarni aniqlashga yo`naltirilgan, o`quv ta`lim muassasasi faoliyatini iste`molchi bozoriga moslashtiradi.

Masofaviy o`qitish tizimini tashkil etishda marketingning quyidagi asosiy tamoyillardan foydalaniladi:

- *ta`lim xizmatlari bozorida talabni va uning o`sish dinamikasini hisoblash, yo`nalishlarni aniqlash, kerak bo`lgan mutaxassislarning soni va sifatini aniqlash;*
- *ta`lim xizmatlari ishlab chiqarishini bozor talablariga yuqori darajada moslash (o`quv rejalar va o`quv dasturlar, o`quv-uslubiy adabiyot, o`qituvchilar tayyorlash va h.z.);*
- *masofaviy o`qitish tizimini tashkil etishda iste`molchi, jamiyat va ta`lim muassasasi manfaatlarini uyg`unlashtirish;*
- *ta`lim xizmatlarini targ`ibot qilish (milliy va xalqaro masshtabda);*

Masofaviy o`qitish tizimining didaktik tizimini izchillik bilan tashkil etish, zamon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi.

3. Masofaviy o`qitish tamoyillari. Masofaviy o`qitishning o`ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat:

Interfaollik tamoyili. Bu tamoyil tinglovchi va o`qituvchi o`rtasidagi aloqani ta`minlab qolmay, balki tinglovchilar o`rtasidagi aloqani ham ta`minlaydi. Tajribalar tinglovchi va o`qituvchi o`rtasidagi aloqadan ko`ra tinglovchilar o`rtasidagi aloqalar ko`proq ekanligini ko`rsatadi.

Boshlang`ich bilimlar tamoyili. Masofaviy o`qitish tizimida tinglovchining oldindan tayyorgarlik ko`rishi va apparat - texnik vositalari bilan ta`minlanganlik darajasi, kompyuterga ega bo`lishi va internetga ulanishi, hamda bu tizimda ishlay olish malakalariga ega bo`lishi lozim.

Individuallik tamoyili. Real o‘quv jarayonida kirish va oraliq nazorat o‘tkaziladi. Ularning natijasini tahlil qilish asosida individual o‘quv rejalari tuziladi, shu jumladan oqsayotgan dastlabki bilimlar va ko‘nikmalar bo‘yicha ham ishlar olib boriladi.

Identifikasion tamoyil. Mustaqil o‘qishning nazorat shakli bo‘lib, bilim sifatini nazorat qilishda bevosita muloqot videokonferensiyalar kabi turli texnik vositalar qo‘llaniladi.

O‘qitish reglamenti tamoyili. O‘quv jadvalining qat’iy rejalashtirilishi va rejalashtirilgan jadvalning nazorati bilan belgilanadi.

Yangi axborot texnologiya vositalarini qo‘llashning pedagogik maqsadliligi tamoyili. Masofaviy o‘qitish tizimini loyihalashtirishda, yaratish va tashkil etishda mavjud bo‘lgan texnik vositalarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligini tahlil qilib, ularni qo‘llashda xato qilishning oldini olish lozim. Masofaviy o‘qitish tizimida qo‘llaniladigan texnik vositalarning maqbul nisbati quyidagicha: bosma materiallar 40-50%, WWW serverlaridagi o‘quv materiallar 30-35%, kompyuter videokonferensiya aloqasi 10-15% , qolganlari 5-20%.

Ta’limning oshkoralik va o‘zgaruvchanligini ta’minlash tamoyili. Bu tamoyil yosh va boshlang‘ich ta’lim darajasi jihatidan «mo‘tadilligi», kirish nazoratining suhbat, imtihon, test shaklida o‘tkazilishi va h.k. bilan ifodalanadi. Buning natijasida keyinchalik o‘quv ta’lim muassasasidan bu tinglovchini shaxsiy (individual) reja bo‘yicha o‘qitishda qo‘shimcha harakatlar talab qilinadi. Ta’lim tizimining ko‘p variantliligini ta’minlash va bir o‘quv yurtidan boshqa o‘quv yurtiga o‘tish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Masofaviy o‘qitish tizimining istiqbolligi shundaki, bu tizim shaxsning eng asosiy huquqlaridan biri – ta’lim olish huquqini amalga oshirishni ta’minlaydi. Masofaviy o‘qitish tizimining maqsadga muvofiqligini baholashda, albatta uning ijtimoiy samaradorligini e’tiborga olish lozim.

4. Masofaviy o'qitish texnologiyasi. Masofaviy o'qitish texnologiyasi tushunchasi standartlashtirilmagan. Eng ko'p tarqalgan ta'rif quyidagicha: masofaviy o'qitish texnologiyasi bu ta'limning belgilangan mazmunini nusxalab amalga oshirishga yo'naltirilgan usullar tizimi, maxsus vositalarning, o'qitish shakllarining majmuasidir.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyalarning bir ko'rinishi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *ta'lim axborotlarini taqdim etish texnologiyasi;*
- *ta'lim axborotlarini uzatish texnologiyasi;*
- *ta'lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.*

Ta'lim axboroti: muayyan faoliyat turi, ixtisosini amalga oshirishda ko'llashi uchun, ta'lim oluvchiga berish kerak bo'lgan bilimlardir. Masofaviy o'qitish tizimida yangi elektron kitoblarga alohida talablar qo'yiladi. Elektron kitoblardagi ta'limiy axborot tinglovchining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanishi kerak, chunki u bu axborotni kompyuter ekrani orqali qabul qiladi.

Elektron darslik quyidagi maxsus talablarga javob berishi kerak:

- *tushunchalar beriladigan matn qismining rivojlangan, gipertekst tuzilishi (tushunchalar, ta'riflar, teoremlar), va bayonning mantiqiy tuzilishi (qismlarning ketma ketligi, bog'liqligi);*
- *ta'lim olishda qulay yangilik tizimiga ega bo'lishi, tinglovchi kursning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tishi, o'qituvchiga elektron xabarlar yuborishi, munozaralar bo'limiga o'tishi;*
- *zamonaviy kompyuterlarning multimedia va Internet imkoniyatlaridan foydalanish;*
- *darslikda bilimlar nazorati tizimining ishlab turishi;*
- *glossariy mavjudligi (avtonom qo'shimcha ma'lumotlar) va ularga tayanish. Glossariylar kurslar uchun alohida, bir necha kurs uchun alohida modullar uchun ishlab chiqariladi;*
- *darsliklarda tasviriy manbalar, elektron kutubxonalar va Internetdagi manbalarning ko'rsatilishi;*
- *qulayligi- tizimga tez kirish;*
- *o'qituvchi bilan samarali aloqada bo'lish (elektron pochta, ...) aniq vaqt birligida Internet orqali gapira olish.*

Ta'lim texnologiyasi – bu ta'lim axborotlarini manbadan iste'molchiga uzatishda qo'llaniladigan didaktik uslublar majmuasidir.

Ta'lim axborotlari ta'lim texnologiyalari orqali uzatiladi. Masofaviy o'qitish tizimida tasviriy fikrlashni faollashtirishga alohida e'tibor berilishi kerak, ya'ni o'qituvchi fikrini tasviriy obrazlar ko'rinishida taqdim etishi kerak. Masofaviy o'qitish tizimi ta'lim texnologiyalarida fikr, axborot, bilimni vizuallashtirish, katta ahamiyatga ega.

Masofaviy o'qitish tizimida quyidagi ta'lim texnologiyalarini ishlatish mumkin:

– *video-ma'ruzalar; multimedia-ma'ruzalar va laboratoriya amaliyotlari; elektron va multimedia-darsliklari; kompyuter test tizimlar; imitatsiya modellari va kompyuter trenajyorlar; telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi maslaxatlar va testlar; videokonferensiyalar.*

Axborotlarni saqlash, qayta ishlatish, tinglovchiga yetkazish, o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi interfaol muloqot, hisoblash texnikani qo'llashga tayangan apparat-dasturlar vositasida amalga oshiriladi. Bular – axborot texnologiyalaridir.

Masofaviy o'qitish tizim texnologiyalari pedagogik texnologiyalar asosida ishlangan bo'lib, quyidagi qo'shimcha talablarga javob berishi kerak:

Adaptatsiya – ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga, turar joyi sharoiti, moliyaviy sharoiti, psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish. Bu tinglovchining yakka holda, kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ta'lim olish jarayonida juda muhimdir.

Iqtisodiy muvofiqlik – bu talabga rioya etish ta'lim tizimining moliyalash mablag'lari chegaralanganligidan kelib chiqadi.

O'zgaruvchanlik – ta'lim sifati va mazmunini tezkor va uzluksiz yangilab borish, o'quv materiallarini modernizatsiyasini amalga oshirishga imkoniyat ta'minlab berish. Ushbu zaruriyat ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi talablariga ko'ra paydo bo'ladi.

Nazorat – o'qitishning barcha bosqichlarida natijalarni sifatli nazorat qilish, tinglovchi shaxsini aniqlash.

Masofaviy o'qitish tizimi natijalari o'quv kurslarining ishlanmasi va taqdimoti sifatiga bog'liqdir.

Tayanch iboralar:

O'qitishning an'anaviy usuli, o'qish imkoniyatlari, masofaviy o'qitish, masofaviy o'qitishning didaktik tizimi, masofaviy o'qitishning maqsadi va mazmuni, ta'lim oluvchilar va o'qitadiganlar, masofaviy o'qitishning uslublari va vositalari, ilmiy-o'quv material bazasi, identifikatsiya-nazorat tizimi, masofaviy o'qitishning shakllari, malakaviy-iqtisodiy kichik tizim, me'yoriy-huquqiy baza, o'quv ta'lim muassasasining marketing xizmati, interfaol tamoyili, boshlang'ich bilimlar tamoyili, individuallik tamoyili, identifikasion tamoyil, o'qitish reglamenti, masofaviy o'qitish texnologiyasi, ta'limiy axborot, ta'lim texnologiyasi, adaptatsiya, iqtisodiy talab, qulaylik, nazorat.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishning dolzarbligini tushuntirib bering.
2. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi tarkibiga izoh bering.
3. O'qitish maqsadi qaysi me'yoriy xujatlar asosida shakllanadi?
4. O'qitish mazmuni qanday belgilanadi?
5. O'qitish uslublarni izohlab bering.
6. O'qitish vositalarining turlariga izoh bering.
7. Me'yoriy-huquqiy tizim tarkibi va mohiyatini izohlab bering.

8. Interfaol tamoyilning maqsadi va mazmunini tushuntirib bering.
9. Boshlang'ich bilimlar tamoyilining maqsadi va mazmunini tushuntirib bering.
10. Individuallik tamoyilning maqsadi va mazmunini tushuntirib bering.
11. Identifikasiya tamoyilining maqsadi va mazmunini tushuntirib bering.
12. O'qitish reglamenti tamoyilining maqsadi va mazmunini tushuntirib bering.
13. Ta'limning oshkoralik va qamrovligini ta'minlash tamoyilining mohiyatini izohlab bering.
14. Masofaviy o'qitish tizimida qo'llanadigan texnik vositalarining maqbul nisbatini izohlab bering.
15. Masofaviy o'qitish texnologiyasi tushunchasining ta'rifini aytib bering.
16. Masofaviy o'qitish texnologiyasining qanday tarkibiy qismlari mavjud?

Testlar

1. Berilgan variantlardan rivojlantiruvchi talabni aniqlang?

- A) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashqil etish;
- B) o`quv mashg`ulotlarini odimlash darajasida o`tkazish;
- C) har bir darsning ta`limiy vazifasini aniq belgilab olish;
- D) dars to`zilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish.

2. Sintez deganda nimani tushunasiz?

- A) o`zlashtirilgan dalililar, tushunchalar va ish usullarini amaliyotga tadbqiq etish qobiliyati;
- B) o`rganilayotgan materialni mohiyati anglanadi;
- C) o`zlashtirilgan alohida-alohida materialni umulashtirib yaxlit yangi to`zilma hosil qilishni ko`zda tutadi;
- D) belgilangan maqsadlarni egallagan natijalarni bilan qiyoslash.

3. Baholashning ta`limiy ahamiyati nimadan iborat?

- A) o`quv materialining o`zlashtirilganligi haqida ta`lim beruvchi, ta`lim oluvchi ham muayyan ma`lumotga ega bo`ladi;
- B) olingan bilim va ma`lumotlarni qabul qilishi;
- C) talabalarning amaliy ko`nikmalarini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi;
- D) talabalarning xulq-atvorini nazorat qilish imkoniyati yaraladi.

4. Tarbiyaviy faoliyat to`g`ri ta`riflangan variantni aniqlang?

A) pedagogik jarayonda o`z hissiyotlarini boshqarish;

B) darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta`limi mashg`ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhiiy ishlarni shakllantirishni o`z ichiga oladi:

C) xohish va istaklarni boshqarish;

D) o`zliklarini anglash.

5. Kasbiy faoliyat mazmunining asosi nima?

A) malakali talablar, o`lchovlar, mezon, maqsad, vazifa:

B) ishlab chiqarish ta`limi;

C) bilim va ko`nikmalar;

D) ilmiy bilimlar.

6. Didaktik vazifaga ko`ra dars tipini aniqlang?

A) amaliy mashg`ulot;

B) nazariy mashg`ulot;

C) umumlashtiruvchi takrorlash darsi:

D) guruhiiy darslar.

7. Refleksiv qobiliyatlar nima?

A) o`qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlari:

B) ijodkorlik mahorati;

C) ilmiy bilimlari;

D) kasbiy mahorati.

8. Layoqat nimani anglatadi?

A) ma`lum bir faoliyat bilan shug`ullanishga undovchi omil;

B) ob`ektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o`rganishga bo`lgan intilish;

C) shaxsning tabiiy tug`ma xususiyatlari bo`lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib qobiliyatga aylanadi;

D) insonlarning qiziqishi.

9. Qo`yidagilardan qaysi biri tarbiyaviy talabga tegishli?

- A) o`qitishning hayotiyligini ta`minlash;
- B) dars vaqtidan unumli foydalanish;
- C) nazariy bilimlarni amalda tadbiq etish;
- D) dars o`qitishning turli uslublaridan foydalanish.

10. O`quv didaktik materiallar deganda nimani tushunasiz?

- A) faoliyatlar;
- B) o`qitish usullari;
- C) o`rganish uchun lozim bo`lgan har qanday axborot tashuvchilar;
- D) o`qitilishi va o`rganilishi lozim bo`lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz


www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.Iip.Net



3.3. O'quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi



*Zakovatli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.*

Yusuf Xos Xojib

1. ESTS yaratilishining dolzarbligi. XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilobi tufayli, ilmiy texnik taraqqiyot o'zining yuksak cho'qqilariga erishdi.

Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki, fan, texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur'atlarini, mamlakat qay darajada rivojlangan bo'lmasin alohida olingan mamlakatda uni ta'minlab bo'lmaydi. ITTning keyingi rivoji, faqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi, ilmiy-tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan, texnika va texnologiyaning tarqqiyoti ta'lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi.

Ta'lim sohasidagi integrasion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989 yilda Yevropaning minglab talabalari, Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students), Tempus va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Erasmus dasturi bo'yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o'rtasidagi talabalar almashinuvi sxemasi, dastavval 145 oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan edi.

Erasmus dasturining yutuqlaridan biri, bu Yevropa universitetlaridagi o'qitish natijalarini o'zaro tan olish tizimi – European Credit Transfer System (ECTS) ni yaratish, sinash va amaliyotga keng qo'llash deb aytish lozim.

2001 yilda, o'quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi ECTS, Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo'llanilgan edi.

2001 yilda, 29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi, Yevropa ta'lim hududini yaratilishida, muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bolonya deklaratsiyasiga ko'ra, diplomlarning o'zaro tan olinishi ya'ni o'qitish natijalarini yakuniy ko'rsatkichlarning o'zaro tan olinish muddati – 2010 yil deb belgilangan edi.

Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun qo'yidagi dastlabki talablar qo'yiladi:

- *Oliy o'quv yurtigacha, 12 yillik ta'lim;*
- *Ikki bosqichli oliy ta'lim-bakalavriat va magistratura;*
- *O'quv jarayoni va o'qitish natijalarini baholash, ECTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.*

ECTS – bu yagona Yevropa ta'lim hududini yaratishning ibtidosidir.

O‘quv jarayonini tashkil etishning ECTS kredit texnologiyasiga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- *Xorijda o‘qishni davom ettirish uchun oliy o‘quv yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish*
- *O‘zbekistonda ta‘lim olgan muddatini xorijiy davlatlarda tan olinishini ta‘minlash.*
- *Yevropa oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalarini o‘rganish va shu asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish;*
- *Talabalar qobiliyatini to‘laroq ochilishiga va o‘qitishning yuqori natijalariga erishish;*
- *Diplomlarni o‘zaro tan olinishiga erishish.*

ECTS kreditlari barcha o‘quv fanlariga, ya‘ni majburiy va talaba tanlovi asosida fanlarga taqsimlanadi.

2. ECTS kreditlari. Kredit» atamasi (ECTS-credit)- sinovdan o‘tdi, ma‘lum bir kursni o‘quv yurtida o‘tganligi haqidagi guvohnoma ma‘nosini anglatadi. ECTSda «Kredit» - shartli sinov birligi bo‘lib, talabaning o‘quv fanining ma‘lum bir qismini o‘tganligi haqidagi ma‘lumot beradi. Har bir o‘quv faniga ma‘lum miqdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni, talabalarning mehnat sarfiga mos holda belgilanadi.

Talabaning mehnat sarfi – auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar va o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ya‘ni ECTS kreditlari faqat auditoriya soatlari bilan chegaralanmasdan, talabalarning to‘la yuklamasiga tayanadi. Shuning uchun ECTS kreditlarini, talaba mehnat sarfining o‘quv fanlari bo‘yicha shartli - sonli ifodasi deb hisoblash mumkin.

Odatda o‘quv rejasidagi fanlarga ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng, undan ko‘p va kam sonli fanlar ham mavjud.

ECTSda kreditlar yig‘indisi semestrda - 30, o‘quv yilida – 60, bakalavriatdagi o‘quv davrida – 240ni tashkil etadi.

Ular mazkur fan bo'yicha kurs loyihalari va ishlarining mavjudligini hisobga olishlari zarur.

O'quv faniga ajratiladigan kreditlar miqdori, fanning murakkabligiga va o'zlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni har qanday murakkab fan ham katta miqdordagi kreditlarga ega bo'la olmaydi.

Agar, murakkab fan bilish va tushunish darajasida o'zlashtiriladigan bo'lsa, kam murakkabli o'quv fani malaka darajasida o'zlashtirilsa, tabiiyki oxirgisiga ko'proq kreditlar ajratiladi. Shuning uchun turli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun, bir fanning o'zi turli o'quv dasturlariga va unga muvofiq turli mehnat sarfi va kreditlarga ega bo'lishi mumkin.

3. ECTSning asosiy tamoyillari va xususiyatlari

ECTS quyidagi asosiy tamoyillarga tayandi:

1. Transferancy – bu ECTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ'iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

Axborot targ'iboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ♦ almashish sxemasiga kiritilgan talabalarning o'qish natijalari haqida bir biriga o'z vaqtida axborot yetkazib turish;
- ♦ oliy o'quv yurtlarining o'z axborot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta'lim xizmatlari doirasida bir birini imkoniyatlarini o'rganish;
- ♦ oliy o'quv yurtlarida, ECTS haqida to'la ma'lumotlarning mavjudligi.

2. Agreement – Talaba bilan ikkala oliy ta'lim muassasasining ECTS koordinatolari orasida tayyorlash mazmuni, o'qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi.

3. Sredits – Host universitetida (qabul qiladigan universitet) muvaffaqiyatli o‘tilgan barcha fanlar Post- universitetda (talabani boshqa OTMga jo‘natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

4 Ta’limning insonparvarlashuvi - bu shaxsning turli ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi va ta’lim jarayonida inson qobiliyatining ochilishini anglatadi. ECTS ta’limni davom ettirish uchun oliy ta’lim muassasasini, o‘quv fanlarini va o‘qituvchilarni tanlash imkoniyatini beradi.

5 Ta’limning individuallashtiruvi - bu har bir talabaning individual reja va ta’lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70% ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70% ni, auditoriyadagi ishi esa 30% tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar individual ta’limni tashkil etishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

6. Ta’limning samaradorligi – guruhda individual o‘qitishli auditoriya mashg‘ulotlari va talabaning mustaqil ishlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Auditoriya o‘quv vaqtining 70% gacha qismini individual o‘qitishga, shuningdek umumiy o‘quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o‘quv fanlarining talabalar tomonidan o‘z qobiliyatlari darajasida o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta’limning samaradorligi ta’minlanadi..

ECTS tamoyillari - shaxsning o‘z qobiliyatini to‘la rivojlanishi va ruyobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriylikini ko‘zda tutadi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi, oliy ta’lim ta’lim muassasasining jihozlanganligi, professor-o‘qituvchilar tarkibi faqat ilmiy darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo‘lishi, o‘qitishning yuqori sifati - ECTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O‘quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O'quv rejasi bo'yicha barcha o'quv fanlari ikki guruhga bo'linadi - majburiy va talaba tanlovi asosidagi fanlar.

- ◆ bu taxminan 1:2ga teng qabul qilinadi;
- ◆ har bir talaba shaxsiy o'quv rejasiga ega bo'ladi;
- ◆ asosiy hujjat transkript (transcript of record) u ECTS ning unifikatsiyalashgan hujjat bo'lib, yagona shaklda tuziladi, o'qitish natijalarini tan olish uchun majburiy hujjat hisoblanadi. Transkriptda, talabaning mazkur davlatda qabul qilingan baholash tizimida ham, ECTS tizimi bo'yicha ham olgan baholari, olingan ECTS kreditlari bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi:

- ◆ *har bir semestrda o'rganiladigan fanlarning soni 3...5 ta bo'lishi;*
- ◆ *mustaqil ishga ajratilgan soatlar, auditoriya soatlaridan ko'p bo'lishi;*
kredit o'zida talabaning o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha mehnat sarflarini mujassamlashtirdi.

O'qituvchining o'quv yuklamasini hisoblashda:

- ◆ *umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish sotalari) bir o'quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi - e'tiborga olinadi.*

O'quv fani dasturining mazmuni (silabus) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ◆ *o'quv fanning to'liq nomlanishi va uning o'quv rejasidagi tartib raqami;*
- ◆ *o'quv fanini o'rganish maqsadi;*
- ◆ *o'quv fanining qisqacha mazmuni;*
- ◆ *taqvimiy reja, mashg'ulotlar jadvali bilan;*
- ◆ *o'qitish texnologiyasi;*
- ◆ *talabaning mas'uliyati va unga qo'yilgan talablar;*
- ◆ *talabalar bilimni baholash tartibi va mezonlari;*
- ◆ *asosiy va ao'shimcha adabivotlar ro'yxati.*

O'quv fani uchun ajratilgan kreditlar soni, aksariyat hollarda 3 ga teng bo'ladi

O'qitish jarayonining asosini:

- ◆ *shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari;*
- ◆ *talabaning mustaqil ishida, o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi.*

Har bir talabaga axborot paketi beriladi, u quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- ◆ *oliy ta'lim muassasi haqida ma'lumot;*
- ◆ *o'quv rejasi;*
- ◆ *o'quv jarayonining grafigi;*
- ◆ *o'quv fanlarining mazmuni;*
- ◆ *oliy ta'lim muassasada qabul qilingan ta'lim tizimining metodik xususiyatlari haqida ma'lumotlar;*
- ◆ *talabalar bilimni baholash tizimi va baholar shkalasi haqida ma'lumotlar;*
- ◆ *ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga tegishli ma'lumotlar.*
- ◆ *tarixiy va madaniy sohaga oid ma'lumotlar;*
- ◆ *qo'shimcha ta'lim xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar.*

ECTS – oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishda demokratik tizimining namunasi.

5. Kreditlarni taqsimlash va ECTS o'quv rejalariga o'tish metodikasi

Davlat ta'lim standartlariga tayanib tuzilgan o'quv rejasi, o'quv jarayonini tashkil etishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu me'yoriy hujjatlar asosida o'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflari aniqlanadi. O'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflarini hisoblash namunasi 1.10-jadvalda keltirilgan.

Kreditlarni hisoblash va ularni o'quv faoliyatlari turlari, bloklar va alohida fanlar bo'yicha taqsimlashda, o'tish koeffisientini aniqlash zarur ($K_{o't}$).

$$K_{o't} = 240:8262=0,029$$

Bu yerda: 240 – bakalavriatning ECTS bo'yicha kreditlari yig'indisi, kredit 8262 – an'anaviy tizimda o'quv reja bo'yicha umumiy mehnat sarflari yig'indisi, Kreditlar soni, mehnat sarfini o'tish koeffisientiga (0,029) ko'paytirib topiladi.

O'quv faoliyati turlari, bloklar va alohida o'quv fanlari bo'yicha kreditlarni hisoblash namunalari 1,10, 1,11 va 1,12 jadvallarda keltirilgan.

O'quv faoliyati turlari bo'yicha kreditlar taqsimoti namunasi

No	DTS asosida o'quv faoliyatining nomi	Haftalar soni	Auditoriya soatlari	Umumiy o'quv yuklamasi	Kredit
1.	Nazariy va amaliy ta'lim	136	[136·36]	136·54=7344	7344·0,029=213
2.	Malakaviy amaliyot	12	432	648	19
2.1.	Ishlab chiqarish amaliyoti	4	4·6·6=144	4·6·9=216	6
2.2.	Pedagogik amaliyot	8	288	432	13
3.	Bitiruv ishi	5	5·36=180	5·54=270	8
4.	Attestatsiya	19			
5.	Ta'til	32			
Jami:		204	5508	8262	240

Jadvaldagi ma'lumotlarni hisoblashda haftalik auditoriya o'quv yuklamasi - 36 soat, talabalarning me'yoriy haftalik mehnat sarfi – 54 soat qabul qilingan.

Zamonaviy o'quv rejasi bo'yicha, ECTS bir kreditining taxminiy qiymati talabaning 34,4 soat mehnat sarfiga tengdir.

1.11. jadval

Fanlar bloklari bo'yicha kreditlarning taqsimoti nazariyasi

No	Fanlar bloklarining nomlanishi	Auditoriya soatlari	Umumiy o'quv yuklamasi	Kredit
1.	Umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1214 (≈25%)	1726	50
2.	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	846 (25 % ga)	1292	37
3.	Umumkasb fanlari	2034	3682	89

		(50% ga)		
4.	Ixtisoslik fanlar	468 (≈10%)	794	23
5.	Qo‘shimcha fanlar	334 (≈5%)	450	14
6.	Malakaviy amaliyot	432 6	648 9	19
7.	Bitiruv ishi	180	270	8
Jami		5508	8262	240

1.12. jadval

O‘quv fanlari bo‘yicha kreditlar taqsimoti namunasi

№	Fanning nomi	Mehnat sarfi (soat)	Hisob bo‘yicha kredit	Kredit
<i>I kurs: Kuzgi semestr</i>				
1.	O‘zbekiston tarixi	110·0,29	3,2	3
2.	Iqtisodiyot nazariyasi	85·0,29	2,5	3
3.	O‘zbek (ruC) tili	55	1,6	2
4.	Chet tili	43	1,3	1
5.	Jismoniy madaniyat	58	1,7	2
6.	Informatika	110	3,2	3
7.	Iqtisodiy geografiya	80	2,3	2
8.	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	86	2,5	3
9.	Iqtisod uchun matematika	110	3,2	3
10.	Yosh davrlar fiziologiyasi va gigienasi	54	1,6	2
11.	Talabalar tanlovi fanlari	182	5,3	5
Jami:		972	28,4	29

<i>I kurs: bahorgi semestr</i>				
1.	Huquqshunoslik	55	1,6	2
2.	O‘z.R.Konstitutsiyasi	55	1,6	2
3.	Iqtisodiyot nazariyasi	98/98	2,8	3
4.	O‘zbek (ruC) tili	55	1,6	2
5.	Chet tili	43	1,3	1

6.	Jismoniy madaniyat	57	1,7	2
7.	Informasion texnologiyalar va tizimlar	108	3,2	3
8.	Iqtisodchilar uchun matematika	110	3,2	3
9.	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	110	1,8	3
10.	Iqtisodiy geografiya va ekologiya	60	2,4	2
11.	Zamonaviy tabiiy fanlar konsepsiyasi	82	2,9	2
12.	Iqtisodchilar uchun informasion texnologiyalar	97	4,3	3
13.	Psixologiya	150	3,2	4
14.	Talaba tanlovi fanlari	110	31,6	3
Jami		1080	60	31
Hammasi:		202	60	60

6. Talabalar bilimni baholash uslubiyoti

O'quv jarayoni kredit texnologiyasi asosida tashkil etilganida, aksariyat hollarda 4 balli baholar shkalasini qo'llab, 100 foiz baholash tizimi ishlatiladi.

Masalan: *A-4 b; V-3,5 b; S-3 b; D-2,5 b; Ye-2 b, F-1,5 b, F-1 b.*

100 foizli baholash tizimi quyidagicha taqsimlanishi mumkin: mashg'ulotlarga qatnashishi – 5%, joriy testlash – 30%, odatda 3 marta 10% dan; mustaqil ishlarni bajarish -15%, o'rtacha 3 marta 5% dan; laboratoriya ishlarini bajarish – 10%, kurs loyihasi (ishi)ni bajarish – 10%; yakuniy imtihon – 30%.

1.13-jadval keltirilgan baholar mezonlaridan 100 foizli baholash tizimida qo'llanilganida foydalanish mumkin.

1.14. jadval

Baholash mezonlari

Baholar ta'rifi	Shartli belgisi	O'zlashtirish %	Baholash mezoni	Tayyorgarlik darajasi
A'lo	A	90-100	Bilimlarni umumlashtiradi va baholaydi, tahlil etadi,	4-daraja ijod darajasi

			tushunadi, biladi.	
Juda yaxshi	B	80-90 tahlil	Tahlil etadi, qo‘llaydi, tushunadi, biladi.	3-darajasi ko‘nikma, malaka va (avtomatik) darajasi
Yaxshi	C	70-80 qo‘llash	Qo‘llaydi, tushunadi, biladi	3-darajasi ko‘nikma va malaka darajasi
Qoniharli	D	60-70 tushunish	Tushunadi, biladi	2-daraja qayta tiklash darajasi
Yetarli	E	50-60 bilish	Biladi	1-darajasi tasavvur etish darajasi
Yetarli emas, qo‘shimcha yana ishlash talab qilinadi	FY	40-50	Yomon biladi	0-darajasi yomon tasavvur etadi.
Yetarli emas, qo‘shimcha yana juda ham ko‘p ishlash talab qilinadi.	F	40 kam	Umuman bilmaydi	0-darajasi umuman tasavvur etmaydi

O‘quv fani materialining 90-100% o‘zlashtirishi «a’lo» bahoga to‘g‘ri keladi. Bu tayyorgarlikni 4-darajasiga tenglashtiriladi va «ijod darajasi» deb belgilaydi.

O‘quv fani dasturi kamida 50% o‘zlashtirilganida «yetarli bahosi qo‘yiladi, bu o‘zlashtirishning tassavur darajasi» deb belgilanadi. O‘quv fanining 40% dan kam o‘zlashtirishi, tayyorgarlikning 0-darajasi, ya’ni «umuman tasavvur etmaydi» deb hisoblanadi.

100 foizli baholash tizimi talabalar bilimini baholash shkalasini yagonalashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Tayanch iboralar:

Kredit, o'quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi, Bolonya deklaratsiyasi, talabaning mehnat sarfi, kreditlar miqdori, transferancy, agreement, Credits-hots, Credits-Post, transcript, silabus, axborot paketi, o'tish koeffisienti, talabalar bilimni baholash uslubiyoti, baholash mezonlari



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. ECTS kredit tizimini ishlab chiqish maqsadini tushuntiring.
2. Bolonya deklaratsiyasining mohiyatini aytib bering.
3. Kredit atamasining ma'nosini tushuntirib bering.
4. Kredit miqdorlarini belgilash yondashuvini aytib bering.
5. ECTSning asosiy tamoyillarini aytib bering.
6. ECTS kredit texnologiyasida ta'limning samaradorligini ta'minlaydigan omillarga izoh bering.
7. O'qitish jarayonining asosini tashkil etadigan xususiyatlarni izohlab bering.
8. Axborot paketining tarkibini izohlab bering.
9. Kreditorlarni fanlar bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatib bering.
10. Talabalar bilimni baholash uslubiyotini aytib bering.

Testlar

1. Kredit atamasini ma'nosini tushuntirib bering?

- A) «Kredit» atamasi (*ECTS-credit*)- sinovdan o'tmadi, aniq bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqidagi guvohnoma ma'nosini anglatadi.
- B) «Kredit» atamasi (*ECTS-credit*)- sinovdan o'tdi, noaniq bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqidagi guvohnoma ma'nosini anglatadi.
- C) «Kredit» atamasi (*ECTS-credit*)- sinovdan o'tdi, ma'lum bir kursni aniq o'quv yurtida o'tganligi haqidagi guvohnoma ma'nosini anglatadi.
- D) «Kredit» atamasi (*ECTS-credit*)- sinovdan o'tdi, ma'lum bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqidagi guvohnoma ma'nosini anglatadi.

2. ECTS tamoyillari nimani ko`zda tutadi?

- A) ECTS tamoyillari - shaxsning o`z qobiliyatini to`la rivojlanishi va ruyobga chiqarishi, rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko`zda tutadi.
- B) ECTS tamoyillari - shaxsning o`z qobiliyatini noaniq rivojlanishi va ruyobga chiqarishi rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko`zda tutadi.
- C) ECTS tamoyillari - shaxsning o`z qobiliyatini to`la rivojlanishi, lekin uni ruyobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko`zda tutilmasligi.
- D) ECTS tamoyillari - ommaning o`z qobiliyatini to`la rivojlanmaganligi va ruyobga chiqarishi, rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligi ko`zda tutilmasligi.

3. “A`lo” baholar ta`rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 3-daraja - ko`nikma, malaka va (avtomatik) darajasi
- B) 3-daraja - ko`nikma va malaka darajasi
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 2-daraja - qayta tiklash darajasi

4. “Juda yahshi” baholar ta`rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 3-daraja - ko`nikma, malaka va (avtomatik) darajasi
- B) 3-daraja - ko`nikma va malaka darajasi
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 2-daraja - qayta tiklash darajasi

5. “Yahshi” baholar ta`rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 3-daraja - ko`nikma, malaka va (avtomatik) darajasi
- B) 3-daraja - ko`nikma va malaka darajasi
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 2-daraja - qayta tiklash darajasi

6. “Qoniharli” baholar ta`rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 3-daraja - ko'nikma, malaka va (avtomatik) darajasi
- B) 3-daraja - ko'nikma va malaka darajasi
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 2-daraja - qayta tiklash darajasi

7. “Yetarli” baholar ta’rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 1-darajasi tasavvur etish darajasi
- B) 3-daraja - ko'nikma va malaka darajasi
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 2-daraja - qayta tiklash darajasi

8. “Yetarli emas, qo’shimcha yana ishlash talab qilinadi” baholar ta’rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 1-darajasi tasavvur etish darajasi
- B) 0-darajasi yomon tasavvur etadi.
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 2-daraja - qayta tiklash darajasi

9. “Yetarli emas, qo’shimcha yana juda ham ko’p ishlash talab qilinadi” baholar ta’rifida qaysi tayyorgarlik darajasi to`g`ri keladi?

- A) 1-darajasi tasavvur etish darajasi
- B) 3-daraja - ko'nikma va malaka darajasi
- C) 4-daraja - ijod darajasi
- D) 0-darajasi umuman tasavvur etmaydi

10. O`rganishga tayyorgarlik qaysi o`quv maqsadiga tegishli?

- A) affektiv o`quv maqsadi;
- B) psixomotorik o`quv maqsadi;
- C) kognetiv o`quv maqsadi;
- D) pedagogik o`quv maqsadi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.

2. Avliyakov N.X. Prakticheskie osnovy modularnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy tekhnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.Iip.Net.

IV – MODUL. PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: pedagogik mahoratning nazariy metodologik asoslarining tarkibiy tuzilishi, asosiy tarmoqlari, fanlar tizimidagi o‘rni va boshqa fanlar bilan bog‘liqligiga oid nazariy bilim berish, fanga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish.


MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:

- **ta’limiy maqsad:** talabalarga pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llari, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik mahorati, pedagogik ta’sir ko‘rsatish mahorati, nizoli vaziyatlarda pedagogik mahoratga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, pedagogik mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning pedagogik yetuklik darajasini, dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

4.1. Pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llari



*Odobli odam tabibga o‘xshaydi,
u bilan suhbatlashish ko‘ngildagi
g‘amni quvadi.
“Otalar so‘zi”*

1. Pedagogik mahorat va pedagogik faoliyat. O`qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirishning ahvolini o`rganish shuni ko`rsatmoqdaki, o`qituvchi mehnatiga baho berishda rasmiyatchilikka barham berish, o`qituvchi-tarbiyachining ijodiy ishlashi uchun shart-sharoit yaratish, faoliyatni rag`batlantirishning yangi reyting tizimiga o`tish, o`qituvchilar nazariy, usuliy, amaliy tayyorgarligini o`rganishning mezonlarini ishlab chiqish va o`qituvchi mehnatiga shu asosda baho berish zarur. Bu holat har bir o`qituvchida o`z faoliyat natijalariga befarq qaramaslik, ta`lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiiq qilish va shu asosda talabalar bilimdonligini oshirishga erishish, ular tarbiyalanganligini yaxshilash uchun izlanishga undaydi.

Mehnat, bilish, mahorat, ijod... inson hayotining bosh mezonlari. Bu mezonlar faoliyat orqali shakllanadi va amalga oshiriladi - mehnat qilish, izlanish jarayonida yutuqlar qo`lga kiritiladi, mahoratga erishiladi. Pedagogik mahoratga ega bo`lish yo`lida harakat qilayotgan, izlanayotgan har qanday o`qituvchi, shubhasiz, egallashi lozim bo`lgan ilmiy-nazariy ma`lumotlarni qo`lga kiritish uchun o`qituvchilik pozitsiyasiga ega bo`lishi kerak, mazkur pozitsiya ijtimoiy jihatdan progressiv, shaxsiy jihatdan optimistik bo`lib, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodikaning ilg`or g`oyalarini o`zida aks ettirishi lozim. Bu o`z novbatida pedagogik jarayonga demokratik va insoparvarlik nuqtai - nazaridan yondashishni taqozo qiladi. Bunday yondashish faoliyat asosida amalga oshiriladi. Faoliyat mahoratga yetkazuvchi bosh mezon bo`lib hisoblanadi. Chunki, o`qituvchi mehnati uning pedagogik faoliyati, pedagogik mahorat, muloqoti va shaxsining birligidir.

***Pedagogik faoliya t-** o`qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari, ta`sir ko`rsatish yo`llarining majmuidir.*

***Pedagogik muloqot** - ahloqiy psixologik muhit, munosabatlar yig`indisi bo`lsa, **pedagogning shaxsi** – qiziqishlar, layoqatlar, ehtiyojlar, u yoki bu mehnat turiga yo`nalganligi, uning idealini belgilovchi bir belgi bo`lib hisoblanadi.*

Bu uchala tushuncha birlikda pedagogik mahorat asosini tashkil etadi.

Entsiklopediyada yozilishicha "Faoliyat - atrofda olamga nisbatan insonning o'ziga xos aktiv munosabati shakli.

2. Pedagogik faoliyatni takomillashtirish yo'llari.

Odamni maqsadga muvofiq va qayta o'zgartirish faoliyatning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob'ekt va sub'ekt majmuasidir. Pedagogik maqsad o'qitish, tarbiyalash asosida ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishni, usul tarbiyalanuvchilar obro'siga, hurmatiga sazovor bo'lishni, pedagogik mehnat ob'ekti sifatida - o'qituvchining shaxsi (xarakteri, irodasi, xulq-odobi, tafakkuri va h.k.) sub'ekt sifatida tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. O'qituvchi talabalarni borliq bilan tanishtirar ekan, ularga tabiat-jamiyat va tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlari haqida tushuncha berar ekan, avvalo mana shu jarayonlarni o'z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi.

***Pedagogik faoliyat** - bu o'qituvchining talabalarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir.*

O'qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o'qitadi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, tarbiyalaydi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi. Prezident, hukumat farmoyishlarini targ'ibot qiladi, o'z malakasini oshirish uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o'zi ham kamol topadi, talabalarni ham kamol toptiradi.

3. Pedagogik mahoratni takomillashtirish printsiplari. Qayd qilib o'tilganlar bevosita va bilvosita pedagogik mahoratni shakllantirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa, o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish vazifalarini aniq hal etishga harakat qiladi. Mazkur jarayonda faoliyat aqliy-ruhiy jihatdan ta'sir ko'rsatish, natijalarni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash hamda yangi vazifalarni belgilash uchun tayyorlanish bilan chegaralanadi. Bilimlarni o'zlashtirish natijasida talaba shaxsining shakllanishi va rivojlanishi ta'minlanadi. Oqibat-natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi.

Bunday jarayonni tashkil qilish uchun o`qituvchi o`z oldiga turgan jamiyat talabiga molik bo`lgan vazifalarni anglashi, vaziyatni tushunishi, har bir talabning o`zlashtirish jarayonini rivojlantirib, shaxs darajasiga ko`tarilish mezonlarini aniq ko`ra bilish imkoniyatiga ega bo`lmog`i darkor. Bu o`qituvchidan katta tajriba va bilim talab etadi. Buning uchun mahorat zarurdir. Pedagogik mahoratni egallagan o`qituvchi ko`p mehnat va kuch sarflab, yaxshi natijalarga erishadi. Yangilikka intilish, ijodkorlik doimo uning hamkori bo`ladi.

Ta`lim muassasasi rahbarlari o`z jamoasida ishlayotgan har bir o`qituvchida pedagogik mahorat malakalarini shakllantirishi darkor. Buning uchun ta`lim muassasasida ijodiy muhit, izlanish, yangilikka intilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, talabalarni ijodiy izlanishga odatlantirish, har yangi faoliyatni rag`batlantirish, o`qitish va tarbiyalashning faol shakl, usul va vositalarini ish jarayoniga tadbiq etishni ommalashtirishga harakat qilish zarur.

4.Pedagogik mahorat va talaba tajribasi. Mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida rivojlanib boradi. Bu xususiyatlarning barchasi faoliyat jarayonida tarkib topib boradi.

"Faoliyat - deb yozgan edi, akademik A.N.Leont'ev, - dunyoni o`zlashtirishning birinchi shartidir". Shunday ekan, pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirishda faoliyat yetakchidir.

Buni aniq his qila oladigan har bir ta`lim muassasasi rahbari o`qituvchi faoliyatini to`g`ri tashkil etishga harakat qilishi lozim.

O`qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirish masalasi pedagogika, psixologiya, metodika, fanlari mazmunida ma`lum darajada o`z yechimini topa olgan, xususan, Yu.P.Azarov, T.I. Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.N. Sherbakov. V.A.Sebastyan. N.V.Aleksandrov, S.A.Abdulina, D.N.Nikolaenko, A.V.Petrovskiy, V.A.Zamaxshariy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, V.A.Krutetskiy, M.G.Davletshin, N.V.Kuxarev, M.Ochilov. K.Z.Zaripov, V.A.Rozov, A.P.Spirin, J.G. Yo`ldoshev, E. G`oziev va boshqa olimlarimiz o`qituvchi pedagogik mahoratini

shakllantirish va takomillashtirishning ma`lum qirralarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berganlar.

O`qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning shakl va usullarini ishlab chiqishda pedagogika, psixologiya, metodika fanlarida yangi g`oyalar yaratilib katta yutuqlar qo`lga kiritildi. Hozirgi kunda ham fanda pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishni toifalash, klassifikatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Ammo, pedagogik mahorat ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, ma`naviy-ma`rifiy muammo sifatida kompleks tadbiriq qilinmoqda. Ayniqsa, o`qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ta`lim muassasasi rahbarlarining oliy Boshqaruvchilik roli, ahamiyati fanda o`z yechimini to`la topa olgan emas. Ayniqsa, o`qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari: pedagogik texnika, pedagogik muomala, pedagogik qobiliyat, pedagogik takt o`rnini anglash va ta`lim muassasasida ularni takomillashtirishga erishish ishlari bo`yicha aniq tavsiya va yo`llanmalar ishlab chiqilmaganligi sababli ta`lim muassasasi rahbarlari mazkur ishni amalga aniq oshirishga qiynalmoqdalar. Zotan, pedagogik mahorat tizimidagi qayd qilingan qismlar uzviy bog`liqlikda, bir-biriga ta`sir ko`rsatgan, yoki bir-birini to`ldirgan taqdirda mohirlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik o`z muddaosiga erishadi.

5. Pedagogik mahorat va qobiliyat. Hozirgi ta`lim-tarbiya mazmunining milliylashuvi, ta`lim muassasasi o`quv-tarbiya tizimiga yangi pedagogik texnologiyaning tadbiriq etilishi jarayonida yangi tipdagi ta`lim muassasasi, o`quv muassasasining keng rivojlanib borishi keskin tus olib borayotgan bir davrda o`qituvchi kasbiy mahoratini takomillashtirish vazifasi turibdi. Bu vazifa o`qituvchilar faolligi va mustaqilligini oshirishni uning pedagogik texnikasi, pedagogik takti (nazokati), pedagogik qobiliyatini takomillashtirish uchun doimiy izlanishni talab qiladi.

Qayd qilib o`tilgan xusiyatlar har bir ta`lim-tarbiya ishlari bilan shug`ullanuvchi uchun nihoyatda zarur, Bu xususiyatlar pedagogik texnikani egallash, pedagogik qobiliyat, pedagogik nazokat (takt), pedagogik muloqot malakalari bilan qurollanish orqali qo`lga kiritiladi.

Pedagogik texnika -bu o`qituvchi kasbiy va shaxsiy sifatlarining umumlashmasi bo`lib, uning bilimlar, ko`nikma, malakalaridir. Pedagogik texnika o`qituvchiga aytayotgan gapi, bajarayotgan ishi orqali talabaga o`z qalbini berish, ta`sir ko`rsatish imkonini beradi.

Buning uchun o`qituvchi:

- a) o`z o`quv predmetini davr, fan-texnika taraqqiyoti darajasida bilishi, uni fanlar tizimidagi o`rnini aniqlashi;
- b) o`quv jarayonini aniq va ratsional ta`minlashga yordamlasha oladigan yaxshi metodik tayyorgarlikka ega bo`lishi;
- c) bolani, talabalar jamoasining qiziqishlari, ehtiyojlari, qiyinchiliklarini, har bir talabaning xarakter xislatlarini, qobiliyatlarini aniq bilib, ularga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishning maqsadga muvofiq shakllari va metodlarini tanlay olishi;
- d) o`zining tashkilotchilik mahoratini, shaxsiy fazilatlarini talabalarning darsdan tashqari o`qishlari, tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish va ularga ta`sir ko`rsatishda qulay malakalarga ega bo`lishi darkor.

Tayanch iboralar: Qalblar kamolotining me`mori, pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik – psixologik ma`lumot, pedagogik mahorat xususiyati, pedagogik texnika.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik mahorat va pedagogik faoliyatning mazmuni nimalardan iborat?
2. Pedagogik mahoratni takomillashtirish printsiplariga izoh bering.
3. Ijtimoiy pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogik mahoratning o`ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

Testlar

1. Pedagogik mahorat nima?

- A) pedagogik usul
- B) o`qituvchilik kasbi

- C) bu o'qituvchi - tarbiyachining shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyati
- D) pedagogik bilim

2. «Pedagogik mahorat» fani tizimida o'qituvchi kasbiy sifatlarini belgilovchi javobni aniqlang?

- A) ruhiy – pedagogik tayyorgarlik va bilim.
- B) g'oyaviy – siyosiy bilimdonlik, ijtimoiy – siyosiy faollik, ma'naviy – axloqiy ehtiyoj, ruhiy pedagogik tayyorgarlik, mustaqil bilim olishga qiziqish.
- C) estetik hissiyot, pedagogik ziyraklik, ruhiy pedagogik zukkolik.
- D) pedagogik qobiliyat, pedagogik ijod, pedagogik takt.

3. Pedagogik mahoratning ta'rifi to'liq keltirgan javobni aniqlang.

- A) o'qituvchi – tarbiyachi zukkoligini ko'rsatuvchi xususiyat.
- B) o'qituvchining bilimdonlik darajasini ko'rsatuvchi xususiyat.
- C) o'qituvchining ruhiy – pedagogik holatini ko'rsatuvchi xususiyat.
- D) o'qituvchi – tarbiyachinig shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi shunday xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik, psixologik, metodik tayyorgarligida, talaba – yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va ma'lumotli qilishning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi.

4. «Pedagogik mahorat» fanining maqsadi nimadan iborat ?

- A) bo'lajak o'qituvchi – tarbiyachilarga kasbiy ijod, pedagogik odob, pedagogik qobiliyat va pedagogik nazokat ko'nikmalarini shakllantirish.
- B) pedagogik mahorat sirlari bilan tanishtirish.
- C) pedagogik monitoring haqida ma'lumot berish.
- D) pedagogik muomala to'g'risida tushuncha berish.

5. Pedagogik mahorat tarkib topadi.

- A) pedagogik jarayonda
- B) uzoq yillarda
- C) dars davomida
- D) barcha javoblar to'g'ri.

6. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismi nechta?

- A) – 7 ta
- B) – 6 ta
- C) – 3 ta
- D) – 4 ta

7. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) pedagogik texnika, pedagogik muomala
- B) pedagogik ijod, pedagogik nazokat
- C) pedagogik madaniyat, pedagogik qobiliyat
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

8. Pedagogik texnika nima?

- A) kompyuter bilan ishlash
- B) texnik vositalar bilan dars o‘tish
- C) o‘qitish, ta’sir ko‘rsatish, axloqiy fazilatlarni uzatish....
- D) bu qobiliyat degani

9. Pedagogik muomala nima?

- A) o‘qituvchi kasbiy faolligining 1 ko‘rinishi
- B) munosabat turi
- C) o‘ziga ishontirish usuli
- D) nutqiy ravonlik

10. Pedagogik nazokat (takt) nima?

- A) maqsadli pedagogik harakatning mezoniy o‘lchamlari
- B) estetikali muomala
- C) nutqiy ravonlik
- D) alday olish usuli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.

3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.

6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.

7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.

8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru


www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

4.2 Pedagogik texnika - pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida.



Adab irfon ilmi ichradur sham'.

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Hozirgi zamon pedagogika fani o`qituvchining pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning roli beqiyos deb biladi. Chunki, u o`qituvchiga o`z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyg`ularini (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o`quv faoliyatida, o`qishdan tashqari ishlar jarayonida qo`llash yo`llarini tushuntiradi.

Shunday qilib, pedagogik texnika ma`lum kasbiy va shaxsiy malakalar yig`indisidirki, u o`qituvchining pedagogik faoliyatiga ta`sir ko`rsatish, tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo`l ko`rsatuvchi bo`lib xizmat qiladi.

Xo`sh! O`qituvchining pedagogik texnikasi qanday malakalardan iborat? U o`qituvchining o`quv ishlarini tashkil qilish, amalga oshirishi va tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishida qanday rol o`ynaydi?

Ilg`or va novator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish, mimikasini, ovozi idora qila olish xususiyatlari kuzatiladi.

Bu shundan dalolat beradiki, bunday o`qituvchilar pedagogik texnikani yaxshi egallagan, uning malakalarini o`zlarida aniq shakllantirgandir.

2. O`qituvchi pedagogik texnikasining malakalari. Pedagogik mahorat nazariyasini o`rganuvchi va tadbiq qiluvchi olimlarning fikrlariga qaraganda pedagogik texnika malakalari ikki guruhga bo`linadi:

Birinchi guruh malakalari pedagogning o`z xatti-harakatini idora qilishi bilan bog`liqdir.

Bunga pedagogning mimik va pantomimik ifodalari, o`z hissiyotini, kayfiyatini boshqarishini, aktyorlik va rejissyorlik mahorati, nutq madaniyati kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhdagi malakalariga ayrim talabalarga va jamoaga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, talabalar qo'ya olishi, jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olishi, talabalarni tarbiyalash o'qitishdagi kasbkorlik malakalari kiradi.

Endi o'qituvchi pedagogik texnikasi malakalarining qisqacha xarakteristikasi bilan tanishib chizamiz.

1. O'qituvchi pedagogik texnikasining muhim malakalaridan biri uning nutq texnikasidir. (Nutq tempi, diktsiyasi, tovushining baland, o'rta, past qila olishi va h.k.)

O'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol' o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quv materialining 1/2 qismini idrok qilish va o'zlashtirishda o'qituvchi nutqiga va uning so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. Talabalar o'qituvchining gapini, nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan kuzatadilar. Mabodo o'qituvchi so'zlarni noto'g'ri talaffuz etsa, talabalar uning ustidan kulib, masxara qilib yuradilar, lekin past tonda gapiradigan o'qituvchining darsi esa, talabalar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida qichqirib so'zlashish talabalarni bezdiradi, charchatadi. Talabalarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun, o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi, o'qituvchilarning fikrlari talabalar ongiga tez yetib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi. talabalar bunday o'qituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, diktorlar Qodir Mahsumov, Mirzohid Rahimov, O'ktam Jobirov. Levitanlarning xalq qalbidan o'rin olganliklari ham bejiz emas. Shuning uchun o'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinmay ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi, tembri, harakatchanligi, diktsiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

Ovoz diapozoni deganda biz tovush hajmini tushunamiz. Uning chegarasi baland, yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapozonning qisharishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past tonda so`zlashish idrokni bo`shashtiradi va susaytiradi.

Tembr-tovushning go`zalligi, chiroyliligidir. O`qituvchi tovush diapozonini, uning tembri bilan bog`lab ishlatsa gaplari chiroyli, maylli, jozibali chiqib, tinglovchilarni o`ziga tortadi va materiallar yaxshi idrok qilinadi.

O`qituvchining ovoz diktsiyasi so`zlari aniq, to`g`ri, eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo`ladi. To`g`ri ovoz diktsiyasiga ega bo`lgan o`qituvchi so`zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag` ishtirok etadi. O`qituvchi ifodali gapirishi, so`zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi o`rganlarni doimo mashq qildirishi lozim.

Talaba materiallarni aniq, to`g`ri, tushunarli, ifodali bayon qilishida ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shundan dalolat bermoqdaki, ruslar bir minutda 120, inglizlar 120 dan - 150 gacha, frantsuzlar 110 so`zni talaffuz qilarkanlar. O`rtacha, hammaga tushunarli bo`lishi uchun o`qituvchi 5-6 sinflarda 60 so`zni 10-11 sinflarda 75-80 so`zni talaffuz etsa talabga muvofiq bo`ladi. O`qituvchi nutqini lo`nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa, u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo`ladi va ular qalbida uzoq saqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o`qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diktsiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur.

2.Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi. O`qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik ifodalar ham muhim o`rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o`qituvchining imo-ishorasida, ma`noli qarashlarida, rag`batlantiruvchi, yoki istehzali tabassumida namoyon bo`ladi va ular o`qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta`sir ko`rsatishida, talaba mashg`ulotlarini samarali va mazmunli o`tmish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

M I M I K A - o`z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san`atidir. Ba`zan yuzning va nigohning ifodasi talabalarga katta ta`sir ko`rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma`lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o`zlashtirish imkonini beradi. Talabalar o`qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «o`qib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba`zi noxushliklar talaba mashg`ulotlariga o`z ta`sirini ko`rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg`ulotlariga o`z ta`sirini ko`rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarga faqat dars mashg`ulotlariga xos bo`lgan, talaba - tarbiya topshiriqlarini yechishga yordam bera oladigan ko`rinishlarni ifodalashi lozim.

Yuz ifodasi, nutq, munosabat xarakteriga mos bo`lishi kerak. U ishonch, ma`qullash, ta`qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qosh, ko`z, yuz ko`rinishi ishtirok etadi. Ko`z, qosh, yuz talabalar javobidan qoniqish, xursand bo`lish, faxrlanish yoki e`tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo`lish va boshqa belgilarni ifodalasa o`qituvchilar diqqatini bo`lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan talaba - tarbiya ishlarini olib borishga yordam beradi. Shuni ham alohida qayd qilib o`tish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o`qituvchining nigohi talabalarga, yoki ayrim talabaga qaratilgan bo`lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko`rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

P A N T O M I M I K A – gavda, qo`l, oyoq harakatidir.

O`qituvchi darsda talaba ma`lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma`lumotlarning obrazini chiza olsa, talabalar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg`ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo`shilib butun borliq materiallar mazmunini o`zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to`liq bayon qila turib qo`l, boshni turli harakatlarda ifodalash o`qituvchining o`z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o`qituvchi talabalar oldida o`zini tuta

bilish holatini tarbiyalash lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O`qituvchining jestlari ma`noli, ortiqcha harakatlardan xoli bo`lmog`i darkor. Masalan: keraksiz xollarda qo`llari bilan imo-ishoralar qilish, boshini uyoq-buyoqqa tashlash va h.k. Bunday holatlar talabalarning g`ashini keltiradi va talaba predmetiga, o`qituvchiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg`ularini uyg`otadi.

O`qituvchi guruhda yurgan paytida faqat oldin va orqaga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish talabalar fikrini bo`ladi. Old tomonga yurayotganida o`qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda talabalar o`qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo`ladilar. Orqa tomonga qarab yurayotganda uncha ahamiyatga molik bo`lmagan fikrlar aytilsa ham bo`ladi. Chunki, bu vaqtda talabalar bir oz erkin holatda bo`ladilar.

O`qituvchining o`z xatti-harakatini idora qilishi tizimida o`z hissiy (psixik) holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi ta`sir ko`rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg`ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o`z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo`lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo`la olish qobiliyatlarga ega bo`lishi zarur. Bir adib aytganidek, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo`lishini bilishi lozim, u o`zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin» va o`qitsin. Bunday malakaga ega bo`lgan pedagog o`z-o`zini nazorat qila oladi, ko`p yillik faoliyati davomida sog`lom asab tizimini o`zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo`riqishlardan o`zini saqlay oladi.

O`z hatti-harakatini, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog o`zida quyidagilarni shakllantirishi lozim:

-hayrixohlik va optimizmni tarbiyalash:

-o`z hulqini nazorat qilish, (muskul zo`riqishini, harakati, nutq tempi, nafas olishini tartibga solish):

-faoliyatni dam oldirish, ya`ni lirik, musiqaviy, yumoristik, jismoniy pauzalarni yaratish:

-o`z-o`zini salbiy ta`sir ko`rsatishdan (samovnushenie) saqlash va hk.

O`qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish uchun o`qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo`lishi lozim. Xususan, adabiyot, rasm, tarix o`qituvchilariga aktyorlik qobiliyati bo`lishi zarur. Ma`lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni izohlayotganda aktyorlik, talabalarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa, rejissyorlik malakalari zarur. Ular aytilganlardan tashqari o`qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi - talabalarning aql - idrokkina emas, balki ularning his-tuyg`ulariga ham ta`sir ko`rsatish, ularni olamga nisbatan hissiy - qadriyatli munosabatda bo`lish tajribasini to`liq berishga yordamlashadi.

Shunday qilib, o`qituvchi yuqorida qayd etib o`tilgan pedagogik texnika ko`nikmalarini o`zida tarbiyalasa, u yoshlarni o`qitish, tarbiyalash, ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi.

Yuqorida qayd qilib o`tilgan kasbkorlik malakalari o`qituvchining o`quv va maxsus fanlar bo`yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallashga intilish, o`z kasbiga qiziqish va burch, hamda ma`suliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o`qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ`ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

Olimlarning ta`kidlashicha, yuqorida qayd qilib va tasniflab o`tilgan pedagogik texnika malakalarini yakka holda emas, butun tarzda qo`llansa, kutilgan maqsadga erishiladi.

Masalan, nutq texnikasini, his-tuyg`u, mimik, pantomimik malakalari bilan qo`shib olganda amalga oshirish bunda so`z, gap ohangi, qarash, imo-ishora bilan, kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishtalik bilan aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatiga asoslansa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o`qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe`l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatiga bog`liqdir.

Shunday qilib, o`qituvchi-tarbiyachi o`zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazmunini chuqur o`zlashtirsa pedagogik texnikani egallashning imkoni bo`ladi va u o`qituvchini pedagogik mahorat sari etaklaydi.

Shu o`rinda shuni alohida qayd etib o`tish lozimki, o`qituvchi pedagogik malakalarni egallab, uning ustasi bo`lishi uchun pedagogik texnikani egallash yo`llarini bilish kerak. Endi, pedagogik texnikani egallash yo`llarini ko`rib chiqamiz.

2. Pedagogik texnikani egallash yo`llari.

Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o`qituvchi o`z fanini, o`qitadigan predmetini, pedagogika (bolashunoslik), psixologiya (ruhshunoslik) fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalay oladigan bo`lishi zarur.

Chunki, pedagogik texnika individual shaxsiy xususiyatga ega. Har bir o`qituvchi, har bir pedagog o`zining kasbiy yo`nalishi, kasbiy laboroatoriyasiga ega. Bu yo`nalish va laboratoriyani o`zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish orqali qo`lga kiritadi va mohir o`qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi. Pedagogik texnikani egallashning birinchi yo`li shudir.

Pedagogik texnikani egallashning ikkinchi yo`li tashkiliy - metodik malakalarni egallashga bog`liq.

Bu malakalar zarur bilimlar bo`yicha lektsiyalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o`qish orqali qo`lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo`l-yo`riqlar, ko`rsatmalarni o`zining individual kasbiy tajribasida sinab ko`nikma hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo`lib ishlash, o`qish, faoliyat ko`rsatish asosida qurilgani ma`qul. Chunki, guruh, yoki jamoa bo`lib o`qish, ishlash har bir pedagogga o`zini boshqalar ko`zi bilan ko`rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni,

muomala va hulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa, o`z-o`zini bilish, o`z-o`zini tarbiyalash uchun asos bo`ladi, va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko`rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydoni bo`lib qoladi.

***Tashkiliy** - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg`ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash imkonini beradi.*

Pedagogik texnikani egallashning uchunchi yo`li - har bir pedagogning individual dasturini ishlab chiqishdir. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang`ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya`ni pedagogning dastlabki o`quv-tarbiya ishlaridagi natija, nutq madaniyatining to`g`ri yoki noto`g`ri qo`yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va h. k. Bunda natija yaxshi bo`lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo`ladi. Chunki, ushbu ko`nikma va malakalar rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydiganini to`ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma`lum mashqlar, yoki mashqlar majmuini o`z ichiga oladi.

Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma`naviy va estetik dunyoqarashi muhim o`rin tutadi. Agar, o`qituvchining nutqi qashshoq, so`zlarni talaffuz qilish qobiliyatli past, estetik jihatdan omil, bo`lar bo`lmasga hissiyotiga erk beradigan bo`lsa tarbiyalanuvchilarning e`tiqodiga, aql - idrokiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Demak, o`qituvchi o`zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim ekan. Bu pedagogik texnikani egallashning to`rtinchi yo`lidir.

Shunday qilib, pedagogik texnika, uning malakalari, egallash yo`llari to`g`risida bildirgan fikrlarga e`tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning rolga yetarli baho bermaslik, shuningdek pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir pedagogning individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta`sir ko`rsatadi va o`quv-tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko`payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol' o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari bu harakatda ham pedagogik texnikani egallash muhim rol' o'ynamog'i lozim.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh bilan, yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin.

Masalan, zarur bilimlar leksiylalarda, yoki tegishli adabiyotni (xususan, mazkur qo'llanmani) mustaqil o'qishda egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko'rsatilishi mumkin. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni-dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa, mustaqil ishlashni talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda guruh bilan ish olib borish alohida rol' o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, xulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlash va sinab ko'rish, o'zining odamlar bilan birga qiladigan ishi xususiyatlarini anglash va kasbi faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Guruh shaxsning o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib quriladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlarning pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatish rahbarlarning tajriba ishida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10—14 kishidan iborat bo'lishi

belgilab berilgan. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to`liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta`sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo`lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o`z-o`zini bilish va kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalash bo`yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo`lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhviy mashgulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang`ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribaning ko`rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta`limni boshlash vaqtiga kelib) ko`nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular, masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo`lga qo`yilishi, to`g`ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo`lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo`lishi mumkin. Bunday ko`nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko`nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan ish olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang`ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni, yoki mashqlarning to`liq majmuini o`z ichiga oladi.

Olimlar olib borgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha, ishni endi boshlayotgan pedagoglar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiysi, ayni shu pedagogic, birga ishlash sohasida bo`ladi. Pedagogik texnika to`g`risida yuqorida aytib o`tilgan narsalar malakalarning bu gruppasiga e`tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda ularning tiliga etarli baho bermaslik va buning oqibati sifatida individual pedagogik texnikani tanqidiy tahlil qilishni va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan

ishning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini tushunishga imkon beradi.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Tayanch iboralar:

Pedagogik texnika, pedagogik texnika malakalari, o'qituvchining nutq texnikasi, pedagogik texnika tizimi, mimika, pantomimika, aktyorlik va rejissyorlik mahorati, pedagogik texnikani egallash yo'llari.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik texnikani rivojlantirish maqsadida nimalarga e'tibor berish kerak?
2. O'qituvchi pedagogik texnikasining malakalariga nimalar kiradi?
3. O'qituvchining nutq texnikasiga nimalar kiradi?
4. Pedagogik texnika tizimida o'z hissiyotini boshqara olish deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik texnika tizimida mimika qanday ahamiyatga ega?
6. Pedagogik texnika tizimida pantomimika qanday ahamiyatga ega?
7. Pedagogik texnikada aktyorlik va rejissyorlik mahorati qanday ahamiyatga ega?
8. Pedagogik texnikani egallash yo'llari deganda nimani tushunasiz?

Testlar

1. «Pedagogik texnika» ta'rifi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

A) o'qituvchining o'quv texnik vositalarni oqilona qo'llashi.

B) o'qituvchining shunday malakalari yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchi – talabalar ko'rib, eshitib, turgan narsalar orqali ularga o'z fikrini, qalbini berish imkonini beradi.

- C) o`z hissiyotini boshqarish imkonini beruvchi holatdir.
- D) o`qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakalari yig`indisi.

2. «Pedagogik texnika» malakalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi ?

- A) nutq texnikasi, mimik, pantomimik ifodalar, o`z hissiyotini boshqarish, aktyorlik va rejissyorlik malakalari.
- B) tashkiliy – metodik malakalar.
- C) guruhiiy ish olib borish.
- D) o`qituvchining mustaqil ishlashi.

3. Aniq imo – ishora, ma`noli qarash, rag`batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik texnikaning ... malakasiga kiradi .

- A) nutq texnikasi.
- B) mimika va pantomimika.
- C) o`z hissiyotini boshqarish.
- D) aktyorlik va rejissyorlik.

4. «Pedagogik texnika» ni egallash yo`llari ... dan iborat .

- A) pedagogik odob, pedagogik-psixologik tayyorgarlik.
- B) individual – shaxsiy, tashkiliy – metodik, ilmiy – pedagogik, o`z – o`zini bilish va o`z – o`zini tarbiyalash.
- C) guruhiiy ishlarni yo`lga qo`yish.
- D) jamoaviy ish olib borish.

5. Pedagog mahorati . . . ko`rsatkichlarga bog`liq:

- A) salbiy
- B) ijobiy
- C) kasbiy
- D) aqliy

6. Pedagog shaxsiga qo`yiladigan qo`shimcha talablar:

- A) kirishib keta olish, san`atkorlik, bilimdonlik
- B) kirishib keta olish, quvnoqlik, yaxshi did
- C) kirishib keta olish, san`atkorlik, yaxshi did, bilimdonlik
- D) kirishib keta olish, quvnoqlik, yaxshi did, san`atkorlik

7. Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi – pedagogik texnologiyalarga kiruvchi qatorni toping?

- A) muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari
- B) hamkorlik pedagogikasi, erkin tarbiya, insonparvar shaxsiy texnologiya
- C) ijodiy va informatsion texnologiyalar
- D) guruhli va individual texnologiyalar

8. Pedagogik innovatsiya nima?

- A) yangi taktika
- B) guruhli ta'lim
- C) yangilik kiritish
- D) sifatga erishish

9. Pedagogik qobiliyat qachon boshlanadi?

- A) mehnat faoliyatida
- B) o'quv faoliyatida
- C) pedagogik faoliyatda
- D) ijod qilish jarayonida

10. Pedagogik qobiliyat tarkibini nimalar tashkil etadi?

- A) bilish, qiziqish, bilimlar, pedagogik texnologiyadan foydalanish
- B) ko'nikma, malaka, qiziqish, bilim, pedagogik texnologiyadan foydalanish
- C) qo'llash, baholash, analiz, sintez, pedagogik texnologiyadan foydalanish
- D) shaxsga ta'sir etish, bilimlar, tahlil qilish, pedagogik texnologiyadan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : “O'zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
9. XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru


www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

4.3. Pedagogik hamkorlik mahorati



Har kishida ilmu san`at bordur,

Muomala — axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda: boshqarish sub`ektidan (pedagogdan) boshqarish ob`ektiga (talabalarga) boradi va aksincha — ob`ektdan sub`ektga boradi.

1. Pedagogik muomala va uning vazifalari. Pedagoglarning talabalar bilan bevosita muomalasini ta`lim muassasasi talabalarining muomalasiga pedagogik ta`sir ko`rsatishning o`ziga xos vositasi deb qarash mumkin.

Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o`z tarbiyalanuvchilari, o`z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning talabalarga murojaatida tagma`no tarzida botinib kirib boradigan axborotni ma`lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqarib ekanmiz, talabaning shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta`kidlab o`tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat xilma-xil sharoitlarda va ko`rinishlarda o`rganishga imkon beradi. U faqat shaxsning hulq-atvorida namoyon bo`ladigan yorqin va eng ta`sirchan tashqi belgilarnigina qayd etish imkonini berib qolmaydi. Pedagog talabalar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo`ladi, bu detallar sirdan haraganda unchalik ahamiyatli bo`lmay, shaxsda sodir bo`layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo`lgan zarur ichki jarayonlar ko`rinishlarining alomatlari bo`lishi ham mumkin. Bu xol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo`lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Bolalar bilan bevosita muomala pedagogga jamoadagi, yoki ayrim talabalardagi biron-bir voqeani rivojlanish jarayonida o`rganish zarur bo`lganda, ro`y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishda, ularning tuzilishi, paydo bo`lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada rivojlanishi to`g`riligini ma`lum darajada oldindan aytib berish kerak bo`lganda ham zarurdir.

Biroq, muomala usullarida «axborot shovqini» ancha ko`p bo`lib, u ko`p, yoki oz darajada axborot tashuvchi bo`lishi mumkin.

Bu xol birinchi navbatda pedagog bilan talabalar o`rtasida qaror topgan munosabatlarga bog`liq bo`ladi. Lekin, pedagogning shaxsi ham katta rol` o`ynaydi.

Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan zuhur qilinishidagi farq uning shaxs o`tmishidagi tajribasiga bog`liqligi bilan izohlanadi, bu tajribaning uch jihati bor: umuman hayotiy tajriba, pedagogik faoliyat tajribasi va muayyan jamoa bilan, muayyan talabalar bilan muomalada bo`lish tajribasi. Pedagogning boshqa kishilar bilan muomalada bo`lish tajribasi, bu tajribaning boyligi va muntazamlik darajasi, pedagogning o`zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etishga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi.

Ikkinchi tomondan, pedagoglik faoliyat kishini o`zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa uning o`z sheriklari ahvolini fahmlab, bilib olish va ular haqida hukm vuritish qobiliyatini oshiradi.

Nihoyat, pedagogning talabalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u talabalarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma`no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o`zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va talabalarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. Bu narsa pedagoglik faoliyatida ayniqsa sezilib turadi. Bu qonuniy bir xoldir, chunki «biz kundalik hayotda odamlar bilan muomalada bo`lar ekanmiz, ularning hulq-atvorini bilib olamiz, chunki biz uni go`yo o`qiganday bo`lamiz, ya`ni xulq-atvorning tashqi ko`rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo`lgan, o`zining ichki psixologik rejasiga ega bo`lgan tekstning ma`nosini ochib beramiz. Bu «o`qish» yo`l-yo`lakay bo`ladi, chunki atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda

ularning xulqiga doir ma`lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo`lgan psixologik tagma`no hosil bo`ladi.

O`qituvchining talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o`rnini to`ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Shu munosabat bilan tarbiya diskret (uzlukli) jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. Bolalar kiradigan turli jamoalar, unga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta`sir qiluvchi tevarak atrofdagi voqelikning ko`pdan-ko`p omillari bir-biri bilan yetarli darajada aniq va puxta ishlab chiqilgan aloqa tizimiga ega emas. Har bir talabaga har xil ta`sirlar oqimi yetib boradi, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma`lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda pedagogning talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida shu narsada namoyon bo`ladiki, u ma`lum darajada bu ta`sirni birlashtiradi, ularning zanjiridagi yetishmovchi halqlarning o`rnini to`ldiradi, bu ta`sirning ziddiyatli tarkibiy qismlariga tuzatish kiritadi. Shubhasiz, muomala cheklangan tarzda bo`ladi. Lekin, pedagogning o`z tarbiyalanuvchilariga ko`rsatiladigan turli - tuman ta`sirlarning xususiyatidan xabardorligi, uning ana shu ta`sirni birlashtirish, o`rnini to`ldirish va unga tuzatish kiritishga intilishi, uning shaxsiy sifatleri, talabalarga munosabati va pedagogik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo`lgan muomalaning samaradorligi ko`p, yoki oz darajada bo`lishi mumkin.

Boshqarish vositasi bo`lgan muomala vazifasini amalga oshirish jamoadagi faoliyat muomala, munosabatlar tizimi doirasida sodir bo`ladi. Bunga sabab shuki, muomala pedagoglarning talabalar faoliyatini tashkil etishi jarayonida ham va ular bilan bevosita muomala qilishda ham amalga oshiriladi. Boshqarish vositasi bo`lgan muomala faoliyatdan oldin bo`ladi, pedagoglar bu faoliyatga talabalarni jalb qiladilar. Bunday xolda muomala orqali talabalarning faoliyatini tashkil etish yuzasidan muayyan yo`l-yo`riq beriladi va uni amalga oshirish jarayonida munosabat normalari kiritiladi. Boshqarish vositasi bo`lgan muomala talabalarning faoliyatiga hamrohlik qiladi. U orqali pedagog faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullariga tuzatishlar kiritadi, ayrim talabalarning, umuman jamoaning kuch-g'ayratini, faoliyat ishtirokchilari o`rtasida vujudga keladigan munosabatlarni muvoffiqlashtiradi.

Nihoyat, boshqarish vositasi bo`lgan muomala faoliyatdan keyin boradi. Bu faoliyatga yakun yasash, uni amalga oshirish, unda ayrim talabalarning ishtirok etishi, faoliyat jarayonidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni tahlil qilish, qo`shimcha normalarni ishlab chiqish tarzida sodir bo`ladi.

Shuni ta`kidlash kerakki, muomalaning yuqorida ko`rsatib o`tilgan barcha vazifalarini qulay tarzda amalga oshirish, uni pedagogik muomala, ta`lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muomalaning yuqori darajasi deb ta`riflash imkonini beradi. Hozirgi zamon o`qituvchisi xuddi shunday darajaga erishmog`i lozim.

3.O`qituvchi - muomala sub`ekti sifatida. O`qituvchining bolalar bilan muomalasi muvofaqiyatli bo`lishi ko`p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagoglik nazokati (odobi)ni egallaganiga bog`liq bo`ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o`qituvchi vazifasida bolalarni o`qitish va bolalarga ta`lim berishda yuksak natijalarni qo`lga kiritishining sharti hisoblanadi.

Ma`lumki, shaxsning u, yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi hislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol` o`ynasa, boshqalari yordamchi rol` o`ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o`zaro fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlari yetakchi rol` o`ynaydi. Birinchi navbatda pertseptiv, ya`ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo`lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog`i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol` o`ynaydi, o`qituvchiga talabaning psixologiyasini, uning psixik holatini o`xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman guruh jamoasining ahvoliga va xususan mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoliga to`g`ri baho berish imkonini beradi. O`qituvchi shaxsining o`zaro fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlari tarkibiy qismi sifatida empatiyaga, ya`ni talabalarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti bolalarga bo`lgan muhabbatdir. Nihoyat, o`qituvchi shaxsining o`zaro fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o`zaro harakatga bo`lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin, u bilimlarni boshqalarga berishga,

bolalar bilan muomala qilishga intilishda, bolalar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo`ladi.

Tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir

U barcha talabalarning har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har bir talabaga ta`sir ko`rsatish quroliga aylanishida, har bir talabaga faol vaziyatni ta`minlab berishda namoyon bo`ladi. o`qituvchida ijtimoiy o`zaro harakatga bo`lgan ehtiyojni muvofaqiyatli amalga oshirishning sharti bo`lib, unda mavjud bo`lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi, pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiradigan yordamchi hislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chihamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: hozirjavoblik, tanqid ko`z bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O`qituvchining nutqi, notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so`z boyligi va hokazolar ham muhim rol` o`ynaydi.

Tabiatida bir qadar artistlik xususiyatiga ega bo`lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham talabalar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol` o`ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo`lishining shartigina emas, balki ko`p jihatdan o`qituvchining muvofaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o`qituvchining o`zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadni ko`zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol` o`ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko`rsatmoqda.

Masalan, shaxs pertseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo`lgan kuzatuvchanlik o`qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g`ayrati natijasida ham rivojlanadi,

O`qituvchi o`zining sotsial-psixologik kuzatuvchanligini, ya`ni talabalarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyatigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo`lish sabablarini bilib olish, ularga bu sabablarning paydo

bo`lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir.

O`qituvchining muhim ijtimoiy yo`l-yo`riqlaridan biri dilkashlikdir. An`anaviy dilkashlik, yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o`ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy holdir. Lekin, bunday yondashuv bir tomonlamadir. U dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning o`ziga xos xususiyatlarigina bo`lib qolmay, shu bilan birga odamning u, yoki bu vaziyatdagi muayyan xulq-atvori hamdir, ya`ni ijtimoiy yo`l-yo`rig`idir.

Shaxsning xususiyati bo`lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida ta`riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o`rnatish bilan birga qo`shib olib boriladi. Dilkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstra va introversiya tushunchalari bilan bog`liq ravishda samarali bo`ladi.

Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta`sirlarga moyillik xosdir. Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o`z-o`zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki havotirlikka moyil bo`ladilar

Albatta, o`ta introvertlar bilan ekstravertlar favqulodda hodisa bo`lib, individlar bu ikki chetki nuqtalar o`rtasidagi oraliqda joylashadilar.

Dilkashlik ko`proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir.

Talabalar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim sotsial yo`l-yo`riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O`qituvchida ularning mavjudligi uning pedagogik nazoratga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

Turli yoshdagi talabalarning muomalasiga ta`sir ko`rsatish sub`ekti bo`lgan o`qituvchi tutgan yo`lning umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi guruhlarda o`qituvchi tashkilotchi bo`lib maydonga chiqadi. V.Dalning lug`atiga haraganda—tuzuvchi, ta`sis etuvchi (tashkil etish—yo`lga qo`yish, belgilash, tartibga keltirish, tuzish, hosil qilish, qat`iy asoslash, degan

soʻzdan) maʼnoni bildiradi. Pedagogning kichik yoshdagi talabalar hayotiga taʼsir koʻrsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi talabalar kollektivlarida talabchan va quvnoq tarbiyachi boʻla oladigan, bolalarning faol ijodkorlik bilan toʻla hayotini tashkil etib, ular orasida oʻzaro hayrixohlik, gʻamhoʻrlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obroʻ - eʼtibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni oʻz doʻstlari deb qabul qilishga moyildirlar. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga joʻshqin qulaylik bagʻishlaydi, uning koʻpgina tashkiliy vazifalarni hal etishini osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini ardoqlik bilan samarali hal etishiga yordam beradi.

Oʻsmirlar oʻqiydigan guruhlarda oʻqituvchining holati rahbar degan soʻz bilan ifodalanishi mumkin. V.Dalʼ bu soʻzni quyidagicha, yaʼni koʻrsatuvchi, murabbiy, ishboshi, boshlovchi deb taʼriflaydi. Pedagoglarning oʻsmirlarga taʼsir koʻrsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat oʻz-oʻzini tashkil qilishning koʻproq ulushini oʻziga qamrab oladi, bu esa oʻqituvchining taʼlim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida talabalarga qoʻyadigan talablari mazmunini belgilab beradi. Oʻsmirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun talab mavzuiga nisbatan oʻqituvchi va talabaning bir xil yoʻl tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli boʻlishi yoki amaliy jihatdan foydali boʻlishi zarur, yohud hissiyotlarni engillashtirish va hokazolar uchun kerak, boshqacha soʻzlar bilan aytganda, kollektiv faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz boʻlib qoladi.

Katta yoshdagi oʻsmirlarga nisbatan oʻqituvchi homiy yoki tarbiyachi holatida turadi, bu soʻzlar V. Dalʼ lugʻatida “homiylilik qiluvchi, gʻamxoʻr, serharakat”, sifatida taʼriflanadi.

Talabalar bilan muomala qilish pedagogning oʻz tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa, u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni, muloqot olib borishni doimo oʻrganib borishi lozim. Bu oʻrinda ikki savol tugʻiladi: «Nimani oʻrganish kerak?» va «Qanday oʻrganish kerak?»

Pedagog jamoa bilan, bolalar guruhlari ayrim talabalar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, lektsiya, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta`lim-tarbiya jarayonida talabalar bilan hamkorlikni yo`lga qo`ya olishi lozim. talabalar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda) muayyan qoidalarni bilishni va bu qoidalarni amalga oshirishning muayyan usullarini egallashni nazarda tutadi. Ularni qarab chihamiz.

Talabalar jamoasi bilan muomala ko`pincha suhbat, lektsiya, axborot va hokozolar shaklida bo`ladi. Xo`sh, bu muomala samarali bo`lishi uchun nimalar zarur?

Birinchi novbatda suhbatni qanday boshlash, qanday qilib darhol o`qituvchining gaplariga bolalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida gapirib o`tamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qo`yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo`lajak suhbatning ma`nosi mujassamlashgan bo`ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko`rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli faktni ma`lum qilishdan boshlasa bo`ladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli maqola, yoki tsitata keltirish ham muvofaqiyatli bo`lib chiqishi mumkin. Bundan tashkari, darhol bolalarga bo`lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan (jamoaning yoshi, xususiyatlari asosida) borliq ekanligini aytib o`tsa ham bo`ladi.

Mana suhbatga bolalarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin etarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Masalan, suhbatni tuzishning bunday varianti bo`lishi mumkin. Dastlab pedagog talabalar ongi va hissiyotiga etkazmoqchi bo`lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So`ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar sistemasi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o`xshatishlardan foydalanish juda foydali bo`ladi. Shundan keyin xulosa chiqarish, ya`ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so`zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomala maqsadini bu xilda ta`riflash talabalar muomalasining asosiy ikki turi: rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko`rsatib beradi.

Rollararo (amaliy) muomala tashkiliy faoliyatning har xil turlari jarayonida amalga oshiriladi. Faoliyat qatnashchilarining uning maqsadiga, bir-biriga munosabati xarakteriga qarab ular o`rtasida sheriklik yoki o`rtoqlik muomalasi vujudga keladi. o`rtoqlik muomalasi faqat faoliyat qatnashchilarining o`zlari emas, balki xodimlarining faoliyat maqsadiga erishishdagi o`zaro yordami, hayrixohligi va manfaatdorligini nazarda tutadi.

Shaxslararo (erkin) muomala tashkiliy faoliyatdan tashqari amalga oshiriladi. Muomala qiluvchilarning hissiy ko`ngil bog`lashuviga qarab tanishuv, oshna-og`aynigarchilik, do`stlikni farqlash mumkin.

Talabalar muomalasining mazmun tomoni ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. Har bir yoshdagi talabalar uchun muomalaning o`ziga xos hissiy-ma`naviy g`oyasi xosdir. Muomalaning asosiy g`oyasidagi farq shunda namoyon bo`ladiki, u har bir yosh bosqichida talaba shaxsining shakllanishi va rivojlanish xususiyatini belgilab beradigan yetakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida o`z ichiga oladi.

Umuman olganda, talabalar muomalasining mazmuni o`ziga turmushning buyumlar sohasini, hayotning voqeiy qatlamini, g`oyaviy-ahloqiy muammolari va hissiy-ahloqiy sohasini qamrab oladi. Yoshga qarab har bir qatlamning aniq mazmuni va ularning o`zaro nisbati turlichadir. Har bir yosh bosqichidagi muomalaning asosiy g`oyasi talabalar muomalasining asosiy mazmunini aks ettirib, muomala mazmunining u yoki bu tomoni ustun bo`lishini belgilab beradi va asosan uning xilma-xil bo`lishini cheklamay, talabalar uchun ichki sub`ektiv jihatdan ahamiyatli bo`lgan rejani tashkil etadi.

Muomalaning asosiy g`oyasi va mazmuni bilan bog`liq ravishda muomala darajalarini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir, ular talabalar muomalasi ob`ektiv mazmunining chuqurligini aks ettiradi. Muomalaning to`rtta darajasini ajratib

Muomalaning faktik darajasi — bu suhbatni qo`llab-quvvatlash uchun nutq ayirboshlashdir, buning natijasida suhbatdosh bilan aloqa o`rnatish mumkin bo`ladi.

U individ (talaba)ning atrofdagilar bilan munosabatda o`zini qulay his qilishini qo`llab-quvvatlashdan iborat muhim vazifani bajaradi.

Muomalaning axborot darajasi talabalar o`rtasida ham rollararo, ham shaxslararo muomalada ro`y beradigan g`oyat turli-tuman xossaga ega bo`lgan axborot bilan doimo almashinib turishidir. Bunda bolalarning aqliy qiziqishlari doirasiga juda xilma-xil axborotlar jalb qilinadiki, ularni bolalar ta`lim-tarbiya jarayonida, o`qituvchilardan, boshqa turli-tuman manbalardan oladilar.

Muomalaning munozaraviy darajasi shu sababdan vujudga keladiki, talabalar bir vaqtning o`zida bir qancha birlashmalarga kiradilar va o`ziga xos shaxs bo`lib, faqat shaxsiy axborot tashuvchilar va u yoki bu faktlarga shaxsiy tarzda izoh beruvchilargina emas, balki normalar va qadriyatlarga ham izoh beruvchilar hisoblanadilar. Natijada talabalarning o`zaro muomalasida turli nuqtai nazarlar to`qnash keladi. Bu to`qnashuvda u yoki bu faktlarga, voqealarga va hokazolarga izoh berish imkoniyati aniqlanadi. Munozaraviy daraja faoliyatning har xil ko`rinishlari jarayonida talabalarning muomalasida katta rol` o`ynaydi. Chunki, faoliyat maqsadiga erishish odatda sheriklarning shaxsiy kuch g`ayratlarini kelishib olishni talab qiladi, bu esa odatda munozara jarayonida sodir bo`ladi.

Tayanch iboralar:

Pedagogik muomala, pedagogik muloqot, muomala uslubi, pedagogik takt, kommunikativ qobiliyatlar, tinglash va hamkorlik qilish mahorati, ishontirish va tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish, kommunikativ ta`sir, shontirishga qo`yiladigan talablar, mahoratni shakllantirish, o`zaro ta`sir usullari.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik muomala va uning vazifalari nimadan iborat?
2. Pedagogik muloqot va uning funksiyalari izoh bering.
3. O`qituvchining muomala uslubi haqida nima bilasiz?
4. O`qituvchining pedagogik takti deganda nimani tushunasiz?

5. O`qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda nimalarga e`tibor berish kerak?
6. Bajarish, tinglash va hamkorlik qilish mahoratiga ega o`qituvchilar to`g`risida nima bilasiz?
7. Pedagogik jarayonda ishontirish va qanday qilib tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish mumkin? Izohlab bering.
8. Ishontirish - kommunikativ ta`sirning asosiy vositasi deyдилar. O`z fikringizni izohlab bering.
9. Ishontirishga qo`yiladigan talablar nimadan iborat?
10. Pedagogik mahoratni shakllantirishda ta`sir va ishontirishning o`rni nimadan iborat?
11. Pedagogik o`zaro ta`sir usullariga ta`rif bering.

Testlar:

1. Dars jarayonida faol shaxs kim?

- A) O`qituvchi
- B) Trener
- C) Talaba
- D) Hammasi.

2. Interaktiv so`zi qanday ma`noni anglatadi?

- A) Inglizcha so`zdan oli ngan bo`lib, o`zaro harakat va ta`sirlashish degan ma`noni bildiradi.
- B) Fransuz tilidan olingan bo`lib o`zaro hamkorlik degani
- C) To`g`ri javob yo`q
- D) Ingiliz tilidan olingan bo`lib, o`rtasida orasida degan ma`noni anglatadi.

3. O`qituvchining umumiy tayyorgarligi nimada aks etadi.

- A) Fan bo`yicha tuzgan taqvim- mavzu rejasida
- B) Oqituvchining darsliklar bo`yicha tuzgan oylik rejasida.
- C) Oyma-oy tuzgan yillik rejasida
- D) Hamma javob to`g`ri

4. Darsga tayyorlanish nima?

- A) Bir butun dars loyihasini tizimli ketma-ketligini ishlab chiqish bo`lib ayni paytda pirovard natijasini ta`minlaydigan o`quv- tarbiya jarayonidir.
- B) Barcha dars loyihasini har qanday holatda ishlab chiqishdir
- C) O`qituvchini o`z fani yuzasidan umumiy kundalik tayyorgarligidir
- D) Bva C javoblar to`g`ri

5. Pedagogik mahorat asoslariga nimalar kiradi?

- A) kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, shaxsning insonparvarligi
- B) pedagogik qobiliyat, kommunikativlik, Boshqaruvchilik
- C) pedagogik texnika, bilim va tajriba
- D) pedagogik madaniyat, tashkilotchilik, insonparvarlik

6. Pedagogik muloqot ijtimoiy jarayon sifatida quyidagi qaysi funksiyalar bilan xarakterlanadi?

- A) monitoringga tayyorlanish, loyihalashtirish, modellashtirish, mutolaa qilish
- B) shaxsni bilish, ma'lumot almashinish, faoliyatni tashkillashtirish, rollar bilan almashinish, oz-o`zini anglab yetish
- C) ta'limni takomillashtirish, ko`rgazma tayyorlash, qo`llanma yaratish
- D) ma'naviy qadriyatlarni o`rganish, milliy urf-odatlarni o`zlashtirish

7. Pedagogik munosabatlarni turlarga ajratish qaysilarni o`z ichiga oladi?

- A) avtoritar, demokratik, liberal
- B) lokal, liberal, akseologik
- C) lokal, demokratik, kreativlik
- D) lokal, kreativlik, akseologik

8. Pedagogik texnologiya qaysi ta'lim sohasida o`rganiladi?

- A) o`rta umumiy ta'lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim
- B) boshlang'ich ta'limda
- C) o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limida
- D) oliy ta'limdan keyingi ta'lim turida

9. O`qituvchining talaba – tarbiyalanuvchilar bilan tazyiqsiz, inoqlikda, o`zaro bir – birini qo`llab – quvvatlab ish tutishi ... deb aytiladi?

- A) pedagogik tayyorgarlik.
- B) o`zaro qo`llab – quvvatlash.
- C) pedagogik muloqot.
- D) pedagogik nazokat.

10. O`qituvchining talaba – tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muloqotining muvofaqiyati ko`pincha ... ga bog`liq ?

- A) pedagogik hamkorlik va pedagogik nazokat.
- B) pedagogik hamkorlik.
- C) pedagogik nazokat.
- D) pedagogik texnika.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O`zbekiston Respublikasining«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – Toshkent: “O`zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : “O`zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o`rganish bo`yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.

8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

4.4 Pedagogik ta`sir ko`rsatish mahorati



O'quv maqsadi

Pedagogik ta`sir ko`rsatish mahorati haqida nazariy bilimlar berish

Suhbatda vazminlik va o`rinli gapirish, gapga chechanlikdan yuqori turadi

F. Bekon

1. Pedagogik ta`sir ko`rsatish haqida tushuncha. Inson dunyoga to`liq shakllangan fe`l-atvor, axloqiy xususiyatlar dasturi bilan tuqilmasligi, unga xos fazilatlar, axloqiy me`yorlar ijtimoiy hayot va oilaviy tarbiya maqsuli ekani barchaga ma`lum. Barcha zamonlarda xalqlar markaziy ko`cha, maydon va xiyobonlarni millatning jasoratli farzandlari nomi bilan atab kelgan.

Ular orasida mardlik namunalarini ko`rsatgan sarkardalargina emas, ilm-fan, madaniyat, san`at, adabiyot kabi sohalarda jasoratli mehnat qilganlar ham oz emas.

Demak, jasorat kasb tanlamaydi. U ijtimoiy-ma`naviy muhit, maqsadli va izchil tarbiya maqsulidir. Shunday ekan, oila va o`quv maskanlaridagi muhitni yanada takomillashtirish orqali farzandlarimizni ishontririb va ta`sir qilib tarbiyalash mumkin.

Avvalo, o`g`il - qizlardagi qo`rquv, ikkilanish va jur`atsizlikni yengishga o`rgatish lozim. Chunki, bolani suvga tushirmay suzishga o`rgatib bo`lmaydi. Darhaqiqat, bolalarni dadillik va jasorat talab etadigan vaziyatlarda sinamasdan ulardagi qo`rquv va jur`atsizlikni yengish mushkul.

Agar, biz yoshlarimizni jasur, mard, qo`rqmas etib tarbiya qilmoqchi bo`lsak, bu ishga boshqacha yondashuv kerak bo`ladi. Chunki, tarbiya tarixining, demak, jasorat tarbiyasining romantik bosqichi ortda qolgan. Taraqqiy etgan davlatlar, allaqachon, uning texnologik bosqichiga o`tib olgan.

Farzandlarni oqil va dono, faol va uddaburon, mard va jasur etib tarbiyalash, avvalo, ota-onaga bog`lik. Biz ularni eng zamonaviy ilg`or bilimlar bilan qurollantirishga harakat qilamiz. Endi tarbiyaning yangi tamoyili - shaxs, davlat, millat manfaatlariga xizmat qiladigan eng muhim fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi yaratilmog`i lozim. Chunki, bilim - masalliq bo`lsa, fazilat - olovdir. Olovsiz ovqat pishmaganidek, yoniq qalb, bukilmas iroda, tetik ruh, cheksiz jasorat va sog`lom aql bo`lmasa, zamonaviy bilim va texnologiyalarni hayotga tadbiiq etish ham, yangi kashfiyotlar yaratish ham amrimahol.

Shunday ekan, biz farzandlarimizni yer yuzining eng ishonchli yoshlari etib tarbiyalashimiz kerakmi?! Agar, shu ishga hafsalamiz, irodamiz yetsagina, biz eng peshqadam millatlar qatoridan o`rin olishimiz mumkin. Aks holda, ularga kashfiyot, mahsulot sotib emas, sotib olib yashashga to`g`ri keladi. Buxoriy, Farqoniy, Beruniy, Xorazmiy, Moturudiy ajdodlari bunga ko`narmikan?!

Ishonishning otasi - aql, onasi - yurak

Ishonch insonning fikrida sodir bo`ladi, so`ngra til va xatti-harakat orqali namoyon bo`ladi.

Shuning uchun, o`zbek milliy pedagogikasi darhalari aql tarbiyasini muallimlar vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa, deb ta`kidlab kelingan.

Buyuk ma`rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi haqida bunday degan edi:

Fikr, agar yaxshi tarbiya topsa,

Xanjar, olmosdan bo`lur o`tkir.

Fikrning oynasi olursa zang,

Ruqh ravshan zamir o`lur benur.

Bu yo`lda qanchalik ko`p pedagog yelkadosh bo`lsa, usul va vositalar qanchalik turlicha qo`llanilsa maqsadga erishish shunchalik tezlashadi.

2. Pedagogik ta`sir ko`rsatish usullari va uning tarbiya bilan bog`liqligi.

Pedagogika o`z usullarini yo`q narsadan yaratmaydi, ularni o`ylab topmaydi. U hayotdan kishilar hulq-atvorining real omillarini, talabalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, tarbiyaviy ishda pedagogik ta`sir ko`rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta`sir ko`rsatish metodikasi talabalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iboratdir.

Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo`lib, talabalarning hulq-atvorini rag`batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvonch ijodiy zavq-shavq manbaiga, ularning shaxsiy muddaolariga aylanadi.

Rahbatlantirish va jazolash usuli o`ziga xos xususiyatga ega bo`lganligi sababli uni qo`llash alohida ehtiyotkorlikni, pedagoglarning sezgirligi va xushmuomalaligini talab qiladi.

***Talab** - tajribada juda keng tarqalgan usul bo`lib, ta`lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo`lish yo`li bilan u yoki bu qatti-harakatlarning raqbatlantirilishi yoki to`xtatilishini ta`minlaydi*

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

3. Pedagogik ta'sir ko'rsatishda talab. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish usuli sifatidagi yagona pedagogik talablarni bir-biridan farqlash kerak. Agar, yagona pedagogik talablar talabalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini va jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan talabalarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa, hulq-avtor va faoliyat normalarini, talabalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

***Istiqbol** - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u talabalarning hatti-harakatlarini, ular oldiga maroqli maqsadlar qo'yish yo'lini ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul ta'lim muassasasi talabalarida shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.*

***Rag'batlantirish va jazolash** - tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, talabalar hulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali hatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirish va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul hatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq burchlarini kengaytirish, yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi.*

***Jamoatchilik fikri** - ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, talabalarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rahbatlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Bu usul jamoa a'zolarining ijtimoiy faolligini va o'rtoqlarcha birdamligini rivojlantirishga yordam beradi.*

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini alohida-alohida tasvirlashga o'tishdan oldin ularni muvofiqiyatli qo'llanishning umumiy qoidalarini qarab chihamiz; Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti -

pedagogning talabalarga boʻlgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Pedagogik taʼsir koʻrsatish usullari oʻz tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo boʻlgan kishilar qoʻlida sof kasbkorlik vositalari majmui emas, bu usullar bir jamoa boʻlib, yagona intilishlar, umumiy maʼsuliyat bilan birlashgan jonli kishilarning jonli munosabatlaridir.

Qattqlik va toshbagʻirlikni, rasmiy maʼmuriyatchilikni oʻzining talabalar bilan munosabati normasiga aylantirgan kishilar qaqiqiy pedagog boʻlolmaydilar. Bizning sharoitimizda faqat pedagoglar bilan talabalar oʻrtasidagi oʻrtoqlarcha munosabatlarni rivojlantirishga va mustaqamlashga qaratilgan yoʻlgina pedagogik taʼsir koʻrsatishning asosi boʻlishi mumkin. Binobarin u yoki bu usullarni qoʻllash har qolda talabalarning faoliyatida faqat juzʼiy oʻzgarishlarga olib kelmay, shu bilan birga hamisha pedagoglar bilan tarbiyalanuvchilar oʻrtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga faol xizmat qiladi.

Pedagogik taʼsir koʻrsatish usulini qoʻllashning ikkinchi umumiy qoidasi shundan iboratki, bu qoida oqilona tayyorlangan boʻlishi lozim, uni qoʻllash esa amalga oshirish uchun shart-sharoitning mavjudligini nazarda tutadi.

Talabalarning real imkoniyatlari, ularni tarbiyachi ragʻbatlantiradigan ishlarni bajarish qobiliyatini qisobga olish pedagogik taʼsir koʻrsatish vositalaridan foydalanishdagi shaxsiy yondashuvning mohiyatini tashkil etadi. Baʼzan, u yoki bu pedagogik taʼsir natijasiz qoladi, chunki pedagog uning amalga oshirilishi uchun zarur moddiy vositalarning mavjud boʻlishini oldindan taʼminlamagan boʻladi. Masalan, barcha talabalar ham ishga zarur boʻladigan asboblar bilan taʼminlangan emas, oʻqituvchi esa, ularga novbatdagi topshiriqni bajarishni taklif qiladi. Pedagogik taʼsir koʻrsatishni amalga oshirishda talabalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi umumiy tamoyillarni izchillik bilan oʻtkazish ham muhim ahamiyatga egadir.

Taʼlim-tarbiya jarayonining u, yoki bu usulini toʻgʻri tanlash va uni qoʻllanishining muvaffaqiyati pedagogdan pedagogik vaziyatni bilish va hisobga olishni talab qiladi.

Pedagogik vaziyat pedagogik ta`sir ko`rsatish usullari uchun o`ziga xos xususiyatlarga egadir. Pedagogik ta`sir ko`rsatish usullarini muvofaqiyatli qo`llash uchun zarur bo`lgan hal qiluvchi shart-sharoitlarni aytib o`tamiz. Bu avvalo, tarbiyalanuvchi bilan pedagogning munosabatlaridir. Bu munosabatlar doimiy bo`lib qolmaydi, ular o`zaro muomala jarayonida birgalikdagi faoliyatda rivojlanadi va boyib boradi. Shu narsa mutlaqo ravshanki, o`rtoqlarcha munosabatlarda ta`sir ko`rsatish usullaridan biri ta`sirchan bo`ladi, betaraf, yoki salbiy munosabatlarda (bunday munosabatlar ham bo`lishi mumkin) boshqa usul, boshqa shakl kerak bo`ladi.

So`ngra tarbiyalanuvchilarning pedagog taklif qilgan faoliyatga munosabati muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ma`lumki, talabani oson va yechimli ish bilan shuqullanishga majbur qilish - boshqa gap, uning jiddiy, odatdan tashqari mehnatni bajarishiga erishish esa, butunlay boshqa bir gap.

Ko`p narsa tarbiyalanuvchining jamoadagi mavqeiga bog`lik bo`ladi. U hali yangi bo`lishi, an`analar va o`rtoqlarining qiliqlarini bilmasligi mumkin. Jamoa hayotining hamma sohasida tajribasi bor bo`lishi ham mumkin. Birinchi holda ham, keyingi holda ham tarbiyalanuvchiga ta`sir ko`rsatish usuli bir xilda bo`lishi mumkin emas.

Nihoyat, hamisha talabalarning ruhiy holatini hisobga olishga to`g`ri keladi, pedagog ularga biror topshiriq bilan murojaat qiladi: talabalar quvnoq va vazmin bo`lishlari, biror narsadan ranjib jahllari chiqqan bo`lishi ham mumkin. Bu ham yana ta`sir ko`rsatish shaklini tanlashga asos bo`ladi.

Pedagogik vaziyat bilan u taqozo qilgan pedagogik ta`sir ko`rsatish usulining biror shakli o`rtasidagi bog`lanish muhim ahamiyatga egadir. Bu aloqadorlikni tushunish tarbiyachilarga o`z harakatlarida ko`proq samaradorlikka erishish, ularni ongli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik ta`sir ko`rsatishning ayrim usullarini qarab chiqishni talab usulidan boshlagan ma`qul.

***Talab** - pedagogik ta`sir ko`rsatishning boshlang`ich usuli bo`lib, tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini rahbatlantirishni, yoki to`xtatishni va aniq amaliy hamda ahloqiy sifatlarini namoyon qilishni taminlaydi.*

Talab qilish usuli talabalarning ko`pgina ahloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, lekin tarbiyalanuvchilarda o`ziga nisbatan ma`suliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni qarab chiqar ekanmiz, faqat bizning insonparvar jamiyatimizdagina xalqning ma`naviy-siyosiy birligini mustahkamlashda pedagogik talab tarbiyaning ta`sirchan usuliga aylanishini aytib o`tgan edik.

Pedagogik ta`sir ko`rsatish usuli bo`lgan talabning ahamiyati nimadan iborat ekanligini qarab chiqamiz.

O`qituvchi talabalar bilan ishlab, ularning faoliyatini tashkil etar ekan, o`z ko`rsatmalari bilan talabalarning ayrim harakatlarini rag`batlantiradi. Ish jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi, yoki rag`batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo`nda bo`lib, sezilar-sezilmas majbur qilish rolini o`ynasa, boshqalari ancha keng tushuntirish yo`l-yo`riqlar shakliga ega bo`ladi. Ayrimlari talabalarni faqat ishga jabr qilish zarurati tufayli, boshqalari talabalarning ayrim ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishiga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; bir xillari talabalarning keraksiz va noto`g`ri harakatlarini to`xtatsa, boshqalari muvofaqiyatli harakatlarini mustahkamlaydi va qo`llab-quvvatlaydi. O`qituvchi tomonidan berilgan barcha ko`rsatmalar va tushuntirishlar, mulohaza va tanbehlar pedagogik ta`sir ko`rsatishning ana shu eng muhim usuli bo`lgan talab qilishning turli shakllariga aytiladi. Shuning uchun ham mubolag`a qilishdan qo`rqmay aytish mumkinki, pedagogning talabisiz talabalarning o`quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo`lmaydi.

Tajribali pedagog talabalar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi, o`z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilishini aniq va muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos.

Talablar - talabalar jamoasi bilan ishlashning boshlang`ich davrida, dastlabki darslarda ayniqsa, muhim rol o`ynaydi.

Ana shu bosqichda guruhda ishlarning qanday borishi, u yoki bu harakatlarning talabalar tomonidan qanchalik aniq bajarilishi ham, o`qituvchining talaba bilan munosabatlari qanday yo`lga qo`yila boshlashi ham, talabalar uni obro`li o`rtoq - o`z rahbarlari deb e`tirof qiladilarmi, yoki yo`qmi, - bularning hammasi tarbiyachining talablariga chambarchas bog`liqdir.

Shunday qilib, talabalar bilan ishlashning boshlang`ich davrida va ular faoliyatining yangi-yangi turlarini tashkil etishda pedagogning talablari talabalarning zarur xatti-harakatlarini rag`batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi, shuningdek noma`qul va foydasiz harakatlarning oldini olish va to`xtatish vositasi ham bo`ladi. Talabning asosiy guruhlari va shakllarini qarab chihamiz.

4.Ishontirish - ta'sir ko'rsatishning muhim omili. Pedagogning talablari bevosita talablar bo`lishi mumkin, bunda ular shunday talabalarga qaratilgan bo`ladiki, tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi, yoki pedagogning talablari vositali talablar bo`ladi, bunda o`qituvchi o`z talablari bilan talabalarda o`z o`rtoqlariga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiharadi.

Biz avvalo, talabning asosiy shakllarini ta`riflashga o`tamiz, bu usulning u, yoki bu shaklini tanlash pedagogik vaziyatni hisobga olish bilan bog`likdir. Bevosita talablar uchun pedagogik vaziyat ikkita asosiy shartdan, ikki omildan vujudga keladi.

Birinchi omil - kimdan talab qilinsa, o`shaning talab qiluvchiga bo`lgan munosabatidir. **Ikkinchi omil** - bu tarbiyalanuvchining pedagog rag`batlantiradigan faoliyatiga munosabatidir.

Umuman olganda, bu munosabatlarni biz ijobiy, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta`riflaymiz, holbuki amalda bu munosabatlarning juda ko`pdan-ko`p ko`rinishlari ham bo`lishi mumkin.

Endi talab shakllariga to`xtalib o`tamiz. Talab to`ppa-to`g`ri bo`lishi mumkin, bunda o`qituvchining murojaati "Shunday va faqat shunday qil" formulasi bo`yicha

qat'iy, dadil ohangda ifodalangan aniq ko'rsatmaga ega bo'ladi. Bunday holda talabalarni harakatga undovchi omil talabning o'zi hisoblanadi.

To'ppa-to'g'ri talab jamoa bilan ishlashning birinchi bosqichida ayniqsa ta'sirchan bo'ladi. Buni bir adib ko'rsatib o'tgan edi: "Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi, binobarin, kimda-kim ikkilanuvchilardan, berilgan va'dalarni shuvab ketuvchilardan ish boshlashni o'ylasa, u xato qilgan bo'ladi".

Pedagog talabalar uchun yangi bo'lgan faoliyatni tashkil etayotgan joyda ham to'ppa-to'g'ri talab zarurdir. Bu erda to'ppa-to'g'ri talab ta'limning boshlanqich usuli bo'lgan yo'l-yo'riq berishga o'xshab ketishi, o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Shuni ham aytib o'tamizki, to'ppa-to'g'ri talab ko'pincha talabning pedagogga yoki u boshlagan faoliyatga betaraf munosabatda bo'lishi sharoitida ishlatiladi. Bunday vaziyatda to'ppa-to'g'ri, bevosita talabning quyidagi qoidalariga rioya qilish ayniqsa muhimdir.

Birinchi qoida: odatda, talab ijobiy bo'lishi, ya'ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiqarishi, talabalarning u, yoki bu harakatlarini shunchaki ta'qiqlamasligi, to'xtatmasligi lozim.

Albatta, o'qituvchining taqiqlashlaridan ayniqsa, talabalar belgilangan hulq-atvor qoidalarini har xil tarzda bo'lgan hollarda foydalaniladi. Biroq pedagoglar talablarining asosiy mazmunini ta'qiqlashlar tashkil etmaydi. Talablardagi asosiy narsa talabalar hulq-atvori va faoliyatining ijobiy dasturidir.

Ikkinchi qoida: to'ppa-to'g'ri talab yo'l-yuriq tarzida, ya'ni bir xil ma'noli, aniq va tushunarli, konkret bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda talabalarning yangi harakatlarini rag'batlantirganda talab yo'l-yo'riq berish bilan qo'shib ketganday bo'ladi, bu harakatlarni detallashtirib, ularni aniq ta'riflab beradi.

Uchinchi qoida: pedagogning harqanday oqilona, aniq va tayyorlangan to'ppa-to'g'ri talabi albatta bajarilishi, oxiriga yetkazilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, o`xshash pedagogik harakat qonunining namoyon bo`lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogning keyingi talablarining kuchi va ta`sirchanligini oshiradi talaba - tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo`ysunish odatini shakllantiradi. Va aksincha, har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talablarning samaradorligini pasaytiradi.

To`ppa-to`g`ri talablarning texnik ijrosi haqida gapirganda, ularni qo`yishning qat`iy, ishonarli oqangini ta`kidlab o`tish kerak. U osoyishta, vaziyatga qarab, jiddiy bo`lishi, lekin hech vaqt baqirishga, bolani haqorat qilishga aylanib qolmasligi kerak.

***Talab-maslahat** tarbiyalanuvchi ongiga ishonchsizlik bildirishdan iborat bo`lib, u yoki bu xatti-harakat, amaliy vazifani turli usulda yechishning maqsadga muvofiqligi to`qrisida o`qituvchining mustaqil ravishda qaror qabul qilish uchun tarbiyachining tavsiyasini o`z ichiga oladi.*

Iltimos singari, maslahatni ham majbur qilib tiqishtirmaydilar, tanlash huquqi bolaning o`zida qoladi. Bu shakl ishga ongli munosabatni rivojlantiradi va bundan tashqari, pedagogni katta yoshdagi o`rtoq deb bilishga o`rgatadi, uning obro`si keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashirilib yotganligiga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat-bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo`l-yo`riq emas, balki ko`pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Bevosita talabning bu shakli yana shunisi bilan foydaliki, u talabalarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa paydo bo`ladigan qiyinchiliklarda o`rtoqlari, talabalar bilan maslahatlashishga o`rgatadi. O`z novbatida pedagoglar o`zlariga talabalar maslahat uchun murojaat qilishini qadrlashni, o`zining javob reaksiyasini shunchaki aytib berish emas, balki kichik yoshdagi o`rtoqlariga tabiiy yordam ko`rsatishni o`rgatishlari lozim.

***Talab-sha`ma** talabalarni muayyan hatti-harakatlarga ilhomlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalaridan biridir*

Sha`ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo`lgan talablarni, ma`nosi

ochib berilmaydigan talablarni o`ziga xos shartli qishartirishdir. Tajribali pedagogga ba`zan talabalarning zarur harakatlarini bajarishini ta`minlash uchun ko`z tikib qarash, qoshlarning harakati, ritorik savolning berilishi kifoya qiladi. Muayyan sharoitda sha`ma talabning "yashirin" shakli rolini o`ynaydi, u faqat ikki kishiga tushunarli bo`lib, atrofdagilarning diqqatini jalb qilmaydi.

"Darslaringni qilsang-o`ynagani borasan"- bu bevosita talabning ana shu shakliga eng oddiy misol bo`ladi. Shartli talabdan foydalanganda bajarilishi shart bo`lgan faoliyat bilan sarflangan kuch-g`ayrat uchun o`ziga xos mukofot bo`lgan faoliyat o`rtasidagi aloqa tabiiy edi.

***Shartli talab** shundan iboratki, bola uchun yoqimli bo`lgan biror faoliyat turi yoqimsiz, yoki qiyin faoliyat uchun raq`batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo`ladi.*

Aks holda talabalarda o`z manfaati yo`lida foydalanish kayfiyati paydo bo`lishi mumkin, bunda shartli talabga endi pedagog amal qilmaydi, talabalar esa uning oldiga o`z shartlarini qo`yadilar: "Bizni futbol" o`ynashimizga ruxsat etsangiz, sinfni yig`ishtirib chihamiz" va hokazo.

Umuman talabning bu shaklining qo`llanishi talabalarni, ularning qiziqishlari va mayllarini yaxshi bilishni, ularning individual qobiliyatlarini va me`yor tuyg`usini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu usulni (xullas, boshqa har qanday usul kabi) suv iste`mol qilmaslik kerak.

O`yin shaklidagi talabdan odatda qiziqarli bo`lmagan va ba`zan zerikarli mashqulotlarni tashkil etish haqida gap boradigan joyda, biror ishni, ayniqsa kichik yoshdagi talabalar bilan ishlashni jonlantirish uchun foydalaniladi.

Misol keltiramiz: Ta`lim muassasasi-internat tarbiyalanuvchilaridan bir guruhi odatda uxlashga yotish uchun juda uzoq, hozirlik ko`rishardi. Talabalar tez yechinishni bilmas, o`z buyumlarini tartibsiz qilib tashlayverishardi. Shunda tarbiyachi kechqurunlari "Kim tezroq?" o`yinlarini o`tkaza boshladi, har kimning vaqtini sekundomer bilan qayd qilib qo`ydi, o`yin hammani jalb qildi, hatto o`z rekordchilari paydo bo`ldi.

5.O‘zaro fikr almashish yordamida ta’sir ko‘rsatish. Talabalar jamoani tashkil qilishda o‘yinga singib ketishi lozim, degan edi bir adib. Bevosita talabning bu shakli nihoyatda ta’sirchan bo‘lishi mumkin, chunki talabalarni qiziqtirib, ularga quvonch baqishlaydi, birinchi qarashda eng yoqimsiz bo‘lib ko‘ringan ishlarni bajarishdan qoniqish hosil qilishga imkon beradi.

Qoralovchi talabdan pedagog shunday hollarda foydalanadiki, bunda bolaning u, yoki bu harakatlariga salbiy baho berish uning yoqimsiz xatti-harakatlarini to‘xtatishda rol o‘ynaydi va foydali harakatlarni rag‘batlantiradi.

Tayanch iboralar

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish, ta’sir ko‘rsatish usullari, pedagogik ta’sir ko‘rsatishda talabb istiqbolli metodlar, samarali natijaga erishish ta’sir ko‘rsatishning muhim omili, o‘zaro fikr almashish.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik muomalada bir qolipdagi usullar hamisha ham ijobiy rol o‘ynaydimi? Pedagogik tajriba Sizni qanday xulosalar qilishga undaydi?
2. Talabalar bilan muomala qilish metodikasini egallash nimani bildiradi? Uning tarkibiga kiradigan malakalar nimalardan iborat?
3. Talaba shaxsining shakllanishida muomala qanday rol o‘ynaydi?
4. Jamoa faoliyati maqsadini belgilashda talabalarni qanday qilib jalb etish kerak? Pedagogik amaliyot vaqtida olingan o‘z tajribangizni dalil qilib keltiring.
5. Turli yoshdagi talabalar muomalasini tashkil etish xususiyatlari nimalardan iborat? Yoshlar o‘rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi qanday bo‘lishi mumkin?
6. Individual muomala uslubini mashq qildirish bilan qosil qilish mumkinmiq
7. Ijodiy kayfiyatda muomala ta’siri haqida nima deya olasiz?
8. Pedagogni talabalar bilan muomalasining mohiyati nimadan iboratq

9. Talabalar faoliyatini tashkil etishda muomala qanday rol o`ynaydiq
10. Talaba muomalasini yaxshilashda nimaga e`tibor berish lozim?
11. Pedagogik ta`sir ko`rsatish metodikasidan samarali foydalanish shartlari qanday?
12. Pedagogik tajriba qanday xulosalar chiqarishga imkon beradi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Guruhlarga (o`qituvchi-talaba) bo`linib, o`qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini ochib bering.
2. Yoshlar o`rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mashq qildirish yo`li orqali individual muomala uslubini takomillash tirish mumkinmi?
4. Pedagogik Boshqaruv va muomalaning avtoritar, demokratik va liberal uslublari misolida namunalar keltiring.

TESTLAR

1. O`qituvchi va talabalar o`rtasidagi muloqot qanday natijalarni beradi?

- A. O`zaro tushunish, erkinlik, tabiiylik, ilmiylikka asoslanish.
- B. Yaxshi natijalarga undaydi, loyihalashga o`rganish mumkin.
- C. Informatsion texnologiyalardan foydalanishga erishadilar, tarbiya takomillashadi.
- D. Turli emotsiyalarning oldini oladi, faoliyatga undaydi, ta`lim – tarbiya jarayoni takomillashadi.

2. Faoliyat –bu?

- A. Ichki kuchlar bo`lib, ehtiyojlar bilan bog`langan shaxsni belgili yo`nalishga undaydi.
- B. Insonning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishga qaratilgan hatti-harakatlar yig`indisi.
- C. Atrof-muhitga erkin, ongli munosabatda bo`lish.
- D. Hayot, mehnat tajribalarining mahsuli.

3.Fikrlash jarayonini tashkil qilishda idrok qilishning tiplari qaysilar?

- A.Yaxlitligicha, izohli.
- B.Shaxsiy, tanqidiy, yaxlit.
- C.Shaxsiy, tanqidiy.
- D.Yaxlitligicha, izohli, shaxsiy, tanqidiy.

4.Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o`tkazish modellari nimalardan iborat?

- A.O`ziga ishonch xosil qilish, ishda faol ishtirok etish, eslab qolish , diqqat bilan tinglash.
- B. Eslab qolish, diqqat bilan tinglash.
- C .O`rtoqlar va o`qituvchi bilan fikr olishish, eslab qolish, diqqat bilan tinglash.
- D.O`ziga ishonch xosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o`rtoqlar va o`qituvchi bilan fikr olishish.

5.Fikrlash jarayoning mantiqiy tuzilishi bo`yicha qanday turlarga ajratiladi?

- A.Predmetli, amaliy, abstract.
- B.Induksiya, deduksiya,sintez.
- C .Refleksiya , qonun, teorema.
- D .Xulosa, mulohaza, qonuniyat.

6.Fikrlashni amalga oshirish usullari qanday nomlanadi.

- A) O`ylash usullari.
- B) Mulohaza yuritish usullari.
- C) Aqliy harakatlar usullari.
- D) Javoblarni barchasi tog`ri.

7. Muomala nima?

- A) Axborot jarayoni
- B) Ikki shaxsning muloqoti
- C) So`zlashish madaniyati
- D) Gapirish.

8. Pedagogning talaba – talabalar bilan muomalasining muvofaqiyati nimaga bog'liq?

- A) Hamkorlik qila olishga.
- B) So`zlashish va gapirishga
- C) Pedagogik qobiliyatning mavjudligi va pedagogik nazokat (takt)ga
- D) Pedagogik mahoratga.

9. Suhbatni qo'llab – quvvatlash uchun nutq ayriboshlash, suhbatdosh bilan aloqa o`rnatish muomalaning qanday darajasini anglatadi?

- A) Muomalaning faktik darajasini
- B) Muomala hajmini
- C) Muomalaning usulini
- D) Muomalaning jozibadorligini

10. «Pedagogik qobiliyat» nima?

- A) malaka va uddaburonlik.
- B) shaxsning anatomik – fiziologik xususiyati.
- C) faoliyat jarayonida shakllanib, rivojlanadigan, zehn, layoqat, iste`dod hosilasi.
- D) mashq, o`qish, o`rganish natijasida maydonga keladigan ruhiy – pedagogik holat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga

quramiz. – Toshkent : “O‘zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.

6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakterlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2017, - 416 b.

7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.

8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

9. XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru


www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

4.5. Nizoli vaziyatlarda pedagogik muomala texnologiyasi.



*Odami ahlu nazokatda suluv,
Bo`lsa axloqi sadoqatda suluv.*

Anbar Otin

1. Nizolarni o`rganish va ularni keltirib chiqaruvchi omillar. Shaxslararo nizolarni pedagogik jarayon xodisasi sifatida idrok qilish va baholashda pedagogik reduksionizmning boshqacha namoyish etilishi pedagoglar diqqat e`tiborini nizolarning salbiy oqibatlarini o`quv tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda namoyon bo`ladi.

Shaxslararo nizo muammosi yana chuqurroq va batafsil ijtimoiy psixologik tadqiqotlar doirasida ko`rib chiqilgan.

Bundan tashqari u, yoki bu qarama qarshiliklarning qanday fazoda yuzaga kelishi va rivojlanishiga qarab shaxsda ichki shaxslararo va guruhlararo nizolar tafovutlari Ya. Shenanskiy fikricha nizo konkret predmet. yoki vaziyatga nisbatan ustanovkalar maqsadlar va ta`sir usullaridagi qarama qarshiliklar tomomidan yuzaga kelgan to`qnashuvdir.

Shaxslararo nizo manbai sifatida o`zaro ta`sir qatnashchilar maqsadlarining bir biriga mos kelmasligi haraladi.

A.A. Yershovning fikricha shaxslararo nizo shaxsning ulardagi jarayonda va muomlada oqlanmagan ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, ustanovkalar xulq atvorni mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan to`qnashuvdir.

Shaxslararo o`zaro ta`sir qatnashchilari va ularning nuqtayi nazarini bir biriga qarama qarshilik ham nizoni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida bir qator tadqiqotlardan ko`rinib turibdi.

Nizoning yuzaga kelishida ko`proq uchraydigan qarama qarshilik sifatida affektiv mos kelmaslik qayd qilinadi.

Shaxslararo nizolar manbai sifatida qarama qarshiliklarning turli tuman guruhlar ko`rsatiladi. Motivasion kognitiv xulq atvorva shu munosabat bilan quyidagi savollarning tug`ilishi tabiiy, xaqiqatdan ham shaxslararo nizo asosida odamlar o`rtasidagi har qanday qarama qarshiliklar yotadi. Adabiyotlar taxlili shuni ko`rsatadiki bu savol garchi empirik ma`lumotlar bu borada ko`p bo`lsa ham hozircha munozarali bo`lib qolmoqda.

E. Boyko, A.G. Kovalyo`v va V.B. Penferov tomonlaridan taklif etilgan shaxslararo nizoga berilgan ta`rifni ko`rib chiqich lozim. Ular shaxslararo nizoni muomola sharoitida odamlar o`rtasida taqiqlangan qarama qarshilik sifatida baholaydilar.

Qarama qarshiliklar tiplarini taxlil qilmasdan turib mazkur mualliflar shuni takidlaydiki shaxslararo nizolarni yuzaga kelishida qarama qarshiliklarni hal qilishning emotsional sohaga o`tib ketishi sabab bo`ladi.

Shaxslararo nizolarni turlicha klassifikasiya qilishiga intillishlar ham har xilli- gi bilan ajralib turadi. Adabiyotlar taxliliga ko`ra bunday klassifikasiya turli asoslarga ko`ra tuzilgan.

I. Kozer shaxslararo nizolarning 2 tipini ajratib ko`rsatadi realistik va norealistik.

Realistik nizolar odamlar o`rtasidagi to`qnashuvlar talablar va kutilmalar tufayli yuz berganda vujudga keladi. Ular odamlar tomonidan agar biron samarali vositasi topilsa tashlab yuborish mumkin bo`lgan maxsus maqsadga erishish usuli sifatida qaraladi.

Norlasitik nizolar ob`ektga bo`g`liq bo`lmagan holda ifodani izlash agressiv impulitlardan yuzaga keladi. Ular vosita ma`nosida boshqa funksional muqobillarga ega emas, balki agressiv impulslarning namoyon bo`lishidir.

Shunday qilib shaxslararo nizolarni klassifikasiya qilish uchun I.Kozer nizolashayotgan tomonlarda ma`lum maqsadning mavjud bo`lishi, yoki bo`lmasligini oladi. Agar, bunday maqsad qandaydir shaklda mavjud bo`lsa realist nizo mavjud bo`lmasa faqatgina agresivlik namoyon bo`lishi bilan bo`g`liq bo`lgan norealistik nizodir.

A.A. Yershov uzoq va qisqa muddatda tez - tez va kam uchraydigan yopiq va ochiq konstruktiv va destruktiv shaxslararo nizolarni ajratib o`tadi. Shunday qilib uning klassifikasiyasi asosida shaxsga, yoki guruhga ta`sir xarakteri davriy davomiyligi, chastota va ochiqlik darajasi yotadi.

Shu yerda takidlash zarurki, shaxslararo nizolarni u, yoki bu tipga nazariy imkoniyatlarning mavjudligiga qaramay klassifikasiya mezonlari hali ham noaniq bo`lib qolmoqda.

Ijtimoiy psixologiyada shaxslararo nizolarni taxlil qilish, ularning tuzilmasi rivojlanish dinamikasi, funksiyalari va yuzaga kelish sabablarini muxokama qilish qabul qilingan.

Nizoning psixologik tuzilmasi haqida gap ketganda odatda nizoli vaziyat va incident ajratib ko`rsatiladi.

Nizoli vaziyat bu nizoning obektiv asosi bo`lib, tomonlar qiziqishi va ehtiyojlaridan real qarama - qarshiliklarni yuzaga kelishiga qaratiladi. Nizoli vaziyatning mavjudligi shaxslararo nizoning mavjudligidan darak bermaydi. Qarama qarshiliklar hali o`zaro ta`sir, qatnashchilari tomonidan qandaydir vaqt oralig`ida anglashiladi.

Nizoli vaziyat tuzilmasida nizoning ob`yektiv va nizo tomonlari ajratiladi. Nizo ob`yekti-real, yoki ideal predmet bo`lib, shaxslararo nizo sababi hisoblanadi.

Shaxslararo nizo tomonlari sifatida odatda guruh a`zolari haraladi.

Shaxslararo nizolar qatnashchilarda nizodagi ichki pozitsiyasini ajratib ko`rsatish mumkin.

Tashqi pozitsiya ichki pozitsiya bilan mos kelmasligi ham mumkin, ichki pozitsiya haqiqiy qiziqishlar, motivlar, qadriyatlar to`plamini o`z ichiga olgan xolda, insonni shaxslararo nizoda qatnashishga undaydi.

Shaxslararo nizoda ichki va tashqi pozitsiyalarning bir biriga mos kelmasligiga tipik namuna sifatiga o`smirlar va kattalar o`rtasidagi nizoni keltirish mumkin, chunki bunda o`smirning tashqi agressiv pozitsiyasi ostida tanishish xurmatga bo`lgan ehtiyoj, o`z "men"i ahamiyatini qo`llab quvvatlaydi zaruratiga erishgan bo`ladi. Qoidaga ko`ra, o`smirlar kattalar bilan shaxslararo nizolarda o`zlarining yashirin pozitsiyalarini anglab yetmaydilar.

Nizo dinamikasi, yani uning rivojlanish qonuniyatlari, uning tuzilmasi bilan to`la mos keladi.

Nizo rivojlanishning quyidagi asosiy bosqichlari tafovutlanadi:

- *Ob'yektiv nizoli vaziyatning yuzaga kelishi;*
- *Nizoning anglanishi;*
- *Nizoli xatti-xarakatlar;*
- *Nizoni xal etish.*

Shu narsa aniqki, ikkita oraliq bosqichlar xar doim ham shart emas. Shunday qilib, nizo ob'yektiv tarzda yuzaga kelishi mumkin, lekin nizoli vaziyat yo'qolgunga qadar ham anglanmasdan qolib ketishi mumkin. Nizo xatti-xarakatlarga o'tmasdan turib anglanish bosqichida ham o'z yechimini topishi mumkin. Biroq shaxslararo nizolarning ko'pligi, yoki bu shaxsda barcha asosiy bosqichlarni bosib o'tadi.

Nizoli xatti-xarakat bosqichida shaxslararo nizoda barcha tuzilmalarining rivojlanishi yuz beradi. Nizo ob'yekti qoidaga ko'ra nizoli vaziyatlarning o'zaro munosabatlarga yaqin zonalariga ko'chirilishi xisobiga kengayadi. Shuningdek, nizo tomonlar ham o'zgaradi. Xususan, ular mavqei apponentlarga nisbatan o'zgarishi va o'z tarafiga hamdardlarni jalb qilishi mumkin. Bunday holatda shaxslararo nizo guruhlararo nizolarga o'tib ketishi mumkin.

Shaxslararo nizolar tuzilmasi va dinamikasi taxlili shuni ko'rsatadiki, destruktiv oqibatlarga faqatgina nizolarning o'zi kelmaydi, balki ularning yechishi va rivojlanishi ham sabab bo'ladi. Shaxslararo nizolarni boshqarish uning barcha bosqichlarida faqatgina destruktiv oqibatlar ehtimolini pasaytirmasdan, uning shaxsni rivojlantiruvchi salohiyatini amalga oshirish imkoniyatini ham beradi.

Shaxslararo nizolarni boshqarish muammosi adabiyotlarda hal qilishda o'rtada turuvchilarning qatnashuvi nuqtai nazardan ham ko'rib chiqadi. Shuni aytish mumkinki, o'rtada turish shaxslararo nizoni boshqarish shakl sifatida yuzaga kelish bosqichidan boshlabgina amalga oshishi mumkin. Nizoli vaziyatning yuzaga kelish bosqichi konstruktiv imkoniyatlarga boy bo'lgan xolda o'rtada turuvchilar uchun "yetib bo'lmaydigan" muloqot davomida shaxslar o'zaro axborot almashadilar. Bu muloqotdagi kommunikatsiya jarayonidir. Insonning o'zini qo'rshab turgan ijtimoiy,

hayotiy va eng avvalo, ishlab chiqish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'yektiv munosabat tizimida yuz beradi.

Muloqot odamlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda bog'lanishlar va aloqalarning rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir.

Muloqot birgalikdagi faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida ma'lumot almashishni o'z ichiga oladi. Bunday, ayrim ma'lumotning boshlanishi muloqotning kommunikativ jixati sifatida tarflanishi mumkin. Odamlar muloqotga kirishar ekan, muloqotning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar.

Muloqotning ikkinchi jixati –muloqotga kirishuvchilarning o'zaro birgalikda harakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas balki harakatlar bilan ayriboshlashdan iborat.

Do`kon kassasida hisob kitobni amalga oshirishda xaridor bilan sotuvchi, xatto ularning birortasi xech qanday so'z ishlatmasa ham o'zaro muloqotga kirishadi xaridor kassirga xarid qilingan narsa uchun tovar chek va pul taqdim etadi.

Muloqotning uchunchi jihati muloqotga kirishuvchining bir-birini idrok qila olishlarini taqozo qiladi. Muloqot qobiliyatlari rivojlantirish pedagog uchun muhimdir. Negaki uning kasbiga ko'ra vazifasi ham agar u o'quvchilarni o'zi bilan birga faoliyatga unumli jalb qila bilgan tarbiyaning maqsadlarini va vazifalarini jalb qila bilgan xolda birgalikdagi xarakat va o'zaro hamjixatlikni yo'lga qo'ya olgan taqdirdagina muvoffaqiyqli xal qilish mumkin.

Pedagogik muloqot deganda – pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida o'zaro birgalikdagi xarakatni mazmunan axborot ayrboshlashda o'quv tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjixatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi,usullari va xarakati tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uning tashkil etadi, hamda unga boshchilik qiladi.

Pedagogik muloqot bir tomondan o'quv tarbiya jarayonining asosiy holati bo'lib, ikkinchidan esa, uning mazmuniy ta'rifi sifatida namoyon bo'ladi.

Nizo, bu o'zi nima? Psixologiyada nizolar quyidagicha yoritiladi.Birorta vaziyatlardagi qarama – qarshi bo'lgan o'zaro kelisholmaydigan tendentsiyalar to'qnashuvi.

Nizodan salbiy xissiy kechinmalar bolan bog'liq bo'ladi va inson ongida shaxslararo aloqalarda individlarni yoki guruhlarini shaxslararo munosabatlarda bo'lib o'tishi mumkin.

Demak shuni aytish kerakki xar-xil yo'nalishda bo'lgan manfaatlar qiziqishlar, fikrlar, maqsadlar va maqsadlarni amalga oshirishni xaqidagi tasavvurlar orasida to'qnashuvlar nizolar vaziyatlarni asosini tashkil qiladi.

Nizolarning turlari. Ijtimoiy psixologiyada nizolarni turlarga ajratish variantlari asosida xar xil bo'ladi. Masalan shaxsning ichki nizolarini kuzatish mumkin raxbarlik burchi va harindoshlar o'rtasidagi nizo, shaxslararo kelishmovchiliklar raxbar va uning o'rinbosarlari mansab ushuni talashishi hamkasblar premya uchun va xakozo.

R.L.Krichevskiy uch gurux sabablar nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi deb xisoblagan.

1. Mehnat jarayoni.

2. Odamlar munosabatlarni psixologik xususiyatlari madaniy va estetik farqlari raxbarini xarakterlari va salbiy psixologik kommunikatsiya va xakozo. Guruh a'zolari o'ziga xos shaxsiy sifatlarni o'zini xissiy xolatlarini boshqara olishlik agressivlik nizolarni tashkilot uchun ahamiyati va ularni yechish yo'liga qarab farqlanadi.

3. Destruktiv nizolar salbiy natijalarni olib keladi, ular chuqur odatga aylanib guruh yoki tashkilotni samarali va yuqori rivojlanishini keskin pasaytirib yuboradi.

Shaxs va u tegishli bo'lgan tashkilot orasida kelishmovchiliklar bir-xil statusdagi guruhlar va tashkilotlar orasidagi kelishmovchiliklar.

Nizolar kelib chiqqan sabablarga ko'ra tasniflash mumkin. Hamma sabablarni ko'rsatish mumkin emas.

Nizolarning asosiy bosqichlari.

1. Qarama-qarshi qiziqishlar, manfaatlar, normalar va qadriyatlarini potentsiol shakllanishini boshqarish.

2. Nizo potentsioldan real xolda o'tishi bosqichi yoki qatnashchilar tomonidan qarama-qarshi manfaatlarini naniqlash.

3. Nizolar xarakterlari bosqichi.

4. Nizoni yechish bosqichi.

Xar bir nizo o'ziga yarasha tuzilishga ega. Har bir nizoli vaziyatni ob'yekti bo'ladi u qarama-qarshi taraflarni texnologik va tasgkiliy qiyinchiliklarni xususiyatlardan kelib chiqadi.

Ammo, yaqin va shaxsiy munosabatlarda strategiyadan foydalanish yaramaydi chunki, u munosabatlarda sovuqlik va loqaydlik paydo bo'lishiga olib keladi.

Siz nizoni xal qilish davomida raxbaringiz xoxishi, talabini xisobga olishga majbur bo'la olsangiz hamkorlik uslubidan foydalaning.

Bu hamkorlikdan birortasi bo'lmasa strategiya samarasiz bo'ladi.

Kompromis uslubi: uning ahamiyati shundaki –har ikkala taraf o'zaro yon berish orqali bitimga keladilar. Bu hamkorlik uslubga o'xshab ketadi, ancha yuzaki amalga oshiriladi.

Hamkorlik qilayotganingiz ham nizoni yechish uchun kuch va vaqtingizni sarflashni, istasangiz o'zingizni olib qochish usulidan foydalanish mumkin.

2. Nizolarni o'rganish va ularni keltirib chiqaruvchi omillar. Nizoli xulq atvor ontogenez taxlili shuni ko'rsatadiki o'smirlik davri shaxslararo nizolar yuzaga kelishi nuqtai nazaridan eng ko'p zo'riqish hisoblanadi. O'smirlardagi nizolarga moyillikning yuqori darajasi ko'pgina shaxs rivojlanishida o'smirlikdagi xususiyatlari va ahamiyati bilan belgilanadi.

O'smirlik davri muammosi u, yoki bu darajada psixologiyani barcha yo'nalishlarida ko'rib chiqiladi. Ulardan xar biri o'smirlik davri rivojlanishida o'smirlik davri xususiyatlari va jahamiyati bilan belgilanadi.

O'smirlik davri muammosi xususiyatlarini L.S.Vigotskiy o'smirlik davri xususiyatlarini aniqlash, baholash va rivojlanish inqirozi davrlari deb tushunadi. Bunda u, inqirozli davrlar zarurati rivojlanishi jarayoni mantiqi bilan shartlanganligi, shu bois o'smirlik davri salbiy simptonik obyektiv xarakterga ega ekanligi alohida ta'kidlanadi.

R.Denidikt: “O`smirlik davrining inqirozi kuchini kattalar va bolalar xulq atvor muammolari turli tuman ekanligidan nizolar shakllarining rivojlanmaganligidir” deb ta`kidlaydi.

O`smirlikdagi nizolar xulq atvorni o`rganishda bixivioristik yondashuv doirasida muhim ma`lumotlarga yig`iladigan, ularni yetarli deb bilmaydi. Chunki, quyidagi savollarga konstruktiv javob yo`q. “O`smirlikdagi nizolarga moyillikni nima qilish kerak?” davri deb ataydi.

Bundan tashqari psixoanalitik yo`nalishga o`smirlik davri psixologiyasi muomila ginezi muhim muammoni qo`yganligi uchun qarzdordir.

G.S.Sollievning fikricha psixik rivojlanish bilan belgilanuvchi bir qator bosqichlarni bola tomonidan bosib o`tishini bildiradi. Individ xulq atvor dinamikasi ikki tendensiya bilan aniqlanadi.

Yolg`izlik vaziyatlardan qochish va bezovtalanishni yuzaga keltiruvchi shaxslararo munosabatlardan voz kechish, shu munosabat bilan o`smirlikdagi nizoli xulq atvorning turli shakllarini shaxslararo munosabatlarga bo`lgan extiyojni bosqichma-bosqich rivojlanishdagi buzilishlar bilan bog`liq. Bu buzilishlarning asosiy sababini G.S.Solliev shaxslik sohasidagi buzilishlarga olib keluvchi ijtimoiy holatlarda ko`radi.

K.Livinning fikricha kattalar jamoasi o`smir uchun hayotiy fazoning notanish sohasi sifatida kognitiv tuzilmaga ega bo`lmagan soha sifatida namoyon bo`ladi.

O`smirlardagi nizoli xulq atvor nazariy konsepsiyalar pozitsiyasi tomonidan ochib beriladigan shaxslararo nizoning ijobiy salohiyatini keng qo`llash mumkinligini ta`kidlash mumkin.

O`smirlik davrining inqirozli kechishi shubxasiz inqirozli davrdagi rivojlanishning eng muhim mazmunini yangi tuzilmalarni yuzaga kelishidadir. Shunga muvofiq o`smirlik davridagi nizolar bilan konstruktiv ishlash bu davrda

yuzaga kelgan yangi tuzilmalarning hisobga olgan holda amalga oshirish lozim. Bunday yondashuv faqatgina o`smirlar o`rtasidagi shaxslararo nizolarni yengish metodlarini izlash va ishlab chiqishga olib kelmaydi, balki shaxslararo nizoni shaxslilik rivojlanishining jadallikda deb qarash imkonini beradi. O`smirlar o`rtasidagi xulq atvor nizoli shakllarni turli omillar tomonida keltirib chiqaradi. Ular o`rtasida guruhlar va birlashmalar bo`ladi. Ularda urushqoqlik, agressivlik, dadillik, mastaqillik isboti sifatida qaraladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda oilaviy tarbiya xususiyatlari o`smirlardagi nizolar darajasi va xarakteriga kuchli ta`sir ko`rsatadi.

O`smirlik davridagi nizoli xulq atvorning rivojlanishi va xususiyatlarini o`rganish imkoniyatlarini izlash o`smir xaqiqatdan ishtirok etayotgan munosabatlar mazmuni, xarakteri, tuzimasi, dinamikasini tahlil qilishga, murojaat etishga undaydi. Bunda bizga ikki xil sohani ajratish imkoni beriladi. 1-o`smirlikning o`z yosh guruhlaridagi aloqalari bo`lsa, 2-kattalar bilan munosabatlardir. 1-sohani o`rganish bizning tadqiqotlarimiz muammosi nuqtai nazaridan bu o`smirlar muhitidagi shaxslararo nizolar omillari, sharoitlari, dinamikasi va oqibatlarini o`rganishdir. 2-o`rganish o`smirlar guruhidagi shaxslararo nizoning yuzaga kelishida guruh guruhlari, xususiyatlari alohiga ishlatiladi. Guruhlarning rivojlanish darajasi ko`pincha o`smirlarga tabiatga ko`ra ta`lim muassasasiga xos bo`lgan nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarning jadal suratlardagi ta`siri bilan belgilanadi.

Guruh marakkab ko`p darajali va ko`p tarmoqli tuzilma ekanligini hisobga olsak, unda butunlay turlicha bo`lgan shaxslararo nizolar rivojlanishi mumkin.

O`smirlik davrida guruhlar ichidagi nizoli munosabatlar tahlili shaxslararo nizolarning quyidagi turlarini ajratadi.

Muhim mavjud bo`lgan mikroguruhlarning o`zaro ta`sirga yuzaga keluvchi nizolar.

Mikroguruhlar guruh hayotida hamisha muhim ro`l o`ynaydi. Ularning o`zaro munosabatlari guruhdagi umumiy muhitga birgalikdagi faoliyat maxsuldoligiga ta`sir ko`rsatadi. Tuzilish va talabalarning o`zaro moslashuvidan o`tgan ta`lim

muassasasi guruhi bir nechta mikroguruhlardan iborat bo`ladi. Guruhda turli mikroguruh vakillari o`rtasida shaxslararo nizolar yuzaga kelsa qoidaga ko`ra, nizolashayotgan tomonlar faol qo`llab quvvatlanadi. Bu holatda guruh ichida guruhlararo nizoning yuzaga kelishi ehtimoli katta.

Shaxslararo nizo guruhdagi yuqori manqeli nizolarning o`z maqsadlari va qadriyatlari bo`yicha mazkur guruhga qarshi turgan turli referent guruhga yo`nalishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Bunday vaziyatda o`smir ko`pincha talablar va normalar qarama qarshi tizimlarga tobe bo`lib qoladi. Bu esa, o`z novbatida guruh ichidagi shaxslararo nizo manbai bo`lib qolishi mumkin. Bunda ta`lim muassasasidan tashqari o`smirlar birlashmalarini guruhdagi ichki guruhiy guruhbozlikning yuzaga kelishiga olib keladi. O`smir ko`pincha talablar va normalar manbai bo`lib qoladi.

Normativ nizolar natijasida yuzaga keluvchi shaxslararo nizolar.

gari suriladigan normalar va qadriyatlarni qabul qilishni istamagan ozchilikka guruhiy bosim o`tkazishi fenomeni bilan bog`liq. O`smirlar guruhi uchun liderlar o`rtasidagi shaxslararo nizo tipik xarakterga egadir. Ba`zi holatlarda ular turg`un lider va ularning holatlarda, ular guruh qatorida turlicha ta`sir ko`rsatuvchi liderlar o`rtasida vujudga keladi. Va nihoyat shaxslararo nizolar turli yo`nalishdagi liderlar o`rtasida yuzaga kelishi mumkin. Shuni ta`kidlash joizki liderlar o`rtasidagi nizoli munosabatni qoidaga ko`ra kattalar tomonidan qoniqarsiz pedagogik Boshqaruv bilan bog`liq. Pedagoglarning vazifasi shundaki, ta`lim muassasasi psixologi bilan birgalikda xar xil lider uchun o`zining maxsus liderlik qilish zonasini topishdir.

Shaxslararo nizoning alohida shakli sifatida bir-biriga o`zaro va bir tomonlama simpatiyani namoyon qiluvchi o`smir yoshga mansub o`g`il va qiz bolalar o`rtasida ajratish mumkin.

O`smirlik davrida uyg`onadigan qarama-qarshi jins vakilga nisbatan qiziqish jinsiy xulq atvorning shakllariga olib keladi va ijtimoiy qo`llab quvvatlanadigan shakllari hali shakllanmagan bo`ladi. Bu esa, shunga olib keladiki o`smirlar derbal va noderbal agressiyagacha borib taqaladigan simpatiyani namoyon qilishning noradaksal shakllarini tanlaydilar. O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida so`nggi 20 yil davomida muhim o`zgarishlar ro`y berdi. Bu madaniy - marifiy mazmunga ega bo`lgan tub jihatlarning samarasi sifatida namoyon bo`lmoqda. Ushbu islohotlardan maqsad O`zbekiston Respublikasidan insonparvar demokratik huququy davlat jamiyatini barpo etishdan iboratdir.

Bugungi globallashuv jarayonida nizolar va ularning yo`nalishi dunyo miqyosida keng qamrovli xarakterga ega bo`lmoqda. Rivojlanish fan texnika taraqqiyoti, ekologik tabiiy va tarbiyaviy muammolar nizoli holatlarni tobora kuchaytirmoqda. Barcha nizolar ichida kasb-hunar ta`lim muassasalarida o`qituvchi va talaba o`rtasidagi nizolar eng murakkab va dolzarb muammodir. Uning kelib chiqishi va oqibatlari shaxs tarbiyasi va ma`daniyati bilan bog`liq bo`lib, bu borada pedagog - psixolog olimlar, tajribali o`qituvchilar, ota-onalar hamkorligida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Konfliktologiya sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalardan hisoblanadi. Konfliktologiya sohasining nazariy asoslari uning milly xususiyatlari ijtimoiy o`ziga xosliklari bilan aloqadorligi, shaxslararo nizo, nizolarning huquqiy jihatlarni mehnat jamoasida nizolar kasb-hunar ta`lim muassasalarida o`qituvchi va talaba o`rtasidagi nizolarni bartaraf qilish masalalari ko`pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Konfliktologiyaning o`z ichida yo`nalishlari ko`p. Kasb hunar ta`lim muassasalarida o`qituvchi va talaba o`rtasidagi nizoli kayfiyat va xususiyatlarni ochib berish, nizolarni o`rganish, jamiyatdagi inqirozlarni keltirib chiqaradi.

Jumladan, xorijiy olimlardan D.Bernerd, K.Bobulding, D.Burton, D.Jonson, R.Jonson. Rus olimlaridan Grishina N.V., Stepanov E.I., Shalenko V.N., Dobrenkova B.I., Kravchenko A.V., Sheynov V., Ansipov A.Ya., Kudryavsev V.N. O`zbek olimlaridan To`ychiyeva G.U. va boshqalar tomonidan psixologik lug`atda nizoga

quyidagicha ta'rif berilgan. "Nizo bu qiyin qilinadigan qarama-qarshilik bo'lib, kuchli emotsional xis-tuyg'ular bilan bog'liqdir". Nizolar shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo, guruh ichidagi turlarga bo'linadi.

Tadqiqotimiz muammosiga doir adabiyotlarni o'rganish, ularning mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda yaratilgan manbalarda pedagogik ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etish borasida keng ko'lamli harakatlar amalga oshirilgani seziladi.

Ta'lim soxasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat jarayoni bilan tanishish shuningdek, tadqiqot muammosiga doir manbalarni o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalar mazmunini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish borasida yetarli tajriba to'plangan bo'lsada faqatgina mazkur nazariya mohiyatini ilmiy – nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan fikrlar bildirilgan. Lekin, aynan kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish jarayoni zamon jarayoni zamon talabiga mos darajaga ko'tarish alohida tadqiqot muammosi sifatida to'laqonli o'rganilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida nizolarning turlari, ularning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari kabilar tadqiq etilgan.

Shaxslararo nizolar - bu o'qituvchi va o'quvchi orasidagi qarama-qarshi to'qnashuv vaziyatlardir. Xorij psixologiyasida shaxslararo nizolar turlicha talqin etiladi. Masalan, psixoanalitik yondashuvda shaxslararo nizo uning ichki vaziyati orqali talqin etiladi. Insonning oiladagi shaxslararo munosabatlarini o'rganish kaliti uning qachonlardir o'z ota-onasi bilan bo'lgan munosabatlardagi muammolar xisoblanadi.

B.Xollning ta'kidlashicha bolaning ota - ona bilan bo'lgan nizolarni uning farzandlarga bo'lgan ustanovkalarda o'z aksini topishi o'rniga 35-yoshli ayol o'qituvchi o'zining oquvchilariga bo'lgan munosabatidan tashvishlanib, murojaat qiladi . B.Xollning taxlil qilishicha uning atrofida gilar bilan muammolar vujudga kelishiga sabab, otasini xaddan ortiq yaxshi ko'rishi bo'ladi. Dastlab bu ayol uchun ota o'rnini o'g'il bosadi o'g'liga qattiq xissiy bo'g'lanish qoladi, so'ngra bu

muhabbat talabalarga o`radi. Bu talabalar o`g`lining tengdoshlari bolib, jismoniy va psixologik jihatdan otasiga o`xshash bo`ladi. Psixoanalitik yondashuv bo`yicha nizo avloddan avlodga o`radi.

M.Doychining situatsion nuqtayi nazaricha shaxslararo nizolar o`zaro ta`sir umumiy tizimni kontekstida qaraladi.

M.Doych shaxslararo munosabatlarni o`lchashning quyidagi turlarini taklif qiladi:

1 Hamkorlik raqobat. Bunday munosabatlar o`lchovning kooperativ siyosiy muxoliflar shaxsiy dushmanlar, yoki yaqin o`rtoqlar, yoki hamkasblar sifatida munosabatda bo`ladi.

3 Vazifaga yo`nalganlik ijtimoiy emotsional yo`nalganlik, yaqin do`stlar er - xotin ijtimoiy yo`nalganlik, biznes raqiblar vazifasiga yo`nalganlik bo`ladi.

4 Vaziyatlarning rasmiy va norasmiy bo`lmagan xarakteri. Doychning ta`kidlashicha norasmiy munosabatlarda xarakter vaqt va joyni topish, ishtirokchilarga bog`liq bo`ladi. Rasmiy boshqaradigan munosabatlarda ishtirokchilarning o`zaro ta`siri ijtimoiy norma va shakllarga bog`liq bo`ladi. Tashkilot ichidagi munosabatlar rasmiy hisoblanadi klublardagi munosabatlar norasmiy hisoblanadi. Tengdosh emaslariga qaraganda tengdoshlar orasidagi munosabatlar norasmiy hisoblanadi.

5 Kuch va ahamiyat. Bu norma parametr ichtirokchilarning munosabati chuqur, yoki ajratib ko`rsatilgan. Bu o`lchovga mos ravishda Doych ijtimoiy munosabatlarning 160 tipini ajratib ko`rsatgan.

Kasb hunar ta`lim muassasasi psixoligi talabalar bilan individual ishlab, ular orasidagi nizolarni bartaraf etish, bu bilan guruhda qulay psixologik iqlim yaratish hamda ta`lim samaradorligiga erishish mumkin .

Shunday qilib pedagogik muloqotlarda nizolarni keltirib chiqarish va aniqlash, ma`lumotlarni tahlil qilish va bu masala alohida emperik o`rganishga muhtoj ekanligi e`tirof etiladi.

Pedagogik muloqotda nizolarni bartaraf qilishda o`qituvchilarga hos hususiyatlarni o`rganish.

Tajribalarimiz Urganch tumanidagi 23-son umumiy oʻrta taʼlim muassasasi va Hiva tumanidagi Hiva pedagogika taʼlim muassasasida olib borildi. “Oʻqituvchi - oʻquvchi” boshlangʻich va oʻrta taʼlim muassasasi oʻqituvchilari orasida pedagogik nizolarning ochish usullari qiyosiy taxlil qilindi. Bizning fikrimizcha gestruktiv yechilgan muammolar “Oʻqituvchi - oʻquvchi” muloqot samarasini pasaytirib yuboradigan omil. Ehtimol peagogik nizoni yechish asosan oʻqituvchining psixologik hususiyatlariga bogʻliq, chunki aynan oʻqituvchi pedagogik muloqotning boshqaruvchisidir va tashkilotchisidir. Shu bilan birga bu ikki talab ishtirok etadigan ijodiy yondashuvdir. Oʻquvchining ijodiy yondashuvga oʻqituvchini ilhomlantirsa, oʻqituvchi ham oʻz faniga qiziqishi, oʻquvchini shu sohaga moyilligini uygʻotishi mumkin. Ammo, pedagogik muloqot bu faqat axborot almashish emas, balki toʻgʻri munosabat oʻranata olish hamdir. Shu sababdan mazkur tajribamizda “Oʻqituvchi - oʻquvchi” tizimida nizollarni yecha olish imkoniyatlarini oʻrgandik. Tajribalarimizda 80-ta pedagog ishtirok etdi. Ulardan 41tasi oʻrta taʼlim muassasasi oʻqituvchisi, 39tasi boshlangʻich sinf oʻqituvchilari. Tajribalarda 1. K. Tomsning nizoga moyilligini oʻrganuvchi metodika qoʻllanildi. 2. Rasmlar interpertatsiyasi metodikasi. 3. T.Liri metodikasi.

Nizoga munosabatni oʻrganish bilan birga shahsiy guruhlar, preativlik (ijodkorlik, muloqotchanlik, intellekt kabi shaxsiy sifatlar ham aniqlandi.)

	Nizolarni konstruktiv yechish		Nizolarni desktruktiv yechish	
	soni	foiz	soni	foiz
Boshlan-gʻich sinf oʻqituvchilarida	35	44%	4	4%
Oʻrta maktab oʻqituvchilarida	35	44%	6	8%
Jami	70	88%	10	12%

Tajribalarimizda boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida yuqori preativlik bilan nizoli vaziyatlarni konstruktiv yechish kabi hususiyatlar oʻzaro bogʻliq ekan, va

boshlang'ich sinf o'qituvchisi qancha ko'p raqobat usulini tanlasa shuncha kam konstruktiv yechishlar taklif qilingan.

Nizoni yechish usuli		
	Foizi	Soni
Hamkorlik	70%	27
Nizodan qochish	24%	10
Raqobat	6%	2
Kompromiss	0%	0
Yon bosish	0%	0

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari natijalari

Nizoni bartaraf qilish usullaridan foydalanganligi. O'rta ta'lim muassasasi o'qituvchilarida esa, qancha ko'p nizodan qochish usulini tanlasalar, shuncha kam konstruktiv yechimlar taklif qilingan, qancha ko'p raqobat usulini topsalar, shuncha ko'p konstruktiv yechimlar taklif qilingan. Ehtimol o'rta ta'lim muassasalarida o'smirlar bilan ishlaydigan pedagoglar qancha tez qochmasdan raqobat usulida foydalansalar nizoni yechish shuncha konstruktiv bo'lar edi.

O'rta ta'lim muassasasi o'qituvchilari natijalari

Nizoni yechish usuli		
	Foizi	Soni
Hamkorlik	10%	4
Nizodan qochish	6%	2
Raqobat	80%	32
Kompromiss	4%	3
Yon bosish	0%	0

Qancha ko'p o'qituvchilar muammoni yechishda hamkorlik usuliga murojaat qilsalar shuncha kam yon bosish uslubi kuzatilar ekan. Kreativlik yuqori bo'lgan o'qituvchilar nizolardan qochish usuliga murojaat qilmas ekanlar.

Usuli va nizo testi bo'yicha nizoni konstruktiv-destruktiv yechishda E.Z. Usmonov quyidagi xususiyatlar xos ekanligini isbotladi. Do'stonalik xususiyatlari yuqori bo'lgan o'qituvchilar kompromiss usuliga ko'p murojaat etar ekanlar. Alturizm sifati yuqori bo'lgani uchun o'z manfaatlaridan kechish holatlari ham uchraydi. Bu toifa o'qituvchilarda nizoni yechishda konstruktivlik xususiyati yuqoridir.

Laminantlik omili ham bir necha komponentlarni o'z ichiga oladi. T.Liri metodikasida xukmronlik va dominantlik o'zaro bog'liq shaxsiy sifatlar bo'lib, dominantlik va xukumronlik korreksiyasi mavjuddir. Bu tipdagi o'qituvchilarda nizoni yechishda konstruktivlik darajasi birmuncha pastroq.

Shunday qilib, biz empirik tajribalarimizda o'qituvchilarning nizolarini konstruktiv yechishga yondashdik va shaxsiy sifatlarini taxlil qildik.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosan, hamkorlik va nizodan qochish strategiyasini taklif etganlar; o'rta ta'lim muassasasi o'qituvchilari –raqobat usulini maqbul ko'rar ekanlar. O'rta ta'lim muassasasi o'qituvchilariga avtoritarlik xususiyati xos bo'lib, extimol bu o'qituvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqdir, o'smirlik murakkab davr xisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan holatlar, albatta, o'qituvchi shaxsiga, uni xulq-atvoriga, shaxsiy sifatlarini namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi.

Pedagogik muloqotda nizolar asosan noto'g'ri izox qilish bilan bog'liq xolda ro'y beradi, bu xolat qator omillarga bog'liq:

-shaxs haqidagi umumiy ta'surotning aloxida sifatlarini idrok qilishga ta'siri;

-inson haqidagi birinchi ta'surotni saqlab qolishga intilish;

-turli muddatda, turli yo'l bilan yechib keladigan ma'lumotlarni shaxsni idrok qilishga ta'siri;

-aloxida individual insonni ideal rasmiy talablarga javob berish nuqtai nazardan idrok qilishi;

-idrok qiluvchining o'zini shaxsiy sifatleri ham insonning o'ziga idrok qilishga ta'sir ko'rsatadi;

-stereotiplar orqali idrok qilish;

-o'zgalarni o'zi bilan solishtirgan holda idrok qilish.

Mazkur vaziyatlardan kelib chiqib, ta`lim muassasalarida pedagoglar uchun stresslarni yengib o`tish, kasbiy toliqishning oldini olish, turli ishdagi nizolarni konstruktiv yechishga qaratilgan treninglar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

So`ngi davrda psixologik konfliktologiyaga oid adabiyotlarga qiziqish ortib borayotgani asossiz bo`lmasa kerak.

Pedagogik muloqot to`siqlari:

Shaxsiy to`siqlar

Jismoniy

Fizik muxit to`siqlar

Fazodagi to`siqlar

Muloqotga kirishganlarning jismoniy holati bilan bog`liq to`siqlar.

Tafakkurdagi stereotiplar

Noxolistik

Noto`g`ri munosabat

Qiziqish va e`tiborni yo`qligi

Qo`rquv to`sig`i

Iztirob nafrat to`siqlari

Pedagogik nizolarning o`ziga xos xususiyatlari:

O`qituvchining nizo uchun yuqori ma`suliyati

Nizo ishtirokchilarini turli ijtimoiy mavqei

Nizo ishtirokchilarining tajribasi, yoshi sababli nizo yechich uchun turli ma`suliyati

Nizoli vaziyatda ishtirokchilarga turli nazar bilan qarash

Har bir nizoning guvohlarini ko`rish

O`qituvchining kasbiy ma`suliyatini yuksaltirish

O`qituvchiga nizoni yechishda xatosi, yangi xatoni keltirib chiharadi

Pedagogik muloqotda nizolarni yechishdan ko`ra uning oldini olish ma`qul

O`qituvchi va talaba shaxsiy sifatlarini nizoga tasiri

Tavsiyalar:

Nizoli vaziyatlar pedagogik muloqot uchun tabiiy jarayon

O`qituvchi ishiga munosabat va kayfiyat hamkorlik muhitini yaratadi

Asosan yaxshi o`zlashtiruvchi talaba bilan nizo yuzaga kelishi uchun o`qituvchi bunday talabalarga oldindan e`tibor qaratishi lozim

Salbiy xulq atvor uchun fan o`zlashtirishda baholarini pasaytirish noto`g`ri

O`qituvchi nizolarni samarali yechish uchun maxsus treninglarda ishtirok etishi lozim

Jazolar nizolarni yangiligini keltirib chiqarishi kerak emas

4. Pedagogik muloqotdagi nizolarni bartraf qilish usullarini psixologik treninglarda shakllantirish.

Malakali pedagog kadrlarni tayyorlash yo`llaridan biri talabalarda shaxslarning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi psixologik ko`nikmalarni shakllantirishdir.

Pedagogik muloqotdagi muammolar orasida o`qituvchi va talaba o`rtasidagi nizo eng murakkab masalalardandir.

Nizoli vaziyatlarni keng tarqalganligi ularni jamiyatdagi xavfi va oldini olish qiyinligi, bo`lgusi o`qituvchilarda maxsus dastur bo`yicha pedagogik muloqot ko`nikmalarini shakllantirish masalasi turibdi. Bu dastur shaxslararo munosabatni muvozanatlashtirish, muloqot qatnashchilari malakasini oshirish, kommunikativ to`siqlarni noto`g`ri ustanovka va streaitiplarini bartaraf qilishga imkon beradi.

Tadqiqotning predmetini aniqlashga quyidagi fikrlardan kelib chiqadi. Pedagogik muloqotda kuzatiladigan ko`pgina nizolar bir-birini noto`g`ri idrok qilishdan ijtimoiy persepsiya muxim o`rin tutadi.

Perseptiv treninglar asosan maxsus guruhlararo olib boriladigan sezgirlik treninglari, senzitiv treninglar kiradi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad shaxslararo muloqot jarayonida shaxsiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradiganlarda o`ziga ishonch, sezgirlik va insoniy munosabatlar sirlarini o`rgatish hamda yaxlit psixofiziologik ta`ssavurlarni yanada oydinlashtirishga yordam berishdir. Oxirgi paytlarda ushbu va boshqa maqsadlarda ham videotrening usuli paydo buldiki, bu fan – texnika taraqqiyotining insoniy munosabatlar soxasida ham kirib kelganligidan dalolat beradi.

Video trening ko`proq shaxsiy xulqni koreksiya qilish, tuzatish maqsadlarga xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologiyada barcha trening metodlari bilan quyidagi umumiy sifat, yoki xususiyatlar farqlanadi;

Eng muxim xususiyat bu faollikdir, ya'ni trening guruhi a'zolari mashg'ulotlarning qaysi turi bo'lmasin, avval faol shaxsiy mavqaida bo'lishlari va uni mashg'ulot oxirigacha saqlashlari shart, bu holat umuman ushbu uslubning faolligini bildiradi. Trening xususida gap kelganda xar doim konkret ijtimoiy gurux nazarda tutiladi, ya'ni albatta konkret kamroq real guruhi bo'lishi ham, treningda muxim jixatdir.

Guruhning xar biri aloxida shaxs psixikasi va nisbiy holatlari ta'sirning ro'y bershi ham, uning xar bir turga mos bo'lgan xususiyatlaridir.

Maqsadning aniq va ravshan bo'lishi, tanlangan mavzu, yoki muxokama baxs yuritiladigan vaziyat, albatta, maxalliy shart sharoitlarga mos bo'lishi, kishilarning talab extiyojlari va malakalari doirasidan chiqib ketmasligi kerak. Shunday qilib O'zbekiston sharoitida o'tkaziladigan trening uslublarini qo'llashdan maqsad, avval undan ko'zlanayotgan oxirgi natija boshlovchi, yoki murabbiyga aniq bo'lishi va guruhga odamlarni tanlashda albatta ularni muloqot strategiyasi va texnikasi, gaplashish «tilning» mashqini inobatga olish kerak. Bundan tashqari guruhi a'zolari mashg'ulot o'tkazilish davrida muayyan ma'noda o'zgarimas bo'lishi, mashg'ulot o'tkazilish joyi ham imkon boricha almashtirilmasligi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki muloqotning maqsadi va uning qay darajada amalga oshirilishiga ko'ra samaradorligi xaqida fikr bildirish mumkin. Ya'ni muloqot extiyojlaridan kelib chiqib, uning qondirilishi, muammo yechimi bilan bog'liq vaziyatlarni bajarishga asoslanib, muloqotning samarasi, yoki samarasizligi to'g'risida xulosa chiharsa bo'ladi. Shaxslararo munosabat muloqotga kirishuvchilarning o'zaro bir-birlarini tushunishga olib kelsa, bunday o'zaro munosabatlar samarali va foydali hisoblanadi.

Muomilaga kirishuvchi tomonlarning o'zaro bir-birlarini tushunishga olib kelsa, bunday o'zaro munosabatlar samarali va foydali hisoblanadi, o'zaro bir-birlari bilan axborot olish, bir-birlarini tushunishga olib keluvchi, yoki o'z novbatida shaxslarning o'zaro bir-birlarining mavqey bo'yicha bilishni ta'minlaydi.

Muloqotning psixologik tizimida shu narsa ma'lumki, uni uch asosiy qismi, ya'ni muomila, subyektlarning o'zaro bir-birlari bilan axborot, hissiy kechinmalar va fikr almashinuvini ta'minlovchi kommunikativ o'zaro bir-birlarining xulq atvoriga ta'sirini belgilovchi interaktiv va bir-birlarini to'g'riroq, aniqroq idrok qilish va baxolashlarini ta'minlovchi perseptiv tomon mavjud.

Ushbu tizimning har bir tomoni muammoning zarur va muhim tarkiblari hisoblanadi. Uning 3 bo'lagi shaxslararo ta'sir o'tkazish uchun juda muhimdir. Chunki, muomalaga kirishuvchi shaxslarga ta'sir o'tkazish uchun juda muhimdir. Hissiy kechirmalarini idrok qilgan holda fikran uning mavqeidan ko'ra o'zini, uning o'rnida his qilib ozida hukm surayotgan his tuyg'ular doirasida, uning holatiga kirishga intilish, qolaversa bu jarayonda individual va ishtimoiy ongda mavjud bo'lgan mutloq stratip ongda o'rnashib qolgan tasavvurlardan fursatda kechadiki, shaxs ba'zan o'zidagi ana shunday qiyoslashni ongsiz ravishda hayotiy tajriba orqali o'rganishida qolgan shablonlar asosida amalga oshiradi.

Shuning uchun ayrim xollarda muloqot samarasiz, yoki xato kechishi mumkin. Ana shundan xatoliklarga olib keluvchi jarayon ijtimoiy psixologiyada kavzal atributsiya deb atalib, uning mohiyatini shaxs ko'pincha o'z xissiy kechinmalari va tasavvurlarini o'rganib, qolgan qoliplardan noto'g'ri foydalanish natijasida tashkil qiladi. Masalan, tashqi qiyofasi ko'rimsiz talabaning imtixon savollariga javob berayotganligini oshirish maqsadida uning ijtimoiy psixologik omillarini xisobga olib, shu asosda xar bir shaxsning ijtimoiy bilimdonligini yuksaltirish amaliy ahamiyatga ega.

Bu sifat muloqot savodsizligiga zid bo'lib, oxirgi xislat quyidagi omillarga bog'liq:

1.O'zgalarda mavqaida tura olmaslik, ularni xissiy kechinmalari, tuyg'ulari va munosabatlariga befarqlik.

2.O'z xis tuyg'ulari va munosabatlarini boshqara olmasligi, o'z-o'zining ma'suliyatining yo'qligi, o'z-o'zini taxlil qilish.

3.Suxbatda xar bir inson uchun bir qarashda tabiiy xisoblangan nutq qobiliyatining yo'qligi, ya'ni fikr ma'nosida gapirish qanchalik buyuk fazilat va mas'uliyatli faoliyat bo'lsa, suxbatdoshni tenglash xam shaxsga qator talab qiladi.

4.Eshitish qobiliyatining kuchsizligi, ya'ni birovga murojaat ma'nosida gapirish, qanchalik buyuk fazilat bo'lsa, o'zgalarning suxbatdoshlarini tinglash xam shaxsdan qator sifatlarini talab qiladi, tinglay olish o'quvi ham o'ziga og'dirishi muhim omilidir.

Muomala jarayonining samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omillar ichida shaxsning muloqot maromini egallash ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi.

Shuning uchun ham to'g'ri yo'lga qo'yilgan samarali muloqot va uni ta'minlovchi yil vositalaridan ikkita asosiy kamchilikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xar bir shaxs tafakkurning muqobil bo'lishi, mumkinligini anglashi, ya'ni suxbatdosh, avval boshdan o'zgalarga ham o'zining fikriga qarama-qarshi fikr bo'lishi mumkinligini tushunishi va bu narsa bilan xisoblashish zarurligi, o'z fikrlari va xarakatlarining motivlari ularning asl sabablarini aniqlash imkoniyatini, ya'ni xar bir shaxsda o'z shaxsiy tajribasi, hayotga sub'yektiv munosabatlar oqibatida "Ego" - ehtiyojlar majmui shaqllanib boradi. U boshqalardagi ayni shunday ehtiyojlarga tubdan qarama-qarshi, yoki qisman ziddiyatlar bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi ikkita holatning mavjudligini aniqlash ijtimoiy vaziyatlarda sodir bo'lishi ehtimoli mavjud holatlar va atributsiyalarning oldini olish xayotiy, amaliy muomala qarashlarning aynan bir xilligini emas, balki ularning o'zaro solishtirish imkonini beradi.

Muomala psixologiyasi umumiy psixologiya fanining kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z shaxslararo munosabatlarining eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriyalari keng ma'noda tushunilganda

hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir munosabatlarini aks ettirib, ijtimoiy prosessual jabxalarini ifodalaydi. Muomalaning eng muhim tarkibi muloqot sanalib, shunda muhim rol o'ynaydi.

Muomala quyidagi tarkiblardan tashkil topgan:

- 1.Kommunikativ(bir tomonlama axborot uzatish)*
- 2.Interaktiv(ikki tomonlama o'zaro ta'sir)*
- 3.Perseptiv(o'zaro bir-birini idrok qilish)*

Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabxa sifatida tavsiyalashi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishish jarayonida muomalani muhim vositalaridan biri xisoblanadi va tilga olinadi.

Tayanch iboralar:

Nizoli vaziyat, nizo turlari, nizo sabablari va talablari, nizoli vaziyatlarning tabiiyligi, nizo qatnashchilarining kommunikativ yo'l tutishi, nizolarning oldini olish, muvofaqiyatli muomalaga erishish, shaxsiy xususiyatlar, o'z ruhiy holatini boshqarishi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Nizo deganda nimani tushunasiz?
2. Nizolarni o'rganishning keltirib chiqaruvchi omillardan misol keltiring.
3. Pedagogik muloqotda nizolarni keltirib chiqarish va bartaraf qilish usullariga misollar keltiring.
4. Pedagogik muloqotda kelib chiqadigan muammolarni tajribada o'rganish yollarini ko'rsating.
5. Pedagogik muloqotda nizolarni bartaraf qilishni o'qituvchilarga hos hususiyatlarni ochib bering.
6. Pedagogik muloqotdagi nizolarni bartaraf qilish usullarini treninglarda qanday shakllantirish mumkin?

Testlar

1. Ta`lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatini namoyon qiluvchi, u yoki bu xatti – harakatini rag'batlantiruvchi, yoki ta`qiqlovchi usuli nima deb ataladi?

- A) ishontirish.
- B) talab.
- C) istiqbol.
- D) jamoatchilik fikri.

2. Talaba – talabalar xatti – harakatlarini, ular oldiga maroqli maqsadlar qo`yib, intilish, qiziqish, muddaolarni ta`minlaydigan usul nima deb aytiladi ?

- A) talab.
- B) «jismoniy harakatlar».
- C) istiqbol.
- D) rag'batlantirish va jazolash.

3. Talaba – tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib, tarbiyaviy vazifalarni aniq bajarishga yo`naltirilgan usul bu ... dir .

- A) talab.
- B) istiqbol.
- C) demokratik.
- D) jamoatchilik fikri.

4. Talabalar hulq – atvoriga tuzatishlar kiritadigan, huquq burchlarini kengaytirib, axloqiy ta`sir ko`rsatadigan, noma`qbul xatti – harakatlardan to`xtatadigan usul bu

- A) istiqbol.
- B) talab.
- C) avtoritar.
- D) rag'batlantirish va jazolash usuli.

5. Pedagogik ta`sir ko`rsatishda talab metodidan fydalanilganda o`qituvchi

– tarbiyachi nechta qoidaga rioya qilishi kerak ?

- A) uchta.
- B) beshta.
- C) oltita.
- D) to`rtta.

6. Pedagogik tajribada keng qo`llaniladigan talab usullari to`liq keltirilgan

javobni belgilang .

- A) talab – maslahat, talab – nasihat.
- B) talab – ta`ma, talab – maslahat, talab – qoralovchi.
- C) talab – maslahat, talab – ta`ma, talab – qoralovchi, sharli – talab, o`yin shaklidagi talab.
- D) talab - imtihon, talab - maslahat.

7. O`qituvchi darsga tayyorgarlik ko`rish jarayonida ta`limning qanday

maqsadlarini amalga oshirishni nazarda tutishi kerak ?

- A) ta`limiy, rivojlantiruvchi.
- B) tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.
- C) ta`limiy.
- D) ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

8. O`qituvchi darsga tayyorgarlik ko`rish jarayonida qanday hujjatlarga

asoslanadi?

- A) DTS asosida ishlab chiqilgan dasturga.
- B) darslikka.
- C) o`quv qo`llanmasiga.
- D) darslik va o`quv qo`llanmasiga.

9. O`qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida ta`lim mazmunini belgilovchi

qanday hujjatlarga tayanadi ?

- A) o`quv rejasiga.
- B) o`quv dasturiga.
- C) DTS asosidagi o`quv dasturi, darslik va o`quv qo`llanmalariga.

D) o`quv qo`llanmasiga.

10. O`quv – tarbiya jarayonida texnika imkoniyatlari, va insonning texnikaviy tafakkuri asosida darsning standart va optimal loyihasini tuzib, uning natijasini oldindan kafolatlaydigan dars qanday dars deb ataladi ?

A) aralash tipdagi dars.

B) yangi bilimlar berish darsi.

C) yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan dars.

D) lektsiya – munozara darsi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – Toshkent: “O`zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : “O`zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o`rganish bo`yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

V-MODUL. O`QUV-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA PEDAGOGIK MAHORAT.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: *o`quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik mahoratga oid nazariy bilim berish, fanga oid dastlabki ko`nikmalarni shakllantirish.*


MODULNING O`QUV MAQSADLARI:

- **ta`limiy maqsad:** *talabalarga pedagogning darsga tayyorlanishdagi mahorati, o`quv - tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishda tarbiyachi mahorati, o`quv – tarbiya ishlarini boshqarishda o`qituvchining notiqlik mahorati, tarbiyachining tarbiyaviy ish jarayonida o`z ruhiy holatini tartibga solish mahoratiga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o`zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;*

- **tarbiyaviy maqsad:** *talabalarda fanning o`ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, pedagogik mahoratni shakllantirish;*

- **rivojlantiruvchi maqsad:** *talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.*

5.1. Pedagogning darsga tayyorlanishidagi mahorati.



*Kishida bo`lmasa agar ist`edod,
Ming hiyla hil ta`lim kor qilmas aslo.
Gumon qilma, buzoh xudo bo`lmaydi*

1. Darsga tayyorlanish haqida tushuncha. Jamiyatning kundan kunga o`zgarishlari har bir kishidan turli sohalarda tashabbuskorlikni, faoliyatni, mustaqil fikrlash, yangi nostandart darslar va masalalarni talab etadi.

Dars - bu pedagogik faoliyatning asosiy negizi hisoblanadi

Darsda o`qituvchi talabaga ma`lum bilimni yetkazadi, beradi va o`qitadi. Ularga bilim berishda, u tobora faoliyatini kengaytirib boradi, bilimlarini oshiradi. Doimiy qo`llaniladigan metodik ishlarda ham kamchiliklar bor. Dars o`tish jarayonlarida hali sxolastik elementlar mavjud. O`qituvchi iqtisodiy, sotsial - siyosiy hayotdagi o`zgarishlarni analiz qilmaydi. Talabalar bilan balki ulardan eski dars, ya`ni takrorlangan mavzularni, qiziqirmaydigan mavzularni so`raydi. Ularni mustaqil fikrlashga va turli xil diskusiyalar, savol - javoblar qilinishi kerak va talabani ma`lum tekstni o`z so`zi bilan gapirishga o`rgatish kerak. Bunday eski metodlar bilan dars berish o`zgartirilishi lozim. Har bir yangi g`oya, har bir konstruktiv ahvol ta`lim muassasasidagi formalizmni tugatishi kerak. Pedagogik hamkorlik mualliflari – o`qituvchi - novatorlar V.F. Shatalov, E.N Il'in, S.N.Lisenkova, I.P.Volkov va boshqalar hamkorlik metodiga tayanib ishlash yengil deganlar. O`qituvchi xotirjam, talabalar ham xotirjam, ishonarli xursandchilik bilan shug`ullanadilar ularga ham oson, o`qituvchi ham xursand. Endi biz o`qituvchi novatorlarning pedagogik hamkorlik nazariyasi va amaliyotini ko`rishimiz mumkin. «Talabalar bilan darsdagi muomala» o`qituvchi oldida asosiy vazifa turadi. Talabalarni o`quv mehnat faoliyatiga qaratishda ularga yutuq, omad, xursandchilik tuyg`ularini tug`dirish, yoki shakllantirish oldinga harakatlantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Pedagogik hamkorlik oldingi pedagogikadan shu bilan farq qiladiki, u talabalarni o`qishga jalb qila olishga tayanch bo`ladi va o`qituvchilarning bolalar bilan mehnat faoliyati bilan oldingi pedagogikadan farq qiladi.

2. Darsga tayyorlanishning nazariy – metodik asoslari. Pedagogik hamkorlikning yana bir asosiy printsipi talabalardan darsdagi qo`rquvni olish, uni

bamaylixotir, erkin, o`z kuchiga ishonishdan iboratdir. V.Suxomlinskiyning so`zlari bilan aytganda qayerda yutuq bo`lsa, o`sha yerda qiziqish bo`ladi. Yetuk o`qituvchi - eksperimentchilarning yozishicha ularning darsdagi faoliyatlari shundan iboratki, ular talabalar bilan birgalashib faoliyat ko`rsatadilar, ya`ni hamkorlik qiladilar, talabalar oldiga qiyin masalalar qo`yadilar va uni tushuntirib, ularning o`zlariga ishonch tuyg`usini singdirib, agar mavzu yaxshi o`rganilganda maqsadga erishish mumkin deyidilar. Bunda talabalar ma`lum maqsad uchun birlashib qolmasdan, balki shu qiyinchilikni yengishga ishonch hosil qiladilar. Bunda har qanday novator o`qituvchilar o`zlarining tayanch signallarini turlicha belgilaydilar. Masalan, V.F.Shatalov turli xil sxemalarni, D.E.Ogorodov turli xil algoritmlarni oladi. Bu talabalarning xotirasini mustahkamlaydi va rivojlantiradi, mantiq tasavvurining kengayishiga olib keladi. Yana bir usul shundan iboratki, talabalarning o`zi, masala mashqlarining qiyinlarini tanlaydilar. V.F.Shatalov talabalarga ko`p misollar beradi, shuning bilan birga, ular o`zlari tanlaydilar va yechadilar. S.Lisenkova bolalarga esa, qanday so`zlarni yozishni so`raydi va doskaga yozadi. Odat bo`lib qolgan, bu eski mavzuni takrorlab, yangisini tushuntirgan, «u faqat kecha va bugun bilan ishlaydi», ilg`or o`qituvchilar esa, zamonaviy dars S.Lisenkova misolida, ya`ni ma`lum mavzuni o`rganish uchun vaqt beradi, uni keyin ham uyda o`rganish mumkin. Bunda mavzular bir nechta birlashtirilib, bloklarni tashkil qiladi, o`rganilayotgan mavzuning hajmi o`zgaradi, shu sababdan talabaga qiyin bo`lmaydi. Novator o`qituvchilar 3-4 paragrafni 1 darsda o`tadilar. Talabalarning faoliyati o`rganilayotgan predmet shakllari bo`ladi. Matematika darsida V.F. Shatalov teoremani ispotlab turib, biror bir ortiqcha so`z ishlatmaydi. Matematika o`qituvchisining so`zi to`g`ri va aniq bo`lishi kerak. I.B.Volkovning adabiyot darsida talabalar o`rtasida shovqin bo`ladi. Ular turli xil, o`zlarini qiziqtirgan va tushunmagan narsalarini so`raydilar. Tajribakor o`qituvchilar darsda talabalarni individual va kollektiv o`z-o`zini analiz qilishni o`rgatadilar. Unda talabalar darsda o`rtoqlarining ishini, yoki javobini tekshirib baholaydilar. Ular bir-birlariga kamchiliklarini, yoki yaxshi tomonlarini xat bilan yozadilar. Ilg`or o`qituvchilar dars jarayonida turli usullarni qo`llaydilar, bunda har bir talaba o`zini shaxs deb

hisoblaydi va o`qituvchining shaxsan unga e`tibor qaratilganligini yozadi. Bu shundan iboratki, bunda har bir talaba, har bir darsda o`zining mehnati uchun baho oladi.

3. Darsda talabalar ishini tashkil qilish. Pedagogika shuni ta`kidlaydiki, dars bu markaz, bunda uning atrofida aylanib, o`qituvchining fikrlari va harakatlari doimo qaytarilib turiladi. Endi, hozirgi zamon ta`lim muassasalari oldida talabalarni o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, birgalashib, pedagog va talabalarning faoliyat ko`rsatilishi talab etiladi. O`qituchi o`zining hayoti davomida 25 ming (soat) dars beradi. Qaysi pedagog o`z darsining qiziqarli va mazmunli o`tishini hohlamaydi? Lekin, staj qancha bo`lmasin maxsus o`qituvchi bo`lish qiyin. Bunda pedagog, avvalambor, pedagogik mahoratini yaxshi bilishi kerak. Ta`lim muassasasida darsni yaxshi o`tishi uchun talabadan birinchi novbatda g`oyaviy, amaliy va kasbiy tayyorgarlik talab etiladi. Darsga tayyorlanish uchun o`qituvchi doimo shu fanning pedagogik, psixologik va metodik xarakterda bo`lgan darsliklar qo`llanmalarni doimo o`qib borishi kerak, u yana metodik jurnallar, gazetalar o`qishi kerak. Unga yana lektsiya va doklad, eshitganlarini konspektlashtirishi kerak. Yana, o`qituvchi darsida oid diafil'mlar, diapozitivlar bo`lishi kerak. Misol qilib aytadigan bo`lsak, N.L.Gapulaning shaxsiy bibliotekasida minglab tom asarlar, juda ko`p jurnal broshyuralar, spravochniklari bor. O`nlab qalin daftarlari bor. Jurnal va gazetalar bor. Qog'ozlarda she`rlar, gazeta bor. O`qituvchi har kungi gazeta va jurnallarni qo`lida qalam bilan o`qiydi. Dars uchun kerakli bo`lgan mavzu va boshqa faktlardan foydalanadi. Bundan tashqari, N.L.Gapula stoli ustida metodik materiallar tayyorlangan. U terminalogik diktant tuzgan bir qancha to`plamlar ham mavjud. O`qituvchi darsga tayyorlanayotganda turli va xilma xil bo`lgan materiallardan foydalanishi kerak. Biz o`zimizning farzandlarimizni falsafiy tafakkur qilishga o`rgatishimiz lozim, o`ylovchi, tafakkur qiluvchi, hayol qilish darslari yo`q. Uning asosiy g`oyasi darsda bir necha adabiyot, musiqa bilan bog`lab olib borishdan iborat. Bunda o`qituvchi o`zining butun kuchi bilan talabalarga mehr bilan fizika darsini musiqali asardan o`tadi. Darsning yuzaga kelishi – bu fikrning yuzaga kelishidir. Bu bir necha elementdan tashkil topadi. Ulardan eng asosiysi - davlat tomonidan

belgilangan dasturdir. Mohir tajribakor o`qituvchilar o`quv dasturini aniq yo`nalishlarini tushunadilar va detallarigacha biladilar. Yaxshi o`qituvchi doimo ma`lum mavzuni qanday o`tsam ekan, degan savol o`ylantiradi. Hozirgi asosiy vazifa ham, talabalarni hozirgi ta`lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak degan savol turibdi.

4. Darsda teskari aloqani maqsadga muvofiq amalga oshirishni rejalashtirish. Oldingi darslardan hozirgi zamon darsining farqi hozirgi davrdagi iqtisodiy, siyosiy vaziyat, ilmiy ochilishlar, madaniyat o`z ta`sirini o`tkazadi. Sirealistik mehnat qahramoni M.Andreevskiy jamiyatshunolik darsida yangi g`oyani yaratdi. Buning mamlakat energetikasi mavzusini o`rganish mobaynida o`ninchi guruh talabalarining o`zi kartinalar, sxemalar, tablitsalar tuzadilar va yozadilar. Yana darsda suhbat o`tkaziladi. Ular sakkizinchi sinfda geografiya darsining mavzusini o`rganishida, ularning o`zlari elektrofikatsiya to`g`risida, uning yutuqlari haqida ma`lumotlarga ega bo`lganlar. O`qituvchilarning usullarini qo`llash to`g`risida ko`p gapirish mumkin. Shuni aytish kerakki, o`qituvchi o`rganmoqchi bo`lgan mavzuning dasturini ishlab chiqadi va darsning didaktik masalalarini hamda didaktik maqsadini aniqlaydi. Mohir pedagoglar oldindan darsda, yechish lozim bo`lgan konkret pedagogik masalalarni o`ylaydi. Har bir dars oldida maqsad shundan iboratki, birinchisi: tarbiyaviy, ta`limiy va rivojlantirish maqsadlarini qo`yadi. Tarbiyaviy masalalar shundan iboratki, ularning dunyoqarashi shakllanadi, iqtisodiy-siyosiy voqealar bilan tanishtiriladi, ularda vatanparvarlik, baynalminalchilik g`oyalar shakllantirilishi kerak. Ilmiy bilimlarni qurollantiradi. Aniqlovchi vazifa shundan iboratki, unda talabalar sxema konspekti, o`rganilgan rejani aniq o`ziga kerakli bo`lgan narsani ajrata oladi. Darsning muallifi esa, o`qituvchi hisoblanadi. Darsni qanday o`tishni oldindan belgilaydi.

O`ylagan narsalari quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. *Davlat dasturida belgilangan mavzuni tayyorlaydi.*
2. *Uni hozirgi zamon bilan bog`lash.*
3. *Oldingi materialdan kelib chiqib, yangisini bog`laydi.*

5. Darsga tayyorlanishning istiqbolli va kunlik rejalari. Darsda o`qituvchi bilan talabaning o`zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. O`qituvchi darsda istenosiz barcha talabalarning faoliyatlarini yo`llaydi va kontrol qiladi, shuningdek talabalarning o`zlari orasidagi o`zaro aloqa va o`zaro kontrolni qo`llab quvvatlaydi. O`qituvchining darsdagi ishi barcha talabalarning darsning o`zidayoq o`rganilayotgan bilim asoslarini hosil qilishlari uchun zamin yaratadi. Eng yaxshi o`qituvchilarning tajribalarini umumlashtirish - pedagogika fanining yutuqlaridir.

Darsning mazmuni, tizimi va o`qitish metodlarining tanlanishi ko`p jihatdan talabalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Talabalar qancha yosh bo`lsa, ular shunchalik kam hajmdagi materiallarni o`zlashtirishlari mumkin bo`lib, darsning tuzilishi va yangi metodlarining tanlanishi shunchalik xilma-xil bo`ladi. Kichik yoshdagi talabalarning diqqati yetarlicha barqaror emas, idroki yetarlicha maqsadga yo`llangan emas, tafakkurlari ma`lum darajada konkret irodaviy ko`rinishlari barqaror emas. Shuning uchun, o`qituvchilarni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etish, ko`rgazmalikdan keng foydalanish, o`yin elementlarini kiritish, yangi materialni o`rganish va o`tilganlarni mustahkamlash uchun optimal me`yorni aniqlash, bularning barchasi mazmuni va tuzilishiga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Katta yoshli talabalar bilan olib boriladigan darslarga ancha bir tipli, ular lektsiya, kontrol so`rash, laboratoriya ishlari ko`rinishida bo`lishi mumkin.

Darsga qo`yiladigan didaktik talablarni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Darsning asosiy didaktik vazifalari va asosiy elementlarining aniqligi va muqarrarligi.

2. Ta`limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligi.

3. O`qitishning butun dars va uni har bir qismi vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, talabalarning bilish aktivligi va mustaqil faoliyatlarini ta`minlaydigan eng ratsional metodlarni tanlash. Darsda xilma-xil o`qitish, metodlardan foydalanish, talabalarga har tomonlama ta`sir ko`rsatish, ularda darsga qiziqishni oshirish, ularning aktivligi va mustaqilligini rag`barlantirish imkonini beradi.

4. Mashg`ulotlarning turli formalari: umum guruh, guruh bilan va individual faoliyatning aktivligini o`qituvchining rahbarlik roli bilan birga qo`shib olib borish.

5. Talabalar bilish faoliyatining aktivligini o`qituvchining rahbarlik roli bilan qo`shib olib borish.

6. Darsning oldingi va keyingi daralar bilan bog`lanishi.

7. Talabalarning yosh xususiyatini hisobga olish.

8. Darsda talabalarni o`qitish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratish.

6. Rejalashtirishda darsning tuzilishi va mazmunini ishlab chiqish.

Darsning mazmuni, tizimi va o`qitish metodlarining tanlanishi ko`p jihatdan talabalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Talabalar qancha yosh bo`lsa, ular shunchalik kam hajmdagi materiallarni o`zlashtirishlari mumkin bo`lib, darsning tuzilishi va yangi metodlarining tanlanishi shunchalik xilma-xil bo`ladi. Kichik yoshdagi talabalarning diqqati yetarlicha barqaror emas, idroki yetarlicha maqsadga yo`llangan emas, tafakkurlari ma`lum darajada konkret, irodaviy ko`rinishlari barqaror emas. Shuning uchun, talabalarni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etish, ko`rgazmalilikdan keng foydalanish, o`yin elementlarini kiritish, yangi materialni o`rganish va o`tilganlarni mustahkamlash uchun optimal me`yorni aniqlash, bularning barchasi mazmun va tuzilishiga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Katta yoshli talabalar bilan olib boriladigan darslargina ancha bir tipli, ular lektsiya, control, so`rash, laboratoriya ishlari ko`rinishida bo`lishi mumkin.

Mazkur talab darsda faqat gigienik talablarning yaratilishini emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini o'tkazish uchun qulay psixologik muhitning yaratilishini ham nazarda tutadi. Bu ko'p jihatdan sinf kollektivining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Guruh ayrim talabalarning o'z kuchlariga ishonchlarini oshirish, yoki pasaytirishi mumkin. Agar, guruh u, yoki bu talabning fikrlariga, harakatlariga doimo tanqidli yondoshsa o'qituvchi esa, uncha e'tiborsiz harasa, bu talaba oqibatda o'z nuqsonlariga qat'iy ishonch hosil qiladi va darsda doimo passiv bo'ladi. Shu bilan birga guruh ayrim talabalarning ish sifatini oshirishga undab, ularning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo, guruh kollektiviga ayrim talabalarga nisbatan noto'g'ri yo'nalish qaror topgan bo'lsa, o'quv jarayonini o'qituvchi yetarlicha puxta o'ylamay tashkil etsa, guruh tomondan ta'sir bo'lmaydi. O'qituvchining vazifalaridan biri, guruh bilan jarayonini boshqarish hamda darsda ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishga yordam beradigan qulay muhitni yaratishdir. Barcha didaktik talablar to'liq darajada yaxshi natijalar beradi.

Didaktik vazifa va strukturaga ko'ra darslar quyidagi tiplarga bo'linadi:

- 1. Kombinatsion darslar;*
- 2. Yangi materialni o'rganish darslari;*
- 3. Bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash darslari;*
- 4. Mashqlar va amaliy ishlar darsi;*
- 5. Umumlashtiruvchi takrorlash darslari;*
- 6. Laboratoriya darslari.*
- 7. Talabalar bilimni nazorat qilish, tekshirish va baholash darslari.*

7.Dars natijasini kafolatlashning metodik xususiyatlari.

Darsning tipi va strukturasi aniqlashda, odatda quyidagi yetakchi vazifalarga asoslaniladi: yangi materialni o'rganish; bilimlari mustahkamlash; o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish; bilish vazifalari va amaliy vazifalarni hal qilishda bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish; bilimlarni mustahkamlash bilan birlashtirilgan yangi materialni o'rganish.

Maxsus pedagogik tadqiqotlar, o'qituvchilarning ijodiy tajribalari darslar tuzilishdagi qat'iy stereotik o'qitishning ancha oshgan vazifalariga javob

bermasligini, o`qituvchining tashabbusini bug`ishini ko`rsatdi. Zamonaviy darsga qo`yilayotgan yuksak talablar, o`qituvchi har bir darsga puxta tayyorlanishining sababi, talabalar tarkibining o`zgarayotganligi, ish sharoitlarining ham o`zgarayotganligi, ish sharoitlarining ham o`zi, yangi adabiyotning paydo bo`layotganligi, o`quv rejalari dasturlariga tuzatishlar kiritilayotganligi, hayot o`qitishning shakl va usullarini takomillashtirishni talab qiladigan yangi vazifalar qo`yilayotganligidadir. Ammo, o`qituvchining har bir alohida dars tayyorlaishi, uning o`quv ishiga tayyorlanish tizimining bir qismi xolos.

Bu tizim:

- 1. O`qituvchining o`z predmeti bo`yicha butun kurs yuzasidan tayyorlanishi.*
- 2. O`quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanish.*

Butun kurs yuzasidan tayyorgarlik yangi ilmiy ishlar, yangi metodik materiallar bilan tanishishni, dastur va darsliklarni o`rganishni, yarim yil, yoki chorakka rejalashtiruvchi hujjatlar tuzishni nazarda tutadi. Har bir mavzuga tayyorlanish o`qituvchini yana dasturga, mavzu yuzasidan qo`shimcha materiallarga, har bir mavzuning asosiy masalalarini aniqlashga, o`qitish metodlarini tanlashga va kerakli metodik vositalarni ko`rgazmali qurollar, jihozlar, pribor, inventar va hokazolarni tayyorlashga majbur etadi. Bu masalalarning barchasi mavzu bo`yicha darsliklar tizimini o`z ichiga oluvchi tematik reja sxemasida aks ettiriladi.

Bunday persektiv rejalashtirish didaktik maqsadlar izchilligini aniqlash, mazmundagi yetakchi g`oyalarni, faoliyatining asosiy turlarini ajratish, predmetlararo aloqalarni ajratib olish, darsning asosiy jihozni o`ylab chiqish, natijalarini prognoz qilish imkonini beradi. Har bir alohida darsga tayyorlanishda o`qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi; mavzuni aniqlaydi va dars vazifalarini konkretlashtiradi; o`quv materialining mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi. Yetakchi g`oya, tushuncha, qonuniyat, fakt, amaliy ma`lumotlarni ajratadi; ilgari o`rganilgan bilan bog`lanishni, mazmunni joylashtirish mantiqan nazarda tutadi; talabalarning o`quv bilimi faoliyatlari, xarakterini aniqlaydi, ya`ni qanday ko`nikma

va malakalar shakllanishi reproduktiv va izlanish faoliyatini, mustaqil ish va o`qituvchining roli o`rtasidagi nisbat qanday bo`lishni o`ylab qo`yadi. Shu shakllarni ishlab chiqadi, dars qismlarini ajratadi; o`qitish metodlari: masala, mashq muammoli savollar, topshiriq dasturlashtirish elementlarini tanlaydi va aniqlaydi. O`qitishning texnik vositalarini tanlaydi va tekshiradi; butun dars jarayonini rejalashtiradi. Dars rejasida, odatda sana va dars nomeri, uning mavzusi, vazifalari, mazmunining asosiy masalalari, o`qituvchi va talabaning faoliyat turlari, o`qitish metodlari va vositalari, so`raladigan talabaning familiyasi individual topshiriqlar, uyga vazifa ko`rsatiladi. Ammo, dars rejalarining strukturasi va hajmi o`qituvchining malakasi hamda tajribasidan kelib chiqib tuzilishi kerak. Masalan, o`qituvchilikni yangi boshlanayotganligi, darsning vazifalari, har bir qismining mazmuni, ko`rsatilgan mufassal rejaga ega bo`lish foydalidir. O`qituvchining tajribasi ortib borishga qarab reja qisharib borishi ham mumkin. Yaxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o`tkaza bilish ham kerak.

8.Dars natijasini kafolatlashning metodik xususiyatlari. Hozirgi dars, uni ratsionallashtirish, ko`pchilik talabalarni aktiv ishlardan istesno qiluvchi faoliyat turlari ajratiladigan vaqtni qishartirish, bilimlarni kontrol qilish va mustahkamlash, funksiyalarini birlashtirish, mustaqil ish, ijodiy xarakterdagi topshiriqlar hajmini oshirish, muammoli izlanish metodlaridan, o`qitishning texnik vositalari va dasturlashtirish elementlaridan oqilona foydalanish yo`lidan takomillashib bormoqda. Dars o`quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta`lim muassasasidagi boshqa formalar: praktikumlar, laboratoriya mashg`ulotlari, seminarlar, uy vazifalari, qo`shimcha mashg`ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta`limi fshakllaridan foydalanishni hamda ularni rivojlantirishni istesno qilmaydi. O`qitish shakllarini xilma-xillash zarurligi haqida “Umumiy ta`lim va ta`lim muassasasini isloh qilishninig asosiy yo`nalishlari”da ham aytib o`tiladi.

Bunda quyidagi qonunlarga amal qilish lozim:

1) Darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa, darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo`lishi kerak.

2) Talabalar e`tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida talabalarning bilish faoliyatlarini aktivlashtirib saqlay bilish, darsga qiziqishni qo`llab-quvvatlash, talabalar oldida vazifalar qo`yish, ularni doimo javob berishga tayyor holda saqlash, darsdagi ishlarni xilma-xillash, hammani ko`rib, hamma narsani so`rab turish.

3) Darsda vaqtdan oqilona foydalanish: o`quv jihozlarini oldindan tayyorlash, ularni to`g`ri joylashtirish, topshiriqlarning erishish, talabalar e`tiborini chalg`ituvchi momentlarga yo`l qo`ymaslik.

4) O`z xatti-harakatini kuzatish, g`oyaviy e`tiqod , yuksak ahloqiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag`batlantirish, talabalarga murojaat qilish uslubi – bularning barchasi o`qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi, hamda talabalarning zo`r berib ishlashi, yoki o`ta emotsional qo`zg`aluvchanligini istesno qiladi.

5) Darsda tadbirkorlikni namoyish qilish, yuzaga kelgan sharoitini, yoki darsni o`tkazish sharoitlaridagi o`zgarishlarni hisobga olish kerak.

Dars - o`quv jarayoning asosiy shakli bilan bir qatorda barcha yuqori sinflar, hunar texnika bilim yurtlari va o`rta maxsus o`quv yurtlarida lektsiya seminar mashg`ulotlari, konsultatsiyalaridan keng foydalanish lozim.

Tayanch iboralar: *Mustaqil fikrlash, hamkorlik usuli, pedagogik hamkorlik, darsning didaktik vazifasi, zamonaviy darsga talab.*



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Darsga tayyorlanishda nimalarga e`tibor berish lozim?
2. Rejalashtirishda darsning tuzilishi va mazmuni nimadan iborat?
3. Darsga qo`yiladigan muammolarni yechishda nimalarga e`tibor berish lozim?

4. Darsni loyihalash va natijasini kafolatlashning psixologik–pedagogik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?

Testlar

1. Kasbiy pedagogik tayyorgarlik shartli ravishda nechta yo‘nalishga bo‘linadi?

- A) 5 ta
- B) 7 ta
- C) 4 ta
- D) 6 ta

2. Kasbiy pedagogik tayyorgarlik yo‘nalishi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) shaxsiy fazilat va maxsus ixtisosi bo‘yicha
- B) ruhiy pedagogik tayyorligi
- C) pedagogning ijtimoiy pedagogik va ilmiy nazariy tayyorligi
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi nimadan iborat?

- A) kasbiy tayyorgarlik, kasbiy ijodkorlik
- B) kasbiy yetuklik, pedagogik madaniyat
- C) A va B javoblar to‘g‘ri
- D) kasbiy faollik, metodik mahorat

4. “O‘rnak ko‘rsatish va’z – nasihatga haraganda har doim kuchliroq ta’sir etadi”, -fikir muallifi kim?

- A) S. Jonson
- B) I.Petrovskiy
- C) B.Muranov
- D) M. Qur’onov

5. “O‘qituvchilar uchun 33 qoida” asarining muallifi kim?

- A) M. Qur’onov
- B) Adol’f Disterverg
- C) M.Ochilov
- D) S.Jonson

6. “O’rtoq, o’qituvchi, fan tanlash haqida” asarini kim yozgan?

- A) M.Ochilov
- B) S. Jonson
- C) Burxoniddin Zarnudjiy
- D) Yusuf Xos Hojib

7. Bosh, gavda, qo’l, oyoq harakatlari nimani anglatadi ?

- A) mimikani.
- B) nutq texnikasini.
- C) pantomimikani.
- D) o`qituvchining aktyorlik malakasini.

8. Qosh, ko`z, yuz ko`rinishi nimani anglatadi ?

- A) mimik ifodaning asosiy detalini.
- B) pantomimik ifodani.
- C) o`qituvchining pedagogik texnikasini.
- D) nutq ifodasini.

9. Chiroyli, ifodali, savodli, ta`sirchan gapirish nimani anglatadi?

- A) pedagogik texnikani.
- B) o`qituvchilik aktyorlik mahoratini.
- C) ovoz tembrini.
- D) nutq texnikasini.

10. Kasb – korga oid pedagogik dilkashlikning mezonlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan ?

A) tarbiyalanuvchilar bilan muomala ehtiyojining mavjudligi, hissiy osoyishtalik, o`zaro fikr almashishga oid sifatlar.

- B) o`zaro fikr almashish.
- C) hamkorlikning mavjudligi.
- D) suxandonlik malakasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru


www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

5.2. O`quv - tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishda tarbiyachi mahorati.



*Odami aqlu nazokatda suluv,
Bo`lsa axloqi sadoqatda suluv.*

Anbar Otin

1.Guruh rahbari va uning guruhni boshqarishda vazifalari. Pedagogik jarayon talabalarning har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Har bir pedagog va guruh faoli ushbu umumiy vazifaning muayyan qismini bajaradi. Guruh rahbarining asosiy vazifasi o`zi birlashtirilgan guruhdagi barcha tarbiyaviy ta`sirni tashkil qilish, rag`batlantirish va muvofiqlashtirishdan iboratdir. U o`z faoliyati doirasida talabalarning tarbiyaviy ishlarida kompleks yondashishni amalga oshiradi.

Guruh rahbari guruhdagi dars beruvchi o`qituvchilarning o`quv - tarbiyaviy ishlarini kamsuhumlik va xushmuomalilik bilan o`zaro kelishtiradi, talabalar jamoasini shakllantiradi va uning ishini yo`naltiradi, o`qituvchilar va talabalar jamoasi birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, o`zlarining kuchlari hamda chetdan barcha o`qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilgan holda guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boradi; guruhdagi tashqi dunyo bilan, ko`pqirrali aloqasini uyushtiradi va boshqaradi. Guruh rahbari ishining mazmunli tomoni tarbiyaning umumiy vazifasi bilan belgilanadi.

Guruh murabbiysi o`z tarbiyalanuvchisida dunyoqarashni faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantiradi, talabalarda bilimga, mehnatga havas uyq`otadi va ularni ongli ravishda o`z taqdirini o`zi belgilashga o`rgatadi.

2.Yaxshi tarbiyachi - bu avvalo, yuqori ma`naviyatli inson. Guruh rahbarining eng muhim vazifasi talabalarga o`qishga ma`suliyat bilan yondashish va mustaqil qobiliyatini tarbiyalashdir. U talabalarning estetik qiziqishlari va badiiy didini o`stirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Guruh rahbarining alohida vazifasi shundaki, ota - onalarining ham pedagogik madaniyatini oshirib, tarbiyaviy faoliyatida ta`lim muassasasi va oila birligiga erishadi.

Shunday qilib, guruh rahbari ham tarbiyaviy faoliyatini uyushtiruvchisi, ham talabalarning murabbiysi sifatida xizmat qiladi.

Guruh rahbarining asosiy vazifalari ta`lim muassasalarining ustavida belgilab berilgan. Ushbu vazifalar doirasiga boshqa o`qituvchilar bilan talabalar qo`mitasi, kuni uzaytirilgan guruhlar tarbiyachilari, shuningdek, korxonalar va ta`lim muassasalarining oila va ta`lim muassasalariga yordam ko`rsatish kengashlari bilan yaqindan hamkorlik qilish; talabalarga o`z vaqtida o`quv yordamini ko`rsatish, talabalarning sog`ligini mustahkamlashga yordam beradigan tadbirlarni o`tkazish; belgilangan hujjatlarni yuritish (choraklik ish rejasini tuzish, guruh jurnalini to`ldirish, guruh o`quv kundaliklarini tekshirish;) ta`lim muassasasi rahbariyatiga talabalarning o`zlashtirishlari, darsga qatnashishi va xulqi to`g`risida ma`lumot berib borishi kiradi.

Guruh rahbari bevosita muassasa rahbari va uning o`rinbosarlari rahbarligida ish olib boradi

Ular unga zarur bo`lgan tashkiliy - pedagogik yordam ko`rsatadilar.

***Yaxshi tarbiyachi** – bu, avvalo yuqori ma`naviyatli inson. U o`zining barcha o`ylari va harakatlari bilan sof, odil va haloldir. Xuddi shunday murabbiygina o`zining tarbiyalanuvchilarining ma`naviy dunyosini tushunadi, ularning shodlik va qayg`ulari bilan yashaydi, ularning ishonchini qadrlaydi, ular bilan muomalada xushmuomala va odobli, shavqatli, chidamli, kechirimli bo`ladi.*

Guruh rahbarining ko`p qirrali faoliyati undan yuqori darajadagi va yaxshi ruhiy pedagogik tayyorgarlikni talab qiladi.

U o`z tarbiyalanuvchilarining har birini yaxshi ko`radi va chuqur hurmat qiladi.

3.Shaxsni jamoada tarbiyalash - pedagogikaning yetakchi tamoyili.

Zamonaviy guruh rahbari - nozik psixolog va mohir pedagog. U nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o`qituvchilar va talabalar bilan oson aloqaga kirishadi. Ta`lim muassasasida, undan tashqarida birgalikdagi faoliyatini mohirlik bilan uyushtiradi, talabalarning fikri, tuyqusi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san`atini egallagan bo`ladi. U tadqiqotchi va tashkilotchi, jamoatchi, fan, sport, texnika, yoki san`atga mahliyo bo`lgan inson. U o`z qalbini butun boyligini talabalarga hadya etadi.

Guruh rahbari shaxsining yaxshi insoniy va kasbiy sifatleri yosh o`qituvchida oliy o`quv yurtidagi faol o`qishi va o`z - o`zini tarbiyalash yo`li bilan muvofaqiyatli shakllanadi.

Guruh rahbarining ishdagi muvofaqiyati ko`p jihatdan uning rejaliligi va muntazamliligiga bog`liq. Guruh rahbarining faoliyati umumiy tarbiya jarayonining bir qismini o`zida aks ettiradi, shuning uchun ham uni umumta`lim muassasasi yillik rejasiga mo`ljallab, ta`lim muassasasi ishining barcha boshqa bo`g`inlari bilan moslashtirishi lozim.

Guruh rahbarining tashkiliy - pedagogik ishi talabalarni doimiy o`rganib borish, talabalar jamoasini uyushtirish va shakllantirish bo`yicha tadbirlar o`tkazish, shuningdek, talabalarning ota - onalari bilan birgalikda ish olib borishni qamrab oladi.

Talabalarni o`rganish, talaba shaxsining psixologik o`ziga xos xususiyatlarini doimiy o`rganib borish, talabalar jamoasini uyushtirish va shakllantirish bo`yicha tadbirlar o`tkazish, shuningdek, pedagogik tadqiqot printsiplari va usullarini egallashni talab etadi, pedagogik nazariyotchilardan farqli o`laroq guruh rahbari o`zining talabalarini sof amaliy maqsadda tarbiyalash uchun o`rganadi.

Guruh rahbari talabalarning aql - idroki, xarakteri, sog`ligi va boshqa o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ob`ektiv ma`lumotga ega bo`lish uchun quyidagi asosiy talablarni bajarishi lozim: talabani tabiiy sharoitda, uning turmush tarzi sharoiti bilan birgalikda o`rganadi, individual va yosh o`zgarishini doimiy hisobga oladi.

Talaba shaxsini o`rganish dasturi, eng avvalo, uning hayoti va oilasi sharoiti bilan tanishishini o`z ichiga oladi: oilaning tarkibi qanday, uning moddiy ta`minlanganligi, oilaviy an`analari, oilasidagi munosabatlar, o`qish uchun sharoiti va boshqalar. Guruh rahbarini shuningdek, talabalar ota - onalarining sog`ligi, bolalarning kasallikka irsiy moyilligi, tarbiya tipi qiziqtiradi.

Muvofaqiyatli o`qish ko`p jihatdan talabaning iste`dodi va qobiliyatiga bog`liq. Shuning uchun ham uning qanday qobiliyatga egaligini, uning tafakkur va xotirasi tipini, kuzatuvchanligini, o`quv materialini tez, yoki sekin o`zlashtirishini, fantaziyasi va zakovati, darsdan tashqari vaqtda nima bilan qiziqishi, o`zining bo`sh vaqtini qanday o`tkazishini aniqlash lozim.

Psixolog talabalarni o`rganish jarayonida shaxsning ikki o`ziga xos xususiyati va sifatini guruh rahbariga tavsiya qiladi: 1) shaxsning umumiy xususiyat va sifatlarining o`ziga xosligi - shaxsning yo`nalishi, uning ahloqiy sifatleri, xarakteri, mijozi va qobiliyati; 2) ayrim ruhiy jarayonlarning - qabul qilish va diqqatining o`ziga xosligi, psixologiyasining farq qiluvchi qirralari, tafakkuri, xotirasining emotsional - irodaviy o`ziga xosligi.

Talabaning intilishi o`rganilganda quyidagi savollarga javob izlanadi: (U nimani hohlaydi?), uning qobiliyatini o`rganish- (U nimani qila oladi?), savoliga xarakterini o`rganish - "U kim?" savollariga javob beradi.

Talabalarni o`rganish birdan - bir maqsad emas. U guruh rahbariga talabaning rivojlanishini oldindan ko`ra bilish, uning o`qishdagi qiyinchiliklarni ko`ra bilish va ogohlantirish, uning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar yaratib berish imkoniyatini beradi. Talabaning ruhiy rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlarini, uni o`qitayotgan talabalar va ota-onalari bilishlari lozim.

Shaxsni jamoada tarbiyalash - pedagogikaning yetakchi tamoyili. Dastlabki jamoa muloqotda, o`z - o`zini namoyon qilishda, o`z fikrini ifodalashda o`smirlar va yuqori guruh talabalarining ma`naviy ehtiyojini qondirish quvvatiga ega bo`lgan ulkan tarbiyaviy kuchdir. Jamoa har bir talabaga jamoatchilik hayoti uchun zarur tajribaga ega bo`lish va o`zining eng yaxshi individual sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Jamoa tirik ijtimoiy organizm kabi tug`iladi, rivojlanadi, yashaydi. Ilk jamoani vujudga keltirish, birlashtirish va butun faoliyatini tashkil qilishda guruh rahbari asosiy rol' o`ynaydi. Jamoani, talabalarni jipslashtirishning umumiy nazariyasiga amal qilgan guruh rahbari ishni ular faoliyatini tashkil qilishdan boshlaydi. Pedagog guruh oldida ijtimoiy ahamiyatli va talabalarni jalb qiladigan maqsadni qo`yadi, ular uchun birgalikdagi hayotning qiziqarli va mazmunli istiqbolini ochib beradi.

Shu bilan bir vaqtning o`zida guruh rahbari talabalarga jamoa ichida o`z - o`zini boshqarish organini yaratishlariga yordam beradi. Dastlabki vaqtda u talabalar bilan shaxsan va qujjatlari orqali ilk tanishib, talabalarning u, yoki bu ishlari uchun javobgarni (sinfkom, novbatchi) o`zi tayinlashi mumkin.

Mana shu qisqa tashkiliy bosqichda guruh faollarini aniqlash va boshlang`ich jamoaning barcha organlarini shakllantirish lozim.

Jamoa - birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida jipslashadi

Unda, avvalo, ishchanlik munosabati, bir - biriga bog`lanish ma`suliyati munosabati yuzaga keladi. Ular jamoada asosiy kuch hisoblanadi. Biroq, tezda talabalar o`rtasida, ularning o`zaro manfaatlarga asoslangan shaxslararo o`rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi. Asta - sekinlik bilan shaxslararo munosabatlarning yana bir turi: guruhda shaxsiy sifatlarga mutanosib ravishda do`stlar o`rtasida tanlab munosabatda bo`lish paydo bo`ladi.

Guruh rahbari ularning o`zagini, talabalarning amaliy munosabatlarini ko`zda tutgan holda guruhdagi munosabatlarning barcha turlarini qo`llab quvvatlaydi, rag`batlantiradi va sezdirmasdan kuzatib boradi.

Talabalar jamoasi hayotini an`analar bezab turadi.

Faollar nisbatan barqaror bo`lishiga qaramasdan, guruh rahbari rejali ravishda bajaruvchanlik va boshqarish mahoratining birgalikda shakllanishi

uchun o`z - o`zini boshqarishda talabalarga topshiriqni rejali almashlab bajarishlari uchun sharoit yaratadi.

Guruh rahbari talabalarga asta - sekinlik bilan o`z sanalarini o`rnatishlariga

yordamlashadi; mashhurlar bilan uchrashuv kechalarini o`tkazish, talabalarni tug`ilgan kunlarini bayram qilish shular jumlasidandir.

Guruh an`analari umumta`lim muassasasi an`analariga zid bo`lmasdan uni to`ldirishi lozim. Ta`lim muassasasi an`anasi boshlang`ich jamoani ma`naviy ishlar bilan bog`lab turadi.

Biroq tarbiyaning bu real qudratini shakllantirish va boshqarish anchagina qiyinchilik tug`diradi. O`smirlar bahs bog`lashda ko`pincha sezgilariga suyanishadi va bu to`liq anglanmaydi. Bundan tashqari, ular ba`zan maxfiy, sezdirmasdan yuzaga kelishi, ildiz otgach esa, talabalar ongida mustahkam o`rnashib qolishi mumkin.

Ijobiy jamoa fikrini shakllantirish, asosan umumiy muammolarni bajarilgan ishlar natijalarini, jamoaning ayrim a`zolarining hulq - atvorini jamoa bilan muhokama qilishda amalda oshiriladi. Muhokama qatnashchilarining bir - biriga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo`lishlari, shuningdek, yorqin namunalar, loyiq faxrlanishlar paydo bo`ladigan kishilar harakatlarining psixologik baholanishi bu ishdagi muvofaqiyatning zaruriy sharti hisoblanadi. Buning natijasida talaba o`ziga mos axloq tipini tanlab oladi.

Jamoa fikrining shakllanishida guruh devoriy gazetasi va oqilona bezatilgan ko`rgazmali material faol yordam beradi

Devoriy gazeta bu jamoa fikrining ifodachisi, yuqori ma`naviy printsip va normalarning targ`ibotchisidir. Guruh rahbari tahririyat hay`ati ishlarini shunga yo`naltiradiki, devoriy gazeta guruhni to`lqinlantiradigan muammolarni aks ettirsin. Jamoa hayoti va talabalar faoliyatini rag`batlantirsin.

Boshlang`ich jamoaning talabaga talabchanligi, talabalarda bir - biri bilan munosabatlaridagi do`stlik, e`tiborlilik, sezgirlikni tarbiyalash bilan qo`shilib ketadi.

Guruh rahbari talabalarining turli shakldagi muloqotlarini tashkil qiladi

O`zaro qiziqishlari va bir - birini ma`naviy boyitishlariga yordam beradi. Bu talabalarining umumiy ishni bajarishdagi hamkorligini taqdirlash, o`qishdagi ixtiyoriy o`zaro bir - biriga yordamlashish, rag`batlantirish, jamoa maqsadi doirasidan chetga

chiqmaydigan do'stlikni ma'qullash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda, jamoa fikriga suyangan holda guruh rahbariga laqab qo'yish, ig'vo va nosog'lom guruhlarning paydo bo'lishini ogohlantiradi va yo'lini to'sadi.

Muassasaning o'z - o'zini boshqarishida talaba qo'mitalari muhim rol o'ynaydi.

Talaba qo'mitasi bilan guruh jamoasi o'rtasidagi aloqa, guruh yig'ilishida saylangan guruhboshi orqali amalga oshiriladi. Guruhboshi guruh murabbiysining bevosita pedagogik rahbarligi ostida ishlaydi. Guruh yig'ilishi - bu guruhda talabalarning o'z - o'zini boshqarishning jamoa organidir. U kamida oyiga bir marta o'tkaziladi. Yig'ilish guruhboshining talabalar qo'mitasining qarori to'g'risidagi axborotini eshitadi. Bu qarorni amalga oshirish bo'yicha aniq tadbirlar belgilaydi. Talabalarning guruhdagi novbatchilik jadvalini tasdiqlaydi. Guruh rahbari guruhboshiga talabalar orasida jamoa topshiriqlarini taqsimlash, guruh va ta'lim muassasasida novbatchilikni tashkil qilish guruhning novbatdagi yig'ilishini tayyorlash va boshqalarga yordamlashadi.

Ota - onalar bilan ishlash - guruh rahbari ish tizimining ajralmas qismidir

Bu ish muntazam va ilmiy asoslangan bo'lsa, yutuqlarga olib keladi, guruh rahbarining umumiy pedagogik faoliyatiga organik ravishda qo'shilib ketadi.

4. Ota - onalar bilan ishlash - guruh rahbari ish tizimining ajralmas qismi.

Quyidagilar ota - onalar bilan ishlash tizimining elementlari hisoblanadi. Oila uning tartibini, mikro iqlimini, tarbiyaviy faoliyatining xarakterini o'rganish, bolalarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi va oilaga yagona talabni belgilash va tutib turish, ota - onalarga izchillik bilan psixologik - pedagogik bilimlar berib borish; talabaning aqliy rivojlana borishi to'g'risida doimiy yordam beruvchi qarorlarni qabul qilish, zarur bo'lgan holda ota - onalarga amaliy pedagogik yordam ko'rsatish; bolalar bilan aloqa bog'lashiga yordamlashishi; ota - onalar talabalarning guruhdan tashqari o'quv - tarbiyaviy ishlariga jalb qilish.

Ota - onalar bilan ishlash guruh rahbaridan ular bilan ishonchli va ishchan munosabatni o`rnatish, pedagogik nazokat, chidam, izchil va qat`iy e`tiborni talab qiladi.

Uning ota - onalar bilan ishlashdagi asosiy printsiplaridan biri oilaviy tarbiyadagi ota - onalarning ijobiy va shaxsiy sifatlariga tayanishdir.

Ota - onalar deyiladi "guruh rahbarining ishi to`g`risida"gi uslubiy xatda, o`ziga xos, doimiy harakatdagi va jamoatchilik asosida tashkil qilingan jamoasidir. har qanday jamoada bo`lganidek, u o`zining tashkiloti, majburiyatlarini taqsimlash vakolatiga ega bo`lgan boshqarish organiga ega bo`lishi lozim. Guruh rahbari o`zining barcha ishlarida ana shu jamoaga, eng avvalo, uning yuqori organi ota-onalar yig`lishiga tayanadi. Ota - onalar ko`mitasini saylaydi."

Muassasa va oilada yagona tarbiya maqsadi - bolalarni har tomonlama rivojlantirishdir.

Ularda tarbiyaga yondashish, umumiy, pedagogik ta`sir ko`rsatishning usul va vositalari jihatidan umumiy, tarbiyaning natijalari to`g`risidagi tasavvurlari umumiy oila pedagogikasi guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyati oldida qator ustunliklarga ega: ota-onalik muhabbati, munosabatlarning yaqinligi, ma`naviy va moddiy rag`batlantirishni birgalikda qo`llash imkoniyatining kengligi, shuningdek, tarbiyaviy maqsadda bo`sh vaqtdan birgalikda foydalanish. Ota-ona talabaning o`z-o`zini tarbiyalashga amaliy yordam ko`rsatish imkoniyatiga ega.

Pedagogning asosiy vazifasi talabalarni tarbiyalashda ta`lim muassasasi va oilaga yagona talablarni o`rnatishdir. Talablarning yagonaligi ularning o`xshashligini bildirmaydi. Bunda gap ish tartibiga, talabaning o`qishiga, mehnatga, jamoat ishi va bo`sh vaqtiga munosabati to`g`risida ketyapti. Eng muhimi, bu talablar talaba tomonidan unga qarshi "yagona front" sifatida qabul kilinmasligi kerak.

Tarbiyaning umumiy vazifalari ota - onalar jamoasi orqali muvofaqiyatli hal qilinadi. Shuning uchun ham guruh rahbari o`zining butun qayratini ushbu jamoani jipslashtirishga va uning muntazam faoliyat ko`rsatishiga haratadi. U ota - onalar yig`ilishini tayyorlash va o`tkazishga katta ahamiyat beradi, chunki undan

tarbiyalashning umumiy taktikasini ishlab o`qish, shuningdek, ota - onalarni pedagogik bilim bilan qurollantirish uchun foydalaniladi. Guruh yig`ilishlari tashkiliy, mavzuiy yig`ilish - munozara, amaliy yig`lishlar, yakuniy choraklik yig`lishlari bo`lishi mumkin. Ota - onalar bilan talabalarning intizomiy ishlar va talabalarning o`zlashtirishi ahvolini tahlil qilish shaklidagi, birgalikdagi yig`lishlarni, ko`rgazmalarni tashkil qilishlari, ota - onalari oldida badiiy havaskorlik chiqishlar qilishlari mumkin. Barcha holatlarda ham talabalarning o`qish va mehnatdagi muvofaqiyatlarini qo`pol qiyoslashga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Ota - onalar har doim bolasining har kandy muvofaqiyatsizligini ohir oladi.

Hozirgi ota - onalarni bilim darajasi bolalarni tarbiyalash bo`yicha umumiy tavsiyalar, shuningdek, oilaviy tarbiya amaliyotidan elementar namunalar bilan chegaralanmaydi, balki, ota - onalar oldida pedagogik jarayonning qonuniyatlarini ochib beradi, ta`lim - tarbiya yuzasidan psixologiyaning yutuqlari bilan tanishtiradi, chuqur sanitar - gigienik, fiziologik va oilada bolalarni to`liq tarbiyalash uchun zarur boshqa bilimlarni beradi.

Guruh rahbarining ota - onalar bilan shaxsan aloqada bo`lishi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Ularning natijaliligi, avvalo o`zaro hamkorlik qilish istagi, o`zaro hurmat ishonchi va o`zaro talabchanlik bilan bog`liq. Ular munosabatlarining uslubini, odatda guruh rahbari belgilaydi. Ota - onalarni ta`lim muassasasiga taklif qilish (chaqirtirish emas) va ularning uyiga borish, oldindan kelishib olinishi bo`yicha amalga oshiriladi. Guruh rahbari ota - onalarni, ularning e`tiborini ijobiy tomonga jalb qilgan holda talabaning muvoffaqiyatlaridan xabardor qiladi, talabaning oldida turgan qiyinchiliklar va muvoffaqiyatsizliklari to`g`risida gapiradi, o`qishda bo`shashib ketganligining sabab va asoslarini tushuntirishga harakat qiladi, pedagogik yordam ko`rsatishning usullarini birgalikda belgilaydi. Ota - onalar bilan uchrashishdan pedagog oilani o`rganish uchun foydalanadi.

5.Ijobiy jamoa fikrini shakllantirish yo`llari. Guruhdagi ish ma`naviy juda serqirra va rejali bo`lishi lozim. Unda tarbiyachi - tarbiyalanuvchilarning yosh

xususiyatlari, imkoniyatlari, kasb – hunar, yoki tanlagan yo`nalishlarini hisobga olishi lozim.

Talabalar tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va tarbiya samaradorligini oshirishda guruh rahbarining ishlari.

Pedagogik mahoratning maqsadini amalga oshirish uchun bajarish lozim bo`lgan vazifalardan biri:

-talabalarda tarbiyaviy ta`sir va talabalar tarbiyalanganlik darajasini aniqlash sohasidagi bilimlarini oshirishdan iborat.

Xo`sh tarbiyalanganlik deganda nimani tushunasiz? Tarbiyalanganlik - milliy urf - odatimiz mezoniga kirmagan, o`zgalarning nafratini qo`zg`atadigan hatti - harakatlardan o`zini tiya bilish va ishni rejalashtirishdan buni hisobga olishi lozim.

Axloqiy tarbiyalanganlik - shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to`g`riso`zlik, jamoaviylik), yoki axloqchilikning asosiy belgilarining rivojlanishi darajasiga qarab aniqlanadi. Aqliy, zehniy tarbiyalanganlik - aqliy va zehniy sifatlari, fazilatlarining rivojlanganlik darajasiga shaxsning yoshiga ko`ra hamma davrlarida intellektual tarbiyalanganligi haqida xulosa chikarish mumkin. Aqliy tarbiyaning ta`lim muassasasi yillaridagi mezoniy fazilati mantiqiylik hisoblanadi. Balog`at yoshida esa, aqlning qobiliyatlari yangi ma`lumotlarni vujudga keltiradi. Ta`lim muassasasi talabalarining aqliy rivojlanishini boshqarish uchun uch jihat bo`yicha ma`lumotlarni olish kerak: bilishliyk, faollik, aqlning rivojlanganligi (fikrlovchanlik).

Demak, tarbiyachi talabalar bilan olib boriladigan ma`naviy - ma`rifiy ishlarni rejalashtirishda ko`proq bahs - munozara usulida olib boriladigan tadbirlarni belgilashi lozim.

Fan o`qituvchilari bilan ham hamkorlikda bo`lib, aniq va tabiiy fanlar guruhdan tashkari tadbirlarida mantiqiy masalalarni ko`proq olishni maslaxat bersa, balog`at yoshida referatlar yozish, ijodiy ishlar yozish, ilmiy maqolalar yozishga da`vat etish lozim.

Tayanch iboralar:

Talabalar o'quv – biluv faoliyatini tashkil etish, pedagogik ijod, o'quv jarayonida tarbiyaning o'rni, pedagogik yordam ko'rsatish. pedagogik mehnat madaniyati, Guruh rahbarining muvofaqiyati. axloqiy faoliyatni boshqarish, O'quv - tarbiya ishlarning xilma-xilligi, shaxsni jamoada tarbiyalash, yagona tarbiya maqsadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Guruhni boshqarishda guruh rahbarining asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. “Yaxshi tarbiyachi - bu avvalo yuqori ma`naviyatli inson” degan fikrni izohlab bering.
3. Talaba shaxsini o`rganish dasturiga nimalar kiradi?
4. Shaxsni jamoada tarbiyalash - pedagogikaning yetakchi tamoyili deydilar. Izohlab bering.
5. Shaxslararo munosabatlarning turlariga nimalar kiradi?
6. Ijobiy jamoa fikrini shakllantirish yo`llari nimadan iborat?
7. “Ota - onalar bilan ishlash - guruh rahbari ish tizimining ajralmas qismi” degan fikrni izohlang.
8. Guruh rahbari ota - onalar bilan qanday ishlar olib boradi?

Testlar:

1. Pedagogik faoliyat qirralari nechta?

- A) 5 ta
- B) 8 ta
- C) 6 ta
- D) 4 ta

2. Pedagogik faoliyat qirralari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) bilimdonlik, rivojlantiruvchanlik, tashkilotchilik
- B) yo'naltiruvchinlik, safarbarlik, tadqiqodchilik
- C) loyihachilik, vositachilik

D) barcha javoblar to'g'ri

3. Kasbiy pedagogik tayyorgarlik shartli ravishda nechta yo'nalishga bo'linadi?

A) 5 ta

B) 7 ta

C) 4 ta

D) 6 ta

4. Kasbiy pedagogik tayyorgarlik yo'nalishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) shaxsiy fazilat va maxsus ixtisosi bo'yicha

B) ruhiy pedagogik tayyorligi

C) pedagogning ijtimoiy pedagogik va ilmiy nazariy tayyorligi

D) barcha javoblar to'g'ri.

5. Pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi nimadan iborat?

A) kasbiy tayyorgarlik, kasbiy ijodkorlik

B) kasbiy yetuklik, pedagogik madaniyat

C) a va b javoblar to'g'ri

D) kasbiy faollik, metodik mahorat

6. "O'rnak ko'rsatish va'z – nasihatga haraganda har doim kuchliroq ta'sir etadi", -fikir muallifi kim?

A) S. Jonson

B) I.Petrovskiy

C) B.Muranov

D) M. Qur'onov

7. Xayrihohlik, optimizm, faoliyatni dam oldirish, xulqini nazorat qilish, o'z – o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatishdan saqlanish, musiqaviy, jismoniy vaziyatlar yaratish nimani anglatadi?

A) jismoniy harakatlar usulini.

B) o'z hissiyotini nazorat qilishni.

C) his – tuyg'ularini tarkib toptirishni.

D) talabalarga hissiy ta`sir ko`rsatishni.

8. O`z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyoti, talabalar xatti – harakatidan rozilik yoki noroziligini yuz muskullari harakati orqali bildirish nimani anglatadi ?

A) pantomimikani.

B) mimikani.

C) aktyorlik, rejissyorlikni.

D) nutq madaniyatini.

9. Pedagogning talaba – talabalar bilan muomalasining muvofaqiyati nimaga bog`liq ?

A) hamkorlik qila olishga.

B) so`zlashish va gapirishga.

C) pedagogik qobiliyatning mavjudligi va pedagogik nazokat (takt)ga.

D) pedagogik mahoratga.

10. Suhbatni qo`llab – quvvatlash uchun nutq ayriboshlash, suhbatdosh bilan aloqa o`rnatish muomalaning qanday darajasini anglatadi ?

A) muomalaning faktik darajasini.

B) muomala hajmini.

C) muomala qimmatini.

D) muomalaning jozibadorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru


www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

5.3. O`quv - tarbiya ishlarini boshqarishda o`qituvchining notiqlik mahorati.



Bahslashganda qaysarlik qilish va haddan tashqari qizishib ketish nodonlik alomati.

M. Monten

1.Nutq - tafakkur mahsuli. So`z insonni xayvondan judo ayladi, deyдилar hazrat Alisher Navoiy. Bir tasavvur qilib ko`ring-a, so`zsiz ahvolimiz ne kechardi. So`zlash qobiliyati - nutq borki, odamlar o`zaro muomala qiladilar, muloqotda bo`ladilar, fikr bayon etadilar, bir-birlarini tushunadilar, yoki rad etadilar. Dardga darmon bo`ladigan ham shu so`z, turmushga ohu soladigan ham xuddi shu so`z! So`zning xili va turi ko`pdir: shirin so`z, dag`al so`z, beodob so`z, qochirim so`z, hikmatli so`z, gap-so`z, tabrik so`z, mish-mish, ig`vo, iltimos, buyruq, va`da, lafz, azmu qaror, yigit so`zi. Odamning birinchi so`zi, chaqaloqning ingasi, so`nggi so`zi - alvidodir.

Darqaqiqat, o`zbek tili eng taraqqiy etgan til sifatida insonni jamiyat, ma`naviy hayot sarchashmalarini o`rganishga yordam beradi.

Deyarli barcha jonzotda til bor. U issiq-sovuqni, taom mazasini biluvchi, ovqatlanishda ishtirok etuvchi a`zo. Odam esa, bulardan tashqari nutq tovushlarini hosil qiladi, ya`ni insonning so`zlash qobiliyati til orqali amalga oshadi. Boshqacharoq aytganda, nutq ongimizda paydo bo`ladi, til orqali yetkaziladi.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo`lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo`q. Xalqsiz esa, til bo`lmaydi. Bular egizak tushunchalardir, bir - biridan ayirilmaydi, ularni ayirib qo`ysa, ikkisi ham o`zligini yo`qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo`shilib ketsa, uning tili o`lik tilga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytib

o` tishni lozim ko` ramizki, birgina til so` zi, tilimizning naqadar boy va serjilo ekanini isbotlaydi.

Yer yuzidagi barcha xalqlarning tillari, ularda millionlab odam gaplashadimi, yoki atigi bir-ikki ming kishi so` zlashadimi, bundan qat` iy nazar, o` zlari uchun aziz va keraklidir. Tilda kam sonli elat gaplashar ekan, deb kamsitib, yoki bo` lmasa, ko` p sonli millatning tili ekan deb, ulug` lab bo` lmaydi. Bunda son jihatini mezon qilib olinmaydi. "har kimniki o` ziga, oy bo` lib ko` rinar ko` ziga!" Lekin, dunyoda juda taraqqiy etgan, boy jahon tillari ham, endi "tetapoya" qilayotgan tillar ham yo` q emas. Bu o` sha tillarning sohibi bo` lmish millat, yoki elatlarning tadrijiy ravnaqi, bosib o` tgan tarixiy yo` li, insoniy jamiyatning qaysi bir taraqqiyot bosqichida ekani, iqtisodi, madaniyati, fani va ma`naviyati kabi omillarga bog` liqdir. Bizningcha, loaqal birgina ona allasi mavjud bo` lgan til ham yashashga haqli. Biz o` zbeklar uchun esa, o` z ona tilimiz bo` lmish o` zbek (turkiy) tili azizu - mo` tabardir.

Har bir millat o` z ona tili va adabiyotini bilishi – borlig` ini ko` rsatadigan oyna. Milliy tilni yo` qotmoq, millatning ruhini yo` qotmoqdir.

2.Nutq madaniyati va uning ahamiyati. Umumiy milliy tilni saqlamoq ila barobar xususiy tishlar orasidagi tilni ham saqlamoq lozimdir.

*Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so` zlagan so` zidan bilurlar.
"Quruq so` z quloqqa yoqmas", - demishlar.*

Shirin suxanlik, inson faoliyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki, uning aql-sakovati, fikr-tuyg` ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi, tafakkuri ma`lum darajada, so` zda ifoda etiladi. Yaxshi so` z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash mumkin.

Yaxshi so` z hayotning quroli bo` lib, unda olam-olam ma`no yotadi.

*So` z tilning tayanchi hamda go` zalligidir. So` z, yuz va ko` z, tilning ko` rki hisoblanadi.
"So` zning otasi aql, onasi til" - deyishadi keksalar.*

Muomala madaniyatida soʻz aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi.

Odamning odobi dastavval uning tili, keyin esa, bilimida koʻrinadi. Odob doirasidagi muomala madaniyatini oʻzlashtirgan kishilarga farosatli, fahmli, odobli, aqlli, es hushli, madaniyatli, deb baho beramiz.

Qurʻoni Karimda insonning aytadigan soʻzini, har bir hatti - harakatini, qiladigan ishini tartibga soluvchi nechoqli hukmlar bor. Islom meʼyor, mezon va mutanosiblikni mushtarak etuvchi bir manzil sifatida insonning ogʻzidan chiqadigan har bir kalimani muayyan asoslar bilan izga soladi.

Qurʻoni Karimda u biron bir kalimani soʻzlay boshlar ekan, yonida uning soʻzlarini taftish qiluvchi nazoratchi turadi, degan oyat mavjud. Oyatning mazmuni shundan iboratki, ogʻzidan chihayotgan har qanday soʻz odamlar orasida tezlik bilan oʻz bahosini oladi.

Shunday ekan, inson yoqimli, foydali zaruriy mavzularda soʻzlamogʻi, behuda va maʼnosiz soʻzlardan ehtiyot boʻlmogʻi lozim. Hadisu sharifda taʼkidlanishicha: soʻzning foyda zararini oʻylab soʻzlagan kishi odamlar oldida buyuk oʻrin olgani kabi Alloh taollo qoshida ham marhamatga tegishli odam boʻladi.

Aqli bor odam har vaqt oʻziga zarar keltiradigan soʻzlardan saqlanur.

3. Mustaqil fikrlash - hamkorlik usuli. Musulmon odam, oʻzini Allohga topshirgan kishi yolgʻon soʻzlashga yoʻl qoʻymas. Oʻziga foydali, zararli boʻlishiga qaramasdan har vaqt toʻgʻri soʻzlar. Yolgʻon soʻzlamolik qoʻlidan ish kelmaydigan tuban kishilar odatidir. Toʻgʻri soʻzlaydigan odam oʻz ishini oʻzi bajaruvchi, ishda sobiq turuvchidir. Shuning uchun u vaʼda qilsa, vaʼdasini amalga oshirur. Har xil gaplarga aldanib vaʼdasini buzmas.

Alisher Navoiy "Gʻayratul Abror" asarida shunday deb yozadilar. Soʻz gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmat baho narsa ham unga sadaf boʻla olmaydi. Soʻz jon boʻlib, ruh uning qolipidir. Tanda ruhi bor odamzot unga ehtiyoj sezadi. Alisher Navoiy yana shunday deydilar: Aqlli odam yolgʻon gapirmas, ammo barcha rost gapni aytaverish ham toʻgʻri emas. Birovning koʻzi gʻilay, nogironidir, ammo u aybdor emas.

Birovni nohaq xijolatga solmoq o`z nodonligini isbot qilmoq va bir ko`ngilni og`ritmoqdir. Buyuk mutafakkir Mahmud Qoshqariy ham so`z qudratini yuksak baholab, inson tili orqali, o`zining yaxshi va yomon fazilatini namoyon etadi, o`zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi, deb ta`kidlagan edilar.

Ota-bobolarimizdan meros bo`lib qolayotgan yaxshi so`z kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Yomon so`z esa, do`stni dushmanga aylantiradi. Insonlar o`rtasida fitna-nizo uyqoladi. Siz suhbatdoshingizning qanday odam ekanligini so`zidan bilib olasiz. So`z eng johil kishilarni yumshata olish, odamlarni xayrli ishlarga chorlash kuchiga ega.

Bundan ko`rinib turibdiki, har bir inson birov bilan gaplashayotganda nihoyatda o`ylab gapirishi, imkoniyatiga qarab va`da berishi muhim ahamiyatga ega.

Shu borada yana bir bor Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir. "Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz". Ko`p so`ylovchi valdiroq, tunda tong otguncha xuriydigan itga o`xshaydi. Tili yomon xalq ko`p ko`ngilga jarohat yetkazgani kabi, o`z boshiga ham ofat yetkazadi. Imkoni bor har bir yaxshilik so`z orqalidir.

Demak, shirin muomala har bir kishiga quvonch, bemorga malham va najot bag`ishlaydi, sovuq so`z esa, odamni xasta qilishi mumkin. Shuni unutmash kerakki, muomala madaniyatini egallagan kishi el yurt oldida obro`si baland bo`ladi. Shirin so`z har birimiz uchun ham qarz, ham farz bo`lib qolsin. Xalqimizning, aytilgan so`z - otilgan o`q, og`izdan chiqqan so`zni ot bilan quvib yetolmaysan kabi naqlariga amal qilib, o`ylab muomalada bo`laylik.

4.Nutqni ilmiy-nazariy asoslash.

"So`zning dami qilichdan o`tkir" - deydi xalqimiz.

Shunday ekan, hech bir insonning qalbini tig` bilan tilmaylik. Aksincha, shirin suxanlik, halollik, izzat ikromni o`z joyiga qo`yaylik. Shirin so`z ilonni inidan chiqarganidek, muloyim so`z vaxshiylarni ulfatga aylantiradi.

Til fikrini shakllantirish va uni yuzaga chiqarish, bировga yetkazish uchun imkoniyat sifatida o`qituvchining ongida mavjud. U ma`lum bir so`zlar, qo`shimchalar, ularning o`zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqidagi qonun - qoidalar majmuasidir.

Tilning asosiy qonun - qoidalari, zarur birliklarni nutq tovushlari, qo`shimchalar, so`zlarni, ularning birikish qonun - qoidalarni o`qituvchi jamiyatdan tayyor holda qabul qiladi.

Ularni o`rganish uchun ta`lim muassasasida o`qish zarur emas. Umrida ta`lim muassasasi ko`rmagan odamlar ham tilni hayot, turmush, jamiyat talablari asosida o`zlashtiradilar. Lekin, ichki qobiliyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqarish imkonini beradi. Tilning bunday imkoniyatlari benihoyat xilma-xildir. Me`yor mana shu imkoniyatlarni g`alvirdan o`tkazuvchi omildir.

Me`yor jamiyatda ma`lum bir maqsadni ko`zlagan qolda til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko`rsatkichlar majmuasidir. Me`yorning oliy ko`rinishi milliy, adabiy til uslublari, mezonlarida o`z aksini topadi. Milliy, adabiy til esa, faqat ma`lum bir uslubiy ko`rinishdagina yuzaga chiqadi.

***Nutq** - tafakkur mahsuli. Shuning uchun, ona tili ta`limi oldiga qo`yilgan yana bir muhim talab, bo`lajak o`qituvchilar tafakkurini rivojlantirishdir. Fikrni bayon qilish, tafakkur va til orqali amalga oshadi.*

Ularning o`zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishining oliy shakli bo`lsa, til tafakkurni ma`lum bir shaklga solib so`zlar, so`z birikmalari va gaplar bilan ifodalash vositasidir.

Tafakkur qancha rivojlantirilsa, o`qituvchining fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo`ladi. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo`lib, kimga, nimaga, qachon, qaerda va qanday so`zlashgacha bo`lgan barcha nutqiy jarayonlarni o`z ichiga oladi.

***Tayanch iboralar:** mustaqil fikrlash, hamkorlik usuli, pedagogik hamkorlik, darsning didaktik vazifasi, zamonaviy darsga talab, tarbiyaviy ta`sir, modul, shaxsiy*

e`tiqod, mustaqil bilim, shaxsiy pedagogik faoliyat, pedagogik muammo, ilmiy-nazariy asos, komp'yuter savodxonligi, ijodiy faoliyat, pertseptiv qobiliyat, individual psixologik xususiyat, ilg`or pedagogik tajriba, asosiy pedagogik qoya.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Nutq - tafakkur mahsuli deganda nimani tushunasiz?
2. O`zbek tili eng taraqqiy etgan til mazmuni nimadan iborat?
3. Nutq madaniyati va uning ahamiyati nimadan iborat?
4. Mustaqil fikrlash - hamkorlik usuli deganda nimani tushunasiz?
5. Nutqni ilmiy-nazariy asoslash deganda nimani tushunasiz?
6. Ichki qobiliyat shartlariga nimalar kiradi?
7. Tilning asosiy qonun - qoidalarini o`rnatishda pedagogning o`rni haqida gapirib bering?
8. "So`zning dami qilichdan o`tkir" deganda nimani tushunasiz?
9. "Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz" degan naqlga izoh bering.

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. "Yil o`qituvchisi", "Yil tarbiyachisi" unvonlariga sazovor bo`lish uchun qanday ishlarni olib borish kerak? Misollar bilan izoqlang.
2. Ijodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.
3. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz?
4. Interaktiv usuli nima? Shu usul yordamida trenning o`tkazing.
5. Nizoli vaziyatlarda tarbiyachining o`z ruhiy qolatini tartibga solish mahoratini izoqlang (jonli ijro).
6. Tarbiyachilik mahorati orttirilgan ko`nikmamiq Yoxud, ijodiy jarayonq Fikringizni misollar bilan izoqlang.
7. Qanday o`ylaysiz "Oila - ta`lim " hamkorligi shartmiq Guruqda ikkiga bo`linib, seminar-trening o`tkazib ko`ring.

Testlar:

1. "Notiqni tarbiyalash to`g`risida" nomli asar muallifi kim?

- A) A. Disterverg
- B) Ya. Komenskiy
- C) I. Petrovskiy
- D) MArk Fabiy Kvintilian

2. O‘qituvchilikni yer yuzidagi har qanday kasbdan yuqoriroq turadigan kasb deb kim e’tirof qilgan?

- A) Ya. Amos Komenskiy
- B) A. Disterverg
- C) I. Petrovskiy
- D) S. Jonson

3. Pedagogning kasb-kor malakalari qanday qismlardan iborat?

- A) Gnostik malakalar
- B) Konstruktiv malakalar
- C) loyihalovchi malakalar
- D) barcha javoblar to‘g‘ri

4. O‘qituvchining nutqi to‘g‘ri talaffuz qilinishi orqali o‘quv materialining necha foizi o‘zlashtiriladi?

- A) $\frac{1}{2}$ foizini
- B) $\frac{1}{4}$ foizini
- C) hammasini
- D) $\frac{1}{3}$ foizini

5. Ovoz diapazoni nima?

- A) tovush o‘tkirligi
- B) tovush hajmi
- C) tovush kembri
- D) ovoz ohangi

6. Past ohangda so‘zlashuv

- A) diqqatni jalb etadi
- B) idrokni bo‘shashtiradi
- C) sezgirlikni kuchaytiradi

D) barcha javoblar to'g'ri

7. Pantomimika nima?

- A) so'zsiz gaplashuv
- B) tushuntirish harakatlari
- C) gavda, qo'l-oyoq harakatidir
- D) so'zlashuv turi

8. Mimika nima?

- A) so'zlashuv turi harakati
- B) gavda, qo'l-oyoqlar harakati yordamida so'zlashuv
- C) so'zsiz gaplashuv
- D) yuz, ko'z, qosh muskullarini harakatga keltirish san'ati

9. Quyidagilardan qaysi biri "Pedagogik texnika" malakalariga kiradi?

- A) nutq texnologiyasi, mimik, pantomimik ifodalar, o'z hissiyotini boshqarish, aktyorlik va rejissiyorlik malakalari
- B) tashkiliy metodik malakalar
- C) guruhiy ish olib borish
- D) o'qituvchining mustaqil ishlashi.

10. "O'qituvchilar uchun 33 qoida" asarining muallifi kim?

- A) M. Qur'onov
- B) Adol'f Disterverg
- C) M.Ochilov
- D) S.Jonson.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, X. Saidov, R. Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristikalar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru


www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

5.4. Tarbiyaviy ish jarayonida tarbiyachining o`z ruhiy holatini tartibga solish mahorati.



*Har kishida ilmu san`at bordur,
Baxtu davlatul kishiga yordur.*

Kamiy

1. Tarbiyaviy ish jarayonida tarbiyachi ruhiy holatini tartibga solish mahorati.

Sabr-toqat - tashqi vazminlik nuqtai nazaridan o`z his-tuyg`ularini qo`lga olishgina nihoyatda muhim bo`lib qolmasdan, shu bilan birga turli hissiyotli holatlarning ro`y berishi va kechishini ma`lum darajada boshqara bilish, kechinmalarning ijobiy tusda bo`lishiga erishish ham muhimdir.

Chunki, janjalli vaziyatlarga ham turlicha yondashish mumkin. Bu ko`p jihatdan kishining qanday yo`l tutishiga bog`liq bo`ladi.

Noxush hissiyotlarni yo`qotish, yoki kamaytirishga, masalan, quyidagicha yo`l tutish yordam beradi: menga osoyishta, dadil ovoz bilan dars olib borish, tarbiyaviy tadbirlar o`tkazish, sabr-toqat va o`zini tuta bilish namunasini ko`rsatish zavq bag`ishlaydi. Talabalar g`ururida janjalli vaziyat chiqib qolguday bo`lsa, sabr-toqat va xushmuomalalikni namoyon qilish, baqirib, asabiylashayotgan, qizishayotgan, qadr-qimmatini yo`qotayotgan kishidan yuqori turish va shu kabilar menga huzur bag`ishlaydi.

Yo`l tutish nimalar berishi mumkin?

2. Tarbiyachi ruhiy holatini tartibga solishning maqsad va vazifalari.

Shunday kishilar ko`p uchrab turadiki, ular o`zlarini mutlaqo har xil tutadilar va qanday yo`l tutishlariga, masalan, boshliqqa, yoki bo`ysunuvchi kishiga nisbatan

qanday yo`l tutishlariga qarab, turli hissiyotlarni boshdan kechiradilar. Bunday kishi boshliq bilan bo`layotgan suhbat unchalik yoqimli bo`lmayotgan chog`da ham odatda ancha vazmin, xushmuomala bo`ladi, muloyim kuladi. Bo`ysinuvchi kishiga nisbatan (o`qituvchi, esa talabaga nisbatan) xolisona olib qaraganda ancha osoyishta sharoitda ham «qizisha» boshlaydi, asabiylashib, hayajonlanadi. Ko`pincha o`zidan qo`rqadigan va cho`chiydigan odamlar oldida shunday qiladi.

Ba`zi bolalar kattaroq bo`lib qolgach, qari ota-onalariga mutlaqo toqat qilolmaydilar, ayniqsa ota-onalar ularga moddiy jihatdan bog`liq bo`lib, o`zlarini nochor sezsa, bolalarning yaxshi muomalasidan mehr - muhabbatidan mahrum bo`lib, qolishdan juda havotirlanib, o`zlarini mulozamatli tutsalar, o`zlarining yomon eshitishlari, xotiralari zaifligi va hokazolar bilan bog`liq bo`lgan kamchiliklardan keksalarcha cho`chisalar, shunday qiladilar. Lekin, shu bolalar hatto ayni vaqtda o`z ota-onalarini sevadilar, xatto o`z qiliqlaridan achinadilar ham. Ammo, bu ota-onalarga nisbatan paydo bo`lgan tajovuzkorlik yo`lini tutish hissiyotli chayqalishlarga, janjallarga, keraksiz jahldorlikka, muomaladagi keskinlikka sabab bo`ladi.

3. Tarbiyachi psixik holatini boshqarish. Kishi yetarli darajada madaniyatli bo`lmasa, sahiy bo`lmasa, buning ustiga o`zini ongli ravishda nazorat qilmasa, o`zidan qo`rqishayotganini ko`rsa, unda jo`shqin tajovuzkorlik yo`lini tutish paydo bo`ladi. Shu bilan birga ongli ravishda vazmin, o`ylangan, munosib hulq-atvorli bo`lish yo`lini tutish o`z hissiyotlarini jilovlay bilishga, ulardan eng noxushlari, stressli hissiyotlar - g`azab, jahl va shu kabilarga barham berish, ularning oldini olishga yordam beradi.

Umuman bu hissiyotlar qanchalik maqsadga muvofiq? Kishilar o`z muammolarini asosan jismoniy yo`l bilan, dag'al muskul kuchi bilan hal qilgan dastdabki paytlarda haddan tashqari kuchli hissiyotlar — g`azab, jahl, shiddatli, quturgan holatlar deb ataluvchi holatlar kishiga jismoniy kuchlarini ko`p darajada safarbar qilishga, g`oyat Havfli olishuv paytlarida organizmning kuchini oshirish uchun xizmat qilgan. Insonning taqdiri hal qilinayotgan — yashash, yoki o`lish masalasi yechilayotgan bir paytda ichki iztiroblar, shikastlar ana shu o`ta kuchli

hissiyotlar tufayli o`ta havfli vaziyatda omon qolish, yoki halok bo`lish ehtimoliga nisbatan unchalik ahamiyatli bo`lmagan. Albatta, bunday vaziyatlar hozirgi davrda ham, ayniqsa urush sharoitlarida, keskin guruhiiy kurash sharoitlarida va hokazolarda saqlanib qolgan. Biroq bizning davrimizda madaniyatli kishi ko`pincha shaxslar o`rtasidagi ixtiloflarining aqliy negizida, so`z vositasida hal qilgan bunday vaqtda o`ta hissiyotli ta`sirga umuman zarurat bo`lmaydi va kuch-g`ayratni safarbar qilishning o`zi jismoniy yo`li bilan sarf bo`lmaydi. Albatta, hozirgi zamon kishisi g`azabga kelib, jahli chiqar ekan, beixtiyor ravishda mushtlarini qisadi, tishlarini g`ijirlatadi va hokazo. Lekin, bularning hammasi tashqi ko`rinish bo`lib, jismoniy kuch-g`ayrat pirovard natijada ichga yutiladi va organizm yanada ko`proq shikastlanadi. Ayniqsa, bunday paytda o`qituvchi o`zini tuta bilishi zarur, u sabr-toqat, muloyimlik, xolislik ko`rsata bilishda namuna bo`lishi lozim.

4. O`z-o`zini boshqarish mahorati. Shuni esda tutish kerakki, kishi g`azablanganda, ayniqsa uning kuchli bosqichi bo`lgan jahl otiga minganda, aql-idrok hulq-atvorni nazorat qilolmay qoladi. Bu shunday holatki, bu haqda Rimlik shoir Goratsiy gapirib, tajanglik bilan qilingan darg`azablik qisqa muddatli aqldan ozishdir, deb ta`kidlagan edi. Darg`azablikni faqat boshlanishida yengish mumkin, shu sababli kishi o`zining jahli chiqa boshlaganini sezib, o`ziga-o`zi shunday buyruq berishi lozim: o`zimni yaxshi tutishim kerak, o`z his-tuyg`ularimni boshqarib, bebosh hissiyotlarga berilib ketmasligim lozim. Bunda eng ta`sirchan yo`l, Jonatan Sviftning: g`azabga berilish— ko`pincha birovning aybi uchun o`z-o`zidan o`ch olish bilan barobardir, degan ta`rifiga amal qilishdir. Juda to`g`ri aytilgan gap! Ana shunday fikr yashash qoidasi bo`lib qolgan kishi ancha vazminroq, quvnoqroq, optimalroq bo`ladi. Albatta, murakkab va havfli vaziyatda g`azab to`lqini adolat uchun kurashga kirishga, masalan, zaif odamni himoya qilishga yordam berar ekan, bu his-tuyg`uning yuqotilmasligi, bostirilmasligi kerak. Lekin, bu o`rinda ham ahvolga haqqoniy baho berish oqilona bo`lishi kerak.

Yanada quvnoqroq, optimalroq, vazminroq bo`lish uchun hamda yovuzlik, tushkunlik kayfiyati va shu kabilar bilan bog`liq bo`lgan salbiy kechishlarga yo`l qo`ymaslik uchun kishi o`z ongini, aqlini ko`p darajada safarbar qilishi, bu

holatlarning sabablarini tushunishi va ularga barham berishi zarur. Lekin, bunda, albatta, hissiyotlarning jo`shqinligini salbiy kechinma deb hisoblab bo`lmasa kerak.

***Pedagog** —avvalo grajdan bo`lib, fe`l-atvorining butun ehtirosi bilan adolat uchun kurashmog`i lozim», degan bir adib*

5. Tarbiyachi ijodkorligi - bu mahorat. Kishi hayotdagi ikir-chikirlardan yuqori ko`tarila olishi, o`zining diqqat-e`tiborini asosiy, muhim narsaga qarata bilishi muhimdir. Aks holda, uni kundalik mayda-chuyda janjallar va ular bilan bog`liq salbiy hissiyotlar «yeb bitirishi» mumkin. U doimiy ravishda achchig`lana boshlaydi, atrofdagilar bilan o`z munosabatlarida vazminlikni yo`qota boshlaydi, o`qituvchilik kasbi haqida gap ketganda bunga aslo yo`l qo`yib bo`lmaydi.

Akademik D. S. Lixachyov maqsadning kishilar hayoti va his-tuyg`ulariga ta`siri to`g`risida qiziqarli yozadi: «Kishi hayotda erishadigan ko`p narsalar — uning hayotda qanday mavqeni egallashi, boshqalarga nimalar berishi va o`zi uchun nimalar olishi — uning o`ziga bog`liq. Muvofaqiyat o`z-o`zidan kelmaydi. U kishining hayotda nimani muvofaqiyat deb hisoblashiga, u o`ziga qanday baho berishiga, qanday vaziyat yo`lni tanlaganiga, nihoyat, uning hayotdagi maqsadi qandayligiga bog`liq...

Har bir kishida kichik va muvofaqiyat shaxsiy maqsadlardan tashqari, hayotda albatta katta, shaxsdan yuqori turadigan maqsad ham bo`lishi kerak, shunda muvofaqiyatsizliklar ehtimoli kam darajaga keltiriladi.

Haqiqatda ham shunday. Kichik maqsadlarda ro`y berishi mumkin bo`lgan muvofaqiyatsizlik ulushi hamisha katta bo`ladi. O`z oldingizga sof maishiy vazifani — yaxshi narsalar sotib olish vazifasini qo`ydingiz, lekin sizga ikkinchi navli narsa tegib qoladi. Bunday hol juda tez-tez sodir bo`lib turadi. Agar, bu kichik vazifa siz uchun asosiy vazifa bo`lsa, siz endi o`zingizni omadsiz deb his qilasiz. Agar, bu kichik maqsad siz uchun «yo`l-yo`lakay» maqsad bo`lsa, siz uni «yo`l-yo`lakay» va kichik maqsad deb his qilsangiz, o`zingizning bu «muvofaqiyatsizligingizga» unchalik e`tibor ham bermaysiz. Siz unga juda xotirjam munosabatda bo`lasiz.

Bordiyu, siz o`z oldingizga shaxsdan yuqori turadigan maqsadni, aytaylik, eng umumiy maqsad — odamlarga iloji boricha ko`proq foyda keltirish maqsadini qo`ygan bo`lsangizchi? Bu ulkan hayotiy vazifangizni bajarishda sizga qanday «mavhum» muvofaqiyatsizlik halaqit berishi mumkin? Uni bajarishga har qanday sharoitda ham erishish mumkin, muvofaqiyatsizlik esa, natijasiz narsa, faqat ayrim hollardagina... Umuman, sizga muvofaqiyat kulib boqadi, atrofdagilarning muvofaqiyati va e`tirofi kulib boqadi. Agar, bu vazifada sizning shaxsiy baxtingiz ham bor bo`lsa, bu baxtingiz ta`minlanadi».

Albatta, kishi o`z oldiga katta maqsad qo`yganda, ma`yus, g`amgin, tushkunlik kayfiyatida bo`lishi mumkin. Bunday bo`lishiga sabab shuki, kishi juda uzoq maqsad bilan band bo`lar ekan, boshqa, xususiy, ancha yaqin maqsadlariga erishganidan mutlaqo qoniqmaydi va bu qoniqishni his qilmaydi. U bugun erishgan muvofaqiyatidan, yaxshi o`tkazgan darsidan, muvofaqiyatli o`tkazilgan guruhdan tashqari tadbirdan quvona olmaydi, o`zining kundalik hayoti imkoniyatlaridan foydalanishni bilmaydi.

6.Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Zararli kayfiyatlarga berilmaslik uchun o`z shaxsining ustun tomonlari va kamchiliklarini chuqurroq o`rganishga, o`zi haqida o`ylash, o`ziga bino qo`ygan kishining «men - eng yaxshiman, mening turmush tarzim, mening fe`l-atvorim to`g`ri» degan mag`rurona fikridan voz kechishga harakat qilish muhimdir. Kishi o`ziga chetdan turib qarashi, boshqa kishilarning fe`l-atvorini o`ziniki bilan qiyoslashi, o`z shaxsiyatida, aqalli, ozgina bo`lsa ham bema`nilik, o`jarlik, tushkunlik bor-yo`qligi xususida, boshqa kishilar, xususan talabalar sizni befarq, yomon, yovuz, g`arazgo`y va hokazolar deyishga asoslari bor-yo`qligi ustida o`ylab ko`rish ibratli bo`ladi. Kishi o`z kechinmalarini fahmlashi, tahlil qilib ko`rishi kerak.

Shunday qilib, optimistik kayfiyat rivojlangan aql-idrok bilan uyg'unlashib ketishi kerak.

Ong bilan uyg'unlashgan hissiyot sohasi inson baxt-saodati uchun xizmat qilishi zarur. Tajriba juda ko`p kishilarga baxt keltirgan eng baxtiyor kishini ulug'laydi.

Bunda ayniqsa, shu narsani esdan chiharmaslik kerakki, aynan kishining qilgan yaxshiligi, boshqa kishilar uchun, o`z talabalari uchun quvona

olishi va achinishi insoniy baxt asosini, o`z hayotidan qanoat hosil qilishdan iborat alohida holat, quvonch hissi bilan ozuqalangan holat asosini yaratadi.

Shuning uchun ham kishi o`zida yaxshi, insonparvarlik his-tuyg`ularini rivojlantirishi ayniqsa o`qituvchilik kasbi namoyondalari uchun muhim sharti ekanligini aytib o`tish joizdir.

Bolalar bilan bo`lajak muomala oldidan pedagogning ijodiy kayfiyatini hosil qilishida, uning o`quv materialiga o`z hissiy munosabatini ifodalashining tashqi shakllarini oldindan topishga intilshi muhim rol` o`ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir. O`quv materialiga o`z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o`ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psixologik tayyorgarlik ko`rishga tayanadiki, uning tarkibiy qismlari sanab o`tilgan. Darsda, tadbirlarda o`z fikrlari, his-tuyg`ularini qanday qilib yaxshiroq va erkinroq gavdalantirish ustida mulohaza yuritar ekan, pedagog bo`lajak faoliyat vaziyatiga kirib boradi, unga chorlanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo`lgan o`zining hissiy munosabatini yetkazish vositalarini izlaydi, izlaganda ham faqat shakl hosil qiluvchi vositalarni (intonatsiya, yuz harakatlari va shu kabilarni) emas, balki mazmunli vositalarni qidiradi, bu ayniqsa muhimdir. Mazmunli axborotda faqat mantiq va dalil-isbotlarni o`ylab o`tirish bilan cheklanmasdan, hissiy o`zakni alohida ajratib ko`rsatish zarur.

7.Tarbiyachi mahoratining ma`naviy – ma`rifiy vazifalarini amalga oshirishdagi ahamiyati. Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi pedagogning materialga o`z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarini mustahkamlashdir, u pedagog tomonidan quyidagi yo`llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbirni fikran esga tushirish; ko`zgu oldida takrorlash; namuna sifatida san`at (adabiyot, kino, rangli tasvir) asarlardagi vaziyatlardan foydalanish; namuna sifatida atoqli jamoat arboblari, olimlar, yozuvchilarning tarjimai hollaridan olingan aniq vaziyatlardan foydalanish.

O`zining materialga bo`lgan hissiy munosabatini ifodalashning puxta shakllari (ularga hamisha bu shakllarni gavdalandirishning bevosita vaziyati tuzatish kiritadi) pedagogga faoliyat va muomalaning o`zgarib borayotgan sharoitida jadal va samarali harakat qilish va (bunisi ayniqsa muhim) darsga tez va samarali chorlanish imkonini beradi, chunki o`zining hissiy munosabatini ifodalashning puxta shakllarini (ularni pedagog g`ayrat bilan esga tushiradi) unda ularni izlashning jo`shqin jarayoni to`g`risida xotiralar uyg`otadi, bu bilan ularning ijodiy kayfiyatini rag`batlantiradi.

Ijodiy kayfiyatni boshqarish jarayonining g`oyat murakkab munosabatini guruh bilan bo`ladigan bevosita muloqotda bilinadi. Ijodiy holatni tashkil etish yuzasidan ilgari amalga oshirilgan butun ish o`z ta`sirini ko`rsatadi. Pedagog bo`ljak ishning maqsadlari va muhimligini anglash orqali bu ishga o`zini rag`batlantiradi, u o`zi uchun yangi maqsadlar va bog`lanishlarni belgilab olishi lozim, bundan ko`zda tutilgan maqsad - hatto tanish o`quv-tarbiyaviy material asosidagi bo`ljak faoliyatning o`zi uchun yangiligi, maroqliligini his qilishdan, bo`ljak ishning ijodiy xarakterini his qilish va anglab yetishdan, startoldi tayyorgarligining sharti bo`lgan, bundan oldingi holatni boshqarishdan, tetik kayfiyatga erishishdan iboratdir. Pedagogning tayyorgarligi uning auditoriya bilan o`zaro fikr almashuv faoliyatiga bevosita qo`shilishi bosqichida ijodiy kayfiyatining o`ziga xos tarzda namoyon bo`lishidir. «O`qituvchi mazkur dars oldidan darsda eng muhim narsa nima ekanligini yaxshi biladi. Bamisoli o`z oldida guruhni ko`rib turadi va dars mavzuiga muvofiq ravishda o`ziga darsning vazifasini va qo`shimcha vazifasini aniqlab oladi, darsda belgilangan mantiqni takrorlaydi, belgilangan narsalarning so`zsiz bajarilishi uchun yo`l-yo`riq beradi. O`zi nazorat qiladigan, tayanadigan bolalarning, ish doirasiga tortadigan bolalarning nomlarini aniqlaydi. Ko`pincha psixologik yo`lga dars ishlanmalarini ko`rib chiqish, yoki tajriba, eksperimentning tayyorligini tekshirish yordam beradi. O`z-o`zini tezda tekshirib ko`radi: mendagi hamma narsa tayyormi? Psixologik yo`l sizning ongingizdan mazkur dars uchun ortiqcha, aslida bo`lmagan narsalarni chiqarib tashlaydi; u fikr ufqini yorishtirib, uning asosida faqat darsning silueti loyihalashtiriladi, shunda sizni sabrsizlik qamrab oladi: uddasidan chiqarmikanman va uddasidan chiqishni istayman! - degan aniq tilak paydo bo`ladi.

Darsda biror narsa unchalik chiqmasligi ham mumkin, lekin psixologik yo`l sizning ana shunday ish kayfiyatingizni boshlab bergan bo`lib, unda darsning tarkibiy qismlarini qayta guruhlashni amalga oshirishini uddalaysiz, ular o`rtasidagi mantiqiy bog`lanishni yo`qotmaysiz.

Bolalar bilan muomalada kishi o`zini boshqara bilishi nihoyatda zarurdir.

O`qituvchining daradagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umuman guruhning ijodiy kayfiyatiga ta`sir qiladi, birgalikdagi faoliyatning samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatni boshqarishning taklif etilgan tizimi individual o`zlashtirishni, o`z ustida muntazam yo`naltirilgan ish olib borishni talab qiladi.

Pedagogning ijodiy kayfiyatiga muomala ta`sirining quyidagi jihatlarini ajratib ko`rsatish mumkin:

1) pedagogning guruh bilan bo`ladigan muomalani oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;

2) guruh bilan bevosita dastlabki aloqa, bevosita muomala paytida pedagog ijodiy kayfiyatning rag`batlantiruvchi omili sifatida;

3) pedagogning guruh bilan muomalasi tizimi u faoliyat jarayonida pedagogning ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo`llab-quvvatlaydi va rag`batlantiradi;

4) muomaladan qanoat hosil qilish shundan keyingi faoliyatda pedagogning ijodiy kayfiyatini rag`batlantiruvchi omili sifatida.

Bolalar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshqarish - pedagog mehnatining eng muhim kasbkorlik talabi bo`lib, u pedagogning guruhda, bolalar bilan muomalada va shu kabilarda erkin bo`lishini, xulq-atvorining samarali bo`lishini ta`minlaydi.

8.Tadbirlarni o`tkazishda tarbiyachi mahorati. Pedagogik muomala jarayoni o`zi kechadigan bir qator shart-sharoitlar bilan murakkablashadi. Muomala shart-sharoitlari muomala xarakteriga umuman ancha-muncha ta`sir qiladi, aslida ular muomalaning kasbiy yo`nalishini ko`p jihatdan belgilab beradi. Muomalaning oshkoralik vaziyati ko`pgina qiyinchiliklar tug`diradi. Tadqiqotchilar allaqachon qayd etib o`tganlaridek, kishilar oldida, katta auditoriya oldida muomala qilish

auditoriyaning gapiruvchiga diktant qilishiga mo`ljallangan bo`lib, boshlovchilar uchun nihoyatda murakkabdir va maxsus tayyorgarlik ko`rmasdan o`tkazilishi mumkin emas. Faqat o`zaro fikr almashuv malaka va usullarini egallashgina muomala jarayonida pedagogning hissiy kayfiyatini ta`minlaydi. «Muskul siqilishi», hayajonlanish — bularning hammasi yosh o`qituvchining guruh bilan muomalasini tashkil etishning ilk bosqichini xarakterlab beradi. O`quv materialini juda yaxshi biladigan, pedagogik jihatdan yetarli darajada qobiliyatli bo`lgan talaba qiz M. o`zining dastlabki pedagogik tajribalari to`g`risida quyidagilarni yozadi: «Garchi men albatta hayajonlangan bo`lsam ham, darsga qadar menga hamma narsa oddiy bo`lib tuyulgan edi. Lekin, materialni yaxshi bilardim. Guruh ham go`yo shunday edi. Qo`ng`iroq chalingach, men jurnalni qo`limga olib guruhga otlandim. Ikkinchi qavatga ko`tarilib (bu xuddi hozirgidek esimda), guruhni, ular menga qanday qilib qarab turishlarini tasavvur qildimu, meni qo`rquv bosdi. Zinapoyaning oxiriga borganda oyog`larim allaqanday, qotib qolganday bo`ldi. Jurnalni shunday ushlab olgan edimki, chamasi, uni mendan tortib olib bo`lmasdi. Guruhga kirishim bilan (guruh meni yaxshi va samimiy kutib oldi) stol oldiga bordim, shunda qo`llarim menga halaqit berayotganini darhol his qildim. Meni qutqargan narsa—stulning suyanchig`i bo`ldi. Men uni barmoqlarim bilan mahkam ushlab oldimda, dars oxirigacha uni qo`yib yubormadim. Ovozim ham qandaydir o`zimniki emasdi. Deyarli nafasim siqilib, tishlarim orasidan gapirayotganday edim. Men shunda, guruh menga unchalik tanish emasligini his qildim. Juda qo`rqib ketdim. Ayniqsa ikkinchi partadagi ikki boladan qo`rqardim. Kuzatishimcha, ular eng havfli bolalar edi. Shunda qayoqdandir, bilmadim, ularga qanday qilib bo`lsa ham, yoqishim kerak degan fikr paydo bo`ldi, o`ylab-netib o`tirmasdan ularning hazillariga javob bera boshladim, xushomad qila boshladim. Guruhga yoqish uchun qandaydir hayajonlanib gapira boshladim».

Bu yerda sezilib turadigan «muskul siqilishi» yosh pedagogga halaqit beradi: mushaklarning bo`shashish jarayoni o`qituvchi kasbiy psixotexnikasining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu yerda kasbiy-pedagogik muomala asoslarining treningi (mashqi) bo`limida keltirilgan xilma-xil mashqlar ham, shuningdek ko`p qirrali

jamoat ishi ham foydali bo`lib, bu ish jaryonida kasbiy o`zaro fikr almashuv faoliyati tajribasi hosil qilinadi.

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning alohida bir muhim muammosi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chaqirish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni yengish hisoblanadi.

K.S.Stanislavskiy tizimi asosida pedagogning ijodiy jarayonini o`rganish shunga ishonch hosil qildiradiki, ijodiy kayfiyatni, ayniqsa, bevosita insonni muomala bilan bog`langan ijodiy faoliyat turlarida safarbar qilish uchun «jismoniy harakatlar» usulini qo`llash juda istiqbolli bo`lib, u haqda alohida gapirib o`tish kerak.

Bu usulning mohiyati «Muayyan hissiy holatga xos bo`lgan, kishida bu hissiyotlarning o`zi keltirib chiqarishga qodir bo`lgan jismoniy harakatlarni bajarishdan iborat bo`lib, mazkur hissiyotlarni ana shu harakatlar taqozo qiladi».

(Shu narsani esga olaylik: biz hayajonimizni yengmoqchi bo`lsak, birmuncha to`xtab, nafasimizni rostlashga, sekinroq harakat qilishga intilamiz, ya`ni shunday harakat qilamizki, xuddi mutlaqo xotirjam paytimizda qanday bo`lsak, o`zimizni shunday tutamiz, natijada hayajonlanish asta-sekin o`tib ketadi.)

9. Tarbiyachi mahoratining o`quv tarbiya vazifalarini amalga oshirishdagi ahamiyati. Aytaylik, darsga tayyorlangan, tadbirni va shu kabilarni hozirlagan pedagogning bugun guruhda ishlash istagi yo`q—shunchaki yomon kayfiyatda. Bu o`rinda jismoniy harakatlar usuli qanday yordam berarkin? «Bordi-yu», degan sehrli so`z yordamga kelishi lozim. «Bordi-yu, men yaxshi kayfiyatda bo`lganimda, bunday bo`lishi mumkin edi: men tetik, epchil, odim tashlab guruhga kirardim, samimiy salomlashardim», ayni vaqtda pedagog yaxshi kayfiyatda bo`lgan o`zining - pedagogning hatti-harakatlari butun mantiqini jismonan takrorlardi, bu holatga chinakamiga ishonishi kerak. O`zidan kayfiyatni siqib chiqarish kerak emas, balki izchil harakat qilish kerak. Harakatlar hamisha ham bizning nazorat qilishimizga bardosh beravermaydi va sekin-asta diqqatni ishga jalb qiladi, begona ta`sirlardan chalg`itadi, bizni zarur his-tuyg`uga, bu o`rinda ijodiy kayfiyatga olib keladi. Bir talaba qizning o`z ustida olib borgan kuzatishini keltirib o`tamiz:

«Shunday qilib, bugun ertalabdan kayfiyatim yomon edi. Hech narsa qilgim, ayniqsa dars bergim kelmasdi. Ta`lim muassasasiga qo`ng`iroq chalinishidan ikki minut oldin keldim, o`qituvchilar xonasida u yo`q-bu yog`imga qarab olgunimcha kirish vaqti bo`ldi. O`qituvchilar xonasidan chiqishim bilan kayfiyatim yaxshi, juda dars bergim kelyapti, guruhda meni kutishyapti — men ana shundayman bir qarorga keldim. Men endi yo`lak bo`ylab tetik, dadil odim tashlab boryapman, o`zim juda samimiyman, salomlashaman va bolalarga tabassum qilaman, men bir narsa qilishim kerak, havotirdaman, bugun o`tdigan materialim qiyin, lekin qiziqarli. O`zim bilan birga ko`pgina qiziqarli va foydali narsalar olib kelganman (portfelning og`irligini his qilyapman) hammasi yaxshi bo`ladi. Guruhga kiraman, tetik va dadil: «Salom, bolalar» deyman. O`tiramiz. Bolalar ham ibratli, ozoda kiyinishgan. Dars boshlandi, o`zimning bordi-yu» degan so`zimni qachon tashlaganimni va darsga berilib ketganimni o`zim ham sezmay qolibman. O`zimni juda yaxshi his qildim, kayfiyatim yomonligini, uni yengish kerakligini unutib yubordim, hammasi ajoyib bo`ldi».

«Jismoniy harakatlar» usulidan foydalanishda bordi-yu» vaziyatida taklif etiladigan holatlarning yangiligi hissiy reaksiyalarning qudratli vositasidir.

Bir vaqtlar qabul qilingan «bordi-yu» so`zini har gal takrorlayverish kerak emas, balki uni yangi vazifalar, nozik farqlar, tovlanishlar bilan ochib berishga harakat qilish, har gal jozibadorroq qilish kerak. Tabiiyki bu «jismoniy harakatlar» materialni, guruhni yaxshi bilishga, darsni tayyorlash sohasidagi butun dastlabki ishga, xususan maroqli vazifalar qo`yishga ta`sir qilishi lozim.

Pedagogik ijodkorlikda K.S.Stanislavskiyning «jismoniy harakatlar» usulini ro`yobga chiqarishning o`ziga xosligi shundan iboratki, u pedagogga faqat bevosita ijodkorlik (odamlar bilan muomala) boshlanishidan oldin o`zining ijodiy tabiatini safarbar qilishning vositasi sifatidagina zarurdir, keyin esa «bordi-yu» holatining «jismoniy harakatlar» mantiqi ijodkorlik vaziyati bilan chinakamiga ma`naviy moyillikka sekin-asta o`sib o`tadi, endi «bordi-yu» holatida emas, balki guruh bilan haqiqiy muomalada bo`ladi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir.

Bu yerda ko`pincha pedagog zo`riqish (umumiy hissiy zo`riqishning bir turi bo`lgan zo`riqish) tuyg`usini boshdan kechiradi, buni pedagogik ijodkorlikning omma o`rtasidagi faoliyati, o`zgarib boruvchi ijodkorlik holati, o`zining psixik holatlarini operativ ravishda boshqarish zarurligi, mehnatning o`zaro fikr almashish jihatdan boyligi kabi xususiyatlarini taqozo qiladi.

O`z-o`ziga ta`sir qilishning bir qator usullari mavjud bo`lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir: o`z-o`zini ishontirish, o`z-o`ziga buyruq berish, o`z-o`zini majbur qilish, o`z-o`ziga majburiyat yuklash, o`z-o`zini rag`batlantirish, o`z-o`zini jazolash, o`z-o`zini mashq qildirish, nihoyat - o`z o`ziga ta`sir qilishdir.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan zo`riqishni, shuningdek boshqa noxush holatlarni yengish uchun o`z-o`zini tarbiyalash yuzasidan doimiy ish olib borish zarur.

Tayanch iboralar: *G`azabga kelmoq, jismoniy kuch-g`ayrat, sabr-toqat, muloyimlik, xolislik, darg`azablik, vazminroq bo`lish, diqqat-e`tiborli bo`lmak, kayfiyat, o`jarlik, tushkunlik, bema`nilik.*



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy ish jarayonida o`qituvchining o`z psixik holatini boshqarish vazifalari nimalardan iborat?
2. O`zining psixik holatini qanday usullar bilan boshqarish mumkin?
3. O`z-o`zini hissiyot jihatdan tarbiyalashni qanday qilib yaxshiroq tashkil etish mumkin?
4. Tarbiyaviy ish jarayonida o`zining ijodiy kayfiyatini qanday qilib yaxshiroq boshqarish mumkin?

5. O`qituvchining ta`lim-tarbiya ishiga psixik rag`batini qanday qilib amalga oshirish mumkin?

Testlar

1. “Ruh madaniyati haqida risola” asarining muallifi kim?

- A) Yan Amos Komenskiy
- B) E.G`oziev
- C) Yusuf Xos Hojib
- D) Abu Nasr Farobiy

2. “O`qituvchi haqida hissa” asar muallifi?

- A) F.N. Gonobolin
- B) I. Petrovskiy
- C) A.K. Kuzmina
- D) O.A. Abdulina

3. “Menimcha yaxshi o`qituvchi bo`lib yetishish uchun to`la qonli intilish kerak...”, fikrni kim bildirgan.

- A) I. Petrovskiy
- B) O.A.Abdulina
- C) V.A. Raum
- D) K. Zaripov

4. “O`qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug`ullanmog`i lozim, aks holda ...” , fikri kimga tegishli?

- A) K.Zaripov
- B) A.K. Kuzmina
- C) I.Petrovskiy
- D) Adolf Disterverg.

5. Mavjud manbalarni o`rganib, ta`lim tarbiyaga uni tadbiq etib, muayyan ishlarni amalga oshiradi, bu.....

- A) mahoratli pedagog
- B) ilg`or pedagog
- C) ijodkor pedagog

D) barcha javoblar to'g'ri

6. Metodik yo'l-yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, o'zining imkoniyatlariga qarab, farqli metodik usullardan foydalanadi, bu..

A) ijodkor o'qituvchi

B) ilg'or pedagog

C) mahoratli pedagog

D) barcha javoblar to'g'ri

7. M.Ochilov g'oyasi bo'yicha pedagog mahoratni egallash manbai nima?

A) bilim

B) axloq

C) ta'lim

D) dars

8. "Bilimni go'zal tarzda o'qitish - ilohiy san'at" , fikr muallifi kim?

A) A.Franch

B) A. Disterverg

C) Ya. Komenskiy

D) F.N. Gonobolik

9. Pedagogik mahoratning shakllanishiga shartli ravishda nechta omil ta'sir etadi?

A) 12 ta

B) 7 ta

C) 14 ta

D) 8 ta

10. O'qituvchi fazilatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) kasbiy, shaxsiy fazilatlar

B) malakaviy fazilatlar

C) tashkilotchilik fazilatlar

D) tadqiqodchilik fazilatlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
3. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
4. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O`zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : “O`zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o`rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2017, - 416 b.
8. Abdukuddusov O. Malaka oshirish tizimida pedagogik inovatsiyalar.- «Xalk ta`limi», 1999 6-son, 49-53 betlar.
9. Avliyakov N.X. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
10. Avliyakov N.X. O`qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, - Buxoro, 2000
11. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik.-T.: Tafakkur bo'stoni, 2012.-208 b.
12. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
13. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.

14. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
15. Azizxujaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002
16. Baysalov J. Modulli ta`lim texnologiyasini qo`llash. – «Xalk ta`limi», 1999 6-son 101 – 103 betlar.
17. Bepal`ko V.P. Slagaemie pedagogikheskoy texnologii – M.: «Pedagogika», 1989.
18. Karimov I.A. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., 1998-64 b.
19. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmokda. – T.:, «O`zbekiston» 1999 yil.
20. Klarin M.V. Pedagogikheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. – M.: «Znanie», 1989
21. Klarin M.V. Inovatsii v mirovoy pedagogike. – riga, 1995.
22. Maxmutov M.I., Ibragimov G.I., Choshanov M.A. Pedagogikheskie texnologii razvitiya mishleniya uchashixsya. – Kazan`, 1993, 88
23. Monaxov V.M. Aksiometrisheskiy podxod k proektirovaniyu pedagogikheskiy texnologii. – M.: «Pedagogika», 1997 №6 str-26
24. Monaxov V.M. Texnologicheskie osnovi proektirovaniya i konstruktirovaniya uchebnogo protsessa – Volgograd, YAraslyavl`, 1991
25. Nishonaliv U., Tolipov U., Ikki shaxs faoliyati uygunlashganidagina ta`lim tarbiyadan ko`zlangan maqsadga erishiladi.-«Ma`rifat» gazetasi, 2000 yil 19 aprel.
26. Nishonaliev U. Ta`lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. – «Xalk ta`limi», 1999 6-son 28-31 betlar.
27. Ochilov M. O`qitish metodi – pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti – «Xalk ta`limi», 1999 6-son 32-35 betlar.
28. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi «Nasaf», 2000

29. Rozikov O., Ogaev S., Maxmudov A., Adizov B. Ta`lim texnologiyasi. – Toshkent «O`qituvchi» 1999 y.
30. Sayidaxmedov N.S. «Ma`rifat» ro`znomasining 1998 yil 24 iyun, 1999 yil 16 yanvar, 1999 yil 17 fevral, 1999 yil 17 mart, 1999 yil 19 iyun, 1999 yil 27 oktyabr, 2001 yil 1 mart, 20 may, 29 may sonlarida chop etilgan ilmiy maqolalari.
31. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. – «Xalk ta`limi», 1999 1-son, 97-102 betlar.
32. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
33. Sayidaxmedov N.S. O`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi. – «Xalk ta`limi» jurnali, 1999 5-son
34. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., YAngi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000 55-bet.
35. Sayidaxmedov N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot – Toshkent, «Moliya», 2003
36. Tursunov I. Yangi pedagogik texnologiya va uning istiqboli.- «Xalk so`zi», 1999 yil 25 sentyabr
37. Farberman B.L. Progresivnie pedagogikheskie texnologii – T.:, 1999 g 84 str.
38. Chashmanov M.A. Gibnaya texnologiya problemno – modul`nogo obucheniya – M.: «Narodnoe obrozovanie», 1996
39. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbqiq etish bosqichlari. – «Xalk ta`limi», 1997 4-son, 4-12 betlar.
40. Ziyomammedov Abdullaeva B.Sh. Ilg`or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma`naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo`llanma.- Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti, 2001
41. XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
42. G`oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalk ta`limi», 1999 6-son, 36-38 betlar.

43. Yangi pedagogik texnologiya: taxlil, ta`rif, muloxazalar (O`qituvchilar uchun metodik tavsiyalar) Tuzuvchi - muallif X. Haqimjonov, Prof. N.Sayidaxmedov umumiy taxriri ostida – Toshkent, 2000
44. Yuldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya yo`nalishlari, muammolari, yechimlari – «Xalk ta`limi», 1999 4-son, 4-11 betlar.
45. Yuldoshev J. Ta`lim yangilanish yulida – T. «O`qituvchi», 2000 208- bet.
46. BACKERRA, Hendrik; MALORNY, Christian; SChWARZE, Wolfgang: Kreativitätstechniken. Kreative Prozesse anstoßen, Innovationen fördern. Die K7. 2. Aufl., München, Wien: Carl Hanser Verlag 2002.
47. FRY H., KETTERIDGE S., MARSHALL S. A HANDBOOK FOR, TEACHING AND LEARNING IN HIGHER EDUCATION. 3rd edition. 270 Madison Ave, New York, NY 10016. 2009 year.
48. SAYTLAR:
www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru

ILOVALAR

Izohli lug‘at

Avtoritar texnologiya – o‘quv jarayonida pedagog yagona sub‘ekt sifatida namoyon bo‘ladi, talabalar esa, faqatgina «ob‘ekt» vazifasini bajaradi.

Adaptatsiya – ta‘lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga, turar joyi sharoiti, moliyaviy sharoiti, psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish.

Agreement – talaba bilan ikkala oliy ta‘lim muassasining ECTS koordinatalari orasida tayyorlash mazmuni, o‘qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o‘quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o‘zaro kelishuvlarini anglatadi.

Aprobatsiya – ma‘qulash: ma‘lum materialni sinashdan, sinovdan o‘tkazish.

Bakalavriat – o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi negizida oliy ta‘lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tanyach oliy ta‘lim.

Baholash – Aniq maqsad uchun o‘quv – ilmiy materialni ahamiyatini belgilash ko‘nikmasini anglatadi.

Bilish – o‘rganilgan o‘quv materialni muayyan omildan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o‘qitish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Verbal metod – o‘quv axborotlarni so‘z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish.

Gomogen guruxlar – qobiliyati va tayorgarlik darajasi bo‘yicha yaqin bo‘lgan talabalardan tuzilgan guruxlardir.

Davlat ta‘lim standartlari – me‘yoriy hujjat bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Dastur – o‘quv faning mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me‘yoriy hujjatdir.

Didaktika – grekcha didaskien soʻzidan olingan boʻlib, oʻqitaman, oʻqishni oʻrgataman maʼnolarini anglatadi. Didaktika – bu oʻqitish nazariyasidir. Didaktika oʻqitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Identifikatsiyalangan oʻquv maqsadi – talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalangan rejalashtirilgan oʻquv natijalarini toʻla tashxislash va oʻqitishni qayta takrorlanish imkoniyatini yaratilgan oʻquv maqsatdir. Oʻquv maqsadlari shundan aniq qoʻyilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin boʻlsin.

Integral – chambachars bogʻliq, butun, yagona, cheksiz kichik qismlarnig yigʻindisi

Interfaol mashgʻulot – taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchi oʻzaro faol ishtiroq etadigan mashgʻulot.

Informatsion jamiyat – bilimga asoslangan zamonaviy jamiyat.

Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligida qoʻyilgan muammolar, masalalarni yechishning yoʻllarini faol izlashni tashkil etish usuli, fikrlash jarayoni produktiv (unumli) xarakterga ega boʻladi.

Immitasion oʻyinlar – boʻlim, sex, korxonada tashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Immitasion oʻyinlar ssenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va obʻektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tavsilotlarni oʻz ichiga oladi.

Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga koʻra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan oʻzaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individual oʻqitish – bu oʻquv jarayonini tashkil etishning shakli boʻlib, bunda pedagog va talaba yakkama-yakka oʻzaro taʼsir koʻrsatadilar, talaba oʻquv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k) yordamida uzluksiz mustaqil taʼlim oladi.

Individuallashtirilgan oʻqitish texnologiyasi – bunda oʻquv jarayonini pedagogik texnologiyasi tamoyilari asosida tashkil etadi va unda individual

yondashish va o'qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi. Kabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va tamoyillarga ko'ra o'qitish jarayon amalga oshiriladi.

Individuallashtirilgan o'qitish – bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy Boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi.

Intuitsiya – egalagan bilim, ko'nikma, malakaga tayangan xolda muayan jarayonini, holatni o'zgarish, rivojlanishi yo'larni xis etish.

Ishlab chiqarish amaliyoti – kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi, egalash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni mustaxkamlashiga xizmat qiladi.

Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o'qitishdir.

Kontekst – aloqa, bog'lanish, o'qitish jarayoning mutaxassisning kasbiy faoliyati bilan bog'langan xolda amalga oshirish.

Kredit – (European Credit Transfer System (ECTC) sinovdan o'tdi (zachyot), ma'lum bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqida guvohnoma ma'nosini anglatadi.

Qo'llash – o'rganilgan o'quv materialni aniq sharitlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi.

Ko'nikma – biror shaxsning muayyan faoliyatini muvofaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi.

Malaka – ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda bajariladigan ko'nikmalar.

Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikasion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

Metodologiya – metod va logiya iboralarining birligida bilim faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi.

Modul – Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o‘rganish orqali individual yoki guruh mashg‘ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo‘lish uchun mo‘ljallangan alohida o‘rgatuvchi paket (to‘plam)

Modulli o‘qitish – xalqaro tushuncha – modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lotincha moduluC), uning bitta ma‘nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chabarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi.

Amaliy o‘yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma‘lum bir o‘ziga xos operatsiyalarni: - masalalar yechish, ma‘lum bir usulni o‘zlashtirishga yordam beradilar.

Original fikrlash – noanaviy va samarali, hatto xayratga keltirish darajasigacha fikr yuritish.

Pedagogik o‘yin – bu faoliyat turi vaziyatlar sharoitida, o‘qitishni aniq maqsad qilib qo‘ygan jamoatchilik tajribasini qayta tiklash va o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini boshqarishni takomillashtiradi va pedagogik natijalarni ro‘yobga chiqaradi.

Pedagogik taksonomiya – (grek so‘zlari «taxis» - tartib bilan joylashtirish va «nomos» - qonundan kelib chiqqan) – o‘quv maqsadlarining toifalarga va ketma-ketlik darajalarga tasniflab, o‘quv fani bo‘yicha maqsadlarining aniq tizimni tuzish.

Pedagogika – yunoncha so‘z bo‘lib, «bolani yetaklash» ma‘nosini bildiradi.

Pedagogik texnologiya – bu ta‘lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo‘yadigan texnikaviy va insoniy manbalarni va ularning o‘zaro bog‘lig‘ini inobatga olib, butun o‘qitish va bilim olish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli yondoshuvidir.

Pedagogik monitoring – o‘quv jarayonini uzluksiz kuzatish va uni boshqarish.

Pedagogik-texnologik xarita – pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o‘qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biridir.

Produktiv o‘zlashtirish darajasi – bunda talaba olgan bilimining noan‘anaviy masalalarni yechishda mustaqil fikr yuritishi talab qilinadi.

Psixodrama va sotsiodrama – bu rolli o‘yinga, ishbilarmonlik teatriga o‘xshagan bo‘lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday

masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishining ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Reproduktiv (maxsulsiz) o'zlashtirish darajasi – talabadan oldin o'rganilgan tartib asosida mustaqil ish bajarish talab etiladi. Undan oldingi yodlangan algoritmlar, qoidalarni eslash talab etiladi.

Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishidagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi.

Sintez – elementlardan, bo'limlardan yangilikka ega bo'lgan yaxlitlikni yaratish ko'nikmasini anglatadi.

Credits-host – universitetida (qabul qilgan universitet) muvofaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Post-universitetda (talabani boshqa OTMga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

Sikl – ma'lum ketma-ketlikda o'zgarishga duchor qilingan ob'ekt yana o'zining dastlabki holatiga qaytadigan, davriy takrorlanadigan hodisalar tizimidagi jarayonlar majmui

Sivilizatsiya – madaniyatni, jamoaviy rivojining moddiy va ma'naviy darajasi, bosqichi.

Tabaqalashtirilgan o'qitish – o'quv jarayonini tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib.maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

Tashxis testlar – pedagogik jarayonida muntazam ravishda talabalar tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish holatini baholash uchun qo'llanadigan testlar.

Tahlil – bu toifa o'rganilgan o'quv material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini anglatadi.

Texnologiya – yunoncha so'z – «texno» - san'at va «logos» - o'rganish. Materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berishi va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır.

Tushunish – uning ko‘rsatkichi, o‘quv materialni bir shakldan boshqa shaklga o‘tkazilishi bo‘lishi mumkin materialni intepretatsiyasi yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlar bashorat qilish.

Tushuntirish - ko‘rgazmali yondashuv – o‘qituvchilar mashg‘ulot davomida o‘quv uslubiy adabiyotlardagi ko‘rgazmali vositalar orqali «tayyor» holda bilim oladilar.

Transferancy – bu ECTS (European Credit Transfer System) tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotnin to‘siqsiz kirishiga shart –sharoit yaratish.

O‘qitish metodlari – o‘qitish maqsadga erishish uchun, ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Qobiliyat – kishiga tabiatdan berilgan iqtidor, layoqat

O‘qish – ta’lim oluvchilarning bilim, malaka, ko‘nikmani o‘zlashtirishga, psixologik jarayonlarni va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, maxsus tashkil qilingan faol mustaqil faoliyati;

O‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirigan, ta’lim beruvchini ta’lim oluvchi bilan tartibli o‘zaro harakati. O‘qitish, ikkita bir-biri bilan uzluksiz bog‘liq hodisalardan iborat:dars berish va o‘qishdan

O‘rgatuvchi modul – o‘qitishning muayyan modul birligi bo‘yicha mazmuni, talabaning o‘quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo‘yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

Bajarilgan testlar kaliti

I-MODUL

1.1.- 1 – D; 2 – A; 3 – B; 4 – B; 5 – C; 6 – A; 7 – C; 8 – A; 9 – A; 10 – D.

1.2.- 1 – D; 2 – D; 3 – D; 4 – C; 5 – A; 6 – D; 7 – B; 8 – D; 9 – D; 10 – C.

II-MODUL.

2.1.- 1 – B; 2 – C; 3 – A; 4 – B; 5 – B; 6 – B; 7 – D; 8 – B; 9 – C; 10 – C.

2.3.- 1 – D; 2 – C; 3 – B; 4 – C; 5 – A; 6 – C; 7 – A; 8 – C; 9 – B; 10 – D.

2.3.- 1 – B; 2 – D; 3 – C; 4 – D; 5 – D; 6 – C; 7 – B; 8 – D; 9 – D; 10 – C.

2.4. - 1 – B; 2 – D; 3 – C; 4 – D; 5 – D; 6 – C; 7 – B; 8 – D; 9 – D; 10 – C.

III-MODUL.

3.1 - 1 – A; 2 – A; 3 – C; 4 – C; 5 – B; 6 – C; 7 – A; 8 – B; 9 – D; 10 – D.

3.2 - 1 – B; 2 – C; 3 – A; 4 – B; 5 – A; 6 – C; 7 – A; 8 – C; 9 – A; 10 – D.

3.3 - 1 – D; 2 – A; 3 – C; 4 – A; 5 – B; 6 – D; 7 – A; 8 – B; 9 – D; 10 – A.

IV-MODUL.

4.1- 1 – C; 2 – B; 3 – D; 4 – A; 5 – A; 6 – B; 7 – D; 8 – C; 9 – A; 10 – A.

4.2- 1 – B; 2 – A; 3 – B; 4 – B; 5 – C; 6 – D; 7 – B; 8 – C; 9 – C; 10 – C.

4.3- 1 – C; 2 – A; 3 – A; 4 – A; 5 – A; 6 – B; 7 – A; 8 – A; 9 – A; 10 – A.

4.4- 1 – D; 2 – B; 3 – D; 4 – D; 5 – B; 6 – D; 7 – A; 8 – C; 9 – A; 10 – C.

4.5- 1 – B; 2 – C; 3 – D; 4 – D; 5 – A; 6 – C; 7 – D; 8 – A; 9 – C; 10 – C.

V-MODUL.

5.1 - 1 – C; 2 – D; 3 – C; 4 – A; 5 – B; 6 – C; 7 – C; 8 – A; 9 – D; 10 – A.

5.2 - 1 – B; 2 – D; 3 – C; 4 – D; 5 – C; 6 – A; 7 – B; 8 – B; 9 – C; 10 – A.

5.3 - 1 – D; 2 – A; 3 – D; 4 – A; 5 – B; 6 – B; 7 – C; 8 – A; 9 – A; 10 – B.

5.4 - 1 – D; 2 – A; 3 – C; 4 – D; 5 – B; 6 – A; 7 – B; 8 – A; 9 – C; 10 – A.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I - MODUL. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING NAZARIY - METODOLOGIK ASOSLARI	6
1.1 Pedagogik texnologiyaning shakllanish sharoitlari.....	6
1.2 Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish	36
II – MODUL. ZAMONAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI	65
2.1. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari, muammoli o‘qitish.	65
2.2. Keys – stadi metodining rivojlanish turlari	83
2.3. Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalari	100
2.4. Kompyuterli o‘qitish va ishbilarmonlik o‘yinlar texnologiyalari.	110
III MODUL. MASOFAVIY VA KREDIT O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI	1234
3.1. Modulli o‘qitish texnologiyasi.	124
3.2. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi va tamoyillari	164
3.3. O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi	177
IV – MODUL. PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	192
4.1. Pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llari	192
4.2 Pedagogik texnika - pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida.....	200
4.3. Pedagogik hamkorlik mahorati	214
4.4 Pedagogik ta‘sir ko‘rsatish mahorati.....	228
4.5. Nizoli vaziyatlarda pedagogik muomala texnologiyasi	243
V-MODUL. O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA PEDAGOGIK MAHORAT	270
5.1. Pedagogning darsga tayyorlanishidagi mahorati.	270
5.2. O‘quv - tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishda tarbiyachi mahorati	284
5.3. O‘quv - tarbiya ishlarini boshqarishda o‘qituvchining notiqlik mahorati ..	298
5.4. Tarbiyaviy ish jarayonida tarbiyachining o‘z ruhiy holatini tartibga solish mahorati.	307
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	321
ILOVALAR	325

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	4
МОДУЛЬ 1. НАУЧНО – МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ	6
1.1. Условия формирования педагогической технологии.....	6
1.2. Проектирование педагогических технологий.....	36
МОДУЛЬ II. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ	65
2.1. Технологии обучения, направленные на личность. проблемное обучение.....	65
2.2. Виды развития метода кейс – стади.....	83
2.3. Дифференцированные и индивидуальные технологии обучения.....	100
2.4. Компьютерное обучение и технологии деловых игр.....	110
МОДУЛЬ III. ПРИВИЛЕГИИ ДИСТАНЦИОННОЙ И КРЕДИТНОЙ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ	124
3.1. Технология модульного обучения.....	124
3.2. Дидактическая система и принципы дистанционного обучения.....	164
3.3. Кредитная технология организации учебного процесса.....	177
МОДУЛЬ IV. НАУЧНО – МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА	192
4.1. Пути формирования педагогического мастерства.....	192
4.2. Педагогическая техника – как составная часть педагогического мастерства.....	200
4.3. Мастерство педагогического сотрудничества.....	214
4.4. Мастерство педагогического влияния.....	228
4.5. Технология педагогического общения при проблемных ситуациях.....	243
МОДУЛЬ V. ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВО В УПРАВЛЕНИИ УЧЕБНО – ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	270
5.1. Мастерство педагога при подготовке к урокам.....	270
5.2. Мастерство воспитателя в повышении эффективности учебно – воспитательной работы.....	284
5.3. Лекторское мастерство преподавателя в управлении учебно – воспитательной работы.....	298
5.4. Мастерство воспитателя, в уравнивании своего психологического состояния, в процессе воспитательной работы.....	307
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА	321
ПРИЛОЖЕНИЯ	325

CONTENTS

INTRODUCTION	4
I- MODULE. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGIKAL TECHNOLOGY.....	6
1.1 Pedagogikal technology creation conditions.....	6
1.2 Design of pedagogikal technologies.....	36
II - MODULE. MODERN TEACHING TECHNOLOGIES.....	65
2.1. Personally-oriented teaching technologies, problem-based learning.....	65
2.2. Case-study methods and its types of development.....	83
2.3. Distinguished and individualized learning technology.....	100
2.4. Computer training and business games technology.....	110
III - MODULE. ADVANTAGES OF DISTANCE AND CREDIT TEACHING TECHNOLOGIES.....	124
3.1. Modular training technology.	124
3.2. Didactic systems and principles of distance learning.....	164
3.3. Credit technology of educational process.....	177
IV - MODULE. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGIKAL SKILLS.....	192
4.1. Methods of formation of pedagogikal skills.....	192
4.2 Pedagogikal technique - as a component of pedagogikal skills.....	200
4.3.Skill of pedagogikal cooperation	214
4.4 Pedagogikal impact skills.....	228
4.5.Technology of pedagogikal treatment in underdeveloped situations.....	243
V MODULE. PEDAGOGIKAL SKILLS IN MANAGEMENT OF EDUCATIONAL PROCESS.....	270
5.1. Skillfulness of the teacher to prepare for the lesson.....	270
5.2. Educational skill in improving the effectiveness of educational – teaching work	284
5.3. Speaking skills of the teacher - management in educational work.....	298
5.4. The skill of regulating the mental state of the educator during educational work.....	307
LITERATURE USED.....	321
APPLICATIONS.....	325

Avliyakov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N.

T A` L I M T E X N O L O G I Y A L A R I

Oliy o'qiy yurtlari talabalari uchun darslik

Muharrir: *Sh. Aliyeva*

Tex. Muharrir: F. Tishabayev

Mussavir: D. Adizov

Musahhiha: N Hasanova

Sahifalovchi: N. Rahmatullayeva

Litsenziya raqami AI M 163. 09.11.2008. Bosishga 2018-yil 18-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofset qog'oz. Tayms garnituras. Shartli bosma tabog'i 13,26. Nashr tabog'i 16,65. Adadi 200 nusxa. Shartnoma № 88-2017. Buvurtma №756. Bahosi kelishilgan narxda.

«Fan va texnologiya» nashriyoti, 100066. Toshkent sh. Olmazor ko'chasi, 171-uy. Telefon: 245-57-63, 245-61-61.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi. 100066, Toshkent shahri, Olmazor ko'chasi, 171-uy.

AVLIYAKULOV NIZOM XAYATOVICH - texnika fanlari doktori, professor. Avliyakov N. X. tomonidan qator innovatsion pedagogik ilmiy yo'nalishlar shakllantirildi, 150-dan ortiq ilmiy ishlar, shu jumladan, darslik, 8-ta o'quv qo'llanma va 8-ta monografiya yaratildi.

2001 yilda respublikamizda ilk bor pedagogik texnologiyalar fani bo'yicha 2-ta o'quv qo'llanma, 2012 yilda darslik yaratdi.

2007 yilda Rossiya, Xitoy, Ukraina, Belarus, Qozog'iston olimlari bilan Rossiyada chop etilgan «Теория и практика профессионально-педагогического образования» nomli monografiyaga hammualliflik qildi.



AXMETJANOV MANSUR MAXMUDOVICH – pedagogika fanlari nomzodi, professor. Buxoro muhandislik – texnologiya institutining Ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, o'rindoshlik sifatida «Kasbiy ta'lim» kafedrasida professori, 160 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, 6 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya va pedagogika fanidan o'qitish texnologiyasi bo'yicha majmua muallifi hamda rahbarligida 1 ta fan nomzodi chiqarilgan. Talabalarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish yo'nalishida ilmiy ishlar olib bormoqda.



MAMARAJAB TOJIEV – Pedagogika fanlari doktori, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining muxbir a'zosi. 5 ta monografiya, 2 ta darslik, 3 ta o'quv, 21 ta o'quv-ilmiy-uslubiy qo'llanmalar muallifi. 100 dan ortiq nufuzli xorijiy va respublikadagi ilmiy jurnal va anjuman materiallarida maqolalari chop etilgan.

M.Tojiev o'zining ilmiy maktabiga ega bo'lib, 20 yaqin shogirdlarning ustozidir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazining laboratoriya mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.



MUSAYEVA NODIRA NIZOMOVNA - pedagogika fanlar nomzodi, Buxoro-muhandislik texnologiya institutining dotsenti, 40 dan ortiq ilmiy ishlar, shu jumladan darslik, 3 ta o'quv qo'llanma va 3 ta monografiya muallifi. YuNESKO kontseptsiyasi asosida respublikada birinchi bo'lib kasb-hunar kollejlari kasbga o'rgatish modullarini ishlab chiqish va pedagogik taksonomiyasiga asoslangan uzluksiz kasbiy ta'limda o'qitish uzviyligi texnologiyalarini yaratdi.

